c. Yakka shaxsdan ko'ra guruh bo'lib qaror qabul qilsangiz.

d. Tanlovlaringizdan hech biriga yetarli pulingiz bo'lmasa.

3. Jonda yarim stavkali ishga ketguncha 2 soat vaqti bor. U matematika imtihoni va uxlab olish o'rtasida qaror qabul qilyapti. Jon uxlab olishni tanlasa, uning qarorining muqobil qiymati ...

a. Uning dam olishi.

b. Uning matematika imtihonida to'plagan natijasi.

c. Yarim stavkali ishdan maosh.

d. Yuqoridagilarning barchasi.

4. Qaror qabul qilish jarayoninig birinchi bosqichi o'z ichiga oladi:

a. Muammoni aniqlash

b. Maqsad qo'yish

c. Imkoniyatlarni aniqlash


d. Muqobil baholash

Akademik aloqlarni o'rnatish

5. **Insho.** Yaqinda qilgan qaroringiz haqida bir varaqli insho yozing. Qaror qabul qilish bosqichlaridan qanday foydalanganingiz yoki foydalanmaganligingizni tasvirlang. Qaroringiz natijasini muhokama qiling.

6. **Iqtisodiyot.** Korxonada tomonidan qabul qilingan qaror haqidagi maqolani toping va o'qing. Unda qaroringiz muqobil qiymati qanday bo'ladi deb o'ylashingizni tasvirlang.

XXI asr mahoratlari



Axborot savodxonligi

Sizning qobiliyatlaringiz siz to'plagan barcha tajribalardan ko'ra ko'proq. Maqsad businessni yoki o'z natijalarinigizni yaxshilashdan iborat. Siz qarorni to'g'ri axborotlarga asoslanib qilishingiz kerak. Izlanish qobiliyati qaror qabul qilishni yaxshilash uchun kerak.

Tadqiqot bu tizimlashtirish, fakt va tamoyillarini ob'ektiv o'rganish.

Tadqiqot jarayoni muammo yoki savol bilan boshlanadi, natijasi mumkin bo'lgan javob bilan uzoq muddatli izlanishga asos bo'la oladi.

Quyida tadqiqotni amalga oshirish bosqichlari keltirilgan.

Savol tuzing. Muammoingiz nima yoki qanday masalani yechishga harakat qilayapsiz? Imkon qadar savol o'ziga hos va muhim shaxsiy yoki biznes masalasiga aloqador bo'lishi kerak.

Savolga oid bo'lgan ma'lumotlarni yig'ing va qayta ko'rib chiqing. Avvalo boshqalar bu muammoni o'rganib chiqqanmi yoki natijalardan xabardor bo'lganligini tekshiring. Bu bosqich kitoblar, jurnalar va hujjatlarni o'z ichiga olgan diqqat bilan qidiruv ma'lumotini o'z ichiga oladi.

Fikrni factdan ajratish. Samarali tadqiqot obektiv manbaga asoslanadi. Boshqalarni fikri savolga e'tiborni qaratish uchun qiziqarli fikrlar bilan ta'minlangan bo'lishi mumkin, lekin sizning savolingizga javob sifatida olib bo'lmaydi. Ma'lumotlar manbalari ishonarli va taqdim etilgan ma'lumotlar faktga asoslanganligini tekshiring.

Gipotezani taklif qilish. Gipoteza bu sizning o'rgangan savolingizga javobni oldindan ko'ra bilish. Gipoteza siz to'plagan ma'lumotlar, jumladan ma'lumotlaringiz, tajriba va qarashlarga asoslanadi.

Manbalarni yig'ib gipotezani tekshirish.

Izlanuvchilar diqqat bilan savol va gipotezani oldindan belgilab qo'yadi. Umumiy metodlar manbani yig'ish uchun kuzatuvlar qilish yoki tajribalar o'tkazishdan iborat bo'ladi.

Ma'lumotlarni tahlil qilish.

Manbalar yig'ilgandan keyin ular tashkil-



lashtiriladi va statistik jarayonlarni o'z ichiga olgan holda tahlil qilinadi. Yaxshi bajarilgan izlanish gipotezani tasdiqlash yoki inkor qilishga asos bo'la oladi.

Natijalar xaqida ma'lumot berish.

Muhimi shundaki, tadqiqotchilar hujjatlarni yig'ishadi va o'zlarining natijalarini taqdim qiladi. Ma'ruza qilish ham boshqalarga tushunib olishiga imkon yaratadi. Shuningdek bu siz tadqiqotni amalga oshirganingizda maqsadli yondoshganingizni ko'rsatadi.

Tadqiqotni amaliyotga tadbiiq etish.

Siz savolga javob olish yoki muommoni hal qilish uchun o'z tadqiqot jarayonni olib borgansiz. Siz o'rganganlaringizni hayotga tadbiiq qilishingiz kerak va siz o'rgangan narsa ahamiyatga ega ekanligini tekshirib ko'rishingiz kerak. Natijalar qanday bo'lishiga qaramay siz tadqiqot amalga oshirishni davom ettirasiz va boshqalarni tadqiqotini o'rganib chiqasiz. Bular sizga kelgusida to'g'ri qaror chiqarishingda va erkinlik, ishonch kabi qobiliyatlaringizda yordam beradi.

Tanqidiy fikrlang.

1. Siz nima uchun o'z sayi harakatlaringizni faktlarga asosan emas balki fikrlarga asosan amalga oshirishni oldini olishni harakat qilishingiz kerak.

2. Nima deb o'ylaysiz, yangi ma'lumotlarni to'plash o'rniga bor ma'lumotni to'plash va uni ko'rib chiqish orqali ba'zi savollarga javob bersa bo'ladimi? Nega?

1-3 Iqtisodiy tizimlar



Maqsadlar	Kalit so'zlar	Real hayotga nazar
1 Uchta iqtisodiy masalani aniqlash	Iqtisodiy tizim 19	Jiang Liang Xitoy yangi kun rezidenti, lekin u Yangtze qizlog'ida fermerlik sohasida katta bo'lish qanday bo'lishni biladi.
2 Asosiy iqtisodiy tarmoq ko'rinishlarini aniqlash	Nazorat iqtisodiyoti 19 Bozor iqtisodiyoti 19 An'anaviy iqtisodiyot 20 Aralash iqtisodiyot 20	"Fermerlar haliyam asrlar davomida foydalanib kelgan asboblardan foydalanib yer bilan ishlaydi, hokimiyat esa nima ekishlari mumkin-u nima mumkin emasligini aytib turadi" - tushuntiradi Liang hamkasblariga.
3 Qoshma Shtatlar iqtisodiy tizimini tushuntirish	Kapitalizm 21	Herlinda so'radi "oilangdagilar sening Gangkonda yashashing va ko'p millatli kompaniyada ishlashing haqida nima deb o'ylaydi?" Liang kuladi va javob beradi. "Ota-onam kompaniyamiz nechta kompyuter ishlab chiqarish va sotuv narxini belgilanishini aytganimda hayratlangandi. Liang 2ta bir-biridan juda farq qiladigan iqtisodiy tizimni tajribadan o'tkazgan qaysi iqtisodiy tizim sizga ko'proq tanish?"

Uch iqtisodiy masala

Dunyodagi har bir mamlakat asosiy iqtisodiy muammo bilan shug'ullanish kerak. Hech bir davlat cheklanmagan resurslarga ega emas va har bir mamlakatda oziq-ovqat, boshpana, ta'lim va sog'liqni saqlash uchun muhim asosiy ehtiyojlarga ega fuqarolar bor.

Foydali resurslar ehtiyoj va xoxishlarni qondirishda qanday foydalanilishini aniqlash uchun, har bir mamlakat 3 iqtisodiy masalalarga javob berishi kerak.

1. Nima mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarish kerak?
2. Qanday mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarish kerak?
3. Ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlar bilan qanday ehtiyoj va xohishlarni qondirish kerak?

Bu savollarga qay tarzda javob berilishi shu mamlakatda qanday iqtisodiy tizim mavjud ekanligini ko'rsatadi.

Nima ishlab chiqarish kerak?

Har bir inson turli xil hunar va qobiliyatlarga ega bo'lgani kabi har bir mamlakat ham turli turdagi va miqdordagi resurslarga ega. Ba'zilar tuproqqa boy va muntazam yomg'irli bo'lib ular katta ovqat zahirasi bilan ta'minlaydi. Yana boshqalarida esa cho'l mintaqasi yoki dehqonchilikni qiyinlashtiruvchi sovuq va uzoq qish hukm sura-





di. Ba'zi mamlakatlar ko'p neft, ko'mir va boshqa energiya resurslari zahiralari ega bo'lgan bir paytda, ayrim mamlakatlar faqatgina cheklangan zahiraga ega.

Mamlakatning nima ishlab chiqara olishini aniqlashda, undagi mavjud resurslar muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakat boshqa mamlakatlardagi o'ziga kerak bo'lgan resurslarni qo'lga kiritish uchun o'zining ba'zi resurslarini o'sha mamlakatlar bilan ayrboshlaydi.

Hozirgi kunda mamlakatlar mahsulotlarning turi va miqdori bilan, hamda ular o'zlarining muhim xoxish va ehtiyojlarini belgilashida farq qiladi. Bir mamlakat yo'llar va ko'priklar qursa, boshqa mamlakat esa turli xil iste'mol tavarlarini ishlab chiqarishni ko'zlashi mumkin. Ba'zi iqtisodchilar qishloq xo'jaligini rivojlantirishni ko'zlasa, boshqalari har harbiy sohasini quradi. Ba'zi millatlarda namunali kollejlilar va universitetlar bo'lsa, qolganlarida esa faqatgina maktablar va ko'p tajribasiz ishchilar bor.

Resurslardan qanday foydalanish va nima ishlab chiqarish hech qachon oson qaror bo'lmagan. Agar mamlakat bir sohaga yoki bir guruh odamlarga juda ko'p

resurslarni sarflasa, boshqa ehtiyojlarni qondirish uchun resurs yetmaydi.

Agar ko'p resurslardan istemol tovarlarini ishlatish uchun foydalanilsa, mamlakatning yo'llar, energiya va suv tizimlari infrastrukturasiga yetarlicha e'tibor berilmay qolishi mumkin.

Qanday ishlab chiqarish

Mamlakatlar talab etiladigan mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun resurslarni qanday eng yaxshi yo'l bilan ishlashini belgilashi kerak. Korxonalar rivojlanishi bilan, qishloq xo'jaligi va tog' ishi kabi an'anaviy ishchi kuchidan foydalanib amalga oshiriladigan ishlar endilikda samaraliroq bo'lgan asbob-uskunalaridan foydalanib amalga oshirilmoqda.

Ishchi tanqisligi AQSHni o'zgartirdi. Bugunning murakkab iqtisodiyoti malakali mutaxassislarini iqtisodiyot menedjerlarini kompyuter mutaxassislarini va boshqa yuqori darajadagi mutaxassislarini talab qilmoqda.

Har bir mamlakat resurslarni ishlatish to'g'risida qaror qabul qiladi.

Qanday talab va ehtiyojlar qondiriladi

Qanday talab yoki ehtiyojni qondirish, kam yoki ko'p pulni tejab qolish sizga bog'liq bo'ladi. Pulingiz qanchalik ko'p bo'lsa, shuncha ko'p talabni qondirishingiz mumkin.

Tekshirib ko'ring ✓

Odamlar o'z ehtiyojlarini qanday qoniqtiradilar?

Maqsad 2

Asosiy iqtisodiy tar-
moq ko'rishlarini
aniqlash

Iqtisodiyot tizimlarining turlari

Iqtisodiyot tizimi deganda har bir mamlakat o'zi uchun 3 iqtisodiy masalaga javob olish uchun tutadigan yo'l tushuniladi. Mamlakatlar xar xil yo'llar bilan qaror chiqarar ekan, bu yerda xam 3 asosiy tizimi bor.

Hukmron iqtisodiyot

Hukmron iqtisodiyotda iqtisodiy resurslarning barchasi davlat tomonidan boshqariladi va egalik qilinadi. Bu yerda davlatning o'zi nima ishlab chiqarishi qanday ishlab chiqarish kerakligini o'zi hal qiladi va resurslarni davlatning o'zi qancha ishlatish kerakligini belgilab beradi.

Hukmron iqtisodiyotda mamlakat eng rivojlangan harbiy sohaga ega bo'lishi yoki jahon darajasida ta'lim sifatiga ega bo'lishi mumkin. Ular resurslarni yangi texnologiyalar yoki kam ta'minlangan oilalar uchun uy qurib taqsimlab berishi mumkin. Bu iqtisodiy tizim odamlar bajaradigan ishni olishi mumkin bo'lgan ta'lim hamda qayerda va qanday yashashini aniqlaydi.

Bozor iqtisodiyoti

Bu iqtisodiy tizimida resurslar shu mamlakatning axolisi tomonidan boshqariladi va egalik qilinadi. 3 asosiy iqtisodiy masalaga aholining o'zlari javob beradilar. Bozor bu tovar va xizmatlar almashinadigan joy. U supermarket, biznes idorasi, hattoki buyum bozorlarini o'z ichiga oladi

Istemolchi va ishlab chiqaruvchining

o'zlari o'zlarining qiziqishlariga qarab qaror chiqaradilar. ishlab chiqaruvchilar qanday maxsulot yoki servis ko'rsatilishini o'zlari chiqargan qarorga qarab yo'l tutadilar. Agar ular taklif qilayotgan mahsulot istemolchi xoxlaganidek bo'lsa ular foydaga kiradilar va ularning o'zlari ushbu 3 savolga javob berishadi.



**GURUH
BOLIB
ISHLANG**

Sizning guruhingiz iqtisodiy tizimni tanlagan yangi mamlakat fuqarolari. Siz axoliga eng yuksak foyda keltiradigan iqtisodni o'rnatmoqchimisiz? Uchta iqtisodiy masalani hal qilish uchun mamlakat haqida qanday ma'lumotga ega bo'lishingiz kerak?

An'anaviy iqtisodiyot

Murakkab iqtisodiyot tizimi tashkil topmasdan oldin, an'anaviy va odatga asoslangan oddiy iqtisodiyot tizimi amal qilgan. Bu tizim an'anaviy iqtisodiyotda tovar va xizmatlar ular avval ishlab chiqarilganidek ishlab chiqariladi. Bu iqtisodiy tizim hali yaxshi rivo-



lanmagan va jahon darajasiga chiqa olmagan mamlakatlar tomonidan qo'llaniladi. Bu mamlakatda 3 iqtisodiy savolga an'ananing o'zi javob qaytaradi. Tovarlar ishlab chiqarish yo'li avloddan avlodga o'tib keladigan usulda amalga oshiriladi. Bolalarga ajdodlari tomonidan foydalanilgan ishlab chiqarish usullari o'rgatiladi. Ular ishlatilishi mumkin bo'lgan tabiiy resurslardan va jamiyatda o'zlashtirilishi mumkin bo'lgan asbob-uskunalardan foydalanadilar. Ular ko'proq o'zlari ishlab chiqaradigan narsalarni iste'mol qiladilar va o'zlariga yaqin davlatlar bilan savdo-sotiq qiladilar. An'anaviy iqtisodiyot insonlarning oziq-ovqat, ki-yim-kechak va boshpana kabi asosiy talablarni qondirishga asoslanadi.

Aralash iqtisodiyot tizimi

Ko'p mamlaklar o'zlariga aynan shu yo'lni tanlaydilar. Ya'ni bunda Hukmron iqtisodiyot va bozor iqtisodiyotining elementlari bo'ladi. Oldingi sovet tuzumiga qaraydigan bo'lsak 15 mamlakat 1990 – yilning boshlarida mustaqil bo'lib ajralib chiqdilar. Sovet tuzumi 70 yildan ko'proq vaqt davomida hukmron iqtisodiyot ostida ish yuritdi. Bunda sovet sovet tuzumi mamlakatlarga reja asosida resurslarni taqsimlab berar edi. Bu esa tanlo'v va ta'minotning chegaralanishiga olib keldi. Istemolchilar non yoki bolg'a kabi asosiy mahsulotlarni topishni qiyin deb hisoblardi

Maqsad 3

Qoshma Shtatlar iqtisodiy tizimini tushuntiring

O'tgan 10 yil davomida bir necha sharqiy Yevropa mamlakatlari hukmron iqtisodiyotini qo'lladi va bir necha mamlakatlar shunday iqtisodiy yutuqga erishishdiki natijada Yevropa Ittifoqiga qo'shilish imkoniyatini qo'lga kiritishdi. 1.3 milliard Xitoy fuqorolari mamlakatning xukmron iqtisodiyotiga bo'y sunadi va davlatning o'zi resurslarni nazorat qiladi. Xitoy iqtisodiyoti iqtisodiy qarorlarning shakillanishi uchun bozor tizimining elementlarini oz ichiga oladi. Mamlakatning barcha xududlari ayniqsa okean bilan chegaradosh sharqiy shaxarlar alohida tanlov huquqiga asoslangan istemolchilarning iqtisodiyotining o'sishidan mamnunlar. Xitoy jahon darajasida tovar va xizmat ko'rsatish bo'yicha yetakchi bo'lib bormoqda. Mamlakatning rivojlanib borayotgan talim tizimi o'zlari xohlayotgan xizmatlar va maxsulotlar uchun pul ishlab topayotgan ko'plab qobiliyatli kadrlarni tayyorlaydi. Mamlakatning rivojlangan ta'lim tizimi namunali mutaxassislarni yetishtirib kelmoqda. Ko'p mamlakatlar an'anaviy iqtisodiyotini ham rivojlantiradilar. Ananaviy iqtisodiyot tizimidagi kop mamlakatlar rivojlangani sari ular aralash iqtisodiy tizimiga moslashib borishadi. Mamlakat esa maktab, kasalxona, yo'l qurilishi va boshqa sohalarda resurslarni o'zi belgilab beradi. Insonlar qanchalik yaxshi ma'lumotga ega bo'lsa, shuncha yaxshi ish o'rin va maosh bilan ta'minlanadilar va ularda istagan mahsulotni sotib olishga imkoniyat bo'ladi. Ko'p ishlab chiqaruvchilar tovarlarni chet elga sotish yoki o'sha yerning o'zida ishlab chiqarishni ma'qul ko'radilar.

AQSHning iqtisodiyot tizimi

Taasurol bilan tanishtirilganidan keyin, siz uning iqtisodiy tizimi qaysi tizimga mansub ekanini aniqlay olasizmi? Chunki bu tizimda iste'molchi va ishlab chiqaruvchining o'zi nima ishlab chiqar-

ish yoki iste'mol qilishni ularning o'zlari tanlaydilar.

AQSHning iqtisodiyot tizimi bozor iqtisodiyot tizimiga eng yaxshi misol bo'la oladi.

AQSHning yana bir iqtisodiy tizimining nomi bu "kapitalizm".

"Kapitalizm" bu – shaxsiy mulk va resurslar shaxslarning o'zlari tomonidan nazorat qilinadi.

Shaxslar istagandek maxsulot ishlab chiqaradilar o'zlaridagi mavjud resurlariga qarab iste'molchilarida ham maxsulot tanlash bo'yicha tanlov erkinligi bo'ladi. Ushbu iqtisodiy erkinlik ozini AQSH iqtisodiyoti bilan bogliq bolgan atamalarga yetaklaydi. Masalan: "erkin ishlab chiqarish yoki shaxsiy ishlab chiqarish". Istemolchilarning tanlovlari va qarorlari AQSH iqtisodiyotning rivojlanish uchun juda muhim.

AQSHning iqtisodiyot tizimi 4 tamoyilga bog'liqdir shaxsiy mulk, erkin tanlov, foyda va raqobat.

Shaxsiy mulk – shaxsiy mulk degani bu siz o'zingizdagi resurslarga egalik qilasiz. AQSH iqtisodiyoti tizimi 4ta muhim tamoyilga asoslangan. Ular quydagilar: xususiy mulk, tanlash erkinligi, foyda va raqobat.

Xususiy mulk

AQSHda siz istagan narsangizga egalik qilishingiz yoki u bilan nima qilmoqchi ekanligiz to'g'risida o'zingiz qaror qabul qilasiz faqat qonunlariga rioya qilgan xolda. Siz biron nimani kashf qilsangiz, boshqa birov bu g'oyani o'zlashtirishidan himoyalangan bo'lasiz.

Tanlov erkinligi

Bu tushuncha siz iqtisodiy qarorlarni o'zingiz chiqarasiz. Biznes egalari qayerda biznes qilishni o'zlari xal qiladilar, qayerda sotish va qanday boshqarish va xokazolar. Iste'molchilar esa qayerdan xarid qilish, nima sotib olish va nimaga pul ishlatishni o'zlari xal qiladilar. Faqat, qachonki istemolchilarning qarorlari boshqalarga ziyon yetkazgan holda tanlash huquqida cheklolvar boladi.

Tekshiruv uchun savol ✓

3 ta iqtisodiy tizim o'rtasidagi farqni ayting.

Foyda

Ishlab chiqaruvchilar o'zlarining resurlarini foyda olish uchun xavfqa qoyadilar. Foyda deganda sotuvdan qolgan pulni xarajatdan ayirib tashlangandan keyin qolgan pulga aytiladi. Foyda kafolatlanmagani uchun investorlar tikkan pulini yoqotishi mumkin. Foyda qilish uchun ishlab chiqaruvchilar rejasini sinchiklab o'rganib chiqadilar.

Raqobat

Ishlab chiqaruvchilar o'zlarining tovarlarini sotishda raqobatlashadilar. Bunda iste'molchilarda yetarli tanlov bo'ladi va o'zlari ishlatadigan va qondira oladigan va ishonadigan maxsulotni iste'molchining o'zi biladi. Ishlab chiqaruvchilar o'zlarining maxsulotlarini yaxshilashga va narxni nazorat qilishga urunadilar. Agar iste'molchiga bu tovar yoqmasa boshqa ishlab chiqaruvchidan qidiradilar. Raqobat maxsulotni yaxshil anishiga narxni past darajada ushlab turishga va hizmat sifati oshishiga yordam beradi.

1-3 Tahlil

Muxim tushunchalar

to'g'ri javobni aniqlang.

1. Quyidagilardan qaysi biri iqtisodiy ishlab chiqarishga kiradi ?

- a. Kartoshka o'rniga boshqni kopaytirish
- b. Odamlarning ma'lum ishlarni bajarishlarini talab qilish
- c. Ehtiyoj maxsulotlarini kamroq va ishlab chiqarish ashyolarini ko'proq ishlab chiqarish
- d. Tabiat boyliklarini boshqa davlatlarga sotish

2. Qaysi iqtisodiy tizimda davlat roli katta ?

- a. Aralash
- b. Ananaviy
- c. Bozor
- d. Guruh

3. Erkin ishlab chiqarishda tavakkal qilish va investorlarning ko'plab sarmoya kiritishining sababi bu.....

- a. Foyda olasiz
- b. Mijoz qoniqishni xoxlaydi
- c. Yangi maxsulotni tarqating
- d. Davlat talablariga javob bering

Akademik aloqalar qiling

4. Tadqiqot qilish 10 davlatdan bittasini tanlang mamlakatni tadqiqot qiling, shu kundagi iqtisodiy tizimini o'rganib xisobot yozing. O'tgan 100 yil ichida uning iqtisodiy tizimi xaqida ma'lumotingizga qo'shing

Botsvana	Gon Kong
Chili	Qozogiston
Kosta Rika	Latviya
Germaniya	Singapur
Gretsiya	Zimbabve

Yozish

Oddiy maktab o'quvchisi xayotini ifodalavchi jurnal tuting. O'rnidan turgandan to o'rniga yetguncha bo'lgan xodisalarni, ovqat, kiyim, maktabga qatnashi faoliyatlarini ikkinchi jurnalga ananaviy iqtisodiy xayot bn yashovchining yoshi kunini yozing. Jurnallardagi solishtring va qaysi tipdagi iqtisodiy xayot kundalik xayotni qamraydi.

1-4 Talab va taklif



Maqsadlar

1. Talab va taklifni ogʻzaki va grafiklar yordamida tushuntiring
2. Talab va taklif maqsulotlar va xizmatlar narxiga qanday tasir etadi.

Kalit soʻzlar

- Istemolchi 23
Ishlab chiqaruvchilar 23
Talab 24
Taklif 24
Bozor narxi 26

Real hayotga nazar tashlang

Djodi va Denis ikkalasi italiya ovqatlarini hush koʻrishadi. Ular yashaydigan shaxarda ikkita italyan restarani bor restaran italiya va mamma's pizzeriya. Deni va jodi ikkalasi ham mablagʻlari cheklangan. Ular pullarini qanday sarflashni oʻylaydilar. "mamma's pizzeriya" restorani mazali ovqatlari bilan mashxur. va xizmat korsatishi bilan mashxur. Italiya restsrani cheklangan menyuga ega boʻlib, pitsa pasta salat va sendvichlari bor. Odatda bu restaranda odam koʻp boʻladi va xizmat koʻrsatish sekin. Mamma's pizzeriya shaxardagi eng mashxur pitsa bilan mashxur boʻlgani uchun Italiya restaranidan narxlari baland. Agar biz Jodi va Denis bilan ovqatlangani borsak qaysi restoranni tanlaymiz.

Bozor iqtisodiyotida ishtirok etish

Bozor iqtisodiyotida sotuvchi va isteʼmolchilar bozor sharoyitini qaror qabul qiladilar. Sotib olish qarorini isteʼmolchidan, ishlab chiqaruvchidan yoki mamlakat tomonidan qaror qabul qiladi. Isteʼmolchi bu tovar yoki xizmatni sotib oluvchi shaxs. Isteʼmolchilarni shaxsiy qarorlari beqiyos oʻringa ega bozor iqtisodiyotida isteʼmolchilar kimdan sotib olish qayerdan nima sotib olish va qanday narxda kabi sovolarda oʻzlari javob topadilar.

Omadli ishlab chiqaruvchilar istak va xoxishlarini xisobga olishlari kerak. Ishlab chiqaruvchi bu tashkilotlar yaʼni isteʼmolchining ehtiyoj va talablarini oʻrganadilar. Ishlab chiqaruvchilar oʻzlarining resurslarini foyda olish uchun biron narsaga yoʻnaldiradilar foyda olish uchun. Ular qanday mahsulot va xizmatlar bozorda xaridor-gir, qanday ehtiyojlar ularni qanoatlantiradi va ozlari xoxlagan narxni belgilashlar uchun bozorni organishadi. Iqtisodiyot shunday narsaki bunda hamma ozini xar xil xohish istagini kiritgani uchun ulkan va betaraf tizimdir. Har bir istemolchi nimani, qayerdan qanday sotib olishni ozi belgilaganda xar-bir ishlab chiqaruvchi nimani ishlab chiqarish va qanday narx

belgilashni qaror qilganligi tufayli bu tizimning qanday ishlashini tushunish biroz murakkab boladi. Tizim talab va taklif iqtisodiy tomiyillarga asoslangan holatda juda ajoyib ishlaydi.

Maqsad 1

Talab va taklifni ogʻzaki va grafiklar yordamida tushuntiring




Iste'molchilarning talabini belgilash.

Qachonki iste'molchilar nima xarid qilishni tanlasalar, ular mahsulotga bo'lgan talabni aniqlaydilar. Talab – bu mahsulot yoki xizmatga bo'lgan miqdor. Ya'ni iste'molchilar to'lashga tayyor bo'lgan sonning miqdori. Biznes ham talab chizig'iga tobe boladi. Masalan shaxringizda yangi restoran ochildi ammo xizmat korsatish sekin,ovqatning sifat past,shovqin darajasi yuqori bo'lsa uyerda iste'molchilar ovqatlanishni davom ettiradilarmi?Buning ehtimoli kam.Farza qiling yangi restoran ochildi ovqati va shuningdek ajoyib va tez xizmat. Bu restoran tez orada mijozlar bilan gavjum bo'ladi.

Ishlab chiqaruvchining taklifi.


Iste'molchining xoxish – istaklarini tushunib olish mahsulotning qancha miqdorda va qanday mahsulot ishlab chiqarishni aniqlashga yordam beradi. Taklif bu mahsulot yoki xizmatning yetkazib beradigan miqdori. Agar iste'molchi mashhur yo'lni tanlasa bu ta'minotchiga foydaga kirishiga asos bo'ladi. Biznes esa bu talabni qondirishga urinadi. Biroq bu yerda katta miqdorda taklif bo'lib, kichik miqdorda talab bo'lsa, bu biznes davom etmasligi ehtimoli bor.



Grafik bilan tasvirlsh

Talab va taklif quyidagi jadvaldan ko'rib olish mumkin. Talab chizig'i narx va mahsulot bilan bo'lgan bog'liqlikni ko'rsatmoqda. Narx pasaysa, istemolchilarning soni ko'payadi va shu mahsulotni sotib olishga qurbi yetadi.

Xuddi shuningdek, Taklif chizig'i ham narx va mahsulot miqdoridagi nisbiylikni ko'rsatadi. Narx qanchalik katta bo'lsa taklif ham shunchalik kata bo'ladi. Ma'lum bir bozordagi har hil dizaynli jinsilarga bo'lgan talablar 1-2 chizmada ko'rsatilgan.



Narxni aniqlash

Nima sababdan Phoenix, Arizona mexmonxona narxlar yozdagi narxdan qishdagi narxga nisbatan arzon. Nimaga fermadan sotib olingan narxlar bozordagisidan arzon? Narxlar talab va taklif o'rtasidagi bo'g'liqlikdan va omillar sabab o'zgarib turadi.

Talabga ta'sir etuvchi omillar

Agar istemolchilar biror bir maxsulotga talabni oshirsalar o'z – o'zidan narx xam oshadi. Ko'p chilik odamlar Ta'tillarni yozdagiga nisbatan qishda o'tkazadilar, chunki ko'pchilik odamlar qishda ta'tilga jo'naydilar. Yoz mavsumida mehmonxonaga kam odam tashrif buyurganda talab darajasi taklif darajasidan past bo'ladi, shuning uchun narx xam oshadi. Qachonki iste'molchilar o'zlarining talablari qondiradigan bir nechta mahsulotlarni ko'rganda o'sha maxsulotlar uchun bo'lgan talab yuqori bo'lmaydi. Iste'molchilar bir maxsulotga bo'lgan talabni ikkinchi bir maxsulotning narxi pastroq bo'lsa shunisiga o'zgartirishga moyil bo'ladilar. Istemolchilar o'zlari xohlagan tovarni topa olmasalar boshqa bir o'rnini bosuvchi tovarni tanlaydilar xattoki narxi baland bo'lishiga qaramay. Chunki ularda boshqa tovarni tanlash imkoniyati bo'lmaydi.


Taklifni o'zgartiruvchi omillar

Maxsulotning ta'minoti xam narxga ta'sir o'tkazadi. Chunki taklif ortib ketsa, ishlab chiqaruvchilar o'zlarining maxsulotlari pastroq narx evaziga bo'lsa xam sotishga urinadilar. Raqobatchilar bu bir xil istemolchilari bo'lgan ishlab chiqaruvchilardir. Agar raqobatchilar ohsa, taklif xam oshadi. Ishlab chiqaruvchilarga narxni oshirish oson bo'lmay qoladi. Raqobat kamaysa iste'molchilarni boshqa tanlovlari bo'lmaydi. Agar sen bir shaharchada yashasang va u yerda bir supermarket bo'lsa, o'z – o'zidan u yerdagi narx baland bo'ladi, chunki u yerda raqobat yo'q. Maxsulotlarning narxlari yangi texnologiyalarga bog'liq bo'lgan holda narxlar yuqori bo'ladi chunki yangi mahsulotlarni ishlab chiqarayotgan kompaniyalarda doimiy raqobat bo'ladi. Ba'zida tabiiy kulfatlar yoki boshqa tabiiy xodisalar taklifga ta'sir o'tkazadi. Maslan gaz, suv va yoqilg'i maxsulotlari uzib qo'yilsa, narx ko'tariladi. Shuning uchun biznes vakillari taklifni chegalashga urinadilar qachonki o'sha yerda o'rnini bosuvchi boshqa maxsulot bo'lmasa.

Bozor narxini aniqlash

Talab, taklif va raqobat bozor narxini aniqlaydi. Bozor narxi degani bu talab va taklif kesishgan joyfga aytiladi. Buni 1 – 4 jadvalda ko'rish mumkin. Jadvalga qarang bu yerda talab va taklif o'zaro kesishgan. Kesishgan nuqta 65000 da va bu iste'molchilar soni demak shuncha odam shu maxsulotni taxminan 110\$ narxda sotib olishga tayyordirlar.

Dizaynli jinsilarning bozor narxi



Tekshiruv uchun savol ✓

Xilma xillikning ijtimoiy, shaxsiy va tashkiliy foydali jihatlarini aniqlang

1-4 tahlili

Kalit tushunchalar

Eng yaxshi javobni aniqlang.

1. To'g'ri yoki noto'g'ri. Yakka tartibdagilar va tashkilotlar ikkalasi ham ishlab chiqaruvchi bo'la oladi.

2. To'g'ri yoki noto'g'ri. Taklif – iste'molchi biror ma'lum narxda sotib olishni hojlagan mahsulotning miqdori.

3. Raqobat o'sgan sari narxlar

a) har doimgidek o'sadi.

b) odatda ta'sir qilmaydi.

c) odatda kamayadi .

d) buni oldini olishda raqobatga bog'liqligi yo'q.

Ilmiy bog'lanish hosil qiling

4. Jadvalda ifodalangan istemolchilar talabidagi mahsulotning har bir mumkin bo'lgan sotuvlarni matematik hisoblang .

Narx	Talab qilingan miqdor
20.00\$	8,500
22.50\$	7,800
25.00\$	6,200
27.50\$	5,900
30.00\$	4,300

5. Insho. Yangi restoran ochilayotganda narx belgilashdagi talab va taklifning ahamiyati haqida maqola yoki onlayn blogda maqola yozing.

Biznes jamiyatni yaxshilamoqda

Xalqaro Heifer

Ocharchilik va mulkdorchilik tugashi bilan, bu shunday orzu ediki buni hech kim uddalay olmas edi. Biroq 1944 yildan Xalqaro Heiferda shunday orzu bor edi. Yakka-yu yagona dastur jamiyatga oziq ovqat manbalarini berish edi faqat ta'minlashdan ko'ra, tashkilot 115dan ortiq mamlakatlarda millionlab oilalarga yetib bordi. Dan Vest Ispaniya urushi vaqtida o'rta g'arblik fermer bo'lgan. Cheklangan ta'minot bilan uning o'zi kimlarni oziq ovqat bilan ta'minlash va kimlarga yo'q degan savolga o'zi hal qilgan. Fermer sifatida, janob Vest shuni angladiki agar odamlar chorva mol, ekish jihozlari va fermer kasbini o'rganishda biror bir turtki yordam bo'lganida edi, ular o'zlarini va oilalarni butun umr davomida ovqat bilan taminlashga imkoniyat bo'lardi.

Mr. Vest AQSHga qaytdi va yengillashtirish uchun Heifer tuzdi. U boshqa fermerlardan hech bo'lmasa bitta sigir ehson qilishlarini so'ragan. Dan 1 – marta Puerto Ricoga 17 ta g'unajinni keltirdi va ularni nochor oilalarga kasal bolalarga va hech qachon sut ichib ko'rmanlarga tarqartdi. Nimaga



aynan g'unajjinlar? Chunki ular yosh sigirlarni tug'ib berar edi. G'unajjin olgan oilalar esa sigiri tug'ganidan keyin boshqa oilalarga sovg'a sifatida berar edilar. 65 yildan beri Xalqaro Heifer dunyo bo'ylab yangi loyiha bo'yicha ishlamoqda. Ularning vazifasi jamiyat bilan ishlash bo'lib kelmoqda va ocharchilikni oldini olish ustida ishlamoqdalar. Ular dunyoni ahillikda va birga tinch yashashiga va boshqalarning o'zlari topgan, erishgan mulklarini boshqalar bilan bo'lishishga undamoqdalar. Hozirgi kunda minglab oilalar tovuqlar, echkilar, quyonlar va sigirlar ehson qilishni davom ettirishmoqda. Yana boshqalar chorva sotib olish uchun va sarmoya kiritish uchun pul bilan yordam beradilar. Ko'plab odamlar qishloq joylariga borib hayvonlarni qo'lga o'rgatib, sog'lom

o'sishi va ko'payishiga yordam berib o'z xissalarini qo'shishadi. Hozirgi xalqaro Heifer jamiyatining so'ngi loyihalari quydagilar:

*5ta mahalliy veteranlar cho'ponlar bilan ishlab, hayvonlarni o'rgatishga Mongoliyaga yuborish va ushbu molboqarlar 500ta oilalar bn birga ishlaydi.

*140ta sut beradigan sigirlarni 1999-yildagi Kosovodagi 100ta urush qurbonlari bo'lgan oilalarga tarqatish.

Tanqidiy fikrlang

1. Qanday qilib ushbu dunyoviy ocharchilik muammosini yechishga bo'lgan yondashuv boshqa oziq-ovqat, sut, kiyim-kechak va dori-darmon tarqatadigan yo'llardan qanday qilib farq etadi.

2. Internetdan dunyoda ocharchilikni kamaytirish ustida ishlayotgan tashkilotlarni aniqlang.

1-1 Zarurat va xohishlarni qoniqtirish

- Yashashimiz uchun kerakli narsalar zarurat deb ataladi.
- Hayotimizga qulaylik va rohat qo'shadigan narsalar xohish deb ataladi.
- Tovarlar ko'rishimiz va ushlab olishimiz mumkin bo'lgan narsa va predmetlardir. Xizmat ko'rsatish boshqalarni ta'minlash bilan bir vaqtda o'zimiz ham ta'minlanadigan faoliyat turidir.
- Iqtisodiy resurslar mahsulot va xizmatlar uchun foydalaniladi. Iqtisodiy resurslar, shuningdek, ishlab chiqarish vositasi hisoblanadi. 3 xil iqtisodiy resurslar mavjud bo'lib bular quyidagilar: tabiiy resurslar, inson resurslari va pul resurslari.

1-2 Iqtisodiy tanlovlar

- Qachonki biror narsaga erishish uchun biror narsadan voz kechsangiz bu ayirboshlashdir. Narxdagi ustunlik tanlovning qiyomatidir.
- Qaror chiqarishda 6 ta bosqich bor: muammoni aniqlash, tanlovni aniqlash, har bir tanlovni baholash, eng yaxshisini tanlash, tanlovni bajarish va qarorni ko'rib chiqish.

1-3 Iqtisodiy sistemalar

- Har bir iqtisod 3 ta iqtisodiy savolga javob berishi kerak: Qanaqa tovarlar va xizmatlar ishlab chiqariladi? Tovarlar va xizmatlar qanday ishlab chiqariladi? Qanday zarurat

Biznes aloqlarni o'rnating

1. Ham ehtiyoj ham xohish bo'ladigan xizmatni aniqlang. Har biriga qachon istak xohish bo'ladigan xollar uchun misol kel-tiring.
2. O'zingiz bilgan biror-bir biznesni tanlang. 3 xil iqtisodiy resurslarning har biriga mos keladigan biznesdagi ishlab chiqarish omillarini tasvirlang.

va xohishlar ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar bilan qoniqish xohish hosil qiladi?

- Ushbu 3 ta savolga millatning javob berish rejasi uning iqtisod tizimi hisoblanadi. Oddiy iqtisodda ko'plab resurslar hukumat tomonidan boshqariladi. Bozor iqtisodida esa odamlar tomonidan boshqariladi. An'anaviy iqtisodda tovar va xizmatlar doimgidek ishlab chiqariladi. Aralash iqtisodiy va bozor iqtisodining elementlaridan iborat bo'ladi.
- Kapitalizm bu resurslarga hukumatga qaraganda ko'plab ma'lum bir shaxslarining egalik qilishidir. AQSH iqtisodi shaxsiy mulkchilik prinsiplari, erkin tanlov foyda va raqobatga asoslangan.

1-4 Talab va taklif

- Bozor iqtisodida xaridorlar va sotuvchilar iqtisodiy qarorlar qilish uchun bozordan foydalanishadi. Talab bu tovar yoki xizmatni sotib olish istagi demakdir. Taklif bu talab qilinayotgan talab yoki xizmat bilan ta'minlashdir.
- Agar xaridorlarda aynan bir tovar yoki xizmat talab bo'lsa uning narxi ko'tariladi. Agar tanlov imkoniyati ko'p bo'lsa, tovar narxini oshirish qiyin. Bozor narxi bu mahsulot yoki xizmat uchun talab va taklifning teng bo'lgan nuqtasi.

3. Tabiiy resurs, xizmat, mahsulotning yetishmovchiligi haqida jurnal yoki gazetani toping. Ushbu maqolada ishlab chiqaruvchi va iste'molchiga mahsulot tanqisligini ta'sirini aniqlab xulosa yozing.

4. Yaqin kelajakda qilishingiz aniq bo'lgan muhim qarorni aniqlang, masalan, Koreyera tanlash yoki kattaroq savdo qilish.

5. Quydagilarni har biri uchun mumkin bo'lgan imkoniyat narxini aniqlang.
 - a. atletik jamosi uchun chiqib ko'rish
 - b. qisman bandlik
 - c. muhim imtihonga tayarlanish
 - d. eski mashina sotib olish uchun pul yig'ish
6. Milliy iqtisodi, bozor iqtisodi va davlat iqtisodi uchun berilgan javoblarni taqqoslab jadval tuzing.
7. Tanlash erkinligining iste'molchilar

O'z biznes tilingizni rivojlantiring

Keltirilgan ma'no mazmunlarni ro'yhatdagi so'zlar bilan solishtiring.

11. Qoniqtiradigan xoxish va ehtiyojlarni tanlash jarayoni
12. Sotuv uchun tayyor bo'ladigan belgilanadigan xizmatlar va mahsulotni alohida yoki guruh bo'lib amalga oshirish.
13. 3 ta iqtisodiy savolga mamlakatning javob berish usuli
14. Xizmatlar va tovarlarni ishlab chiqarishda tayyor narsalar.
15. Yashash uchun kerak bo'ladigan narsalar.
16. Har bir ehtiyojni qoniqtirishda resurslarining yetishmovchiligi.
17. Mahsulot yoki servis miqdori bizneschilar taminlay oladigan
18. Tovarlardan va xizmatlardan foydalanadigan , va sotadigan odam
19. Hukumat tomonidan nazorat qilinadigan va egalik qilinadigan iqtisodiy resurslar.
20. Siz ko'ra oladigan va tegina oladigan narsalar.
21. Hukumatga qaraganda egalik qilish huquqi yakka shaxslarda bo'lishi.
22. Doimo ravishda ishlab chiqarish usulida yaratiladigan mahsulot va xizmatlar iqtisodiyoti
23. Bozor iqtisodiyoti va buyruqbozlik iqtisodiyotlar birlashgan iqtisodiyot
24. Iste'molchilar tomonidan sotib olinishi mumkin bo'lgan tovar xizmatlar soni.
25. Talab va taklifning o'zaro teng bo'lgan nuqtasi.
26. Sizinig hayotingizga rohat va qulaylik

uchun mahsulotlar va xizmatlarning yaroqliligi va haridorliligiga ta'sirini tushuntiring.

8. Siz xususiy biznes Amerika iqtisodiyotini yaxshi tasvirlaydigan atama deb o'ylaysizmi?
9. Iste'molchilar tomonidan doimiy harid qilinadigan mahsulotni aniqlang.
10. Maxsulot uchun taklif va talab tasvirini aks ettiradigan grafik chizing.

bag'ishlaydigan narsalar.

27. Iste'mol qilingan mahsulotlar bilan kishilarning qoniqtira olishi
28. Biror nimaga ega bo'lish uchun nimadandir voz kechish
29. Siz tanlay olmagan keying alterntiv qiymatlar.
30. Mamlakat odamlari tomonlari nazorat qilinadigan va egalik qilinadigan resurslar iqtisodiyoti.

Kalit so'zlar

- a. Kapitalizm
- b. Rejali iqtisodiyoti
- c. Iste'molchi
- d. Talab
- e. Iqtisodiy qaror qabul qilish
- f. Iqtisodiy resurslar
- g. Iqtisodiy system
- h. Tovarlarni
- i. Bozor iqtisodiyoti
- j. Bozor narxi
- k. Aralash iqtisodiyot
- l. Ehtiyojlar
- m. Imkoniyatlar qiymati
- n. Ishlab chiqaruvchi
- o. Taqchillik
- p. Xizmatlar
- q. Taklif
- r. Ayirboshlash
- s. Milliy iqtisodiyot
- t. Istaklar

Akademik bog'lanishlar

31. Izlanish. Juda katta tanlov va juda kam tanlov bor bo'lgan mahsulotni aniqlang. Internet, gazeta yoki shaxsiy do'konlardan foydalanib 3 ta kompaniyaning mahsulotining narxini aniqlang. To'plagan ma'lumotlarni ko'rsatish uchun jadval tayyorlang. Ma'lumotlaringizga qanchalik ishonasiz?

32. Aloqa. Sizning jamoangiz eski fuqorodan 100 akr. yerni sovg'a sifatida qabul qildi. Jamoangiz shahar konsulligini bu yerda park qurishga undayapti. Boshqalar bu yerni yangi kichik biznes uchun hudud bo'lishi afzal ko'rmoqda. Shahar konsulligiga ushbu ikkita tanlovdan har birining narx jihatdan ustunliklarini ko'rsatib bergan hisobot tayyorlang.

33. Matematika. Quyidagi jadval ish soatini turli davlatdagi 3 ta shaharda ishchining mahsulotni xarid qilish uchun yetarli pul ishlab topishini ko'rsatadi. Quyidagi savollarga javob berishda ma'lumotlardan foydalaning:

a) Birinchi shahardagi ishchi 3-shahardagi ishchiga qaraganda 4 kishilik oilaga yetarli 4 haftalik ovqat sotib olish yetarli pul ishlashi uchun qancha ko'p ishlashi kerak?

b) Katta ekranli TV sotib olish uchun har bir shahardagi ishchi qancha 8 soatlik ish kuni ishlashi kerak?

c) Ushbu ro'yxatdagi mahsulotlarni barchasini sotib olish uchun har bir shahardagi ishchi umumiy hisobda qancha ishlashi kerak?

	1-shahar	2-shahar	3-shahar
1 ta spagetti	17.0 minut	29.0 minut	56.0 minut
Katta ekranli TV	65.0 soat	132.0 soat	701.0 soat
1 ta tishpasta	16.0 minut	13.0 minut	27.0 minut
Shahar aftobus haqi	7.0 minut	11.0 minut	3.0 minut
1 juft oyoq kiyim	8.0 soat	7.0 soat	25.0 soat
4 kishiga 1 haftalik oziq-ovqat	18.6 soat	24.7 soat	53.5 soat

1 ta spagetti 17.0 minut 29.0 minut 56.0 minut
 Katta ekranli TV 65.0 soat 132.0 soat 701.0 soat
 1 ta tishpasta 16.0 minut 13.0 minut 27.0 minut
 Shahar aftobus haqi 7.0 minut 11.0 minut 3.0 minut
 1 juft oyoq kiyim 8.0 soat 7.0 soat 25.0 soat
 4 kishiga 1 haftalik oziq-ovqat 18.6 soat 24.7 soat 53.5 soat

Qaror qabul qilish strategiyalari:

34. Zamonaviy texnologiya va jihozlardan foydalanadigan davlatlar qo'l mehnatdan foydalanadigan davlatlarga qaraganda ozgina odam bilan ko'proq mahsulot ishlab chiqarishi mumkin. Quyidagi savollarga javob bering:

a) An'anaviy iqtisodda qancha odam bozor iqtisodiga qaraganda qishloq xo'jaligi bilan ko'proq band?

b) Qaysi tizimning firma ishchisi mahsuldor?

c) Har bir firmadan ishchilar ko'proq mahsuldor?

An'anaviy iqtisod Bozor iqtisodi
 Qishloq xo'jaligi ishchilari 34 350 000 4 380 000

Ovqat bilan ta'minlaydigan ishchilar 7 49

Maktab va jamoani bog'lash

Mahalliy do'kon va maxsus do'kon menejerlaridan mahsulotlarga narx belgilash uchun talab va taklif haqida ko'proq bilish uchun intervyu oling. Talab katta bo'lgan biznesda katta tortishuv bo'lgan va bozor narxini ko'targan narsalarga misol toping. Guruhingizdagi talabalarga talab, taklif va narx haqida nimalar o'rganganingizni tasvirlab berish uchun hisobot tayyorlang.

Internet davri.

	An'anaviy iqtisod	Bozor iqtisodi
Qishloq xo'jaligi ishchilari	34 350 000	4 380 000
Ovqat bilan ta'minlaydigan ishchilar	7	49

AQSH hukumati beznesmenlarga foydali bo'lgan AQSH iqtisodi haqida ma'lumotlarni

To'playdilar va nashr qiladi. AQSH aholisini ro'yxatdan o'tkazuvchi Byuroning web saytida AQSH ning iqtisodiyotidagi muhim o'zgarishlar va iqtisodiy ko'rsatkichlarni berib boradi Census Byurosining saytiga kiring va iqtisodiy ko'rsatkichlar sahifasiga kirib bog'laning .Iqtisodiy ko'rsatkichlaridan birini tanlang va o'tgan 10yil davomida bu korsatkich qanchalik o'zgarганиni tahlil qiling.

Amerikaliklarga oid beznes loyiha

Amerika tashkilotlari tizimi tadbirkorlarni riskni bo'yniga olgan holda biznes boshlashni qo'llab quvvatlaydi. Iste'molchilar Amerika tashkilotlat tizimida muhim rol o'ynaydilar chunki ularning mahsulot va xizmatlarga bo'lgan talabi muvaffaqiyatli yetaklaydi. Biznesdagi muvaffaqiyatli biznes faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi. Uch kishili jamoangizdan Amerika biznes tizimi haqida hukumatni roli, tadbirkorlarning ahamiyati, xaridorlarning qudratini tushuntirib beruvchi o'rta maktab o'quvchilari uchun taqdimotni yaratish talab qilindi. Sizning taqdimotingiz haqiqiy biznes namunasini o'z ichiga olishi kerak, va erkin biznes tizimining asosiy elementlarini tasvirlashi va muhim shartlarni ko'rsatishi kerak. Jamoangiz Amerika biznes tizimida o'rta talim maktab o'quvchilari nimani o'rganishlari kerakligini ko'rsatib beradigan taqdimotingiz asoslangan nazorat savolini shakllantirishga mas'uldir. Ko'rsatmalarni isboti uchun siz biznes hisobotini yaratasiz. Foydali grafikadan foydalanish va dizaynga ijodkor bilan yondashishi maqsadga muvofiq. Hisobot o'rta ta'lim maktab o'quvchilariga asosiy tushunchalarni o'rgatishda sizning strategiyangiz va Amerika biznes tizimi haqidagi tushunarli taqdimot bo'lishi kerak. Hisobot quyidagi qismlarni o'z ichiga olishi kerak:

- Loyixa maqsadi
- Biznes ehtiyojlarining ma'lum namunasini aniqlash uchun tadqiqot
- Loyixa tavsifi
- Loyixani o'ziga xosligi

Tanqidiy o'ylang

1. O'zingiz topgan iqtisodiy ma'lumotlarni ko'rsatish uchun jadval tayyorlang. Grafik yoki diagrammalar tayyorlash uchun jadvaldagi ma'lumotlardan foydalaning

2. Ega bo'lgan ma'lumotlaringizga ta'rif yozing . Tanlangan iqtisodiy ko'rsatkichingiz insonlarga US iqtisodiyotini tushunishda qanchalik yordam beradi. Shuningdek ko'rsatkich tadbirkorlikda yoki fuqoralarga qanday holatlarda foydalanishini tushuntiring.

- Baxolash va natijalar

Hisobotingizni hajmi uni qisqa, tushunarli va mantiqiy taqdimotga, ijodkorlikga, grammatikadan to'g'ri foydalanishga, talaffuz va muvofiq biznes usuliga qarab baxolanadi. Ishni bajarishdagi baxolanadigan ko'rsatkichlar

- Amerika biznes tizimi haqidagi asosiy tushunchalarni tushunib oling

- O'rta ta'lim maktab o'quvchilari uchun samarali taqdimotlarni amalga oshiring

- Amerika biznes tizimi haqida nazorat topshirig'dan foydalanish orqali tekshiriladigan natijalarga alohida e'tibor qarating

- O'rta ta'lim maktab o'quvchilarining Amerika biznes tizimi haqidagi tushunchasini kengaytiring.

Ish bajarishdagi ko'rsatkichlar haqida qo'shimcha batafsil ma'lumot uchun FBLA websaytiga kiring.

Tanqidiy o'ylash

1. Yosh amerikaliklar uchun Amerika biznes tizimini tushunish uchun muhim?

2. O'rta ta'lim maktab o'quvchilarini e'tiborini tortdigan taqdimot berish davomida foydalanish uchun ikkita strategiya ro'yhatini tuzing.

3. O'rta ta'lim maktab o'quvchilari Amerika biznes tizimi haqida tushunishi kerak bo'lgan 5 ta tushuncha ro'yhatini tuzing.

4. Amerika biznes tizimi haqida tushunchani kuchaytirish uchun ishlatiladigan FBLA azolari va o'rta ta'lim maktab o'quvchilari ortasidagi birgalikdagi loyixani tasvirlang.

Bo‘lim

2

Iqtisodiy faoliyat



2-1 Iqtisodiy faoliyatni o‘lchash

2-2 Iqtisodiy iqlimning o‘zgarishi

2-3 Tadbirkorlik faoliyatning o‘lchov birliklari

Karyerani biznesni rivojlantirishda rejalashtirish.

Dunyo bo'ylab millionlab insonlar talablarini oziq-ovqat, suv, sog'liqni saqlash, ta'lim va iqtisodiy xizmatlar bilan ta'minlash biznes va iqtisodiy rivojlanish sohasida faoliyat yuritishning asosi hisoblanadi. Bu sohadagi karyera turli ishlash imkoniyatlarini o'z ichiga oladi – ba'zilar honadonga yaqin, ba'zilar esa uzoq. Agar siz qiziqishga va yetarlicha

Kasbga oid so'zlar

- Iqtisodchi
- Yuk tashish muhandisi
- Shahar va mahalliy rejalashtiruvchi
- Tekshiruv tadqiqotchisi
- Statistik
- Budjet tahlilchisi
- Inkassator

malakaga ega bo'lsangiz, siz tashkilot boshqaruvchisi, davlat tadqiqot direktori, soha bo'yicha malaka oshirish konsultanti bo'lishingiz mumkin. Bu kasblarning har biri iqtisodiy rivojlanishga o'z hissasini qo'shadi.

Sizning turli biznesga oid mavzularni o'qishingiz bilan, iqtisodiy faoliyatga tegihli bilimlaringiz ken-

gayib boradi. Ko'plab biznesni rivojlantirish pozitsiyalari hukumat, texnologiya, tadqiqot, muhandislik, sog'liqni saqlash, oziq-ovqat, marketing va moliyaviy rejalashtirish sohaslarida faoliyat yuritishga bog'liq bo'ladi.

Dunyodagi har bir mamlakat iqtisodiy rivojlanishni yanada kuchaytirish uchun qilingan sa'y harakatlardan foyda ko'rishi va o'zining fuqarolarining yashash sharoitlarini yaxshilashi mumkin. Sizning iqtisodiyotni rivojlantirish sohasidagi karyerani egallash to'g'risidagi qaroringiz kelajakda yashash hududingiz va butun dunyo bo'ylab odamlarning kichik biznes oid tashabbuslarni rejalashtirish, boshlash va amalga oshirishga yordam beruvchi faoliyatlarda qatnashishga imkon beradi.

Karyera imkoniyatlarini biznesni rivojlantirishida tahlil qilish

Biznes va iqtisodiyotning rivojlanish sohasidagi karyeralar haqida ko'proq bilish uchun kutubxona va internet resurslaridan foydalaning. Yuqorida keltirilgan kasblarning birini tanlang va quyidagi savollarga javob bering.

1. Bu sohadagi karyeralari uchun bandlik istiqbollari qanday?
2. Bu sizni qiziqtiradigan karyerami? Siz bu karyeraga o'zingizni tayyorlashingiz uchun xozir nima qila olasiz?

Biznes sohasi maslahatchisi sifatida ishlash qanday?

Quyosh tog'lar ortidan ko'tarilishi bilan, yuzlab fermerlar allaqachon tayyor holda bo'lishadi. Ularning maqsadi o'zining oilasining asosiy ehtiyojini qondirish uchun daromadni ko'paytirish maqsadida yetarlicha hosilni yig'ib olishdir. Ular ajdodlaridan o'rganagan an'anaviy usullardan foydalanadilar.

Yaqin qishloqlarning birida xalqaro tashkilot mahalliy aholining bir qismiga qoramol va ferma jihozlariga egalik qilishda yordam ko'rsatdi. Bu narsalar odamlarga kunlik hosilini ikki- uch barobar ko'paytirishga yordam berdi.

Ko'plab davlat va xususiy agentliklar odamlarga mehnat unumdorligini oshirish uchun yordam berish uchun faoliyat yuritishadi. Yangi undirish usullari, mashina va boshqa qishloq xo'jalik texnikalaridan foydalanish oilalarni ozuqa, uy-joy, kiyim-kechak, maktab to'lovlari va sog'liqni saqlash uchun yanada ko'proq pul bilan ta'minlay oladi.

Bu rivojlanishlarni moliyalashtirish odatda mavhum bo'ladi. Pul xususiy investorlar yoki davlat grantlari va qarzlardan kelishi mumkin. Yaqin yillarda ko'plab tashkilotlar qashshoq odamlarga o'z biznesini boshlashi va kengaytirishi uchun mikrozyomlar berishni boshlashdi.

Sizchi? Biznesni rivojlantirish sohasining qaysi jihatlarini sizni qiziqtiradi?

2-1 Iqtisodiy faoliyatni o'lchash



Maqsadlar

1. Yalpi ichki mahsulotni aniqlash
2. Iste'molchilar sarflar uchun iqtisodiy ko'rsatkichlarni aniqlash
3. Ishchi kuchining iqtisodiy birligini aniqlash

Yalpi ichki mahsulot

- (YIM) 34
- YIM axoli jon boshiga 35
- Ishsizlik ko'rsatkichi 36
- Samaradorlik 36
- Shaxsiy foyda 37
- Chakana tovar aylanishi 37

Real hayotga nazar tashlang

O'lchov xarakteristikasini biz xayotning ko'p jabhalarida ishlatamiz. Misol uchun, yaqinda bo'lib o'tgan basketbol o'yinida Rosa Rivera Middletown o'rta maktabi o'quvchisi 19 ochko ishladi, 8 marta aldanchi o'tish va 7 marta assistentlik qildi. O'sha kundan keyin, maktabning maxsus guruhi musobaqada qatnashishdi va 88.3 ko'rsatkichni ko'rsatishdi. O'rtacha natijalar bilan solishtirganda, bu yaxshi ko'rsatkich edi. Endi sizga kelsak, So'ngi 10 yil ichida siz qanchalik o'sdingiz? Siz aytishingiz mumkin: "Men 10 yoshga ulg'aydim". Yoki "Men 50 fundga og'irlashdim". Yoki "Men hozirda 10C razmeridagi kiyim kiyaman" deb. Shaxsiy o'sishni o'lchashda turli xil usullardan foydalansa bo'ladi. Va shunga analog sifatida, tadbirkorlik va iqtisodiy faoliyat ham rivojlanishning ko'rsatkichi sifatida ko'rsatiladi.

Yalpi Ichki Mahsulot (YIM)

Iqtisodiy o'sishmaxsulot ishlab chiqarishda va Iqtisodiy tizimidagi xizmatlarning barqarorlikning mustahkamligiga bog'liq. O'zingizning shaxsiy o'sishingizni o'lchashning turli xil yo'llari bo'lgani kabi, Iqtisodiy o'sishni o'lchashda ham turli xil usullar qo'llanilishi mumkin. Iqtisodiyotning holatini aniqlashning bunday usullaridan biri, ishlab chiqarish natijalarini yilma-yil taqqoslab borishdir. Hukumatlar

ishlab chiqaruvchilardan axborot yig'ishadi va Milliy ishlab chiqarishni hisoblashadi. Eng ko'p qo'llaniladigan o'lchovdan biri yalpi ichki mahsulotni o'lchashdir. **Yalpi ichki mahsulot** yoki **YIM**– bu 1 yil davomida mamlakatdagi barcha ishlab chiqarilgan mahsulotlar yoki ko'rsatilgan xizmat turlari yig'indisi. 2-1 jadvalda yaqin yildagi turli mamlakatlarning YaIM ko'rsatkichi hisobi keltirilgan.

Maqsad 1

Yalpi ichki mahsulotni aniqlash

Ba'zi bir mamlakatlarning YIM ko'rsatkichlari

Mamlakat	Jami YIM(\$)	YIM aholi jon boshiga(\$)	Mamlakat	Jami YIM(\$)	YIM aholi jon boshiga
AQSH	14.3 trln	46.400	Kanada	1.3 trln	38.400
Xitoy	8.8 trln	6.600	Polsha	690.1 mlrd	17.900
Yaponiya	4.1 trln	32.600	Saudi Arabiston	585.5 mlrd	20.400
Germaniya	2.8 trln	34.100	JAR	495.1 mlrd	10.100
Hindiston	3.6 trln	3.100	Nigeriya	357.2 mlrd	2.400
Braziliya	2.0 trln	10.200	Viyetnam	258.1 mlrd	2.900
Meksika	1.5 trln	13.500	Boliviya	45.1 mlrd	4.600

Manba :CIA World Factbook

Jamoa bo'lib ishlang

Davlatning YIMi o'zida mamlakatning iqtisodiy ishlab chiqarish haqida ma'lumotlarni jam etadi. Millatning iqtisodiy rivojlanishini hisoblayotganda jamoa bo'lib faqatgina YIM natijalaridan foydalangan holda to'siqlar ro'yxatini tuzing. Iqtisodiy o'sishning qaysi taraflari mamlakatning YIM da o'z aksini topmasligi mumkin?

YIM omillari

YIM o'z ichiga iqtisodiy faoliyatining asosiy 4ta kategoriyasini o'z ichiga oladi

1. Oziq ovqat kiyim kechak uy joy va boshqalar uchun iste'mol chiqar sarflari.
2. Bino jihozlar va intervatorlar uchun tashkilotlar sarfi
3. Ishchi kuchi va taklif maxsulotlar va xizmatlarning harid qilish uchun

hukumat sarfi

4. Mamlakatning eksporti uning importidan ham bo'lgan holat

Bazi maxsulotlar va xizmatlar hisoblanmaydi. Misol uchun YIM o'zingiz uchun ishingizning qiymati yani maysazoringizni kaltalashitingiz bular YIM ning tarkibiga kiritilmaydi

Agarsiz bu xizmat uchun ishchi yo'llarasangiz yoki sayohat stolchasi sotib olsangiz bu YIM tarkibida hisoblanadi. Faqatgina nihoyasiga yetgan tovarlar misol uchun mashinalar ular YIM tarkibida hisoblanadi.

Ishlab chiqarishda foydalaniladigan xom-ashyo mahsulotlar misol uchun po'lat va gazlamalar YIM tarkibida hisoblanmaydi.

Agar xom-ashyo va materiallar hisobga olinganda ular yana ikki marta hisoblanishiga to'g'ri keladi .agar YIM yildan yilga o'sayotgan bo'lsa bu iqtisodiyotning o'sayotganidan darak beradi.

YALPI ICHKI MAHSULOTNI HISOBLASH			
Mamlakat	Kanada	AQSH	XITOIY
Myadon(km kv)	9,984,670	9,826,675	9,596,961
Aholi	33,212,696	303,824,640	1,330,044,544
YIM	1,285,000,000,000	14,260,000,000,000	8,789,000,000,000
YIM aholi jon boshi hisobida	38,690	46,935	6,608

Figure 2-2 Ushbu jadval sizga YIM aholi jon boshiga ni hisoblashda qanday yordam berdi?

Maqsad 2 Mexnatning iqtisodiy o`l- chov-birliklarini aniqlash

Mexnat faoliyati

Ishchilar mamlakat iqtisodiyotiga turli ko`rinishlarda o`z hisslarini qo`shadilar. Birinchidan ularning mexnat faoliyati kerakli mahsulot va xizmat turlarini yaratadi. Bundan tashqari, ularning ish haqlari turli xil narsalarda talabni qondirish uchun sarflanadi.

Bandlik

Hozirgi kunda, AQSH da 155 milliondan ortiq insonlar ish bilan taminlangan. Bu Ishchi kuchining a`zolari mingdan ortiq kasblarda faoliyat yuritishadi. Ular minglab maxsulotlar va xizmatlar ishlab chiqarishadi. Ishchi kuchi 16 yoshdan kata bo`lgan mexnat qilayotgan va ish izlayotganlardan tashkil topgan. Talabalar, nafaqaxo`rlar va boshqa mexnat qila olmaydigan yoki mexnat qilishni hohlamaydiganlar Ishchi kuchi sifatida qaralmaydi.

Iqtisodiy statistik muammolardan biri bu Ishsizlik ko`rsatkichi. Ishsizlik ko`rsatkichi bu ishlash qobiliyatiga ega bo`lgan lekin ishlamaydigan odamlar qismi. Agar insonlar ishlashni hohlab va ish izlab ammo ish topa olishmasa ularni "ishsizlar" deb hisoblanadi. Ishsizlik ko`rsatkichi yildan yilga mamlakatning turli xil sohalarga ko`ra farqlanadi. Ishsizlikning asosiy sababi turli xil ishchilar tomonidan yaratilgan maxsulot va xizmat

turiga bo`lgan ehtiyojning kamayishini kengaytirishdir. Misol uchun, agar insonlar Qanchalik kam avtobusda harakatlansa, avtobus kompaniyalari shunchalik kam avtobus ishchilariga muxtoj bo`lishadi.

Samaradorlik

Iqtisodiy o`rta o`rta sishning asosiy manbalaridan biri bu har bir ishchining ishlab chiqarish qobiliyati (samaradorlik) ni rivojlantirishdir. Samaradorlik bu Sarflangan xarajatga (ishchilarga o`xshab) bog`liq holda, ishlab chiqarilgan maxsulot miqdori. Kapital resurslarini (texnika va texnologiya) ishchilar malakasini va boshqaruv qobiliyatlarini rivojlantirish ishlab chiqarish ko`proq natijaga erishishga olib keladi.

Vaqt o`tishi bilan, mexnat samaradorligining ko`rsatkichi ko`tarilishi yoki pasayishi mumkin. Samaradorlikning oshishi yillar davomida yuzaga kelishi tashkil etishi mumkin, rivojlanishning miqdori odatda kichikroq bo`ladi. Ba`zi vaqtlari samaradorlik pasayishi mumkin. Agar ish haqqining miqdori ishlab chiqarishning o`rta o`rta sish miqdoridan tezroq oshsa, maxsulotni ishlab chiqarish narxi va tan narxi oshadi. Ishchilar ko`proq pul topishiga qaramasdan, narxlarning o`rta o`rta sishi sababli o`zlarining turmush tarzini yaxshilay olishmaydi. Shu sababli, Ishchilarning samaradorligini oshirish uchun ularni ruhlantirishga qaratilgan e`tibor juda kattadir. Shu yo`l orqali, ishchilar millatning yashash tarzini yaxshilash va o`zlarining shaxsiy hayotini rivojlantirishga hissa qo`shishadi.

Ko`proq xizmat turlari va maxsulot

ishlab chiqarish qobiliyati ish kunlaridagi ish soatlarining qisqarishiga imkon beradi. 1890-yillarda ishchining o`rtacha ish soati haftasiga 60 soat bo`lgan. Hozirda ko`pchilik zavod va shartnoma asosidagi ishlardagi ish soatlari 40 soatdan ham kamga qisqartirilgan. Shu bilan birga ba`zi odamlar haftasiga 40 soatdan ko`p ishlash pozitsiyasida qolishni qaror qilishgan.



Boshqa mamlakatlar sanoati kabi AQSH da ham ishchilarning ish vaqti kamayib, ishlab chiqarish samaradorligi va ish haqqi boshqa vaqtdagiga nisbatan oshgan. Texnologiya va samarali ishlash usullari sababli vaqtning kamayishiga qaramasdan ishlab chiqarish salohiyati oshgan.

Tekshirib ko'ring!

Qanday qilib samaradorlikni oshirish mumkin?

Haridor harajatlari

Siz ishlab topayotgan va sarf qilayotgan pul iqtisodiy rivojlanishning asosiy sabablaridan biridir.

Shaxsiy foyda

Har kuni, insonlar ishlab chiqarishdagi ishtiroki uchun pul olishadi. Shaxsiy foyda oylik ish haqqi va daromadning investitsiyadan foyda va hukumat to'lovlarining shaxslarga to'lanishi ko'rinishida bo'ladi. Bu fondlarqondirishi lozim bo'lgan maxsulot va xizmatlarni sotib olishda asos bo'lib hizmat qiladi.

Siz uchun ma'lumot

2-1 Baholash

Asosiy tushunchalar

Tog'ri javoblarni tanlang

1. Quyidagilardan qaysi birlari YIM takibida hisoblanmaydi.?

- a. boshqa mamlakatlarga eksport
- b. huumatdan kompyuterlar sotib olish
- c. sotib olingan avtomobillar
- d. oilangiz uchun tayyorlangan tushlik

2. Samaradorlik natijasida o'sib boradi.

- a. yuqori soliqlar
- b. ishlab chiqarish texnologiyasini kengaytirish
- c. o'qitish dasturlarini kamaytirish
- d. past darajadagi foiz stavkalari

Dunyodagi ko'pchilik davlatlarida ishchi kuchi yaxshi himoyalangan. Qashshoq iqtisodiy iqlim kunlik harajatlarni qoplash uchun oilalarning barcha a'zolarini fermalarda yoki zavodlarda ishlashni talab etadi.

Tovar aylanishi

Oylik ma'lumotarga asoslanib AQSH Savdo departamenti oylik Tovar aylanishini yoki haridorlarning uzoq va uzoq bo'lmagan muddatli maxsulotlar va xizmatlarini haridlarini hisoblaydi. Ushbu oylik tovar aylanish ko'rsatkichlari iqtisodiyotdagi umumiy iste'molchilarning harajatlari ko'rsatib beradi. Eng asosiysi oylik Tovar aylanishining o'sishi odatda iqtisodiy o'sishga olib keladi. Kimning ichki Tovar aylanishining asosiy buyumlari sifatida o'z ichiga avtomobillar, qurilish materiallar, mebellar, benzin, va kiyim-kechaklarni oladi va ularni restorantlardan, bozor rashtalridan, ovqat do'konlaridan va aptekalardan harid qilishadi.

Tekshirib ko'ring!

Shaxsiy daromadning asosiy manbalari nimalardan iborat?

3. Tovar aylanishi o'z ichiga oladi

- a. yig'ilgan soliqlar
- b. yangi qurilmalar sotib oluvchi kompaniyalar
- c. biznesda qarzdorlik
- d. talabalar tomonidan sotib olingan maktab harajatlari

Akademik qo'llanmalar

4. 2-1 rasmda ma'lumotlardan foydalanish usulidan foydalanib, o'zingiz tanlagan 5 davlatning YIM va YIm aholi jon boshiga nisbatini taqqoslab jadval tuzing.

5. Tasavvur sa'nati. Darsda keltirilgan 1 yoki undan ko'proq g'oyani tasvirlash uchun kollaj yoki rasmlar guruhini yarat-ing.

2-2 Iqtisodiy Iqlimning o'zgarishi

Maqsadlar	Kalit Iboralar	Haqiqiy xayotga nazar
1. Biznes faoliyati siklining 4 bosqichini o'rganish	Biznes faoliyati sikli 38 Rivojlanish 38	Siz 5 yil oldingi bilimizga qaraganda hozirda ilmingiz ko'proqmi? Siz 10 yil avvalgiga nisbatan sport bilan shug'ullanish qobiliyatingiz yaxshiroqmi? Sizing mahorat va qobiliyatingiz oshgan sari, oilangizga bo'lgan bo'g'liqlik kamayadi va siz kelajagingizni rejalashtirishni boshlaysiz. Siz pul vatopish uni tejash haqida havotirlana boshlaysiz. Siz o'qishingizni davom ettirish uchun rejalarangizga sizning darajangizqanday ta'sir ko'rsatishi haqida o'ylay boshlaysiz. Hayotingizdagi turli ko'plab omillar boshdan oxirigacha o'zgaradi. Sizing darajangiz, o'zlashtirish mahoratingiz va mashg'ulotlardagi natijalarangizga asoslangan bo'ladi. Sizing depozitingining hajmi, pul tomish, tejash va sarflashga asoslangan bo'ladi. Iqtisodiyot uchun o'zgarish bu to'g'ri y'oldir. O'sish va kamayishlar tadbirkorlikda tez-tez bo'lib turadi. Iqtisodiy iqlim rivojlansa, Mamlakatdagi sharoit ham rivojlanadi. Taqqoslash uchun, iqtisodiy tendensiyaning pasayishi, hairdo va ishchilar uchun qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.
2. Inflyatsiya va deflyatsiyaning sabablari	Kamayish 39	
3. Foiz miqdorining muhimligini aniqlash	Dipressiya 39 Qaytarish 40 Inflyatsiya 40 Narx indeksi diflatsiya	

Maqsad 1

Biznes faoliyati siklining
4 bosqichini o'rganish

Biznes faoliyatli sikli.

Iqtisodiy va biznes faoliyati sikl bo'yicha harakatlanishga intiladi. Barcha millatlar tajribasida si-nalغانidek iqtisodiyotda yaxshi va yomon davrlar bo'lib turadi. Yaxshi hamki, vaqt o'tishi bilan, yomon iqlim yo'qolib, yaxshi iqlim qaytadi.

AQSH ning tarixidagi iqtisodiy o'zgarishlarga e'tibor beradigan bo'lsak, yaxshi kunlardan keyin yomon kunlar va undan keyin yaxwi kunlar o'zgarishini ko'ramiz. Ushbu iqtisodiyotning bir iqlimdan boshqa iqlimga o'zgarish va yana qaytishini biz biznes faoliyati siklideb ataymiz.

Biznes faoliyati sikli bu YIM ning o'sish va kamayishlarning takrorlanishidir. Biznis faoliyati sikllarining 4 asosiy iboralari bor: rivojlanish, pasayish, depressiya va qayta tiklanish.

Rivojlanish

Biznes faoliyati siklining eng yuqori nuqtalaridagi faloyatni reivojlanish deyiladi. Rivojlanish bu vaqt oralig'i bo'lib, bu oraliqda kimki ishlashni xohlasa ishlaydi, biznes esa maxsulotlarni va xizmatlarni ishlab chiqarish eng yuqori darajada, ish haqi esa yaxshi, va YIM ning o'sishi esa tezlashgan bo'ladi.

Maxsulot va xizmatlarga bo'lgan talab oshgan. Bu vaqt oralig'ida odatda biznes faoliyati yuqori nuqtalarni egallayotgan bo'ladi. Rivojlanish ham doim davom etmaydi. Iqtisodiyot sekin sovuy boshlaydi va faloyiat sekinlashadi.



Pasayish

Iqtisodiyot sekinlashayotganda, biznes faoliyati siklining bu fazasi pasayish deb ataladi. Pasayish bu ma'lum bir vaqt oralig'i bo'lib, bu oraliqda ehtiyojlar kamayadi, ishsizlik oshib boradi, YIM ning o'sishi esa kalendar yilining 2 va undan ortiq kvaratallarida sekinlashadi. Bu bosqich juda ham jiddiy yoki uzoq vaqt davom etmasligi mumkin, lekin bu biznes faoliyatidagi ishchilar uchun qiyinchilik belgisidir. Misol uchun, agar insonlar kamroq mashina sotib olishadigan bo'lsa, batareya, balon va boshqa qismlarni ishlab chiqaruvchi ishchilar ishdan ketishadi. Bu holat biznes faoliyatida turg'unlik effekti deyiladi.

Vaqt o'tishi bilan, ishlab chiqarish iqtisodiyotning barcha sohalarida kuchsizlanadi, keying chorakgacha umumiy mahsulot ishlab chiqarish pasayadi. Ba'zi pasayishlar uzoq vaqt davom etadi, chunki ishlab chiqarishda kam faktorlari foydalaniladi va umumiy ehtiyojlar kamayadi

Internetdan ma'lumot.

Mexnat statistika Byurosiiqtisodiy faoliyatlarning turlari haqida ma'lumot beradi. Web-saytga murojaat quyida ko'rsatilgan va 2-Bo'limga o'tish uchun uni bosing. Quyidagi mavzulardan birini tanlang :Inflyatsiya, Ishsizlik, yoki samaradorlik. Olingan ma'lumotlarni ushbu iqtisodiy statistika kadaqo'llang. Qisqacha umulashgan ma'lumotnoma tayyorlang, va Sizning jamiyatingizdagi haridorlar va bizneslarga ushbu ma'lumotlarning ta'sirini tasvirlab bering.

www.cengage.com/school/genbus/pob

Dipressiya

Agar pasayish chuqurlashib butun iqtisodiyotni o'ziga qamrab olsa, millat uchinchi faza, dipressiyaga duch keladi. Dipressiya bu, uzoq vaqt davom etuvchi ishsizlik, xaridlar miqdorining kamayishi, va tashkilotlarning yopilishi.

Etik savol

Etik analiz yo'nalishlari

Ko'pchilik tadbirkorlik qarorlari turli xil yo'llar orqali qabul qilinadi. Ba'zi mamlakatlarda, odamlar ishlayotgan kompaniyalarida oilalar a'zolarini

boshqalarga qaraganda ishga joylashadi. Boshqa joylarda, to'lovlar va sovg'alar biznesni boshlashdan oldin olinishi kutiladi.

Shu va boshqa vaziyatlar axloqiy muammolarni keltirib chiqaradi. Etikalarni bu to'g'rilik va noto'g'rilik prinsiplari bo'lib shaxsiy va biznes qarorlarni qabul qilishga yo'naltiriladi. Biznes faoliyatidagi etikalarni muhokama qilayotganda ushbu 3 aniqlashtirish savollari qo'yiladi:

1. Faoliyat qonuniymi ?

Qonunlar Mamlakatlar va shtatlarda turlicha bo'ladi. Ko'pchilik kompaniyalar xalqaro qarorlarni o'zlarining davlatlaridagi qonunlarga asoslanga holda qabul qilishadi. Muammo paydo bo'ladigan bo'lsa, menedjerlar boshqa sabablarni, professional standartlar va faoliyatning jamiyatga ta'sirini nazarda tutishadi.

2. Faoliyat mutaxassislik va kompaniya standartlariga zid emasmi?

Tez-tez chegaradan chiquvchi mutaxassislik yoki kompaniya standartlari qonun tomonidan ko'rilib chiqiladi. Bu esa ikkala taraf kompaniya va jamiyatning qiziqishlarini olgan holda qaror qabul qilish kafolatini beradi.

3. Kim faoliyat tomonidan harakatga keladi va qanday qilib?

Qarorlar qonuniy va professional yoki kompaniya standartlari ko'rinishida bo'lishi mumkin. Qaror qabul qiluvchilar ishchilar, haridorlar, raqobatchilar, va tashqi muhit o'sishidagi o'zgarishlarini e'tiborga olishlari kerak.

Tanqidiy fikrlash

1. Etik qarorlarni talab qiladigan, ishchilar va xaridorlar tomonidan yuz keladigan vaziyatlarga namunalar keltiring.
2. Agar Etik ko'rsatmalar mavjud bo'lmaganida biznes faoliyatining rivojlanishini tasvirlab bering.
3. Yangiliklarda namoyish etilgan etik vaziyatlarini o'rganing. Qanday qilib bu vaziyatlar ishchilar, sinvestorlar, va boshqakarga ta'sir ko'rsatadi.

Siz uchun axborot(fyi)

1980va 1990-yillar oarlig`ida Janubiy Amerika mamlakatalaridan ba`zilari yillik hisobda juda katta miqdorda bo`lgan 300-400 foizlik inflyatsiyaga uchragan.Bu esa Giperinflyatsiya nomi bilan mashhur.1985-yilda Bolivia yillik hisobda 12000 foiz miqdorida inlfyatsiya kuzatilgan.Oxirgi marta bunga o`xshash ko`rsatkich, Afrikada Zimbabveda yillik hisobida 230 million foizli inlfyatsiya bo`lib o`tgan.



YIM dipressiya vaqtida juda kata tezlik bilan pasayadi.Baxtimizga, bizning iqtisodiyot 65 yildan buyon dipressiyaga uchramagan.1930-1940 yillar AQSH tarixida Buyuk Dipressiya nomi bilan iz qoldirgan.Tahminan AQSH ning 25% ishchi kuchi ishsiz qolgan.Ko`pchilik insonlar o`zlarining kundaliq muxtojlarini qondira olishmagan.

Qayta tikanish

Iqtisodiy pasayish butun umr davom etmaydi.Biznes faoliyati siklining yoqimli fazasi qayta tiklanish boshlanadi.**Qayta tiklanish** fazasida ishsizlik kamayadi,maxsulot va xizmatlarga bo`lgan talab ortadi va YIM yana o`sisni boshlaydi.

Odamlar ishlay boshlashadi. Xaridorlar kelajaklariga va o`zlariga ishonishib yana sotib olishni boshlashadi. Qayta tiklanish tez yoki sekin bo`lishi mumkin. Agar u davom etsa, xalq ham gulab-yashnaydi.

Nazorat nuqtasi

Biznes siklining 4 bosqichlari qaysilar?

2-Maqсад :Inflyatsiya va deflyatsiyaning sabalari
Harid buyumlarining narxlari.

i

Siz biror marta olayotgan buyumingizning o`l-

chovi kichrayganu, narxi esa o`sha-o`sha bo`lgan vaziyatni kuzatganmisiz?Siz yangi texnologik maxsulotlarni oldingisiga qaraganda unchalik qimmat bo`lmagan narxda sotib olganmisiz?Bularning barchasi sizning milliy pul birligida sotib olish quvvatining o`zgarishi natijasidir.

Inflyatsiya

Ko`pchilik mamlakatalar to`qnash keladigan muammolarning biri bu inflyatsiyadir.Inflyatsiya bu umumiy narxlar darajasining oshishidir. Inflyatsiya davrida sotib olish quvvati pasayadi. Agar narxlar o`tgan yil hisobida 5%ga oshgan bo`lsa, 100\$ narxdagi buyumlarni endi bu yil 105\$ narxda sotib olishingiz mumkin bo`ladi. Bu esa xizmatlar va mahsulotlarni sotib olish uchun ko`proq pul talab etadi.

Inflyatsiya asosan o`zgarmas miqdordagi oylik oladigan insonlarga sezirarli ta`sir etadi.


Inflyatsiya sababli, nafaqadagi odamlar vakimning maoshi o`zgarmaydigan bo`lsa oldingiga nisbatan kamroq maxsulot yoki xizmatlar bilan cheklanishga to`g`ri keladi.

Inflyatsiya sabablari

Inflyatsiyaning bir turi, tovar yoki xizmatga bo`lgan talab miqdori taklif miqdoriga nisbatan yuqori bo`lganda namoyon bo`ladi.Katta miqdordagi olingan qarz yoki ishlab topilgan pul miqdori cheklangan tovarlarga sarflanganda, narxlar oshadi.

Oylik maosh(Ishchi kuchi uchun to`lanadigan pul miqdor)ining oshishiga qaramasdan,maxsulot va tovarlar narxi odatda shunchalik tez o`sadiki, natijada faqat maosh hisobidan xaridlar qiladigan ishchi hech qachon ehtiyojlarini to`liq qoplay olshmaydi. Ko`pchilik insonlar inflyatsiyani zararli deb o`ylashadi. Xaridorlar sotib olayotgan buyumlariga qimmatroq narxda to`lov qilishlariga to`g`ri keladi. Shu sababli, ishchilar o`zlarining odatiy turmush tarzini saqlab qolish uchun ko`proq pul topishlariga to`g`ri keladi. Ishlab chiqaruvchilar o`zlari sotayotgan xizmat va maxsulotlarni qimmatroq narxlashlari mumkin.Agar ish-haqqi narxlarga nisbatan tezroq osha boshlasa, biznesmenlar kamroq ishchilarni yollashga to`g`ri keladi va ishsizlik o`sa boshlaydi.

Inflyatsiyani o'lash



Inflyatsiya tez-tez o'zgarib turadi. 1950-yillar oxiri va 1960-yillar boshi oralig'ida AQSH-dainflyatsiyaning ko'rsatkichi yiliga 1-3%ni tashkil etgan. 1970-1980 yillar oralig'ida aholining o'rtacha turmush tarzi 10-12%ga yillik ko'rsatkichda oshdi. O'rtacha inflyatsiya (yiliga 2-3% miqdorida) iqtisodiy o'sish sababchisi bo'lishi mumkin. O'rta inflyatsiya vaqtida ish-haqqi maxsulot yoki xizmat narxiga qaraganda sekinroq oshadi. Maxsulot savdosidagi narxlar ishchi kuchining narxi bilan bog'liq holda o'sadi. Ishlab chiqaruvchilar foydaning oshishi hisobiga, ko'proq maxsulot ishlab chiqarishadi va ko'proq ishchilarni yollay boshlashadi. Yangi yollangan ishchilar sarfni oshiradi va iqtisodiyotdagi yalpi talab oshadi.

AQSH da, inflyatsiyaning eng ko'p uchraydigan o'lchov birligi sifatida Iste'molchi Narxi Ko'rsatkichi (INK) deb olinadi. Yashash narxi bu o'lchov miqdori bo'lib, u mazkur yildagi yashash narxini undan oldingi yildagi yashash narxi bilan solishtirish natijasida aniqlanadi. Narxi ko'rsatkichining turli xil ko'rinishlari mavjud.

Inflyatsiya ko'rsatkichi aldamchi bo'lishi mumkin, chunki yashash narxi ko'rsatkichi bir

guruh tanlangan birliklarga asoslangan bo'ladi. Ko'pchilik insonlar ko'rsatkich hisob-kitobidan foydalangan holda tahmin qilishgan narsalarni sotib ololmaymiz degan noto'g'ri fikrda bo'lishadi. Yashash uchun kerakli birliklar (oziq-ovqat, gaz, sog'liqni saqlash) narxlari muhim bo'lmagan maxsulotlarga nisbatan tez oshishi mumkin, bu xolatni tushish ehtimoli bor. Yuqorida keltirilgan inflyatsiya natijalari haridorlar tomonidan Yashash narxining oshish hisoblaridan pastroqdir.

Deflyatsiya

Inflyatsiyaga teskari tushuncha Deflyatsiyadir. Deflyatsiya umumiy narx ko'rsatkichining pasayishidir. Bu holat odatda narxlarning tushib ketishi va dipressiya vaqtida namoyon bo'ladi. Maxsulot narxlari patsroq, lekin insonlarda esa ularni sotib olish uchun yetarlicha pul yo'q.

Muhim deflyatsiya 1930 yillardagi Eng Yuqori Depressiya davomida AQSH da kuzatilgan. Misol uchun, 1929 – 1933 yillar oralig'ida narxlar tahminan 25%ga pasaydi. Deflyatsiya ma'lum bir maxsulotlar uchun ta'sir qilishi mumkin. So'ngi yillarda, texnologiyalar rivojlangani sari, kompyuter va boshqa elektron quurilmalarning narxi pasaydi.

Inflyatsiyaning asosiy sabablari nimalardan iborat?

Foiz stavkasi

Oddiy qilib aytganda, foiz stavkalari pulning narxini ifodalaydi. Huddi boshqa narsalar kabi pulning ham narxi mavjuddir. Biznes faoliyatida foiz stavkasining ahamiyati juda katta.

Qarz olgan kompaniya va mamlakatlar foiz stavkasi tomonidan zarar ko'rishi mumkin. Yuqoriroq foiz stavkalari ko'proq biznes xarajatlarini anglatadi.

Haridor sifatida sizga ham foiz stavkasi ta'sir ko'rsatadi. Siz investor yoki jamg'armachi sifatida oladigan foiz miqdori (foйда) joriy foiz stavkalarida o'z aksini topadi. Shunigdek haridorlar ham qarz olishadi. Past kredit ko'rsatkichli insonlar yuqori ko'rsatkichlilarga nisbatan yuqori kredit foizlarini to'lashadi.

**GURUH
BO'LIB
ISHLANG**

Foiz stavkalari iqtisodiyotimizning ko'pchilik jabhalariga ta'sir ko'rsatadi. Jamoa bo'lib "Foiz stavkalarining 7 turini" o'rganib chiqing. Undan keyin, bizning iqtisodiyotimizda kimlar ushbu foiz stavkalari turlari tomonida ko'proq ta'sir ko'rsatilishi haqida ma'lumotnoma yozing.

Foiz stavkalari turlari

Foiz stavkalarining ko'p turlari har bir iqtisodiyotda mavjuddir. Ushbu stavkalar turli muhitlarda turli narxlarni ifodalaydi. Foiz stavkalarining ba'zi birlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Bazis stavkasi – bu banklar tomonidan eng yaxshi xaridorlar – katta korporatsiyalar uchun taklif qilinadi.
- Hisob stavkasi – Fideral Rezerv Bankidan mablag' olgani uchun moliyaviy muassasalardan olinadigan foiz stavka.
- G'aznachilik chiqargan veksel stavkasi – AQSH hukumati obligatsiyalari bo'lib qisqa muddat (13 hafta) dagi foiz stavkasi.

- Uzoq muddatli stavka (treasury bond) – AQSH hukumati obligatsiyasi bo'lib uzoq muddat (30 yilgacha) lik foiz miqdori.

- Ipoteka stavkasi – Yangi uy olish uchun olinadigan kredit foizi.

- Korporatsiyalar stavkasi – AQSH-dagi yirik korporatsiyalar uchun beriladigan kredit foizi.

- Depozit sertifikat stavkasi – Byudjet institutlaridagi muddatli depozitlar uchun foiz miqdori.

Foiz stavkalarini o'zgarishi

Har kuni pulning narxi turli sabablarga ko'ra o'zgarib turadi. Pulga bo'lgan talab va taklif foiz stavkalariga ta'sir o'tkazuvchi asosiy omil hisoblanadi. Depositga qo'yiladigan pul miqdori oshgan sari, foiz stavkalari tushib boradi. Ko'proq mablag'lar mavjudligi bunga sabab bo'ladi. Xaridorlar, biznesmenlar, va hukumat olgan qarz oshib borsa, foiz stavkasi ham oshib boradi.

2-2 TAHLIL

Tekshirib ko'ring ✓
Foiz stavkalari bizning iqtisodiyotimizdagi biznes faoliyatlariga qanday ta'sir ko'rsatadi?

Kalit so'zlar

Eng to'g'ri javobni tanlang.

1. Rost yoki yolg'on. Deflatsiya sotib olish qobiliyatining pasayishiga olib keladi.
2. Rost yoki yolg'on. Xaridorlar qarzi miqdorini oshirishsa, foiz stavkalari kamayadi.
3. Ishsizlik eng yuqori bo'lgan biznes siklining davri qaysi?
 - a. Pasayish
 - b. Qayta tiklanish
 - c. Rivojlanish
 - d. Dipressiya

Akademik aloqalar o'rnatish

4. **Geografiya.** Boshqa mamlakatlardagi biznes faoliyati sikllari haqida ma'lumotlarni yig'ing. Ushbu mamlakatlar iqtisodiy faoliyatlarda bir xil o'zgarishlarga duch kelishadimi?
5. **Tarix.** Giper inflatsiya haqida ma'lumot yig'ing. Boshqa mamlakatlarda yuqori inflatsiyaga nima sabab bo'ladi? Ushbu muammolarni yechishda qanday chora-tadbirlar qo'llaniladi?
6. **Matematika.** Vaqt o'tishi bilan foiz stavkalari o'sadi va pasayadi. Agar Jamg'arma hisobidan to'lanadigan stavka 4.6% bo'lgan bo'lsa va hozirda 2,8% ni tashkil etsa, ushbu vaqt oralig'idagi foiz stavkasi necha foizga o'zgaradi?

Ekvadorda biznes yuritish

Ekvadordagi savdogarlar va do'kondorlar sizning haridingiz uchun AQSH dollarlarni olishdan juda xursand, ammo sizning valyutangiz Amerikada uchraydigan 25,10,5 va 1 sentlardan iborat bo'lmashligi mumkin.

Ekvadorda AQSH dollari 2000 yilda kirib kelganiga qaramasdan, milliy valyuta birligi ham joriy qilingan. Muomalada ikkala Ekvador va AQSH valyutalari qo'llaniladi.

1990-yil oxirlarida Ekvador ko'plab iqtisodiy qiyinchiliklarga boshdan o'tkazdi, inflyatsiyaning yuqori ko'rsatkichlari, qashshoqlikning rivojlanishi, va milliy valyuta Sukrening narxi tushib ketishi (o'zining oldingi narxiga). Ushbu muommolarni hal qilish uchun AQSH dollarini mamlakatda joriy qilindi. Dollarlashtirish mamlakatda inflyatsiyani nazorat qilish va investorlar uchun qulayroq imkoniyatlarni yaratishga yordam beradi.

Agar siz Ekvadorda biznes bilan shug'ullanmoqchi bo'lsangiz, biznes faoliyatlar uchun milliy kiyinishingizga to'g'ri keladi. Siz boshqalar bilan qo'l siltashib ko'rishishingiz lozim. Agar siz biznes hamkorlaringizni yaqindan tanisangiz, quchoqlashib ko'rishish odatiydir; ayollar esa ikkala yanoqqa havo bo'salarini jo'natishlari mumkin.

Biznes uchrashuvlar iltifotlar almashinuvi bilan boshlanadi.

Ekvadorda oilaning muhimligi mana shunday uchrashuvlarda o'z aksini topadi. Suxbatda siyosiy mavzular va Peru davlati bilan a'loqalar to'g'risida suhbatlashmang.

Siz uchrashuvga vaqtda borishingiz kerak, lekin uning vaqtida boshlanishini kutmasangiz ham bo'ladi. Ijtimoiy yig'ilishlarga aytilgan vaqtdan 30 daqiqa kechikib borishingiz mumkin. Obed odatda 1 va 2 soatlar orasida bo'lib o'tadi. Tushlikka chaqirilganlarni hisob olib, tungi 11 da ovqatlanishga tayyorlaning.

Maxsulot yoki xizmatlarni sotish uchun mahalliy agent juda zarurdir. Ushbu vakil Ekvador hukumati bilan biznesni tashkillashtirishda muhim rol o'ynaydi. Mahalliy huquqshunos bilan ishlash mamlakatning qonun tizimlaridagi harakatni osonlashtiradi.

Tanqidiy o'ylang.

1. Mamlakatda AQSH dollarini rasmiy valyuta sifatida ishlatayotgan davlatning qanday foydali va kamchilik taraflari bor?
2. Ekvadordagi xaridorlar siz bilgan boshqa xaridorlardan nimasi bilan farq qiladi?
3. Ekvadordagi biznes faoliyat va iqtisodiy sharoitlar haqida internetdan yoki kutubxonalardan qo'shimcha ma'lumotlar yig'ing.



2-3 Biznes faoliyatining boshqa o'lechlari



Maqsadlar Kalit so'zlar: Haqiqiy hayotga nazar tashlash

	Kapital loyiha	44
1 Iqtisodiy o'sishni rivojlantiruvchi investitsiya faoliyatini muhokama qilish	Zahira	45
	A'loqa	45
	Budjet ortiqchaligi	46
	Budjet kamchiligi	46
	Milliy qarz	46
2 Hukumat, biznes, va xaridorning qarzdorlik faoliyatini tushuntirib berish		
3 Iqtisodiy o'sishning kelajakdagi muammolarini tasvirlash		

“Eddi, ana u yangi oyoq kiyimimi?” – so’radi Fritz
 “Ha” – javob berdi Eddi, “Senga yoqdimi?”

“Ha juda ham, ammo men seni yangi mashina sotib olish uchun zahira yig’ayabsan deb o’ylagandim”

Agar siz pulingiz borini sarflayversangiz, kelajakda mashina sotib olishga yetarlicha pulingiz bo’lishini kutmasangiz ham bo’laveradi. Bugungi tejamkorligingiz kelajakdagi haridlarni amalga oshirishda yordam beradi. Oddiy qilib aytganda, tejash va investitsiyalar mamlakat iqtisodiyoti o’sishining asosidir. Hukumatlar, bizneslar va haridorlar kelajaklari uchun tejashlari va investitsiyalar qilishlari lozim.

Aholining ehtiyojlarini qondiradigan xizmatlarni taqdim etish uchun hukumat o’z fondiga ega bo’lishi kerak. Kelajakda foyda olish uchun kompaniyalar kerakli qurilma va boshqa foydali manbalarga ega bo’lishi kerak. Boshqa shaxslar esa hozirgi harajatlardan va kelajakdagi iqtisodiy havfsizlik o’rtasidagi muvozanatni saqlashlari kerak.

INVESTITSIYA FAOLIYATLARI

Kelajakda foyda olish uchun investitsiya kiritish turli xil usullar orqali amalga oshiriladi. Sizing maktabda o’tkazgan vaqtingiz sizning kelajakka kiritgan investitsiyangizdir. Kompaniyalar binolar va qurilmalarni sotib olganda, ular kompaniya kelajagiga investitsiya kiritayotgan hisoblanadi.


Umumiy xarajatlar biznes tashkiloti tomonidan uzoq muddat davomida ishlatiladigan birlik uchun sarflangan pul hisoblanadi. Kapital loyihalar biznes tashkilotlari tomonidan qilingan xarajatlarni (yer, binolar, uskunalar va yangi maxsulotlar uchun) o’z ichiga oladi. Kapital loyihalarga pul asosan 3 manbadan keladi: shaxsiy zahiralardan, aksiya investitsiyalari va obligatsiyalar.

Shaxsiy zahiralalar

Investitsiya fondlarining muhim qismi shaxsiy zahiralardir. Kompaniyalar sizning bankga yoki boshqa moliyaviy muassasalarga qo’yan omonatingizni ishlatadi. ochishda pullarni ishlatishadi. Bu fondlar

yangi maxsulotlar yaratish yoki qimmat qurilmalarni sotib olishga ishlatiladi. Buning evaziga, pul qo’yanlarga qo’yan omonatiga qarab foiz to’lanadi.

Davlatning zahira ko’rsatkichi iqtisodiy o’sish uchun asosiy omil hisoblanadi. So’ngi yillarda, AQSH da xususiy zahira ko’rsatkichi biroz pasaygan, odatda 1% dan pastki ko’rsatkichda. Bu kelajakda iqtisodiy muammolarga olib kelishi mumkin.



Maqsad 1

Iqtisodiy o'sishni rivojlantiruvchi investitsiya faoliyatini muhokama qilish

Fond birjasi

Korporatsiyalar biznes tashkilotlarining asosiy turi sanaladi. Ko'pchilik odamlar investitsiya kiritishi orqali korporatsiya egalariga aylanishadi. Aktsiya korporatsiyaga egalik qilish huquqini beradi. Aktsiyaga egalik qilish odatda aktsiyaонерlik kapitali deb atashadi. Bu so'zning ma'nosi "Xususiy" deganidir. Aktsiya ulushlarining qiymatiga ko'p omillar ta'sir ko'rsatadi. Ya'ni, talab va taklif asosiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar hisoblanadi. Agar kompaniyaning daromadi yuqori bo'lsa, ko'pchilik insonlar uning aksiyalarini sotib olishga harakat qilishadi. Bu esa narxning oshishiga olib keladi.

Obligatsiyalar bozori

Yana bir investitsion faoliyat o'z ichiga obligatsiyalar sotuvini oladi. Obligatsiya kompaniya uchun beriladigan qarz

sifatida akslanadi. Agar siz kompaniya yoki davlatning obligatsiyasini sotib olsangiz, siz kreditor bo'lasiz. Bu degani siz tashkilotga qarz bergansiz. Buning evaziga, Obligatsiya egalarigaga pullari ishlatilgani uchun foiz miqdorlari to'lanadi.

Tekshirib ko'ring! : Kapital loyihalarning bir nechtasini nomini keltiring.

Tekshirib ko'ring ✓
3 ta asosiy rasmiy to'siqlar qaysilar?

QARZ OLISH

"Hozir ol, keyinroq to'la" – iborasi dunyodagi ko'pchilik iqtisodiyotlarda namoyon bo'ladi. Hukumatlar, biznes tashkilotlari, va haridorlar tomonidan olingan qarzlarning iqtisodiyotga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Maqsad 2

Hukumat, biznes, va xaridorning qarzдорlik faoliyatini tushuntirib berish



XXI asrda **Biznessga nazar**

Ekologik xavfsiz texnologiya: Energiyaning muqobillari va Ekologik xavfsiz maxsulotlar.

Ekologik xavfsiz texnologiya (EXBT) iborasi ekologik xavfsiz bo'lgan turli xil mahsulotlar va xizmatlarga nisbatan ishlatiladi. Shuningdek u investorlar, tadbirkorlar, xizmat bilan ta'minlovchilar o'rtasida ekologik xavfsiz maxsulotlarni rivojlantiruvchi tashkilotning nomini bir qismi hamdir.

Ekologik xavfsiz biznes tarmog'i (EXBT) atrof muhitga zarar keltirmaydigan innovatsiyalarni rivojlantirish uchun axborot, onlayn xizmatlar, va ta'lim jarayonlarining tarmog'i bilan ta'minlaydi. Guruh harakatining eng asosiy maqsadi foyda keltiradigan va atrof-muhitga zarar keltirmaydigan biznes faoliyatlarining muvozanatini

saqlashdir. Ekologik xavfsiz texnologiya shunchaki ijtimoiy javobgar bo'lishga qiziqmaydi. U shuningdek moliyaviy muvaffaqiyatga erish uchun nima kerakligini ham tushunib oladi. Ekologik xavfsiz texnologiya – turli toza va ekologik xavfsiz texnologiyalarning rivojlanishi va ularga investitsiya kiritishni rag'batlantirish va ommalashtirishga harakat qiladi. Ekologik xavfsiz texnologiya kompaniyasi tarmog'iga kiruvchi kompaniyalar kichik narxlarda loyihalashtirilgan katta assortimentdagi tovarlar, xizmatlar bilan shug'ullanadi. Shu bilan birga, usbu biznes faoliyatlari hayot sifatini yaxshilash maqsadida ekologik muammolarni kamaytiradi yoki umuman ularga chek qo'yadi.

kompaniyalar va investorlar uchun birdek muammo shuki, "Ekologik

xavfsiz texnologiya" nomi EXBT standartlariga to'g'ri keladigan maxsulot va xizmatlar uchun ishlatiladi.

Ko'pchilik tashkilotlar investorlarni o'zlarining mahsulotlarini "Ekologik toza mahsulot deya" jalb etishsada, lekin ularning maxsulotlari atrof muhitga foyda keltirmaydi.

Tanqidiy fikrlang

1. Qanday qilib xaridorlar, bizneslar va iqtisodiyot ekologik toza faoliyatdan foyda oladi?
2. Ekologik toza mahsulot ishlab chiqaruvchi kompaniyalar bilan qanday muammolar bog'liq?
3. Internetdan yoki kutubxonalardan Ekologik toza mahsulot yoki xizmatlar to'g'risida ma'lumotlar yig'ing.

GURUH BO'LIB ISHLANG

Aholi uchun iqtisodiy va ijtimoiy faoliyatda qatnashish muhim rol hisoblanadi. Jamoa bilan ishlagan holda, e'tibor qaratish kerak bo'lgan mavzuni tanlang. Hukumat, biznes tashkilotlari va iste'molchilar bu masalani yechish uchun amalga oshiradigan say-xarakterlar ro'yxatini tayyorlang.

Hukumat Qarzi

Insonlar mahalliy hukumat, shahar yoki uyushmalardan xizmatlarni kutishadi. Ushbu xizmatlarning ma'lum pul summasini talab etadi. Odatda, hukumat turli-xil loyihalarni moliyalashtirayotganda qarz oladi. Qarz olish orqali yangi maktablar, jamoat uylari, mashina yo'llari va parklarni quriladi.

Hukumat to'plagan jamgarmasidan kamroq sarflasa, byudjet profositi yuzaga keladi. Agar profositi mavjud bo'lsa, hukumat soliqlarni kamaytirishi va turli yo'nalishlarga ajratiladigan pul miqdorini oshirishi mumkin.

Va aksincha, hukumat keragidan ortiqcha sarflab qilsa, byudjet tanqisligi yuzaga keladi. Vaqt o'tgan sari tanqisliklar shakllanib boradi. Federal hukumat to'laydigan umumiy qarz miqdori milliy qarz deb ataladi.

Biznes qarzdorlik

Ssuda, obligatsiyalar va ipoteka kreditlari biznesmenlar tomonidan qarz olishning umumiy usullari hisoblanadi. Ko'pchilik katta va kichik kompaniyalar vaqti-vaqti bilan qarzlarni olib turishadi.

Maqsad 3

Iqtisodiy o'sishning kelajakdagi muammolarini tasvirlash



Qarzlardan samarali foydalanish kompaniyalar uchun foydali bo'lishi mumkin. Boshqalarning fondlaridan foydalanish sotuv va foydani kengaytirishga yordam beradi.

Kreditdan foydalanish qulay bo'lishi mumkin. Ba'zi vaqtlari noto'g'ri qarorlar qabul qilinganda, qarzdorlik muammoga aylanadi. Qarzlardan noto'g'ri foydalanish natijasida kompaniya biznes faoliyatini to'xtatishiga to'g'ri kelishi mumkin.

Iste'mol krediti qarzdorligi

Insonlar haridlarini amalga oshirish uchun kredit kartalar, ipoteka kreditlari, avtomobil kreditlaridan foydalanishadi. Kreditlardan foydalanish qulay bo'lishi mumkin. Shunga qaramasdan, kreditdan ortiqcha foydalanish shaxslar va oilalar uchun qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

Kreditdan ehtiyotkorona foydalanish iqtisodiy o'sish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Farqlash uchun, ahmoqona olingan qarz sudlashuv va boshqa muammolarga olib kelishi mumkin.

Tekshirib ko'ring ✓
3 ta asosiy rasmiy to'siqlar qaysilar?

IQTISODIY MUAMMOLAR VA ZAMONAVIY BOZORLARGA MOSLASHISH

Rivojlangan iqtisodiy ishlab chiqarish iqtisodiy kengayish tufayli iste'molchilarning daromadlari va sotib olish quvvati o'sib borayotgan rivojlanayotgan bozorlarda namoyon bo'lyapti. Ko'proq ish o'rinlari va ishchilarning ko'proq maoshi olishi orqali, turmish tarzi yaxshilanadi.

Lekin ko'pchilik mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishga kerak bo'lgan texnologiya, ta'lim va biznes tizimlarda kamchiliklarga ega. Hozirgi kunda, biznes tashkilotlari va boshqa tashkilotlar iqtisodiyoti kuchsiz davlatlarga yordam berib kelishmoqda. Treninqlar, texnologiyalar, qarzlarni va boshqa yordamlar bilan ta'minlash orqali, ochlik, kasalliklar, toza suv muammolari va qashshoqlik muammolariga innovativ yechimlar rivojlantirilyapti.

Turli bozor ehtiyojlariga moslashish uchun kompaniyalar iste'molchilarning tanlovidan xabardor bo'lishi kerak. Biznes faoliyatining istiqbolida madaniyat, iqtisodiy muhit va siyosiy vaziyatlardan habardor bo'lish muhim ahamiyat kasb etadi. Hech kim kelajakda iqtisodiy vaziyat qanday bo'lishini aniq bilmaydi. Mamlakatdagi turmush tarzini saqlab qolish yoki rivojlantirish va ishsizlikni oldini olish uchun hukumat, biznes tashkilotlari, ishchilar va xaridorlar qilayotgan xarakatlariga e'tibor qaratishlari kerak. Ushbu hamkorlik yangi ish o'rinlarini yaratish va odamlarning ehtiyoj va xoxishlarini qondirishga yordam beradi.



Tekshirib ko'ring ✓

Kelajakda mamlakatlar qanday iqtisodiy muammolarga duch keladi?

2-3 TAHLIL

Kalit so'zlar

Eng to'g'ri javobni tanlang.

1. Aksiya ...ni bildiradi:

a. Hukumat tomonidan harajatlarning kamayishi

b. Kompaniyada egalik qilish

c. Kapital loyihani moliyalashtirish uchun qarz olish

d. Oshirilgan hukumat soliqlari

2. Quyidagilardan qaysi biri hukumatda budjet profitsitiga sabab bo'ladi?

a. Xarajatlarni oshirish

b. Xarajatlarni kamaytirish

c. Qarzlarni oshirish

d. Soliqlarning pasayishi

3. Rivojlanayotgan bozorlarda, xaridor daromadlari va harid quvvati ...

a. kamayadi

b. o'zgarib turadi

c. oshadi

d. muvozanatda turadi

Akademik aloqalar o'rnating

4. **Iqtisod.** Soliqlar keraklidir. Ular hukumat xizmatlarini kerakli pul miqdori bilan taminlaydi. Soliqlarning qanday turlari sizning fikringizcha jamiyat uchun eng yaxshidir?

5. **Ijtimoiy tekshiruvlar.** Kelajakda boshqa mamlakatarning iqtisodiy muammolari AQSHnikidan qanday farq qiladi?

2 BO'LIM tahlili

Biznes izohlari

2-1 Iqtisodiy faoliyatni baholash

Yalpi ichki mahsulot (YaIM) mamlakatda bir yil davomida ishlab chiqarilgan barcha tayyor maxsulotlar va xizmatlarning umumiy bozor qiymati. Yalpi ichki mahsulotni umumiy aholi soniga bo'lish orqali bir jon boshiga YaIM ning qancha ulushi to'g'ri kelishi aniqlanadi.

Mehnatning turli xil iqtisodiy o'lchovlari mavjud. Iqtisodiyotning ishchi kuchi o'z ichiga barcha 16 yoshdan yuqori bo'lgan hozirda ishlayotgan yoki ish izlayotganlarni oladi. Ishsizlik darajasi ishchi kuchidagi ishlayotgan odamlarning bir qismidir. Odamlar ishsiz hisoblanadi qachonki ular ish izlashayotgan va ishlashgaxoxishi bor lekin ish topa olmayotgan bo'lsa. Unumdorlik bu har bir ishchiga ishlab chiqarilgan mahsulotdan to'g'ri kelgan ulushi. Istemolchi sarf harajatlarning turli xil iqtisodiy ko'rsatkichlari bor. Shaxslarning daromadi ish haqi, maosh investitsiya kiritishdan keladigan daromad va davlatni o'z fuqarolariga beradigan turli to'lovlaridan iborat. Chakana savdo istemolchi tomonidan sotib olingan uzoq va qisqa muddatli mahsulotlar sotuvi hisoblanadi.

2-2 Iqtisodiy sharoitlarning o'zgarishi

Iqtisodiyotning yaxshi xolatdan yomonga o'zgarishivaavvalgi xolatiga qaytib kelishi biznes davri deb ataladi. Biznes davri(sikl)da 4 ta bosqich mavjud: rivojlanish, pasayish, inqiroz va qayta tiklanish.

Inflyatsiya narx darajalarining umumiy o'sishi hi-

soblanadi. Qachonki mahsulotlar va xizmatlarga bo'lgan talab takliflarga qaraganda yuqori bo'lsa inflyatsiya sodir bo'ladi. Deflatsiya narx darajalarining pasayishidir. Qachonki mahsulotlarning narxi past bo'lsayu, lekin odamlarda ularni sotib olish uchun kam pul bo'lsa, deflatsiya xolati kuzatiladi.

Foiz ko'rsatkichlari pulning qiymatini ifodalaydi. Pulga bo'lgan talab va taklif foiz ko'rsatkichlariga ta'sir ko'rsatadi.

2-3 Biznes faoliyatining boshqa o'lchovlari

Iqtisodiy o'sishni ta'minlaydigan investitsion faoliyatlar shaxsiy jamg'arma, korporatsiyaning ulushiga ega bo'lish uchun sotib olinayotgan aktiya va biznes tashkilotlari va davlat tomonidan chiqarilgan obligatsiyalarni sotib olishni o'z ichiga oladi.

Xukumatlar, biznes tashkilotlariva istemolchilar odatda turli xil xaridlarni moliyalashtirish uchun qarz oladi. Ehtiyotkorona qarz olishi iqtisodiy o'sish uchun muhimdir. Bir tomondan, axmoqona qarz olish boshqa muammolargava qonuniy harakatga sabab bo'lishi mumkin.

Iqtisodiy o'sishning ko'p qismi endi rivojlanib borayotgan mamlakatlarning bozorlarida sodir bo'lishi mumkin, mana shu mamlakatlarda mukammallashtirilgan texnologiya, ta'lim va biznes tizimini talab qilinadi. Turli xil iqtisodiy muammolar, jumladan, ochlik, kasallik, ichishga yaroqsiz suv, hamda kambag'allikni oldini olish uchun bir necha say-xarakatlar amalga oshiriladi.

Kichik biznesni bog'lash tushunchalari

1. YaIM davlat iqtisodiyotining eng yaxshi o'lchov birligi. Bu fikrga qo'shilishingiz yoki qo'shilmaligingizni tushuntiring.

2. A davlatning YaIMsi 400,000 dollar. B davlatning YaIMsi 800,000 dollar. Bu degani B davlatning YaIMsini jon boshiga to'g'ri keladigan ulushi A davlatnikidan ikki marta ko'pmi? Tushuntiring.

3. Mamlakatda mahsulot va xizmatlarni ko'proq ishlab chiqishga o'z hissasini qo'shadigan 3 ta omilni nomini

keltiring. Nima uchun bu omillar ishlab chiqarish samaradorligini oshirishini tushuntiring.

4. Ish samaradorligining o'sishi davlatning bo'sh vaqtiga qanday ta'sir qiladi? Ish samaradorligini o'sishi karyera imkoniyatlariga qanday ta'sir o'tkazishi mumkin?

5. Tasavvur qiling, bir nechta avtomobil va temirni qyta ishlovchi zavodlar yopilsa. Minglab ishchilar qisqa vaqt ichida ishlarini yo'qotishadi. Agar davlat o'zining iqtisodiy xolatidan qoniqsa, bu xolat yana qanday biznes davriga o'zgarishi mumkin? Yuz berishi mumkin bo'lgan boshqa xolatlarni tasvirlang.

6. Chakana savdo bu iste'molchilar tomonidan sotib olingan uzoq va qisqa muddatli maxsulot va xizmatlarning o'lchov birligi.

7. Biznes faoliyatining har bir siklida biznes tashkilotlari va hukumat qanday xarakatlarni amalga oshiradi?

8. Nima uchun inflatsiyaning yuqori ko'rsatkichi iqtisodiyot uchun xavfli

O'z biznes tilingizni rivojlantiring

Ro'yxati keltirilgan terminlarni o'z tarifi bilan moslashtirib chiqing.

11. Umumiy narx darajasida pasayish.

12. Iqtisodiyotning bir sharoitdan boshqa sharoitga harakatlanishi va avvalgi xolatiga qaytishi.

13. Biznes tashkilotlari tomonidan birliklarga, jumladan yer, bino va jihozlarga qilingan xarajat.

14. Bir yil mobaynida mamlakat miqyosida ishlab chiqarilgan barcha tayyor maxsulot va xizmatlarning umumiy qiymati.

15. Xukumat yig'ib olgan puliga nisbatan kamroq sarflaydi.

16. Yuqori ishsizlik davrida baholangan bosqich, kam istemolchi sotuvlari va biznes muvaffaqiyatsizliklari.

17. Tashkilot qarzini ifodalaydi.

18. Maosh va ish haqi shuningdek, investitsiyadan tushgan daromad va xukumatning shaxslarga qilgan to'lovlari.

19. Mamlakat butun aholisiga taqsimlangan YaIM.

20. Bir birlik yani bir ishchiga to'g'ri keladigan ishlab chiqarish hajmi.

21. Ishsizlik pasayishi sodir bo'ladigan , mahsulotlarga va xizmatlarga talab o'sadigan va YaIM o'sishni boshlaydigan davr.

22. Umumiy narx darajasining o'sishi.

23. Korporatsiyada mulkdorlikni ifodalaydi.

24. Xukumat yig'ib olgan puliga nisbatan ko'proq sarflaydi.

25. Ishchi kuchidagi ishlamayotgan odamlar qismi.

26. Istemolchi tomonidan sotib olingan uzoq va qisqa muddatli mahsulotlar sotuvi.

27. Ishsizlik darajasi past, biznes tashkilotlari

hisoblanadi?

9. Bu bobda muhokama qilingan ko'rsatkichlardan tashqari biznes va iqtisodiy faoliyatlarni baxolashda qo'llaniladigan boshqa axborot birliklari qaysilar?

10. Kelajakda oldini olinishi kerak bo'lgan iqtisodiy muammolar qaysilar?

ko'p mahsulotlar va xizmatlari ishlab chiqaradigan va ish haqi yaxshi darajada bo'lgan davr.

28. Oldingi yildagi narxlar bilan hozirgi narxlarni qiyoslovchi ko'rsatkich.

29. Talab, ishlab chiqarish va YaIM o'sishi pasayadi hamda ishsizlik darajasi oshishni boshlaydigan davr.

30. Federal hukumatdan olingan qarzning umumiy miqdori.

Kalit so'zlar

- a. Obligatsiya
- b. Budget tanqisligi
- c. Budget qoldig'i
- d. Biznes davri
- e. Kapital loyiha
- f. Deflatsiya
- g. Depressiya
- h. Bir odam boshiga YaIM
- i. Yalpi ichki mahsulot
- j. Inflyatsiya
- k. Milliy qarz
- l. Shaxsiy daromad
- m. Narx indeks raqami
- n. Unumdorlik
- o. Rivojlanish
- p. Pasayish
- q. Qayta tiklanish
- r. Chakana savdo
- s. Aktsiya
- t. Ishsizlik darajasi

Akademik aloqalarni o'rnatish

31. Texnologiya kompyuterlar va boshqa texnologiyalarning mamlakat YAIMsiga ta'sir etadigan usullarini tasvirlang.

32. Geografiya 5 ta mamlakatni tanlang. Har bir mamlakat uchun iqtisodiy ma'lumotlarni ko'rsatuvchi xarita yarating. Mamlakatlar o'rtasidagi farqlarni tushuntirib bering.

33. Ilm-fan Texnologiya ishlab chiqarish samaradorligini o'sishida asosiy vosita hisoblanadi. Kompyuterlar yoki boshqa texnologiyalardan foydalanish ishchilar samaradorligini oshirishda qanday yordam berishi haqida plakat yoki taqdimot tayyorlang.

34. Madaniyat Mamlakatlarda madaniyat qanday qilib samaradorlikni oshirishga yordam beradi? Samaradorlikni oshiruvchi yoki uni cheklovchi madaniy va siyosiy ta'sirlarni tasvirlab bering.

35. Matematika. Samaradorlik 2001-yil hisobida har bir ishchi uchun 21 birlikni tashkil etgan. Samaradorlik 2001 – 2006 yillar oralig'ida 20% ga oshgan. 2006 yil hisobiga samaradorlik qanchaga teng? Agar o'sishning qiymati saqlangan bo'lsa, 2011 yilda ko'rsatkich qanday bo'ladi? 2016-yildachi?

36. Matematika. Ishchilar har bir ko'rsatkich uchun

\$0.30 miqdorida to'lanadi. Yuqoridagi savollarda berilgan samaradorlik ko'rsatkichlaridan foydalanilgan holda 2006-yilda ishchilar soatiga qancha ishlab topishganini aniqlang. Agar ularning qiymati 2011-yilda \$0.35 ga va 2016-yilda \$0.40 ga oshgan bo'lsa, shu yillarda ishchilar soatiga qancha pul topishadi?

37. Tarix So'ngi 200 yil ichida Aqshdagi Biznes faoliyati siklini turli bosqichlari haqida ma'lumot izlang. Iqtisodiyotning o'sishi va pasiyishi grafigini yasang. Ushbu izlanishlardan qanday xulosaga keldingiz?

38. A'loqa. Hukumat, biznes, va haridorlarning qarz olishlari sabablarini va agar ushbu guruhlarning har biri ularni oqilona ishlatishmasa kelib chiqadigan muammolar haqida visual taqdimot tayyorlang.

39. Iqtisodiyot. Kompaniyalar misolida ularning fondini oshirish maqsadida olingan qarzlarni ishlatilishini tahlil qiling. Har tomonlama eng samarali xolatlarni tasvirlang.

40. A'loqa. 42-betdan 2 ta foiz stavkalarini tanlang. So'ngi 4 yoki 5 yil ichidagi stavkalarni internetdan izlang va grafik ma'lumotnoma tuzing. Ushbu stavkalarda o'zgarish sabablarini tushuntirib bering.

Qaror qabul qilish strategiyasi

YaIM ni aniqlashda, faqatgina tayyor maxsulot va xizmatlarni xisobga olinadi. Bu esa ba'zi bir ko'rsatkichlarni qaytadan sanashni oldini oladi. Misol uchun, Temir rudasi qazib oladigan kompaniya temir rudasini ishlab chiqaruvchi kompaniyaga rudalarni sotadi. Bu firmalar esa o'z navbatida Avtosanoatdagi avtomobil ishlab chiqaruvchi kompaniyaga temir homashyosini sotadi. Temir rudasi, temir homashyosiga aylantiriladi, temir esa oxirgi mahsulot avtomashinaga aylantiriladi bu esa so'ngi maxsulot – bir marta hisoblanadi. Quyidagi mamlakatimizda ishlab chiqariladigan maxsulot va xizmat turlarini ehtiyotkorlik bilan o'qing va savollarga javob bering.

a. Elektron duhovka, odatda sovga sifatida sotib olinadi.

b. Hukumat idoralariga o'rnatilgan telefon xizmatlari

c. plastik kuzovalr, kemalar yasovchi kompaniyalarga sotiladi

d. Uy hayvonlaringiz uchun gigienik xizmatlar.

e. Qog'oz, gazetalar chiqaruvchi kompaniyalarga sotiladi

f. Shahar hukumati tomonidan sotib olinadigan kompyuter

g. Sizning oilangiz uchun mo'ljallangan kompyuter

h. Ovqat tayyorlovchi firma tomonidan sotib olingan Brokoli.

41. Sanab o'tilganlardan qaysilari YaIM tarkibiga qo'shilishi va maxsulot sifatida ro'yxatga olinishi kerak? Javobingizga sabablarni keltiring.

42. Sanab o'tilganlardan qaysilari YaIM tarkibiga qo'shilishi va xizmat sifatida ro'yxatga olinishi kerak? Javobingizga sabablarni keltiring.

Maktab va Aholini birlashtirish

Har xil ishda ishlovchi ikki yoki uch insonni aniqlashtiring. Ulardan yillar davomida ishlarida bo'lib o'tgan o'zgarishlar haqida so'rang. Ushbu o'zgarishlardan qaysilari samaradorlikning oshishiga sababchi

bo'ladi? Samaradorlikni oshiruvchi boshqa sabalar ham bormi? Izlanishlaringizni umulashtiruvchi qisqacha ma'lumotnoma tayyorlang.

Web ishlanma

Bloglar izohlar, yangiliklar, va kuzatishlarni o'z ichiga oladi. Bu onlayn jurnallar boshqa kishilar bilan tajribalar va ma'lumotlarni bog'laydi. Bloglar har bir biznes mavzuda mavjuddir. Blogda joylashtirilgan ma'lumot Soliq Fondidagi iqtisodchidan tortib ishsiz haridorgacha bo'lgan insonlar foydalanishi mumkin. Blogdagi ma'lumotlarga ishonishdan oldin extiyotkor bo'lishi kerak. Doim ma'lumotlarni boshqa manbalardagilari bilan taqqoslab turing.

Tanqidiy fikrlang

1. Joriy iqtisodiy holatga bog'liq bo'lgan blogni toping. So'ngi habarlardan ba'zilarini keltiring.
2. Blogdagi ma'lumot mos bo'lishiga ishonch hosil qilish uchun qanday amallarni bajarishingiz kerak?
3. Oddiygina uni sahifalamasdan, siz blogga jonatmoqchi bo'lgan fikrlaringizni yozing.

Tezkor-xizmat Restoran boshqaruvi Rol-o'yini jarayoni ketma-ketligi

DECA ketma ketligi jarayoni ishtirokchilarni biznesning roli o'yini uchun harakatlar rejasini rivojlantirishga da'vat etadi. Sizga ro'l o'yiniga bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlar holatini o'z ichiga olgan yechimni topish uchun 10 daqiqa beriladi. Qatnashuvchilarga o'zlarining harakat rejasini hakamga tushuntirib berishlari uchun 5 daqiqa beriladi. Harakatlar rejasini haqida tug'ilgan savollarga javob berish uchun hakamda qo'shimcha 2 daqiqa vaqt bo'ladi.

Pearlning kichik restorani besh yildan beri biznes faoliyatida bo'lib kelmoqda. U aholisi 5000 ming ta bo'lgan jamiyatning asosiy yo'l yoqasida joylashgan. Restoran iqtisodiyot yuqori darajada o'sgan davrda qurilgan va faoliyatning dastlabki 5 yilligida biznes asta sekin rivojlangan. Hozirgi iqtisodiy pasayish biznes muhitini tubdan o'zgartirib yubordi. Ishsizlik 12% ga oshgan, Pearl uchun daromad o'tgan yilgiga nisbatan 25%ga kamaygan. Menyudagi mahsulotlar narxi o'rtacha \$3.5 dan \$8.5gacha oshib ketgan; restoran naqd pullari va mahalliy cheklarni to'lov uchun qabul qiladi. Pearl mahalliy gazetada reklama berdi va og'izdan-og'izga o'tuvchi reklamadan foydalandi. Oshxonada ertalab soat 7 dan kechgi 9gacha faoliyat yuritadi. Siz esa pasayish davrida Pearlning biznesini rivojlantirish uchun maslahatchi sifatida yollandingiz. Siz

restoranning joylashuvi, menyudagi taomlar, mahsulotlari, faoliyat vaqti va reklamalarni e'tiborga olgan holda marketing strategiyasini tuzib berish talab etiladi. Sizning rejangiz barcha ko'rsatkichlarni o'z ichiga olishi kerak.

Bajarish ko'rsatkichini baholash

- Biznesdagi pasayishning iqtisodiy ta'sirini tasvirlang.
- Haridorlarning sotib olishdagi xulq-atvorini tushuntiring
- Kompaniyaning yagona bo'lgan sotuv yo'lini aniqlang
- Maxsulotlarning imkoniyatlarini aniqlang.
- Lavozimning oshishining turlarini tushuntiring

Bajarish ko'rsatkichlari haqida ko'proq ma'lumot olish uchun DECA ning saytiga tashrif buyuring.

Tanqidiy fikrlash.

1. Pasayish haridorlarning sotib olish hulq-atvoriga qanday ta'sir etadi?
2. Aholi soni bilan birgalikda Pearlning joylashuvi biznesini rivojlantirishda qanday yordam beradi?
3. Hozirgi pasayish vaqtida qanday targ'ibot faoliyati uning restoraniga ko'p haridorlarni olib keladi?
4. Biznesni rivojlantirish uchun Pearlga qanday reklama strategiyalarini o'rganishi kerak?

3 Global iqtisodiyotda BO'LIM biznes



3-1 Xalqaro biznes asoslari

3-2 Xalqaro savdo markazlar

3-3 Xalqaro biznes tashkilotlari

Xalqaro biznesda kasbni rejalashtirish

Global biznes faoliyatlari ko'plab ish bilan ta'minlash imkoniyatlarini yaratadi. Kasblar to'g'ridan to'g'ri tashqi savdo, xorijiy distributorlik markazlari bilan bitimlar tuzish, kemalardagi tashishlarni tartibga solish va Amerikadan horij spesifikatsiyalariga yuboriladigan mahsulot o'zgarishini rejalashtirish kabilarni o'z ichiga oladi. Bu vazifalarni amalga oshirishda xalqaro biznes mahorati juda muhim ahamiyat kasb etadigan bir

Aloqador kasblar

- * Bojxona inspektori;
- * Tarjimon;
- * Global xaridlar manajeri;
- * Yuk tashish inspektori;
- * Xalqaro marketolog;
- * Xalqaro marketing menejeri;
- * Export va importni muvofiqlashtiruvchi

paytda, ularga ishdagi mavqe ta'sir etmasligi mumkin chunki ishchida ko'pincha export va import bilan bog'liq bo'lmagan vazifalari bo'ladi. Yetkazib berish bo'yicha boshqaruvchilar masalan, ikkala dengizorti begona va mamlakat ichidagi kemada jo'natishlar kema boshqaruvchilari o'rtasidagi bitimni o'z ichiga oladi. AQSHni

taqiqlangan import va exportdan himoyalash maqsadida Qo'shma Shtat bojxona xizmati agentlari dengizdan o'tuvchi xorijiy va mahalliy kemalar, shaxslar va mahsulotlarni tekshiruvdan o'tkazadi.

XALQARO BIZNESDA ISH FAOLIYATI IMKONIYATLARI TAHLILI

Xalqaro biznesdagi ish faoliyati haqida ko'proq ma'lumot o'rganmoqchi bo'lsangiz kutubxonalar va Internet resurslaridan foydalaning. Yuqoridagi qutida keltirilgan kasb unvonlaridan birini tanlang va quyidagi savollarga javob bering.

1. Bu sohadagi daromad potensialini qanday ifodalaysiz?
- Global pulbirliklarining qiymatiga 3 ta asosiy ta'sir bor: to'lovlar balansi, iqtisodiy sharoit va siyosiy barqarorlik.

Biznes tushunchalarni bog'lang

1. Mamlakat eksport va importiga ta'sir ko'rsatuvchi muayyan ustunlikni tasvirlang.
2. Jamiyat yoki xalqning to'li mustaqil bo'lishi nima uchun qiyinligini tushuntiring.
3. Qanday qilib xalqaro biznes hamkorligi ko'p mamlakatlardagi odamlar uchun yaxshining yaxshiroq standarti bo'ladi.
4. AQSHda xorijiy kompaniyada ish yuritish uchun qanday munosabat va xatti-harakatlar qiyinchilik tug'diradi.

3-2. Butunjahon bozori

- Xalqaro biznes muhiti 4 ta asosiy tarkibiy qismdan iborat: geografiya, madaniy ta'sirlar, iqtisodiy rivojlanish, siyosiy va qonuniy aloqalar
- Xalqaro savdoning 3 ta qonuniy to'siqlari: kvotalar, tariflar va embargolar.
Kvota – bu berilgan vaqt mobaynida eksport yoki import mahsulotlari miqdoriga qo'yiladigan chegara.
Bojxona to'lovi – muayyan import qilingan mahsulotga qo'yiladigan soliq.
Embargo - taqiq mahsulotning importi va eksportini butunlay to'xtatish.
- Xalqaro savdoni rag'batlantirish maqsadida ochiq savdo zonalarini, ochiq savdo sharnomalari va umumiy bozorlar tuziladi.

3-3. Xalqaro biznes tashkilotlari

- Ko'p millatli kompaniyalar ko'plab mamlakatlarda biznes faoliyatni yuritadilar va ular biznesni jahon miqyosida olib borish imkoniga egalar.
- Butunjahon biznesi uchun ishlatiladigan asosiy metodlar: litsenziyalash, imtiyozlash va qo'shma korxonalar.
- Butunjahon Savdo Tashkiloti dunyo bo'ylab savdoni qo'llab quvvatlash uchun tashkil etilgan.
Xalqaro valyuta fondi xalqaro savdo tizimi va ayirboshlash ko'rsatkichini bir maromda saqlagan holda qo'llab quvvatlashga yordam beradi.
Jahon Banki rivojlanayotgan mamlakatlarni iqtisodiy yordam bilan ta'minlaydi.

5. Quyidagilardan odatiy va noodatiy savdo to'siqlarini misollarini ajrating.
 - a. qonun yakshanba kuni do'konlar yopilishiga muhtoj.
 - b. ma'lum oziq-ovqatlarni yemaslik haqidagi fikrlar
 - c. kitoblar savdosidagi maxsus soliq
 - d. oziq-ovqatlarni qadoqlashdagi berilgan foydali ma'lumotlar
 - e. oila a'zolarini bir tashkilotda ishlash uchun yollash

6. Xalqaro biznes bilan shug'ullanuvchi qo'shma korxonaga foyda bo'ladigan kompaniya vaziyatlari xususida aytib bering.
7. Mamlakat ba'zan uning yangi va rivojlanayotgan sanoatini himoya qilish uchun yuqori narxlardan foydalanadi. Qo'shma shtatlardagi yoki boshqa davlatlardagi yangi va rivojlanayotgan sanoatlarga 2 ta misol keltiring. Nima deb o'ylaysiz bunday turdagi sanoatlar yuqori narx qo'yish orqali himoya qilinishi kerak deb o'ylaysizmi? Agar shunday bo'lsa qancha vaqt ular himoya qilinishi kerak?

Biznes tilingizni rivojlantiring

Ta'riflari bilan birga atamalar ro'yxatini tuzing.

9. Boshqa mamlakatda sotilgan tovar va xizmatlar .
10. Berilgan vaqt ichida import va eksport qilinishi mumkin bolgan maxsulot miqdori bo'yicha chegara.
11. Hukumatning erkin savdodagi cheklolarni kamaytirishi.
12. Bir necha mamlakatlarda biznes olib boruvchi tashkilot.
13. Bir mamlakat pul qiymati boshqa mamlakat pulida aks etadi.
14. Tovarlar va xizmatlar boshqa mamlakatdan sotib olinadi.
15. Ma'lum bir maxsulot yoki xizmatni eksport yoki import qilinishini to'xtatish.
16. Turli mamlakatlardan 2 yoki undan ortiq kompaniyalar o'rtasida biznes loyixani baxam ko'rish uchun kelishuv o'rnatish.
17. Mamlakatning umumiy eksport va import maxsulotlari orasidagi farq.
18. Ma'lum import maxsulotlari uchun hukumat undiradigan soliq.
19. Biror davlatning boshqa davlatlarga to'laydigan to'lovlari va boshqa davlatlardan olinadigan to'lovlar o'rtasidagi farq.
20. Millatning yekazib berish, aloqa va foyda tizimi

Asosiy atamalar

- a. to'lovlar balansi
- b. savdo balansi
- c. embargo
- d. kurs
- e. eksportlar
- f. importlar
- g. infratuzilma
- h. qo'shma korxonona
- i. ko'pmillatli kompaniya
- j. kvota
- k. narx

Akademik aloqalar o'rnatish

21. **Geografiya.** Turli mamlakatlarda ko'p millatli kompaniyalarning geografik joylashuviga misollar keltiring. Usha kompaniya faoliyatida ishlaydigan boshqa xalqli va kompaniyaning joylashgan o'rnini ko'rsatuvchi xarita tuzing.

22. **Iqtisodiyot.** Iqtisodiyot birlashmasi (oddiy bozor) ga ta'luqli saytlarga murojaat qiling. Ushbu tashkilotning bir qancha faoliyatini tasvirlovchi va aloqador mamlakatlar ruyxatini tuzing.

23. **Tarix.** Boshqa mamlakatlar foydalanib kelayotgan pul sistemasi tarixi haqida izlanish olib borong. Biror mamlakatda boshqa bir mamlakatning pul birligidan foydalanishga misollar keltiring.

24. **Musiqqa.** Ko'p holatlarda musiqa mamlakatning tarixi, madaniyati va dinini aks etadi. O'tmish va bugungi madaniyatni aks ettiruvchi boshqa xalqlar musiqasiga misollar toping. Usha mamlakatga musiqaning qanday farqlovchi ko'rinishlari bor.

25. **Matematika.** Boshqa mamlakatlarga mos eksport jarayonlarini amalga oshirish uchun AQSH fabrikalari metrlar sistemasida o'lchanadigan mahsulotlar ishlab chiqarish kerak. Misol uchun agar ishlab chiqaruvchi bo'yoq eksport qilishni xoxlasa u ehtimol litrlik bankalarda ham eksport qilishi mumkin qachonki bu mam-

lakat gallonda sotilsa. Ro'yxat qilingan birliklardan qaysilari metr sistemasidan foydalangan holda mamlakatga eksport qilish uchun o'lchamlari o'zgartiriladi.

- kir yuvish kukinining kvarta idishi
- 50 yardli mato
- avtomobil motori kub dyumda o'lchanishi
- 12 dyum chizg'ich
- ko'lami funtda o'lchanadigan hammom.

26. **Texnologiya.** Elektron jadvaldan foydalangan holda AQSH dollari qiymatining 3 mamlakat bilan solishtirishda o'zgarib borishini ko'rsatuvchi jadval va grafik yarating.

27. **Matematika.** 3 4 raqamlardagi ma'lumotdan foydalanib, quyidagi qiymatlar orqali AQSH dollari sotib olishi mumkinligini belgilang.

- Yaponiyada, 1,200 yena
- Kanadada, 5 Kanada dollar
- Saudiya Arabistonida, 150 riyal

28. **Karyerani rejalashtirish.** Boshqa biron –bir mamlakatdagi ko'p millatli kompaniyaning ishga kirish uchun topshirayotgan arizalarida duch kelgan tasodifiy qonuniy kelishuvlar haqida tekshiruv o'tkazing.

Qaror qabul qilish strategiyalari

Tasavvur qiling siz xitoyliklarga sotish uchun elektr jihozlari ishlab chiqarishga mo'ljallangan o'z biznesingizni yo'lga qo'ydingiz.

29. Xitoy bozorlarida biznesni yuritishda siz

Jamiyat va maktab orasidagi bog'lanish

Yashash joyingizdagi chakana savdo bilan shug'ullanuvchi do'konlardan biriga kiring va o'zingiz xoxlagan 10 ta kiyim tanlang. Kiyimning zarar ko'rmaganligiga ishonch hosil qilib, har bir kiyimga oid axborotlarni to'plang: kiyimning tashqi tuzilishiga, gazlamasining tarkibiga hamda ishlab chiqarilgan joyiga alohida e'tibor bering. To'plangan ma'lumotlaringizdan foydalanib yakuniy xulosalar bering.

duch keladigan qanday qiyinchiliklar mavjud?

30. Kompaniyangizda amalga oshiriladigan qanday chora tadbirlar sizning omad imkoniyatingizni ko'tarishga yordam beradi?

Quyidagi savollarni o'rganing hamda o'z tekshiruvlaringizni tahlil qiling

1. Qaysi davlat sizning ro'yxatingizda eng ko'p qayt etilgan?

2. Bir xil geografik hududdagi ko'plab mamlakatlar mavjudmi?

3. Ushbu mamlakatlar o'xshashligi nimada?

4. Kiyim ishlab chiqarishda ushbu mamlakatlar o'z ichiga olgan iqtisodiy imkoniyatlari nimalar deb o'ylaysiz?

Veb tahlil

200 dan ortiq mamlakatlarda sotib kelinayotgan coca cola bugungi kunda dunyodagi eng tanilgan brend nomlardan biridir. Kompaniyaning veb-saytiga tashrif buyurish orqali siz kompaniya o'z maxsulotlarini qanday qilib dunyo miqyosidagi turli madaniy farqlarga muvofiqlashtirishi haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lishingiz mumkin.

Tanqidiy fikrlang

1. Veb-sayt aynan bir mamlakatning madaniyati haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan. Coca cola savdosini aynan o'sha mamlakatda yo'lga qo'yish

uchun o'rganilishi kerak bo'lgan bu mamlakatning urf-odatlar, i madaniyati haqida paragraf yozing.

2. Endi boshqa bir mashxur kompaniyaning veb-saytiga tashrif buyuring.

Amerika maxsulotlari va joylashtirilgan ma'lumotlar uning xalqaro operatsiyalari xususidadir. Kompaniyaning dunyo bo'ylab turli millatli xaridorlarning farqli jixatlari va bunga kompaniyaning munosabatini xulosalovchi paragraf tuzing. O'z ishingizni bir necha rasmlar bilan bezating.

Favqulodda biznes muammolari

Har kuni insonlar qo'shma shtatlarda ish topish ilinjida Meksika orqali Aqsh ning chegaralarini kesib o'tmoqdalar. Ba'zilar qonuniy kirib keladilar, ba'zilar esa noqonuniy yo'llar bilan kiradilar. Qo'shma shtatlarda noqonuniy immigrantlar tashvishi muammosi kundan-kunga oshib bormoqda. Ushbu xavotir markazida ish joylari uchun bo'ladigan raqobat, terrorism va noqonuniy dorilar savdosi kabilar turadi. Bundan tashqari immigrantlar uchun bilim olish hamda tibbiy xizmatlarining adolatsiz ravishda balandligi bilan bog'liq muammolar ham mavjud.

Ba'zi davlat va shaxarlarga noqonuniy muxojirlar kirishi ta'sirida noqonuniy ishchilarning kirishini nazorat qiluvchi va joriy aholining huquqlarini tekshirishga yordam bo'lishi uchun qonunlar taklif etilyapti. Bu masala bo'yicha har 2 tomonning immigratsiya bilan bog'liq davlat qonunlariga rozi yoki qarshi ekanligiga bog'liq davlat qonunlariga ko'ra tadqiqot o'tkazishni talab etadi.

Har bir jamoaning 2 yoki 3 a'zolari ushbu masala yuzasidan o'z pozitsiyalarini qo'llashi uchun faktlar to'plab tadqiqot o'tkazishi kerak. Jamoalarga tayyor yozma materiallar yoki 8.5-11 qog'oz yoki note kartalarga tayyorlab olib kelishlariga ruxsat etiladi. Jamoaning har bir ishtirokchisiga tayyorlash va taqdimot paytida foydalanish uchun 4 ga 6 indeks karta beriladi. Taqdimot paytidan 15 daqiqa oldin

jamoalarning salbiy yoki muqobil hujjatlarini aniqlash uchun jalb qilinadi.

Jamoalarning tayyorgarlik maromi uchun 15 daqiqa kerak bo'ladi. Har bir taqdimot 5 daqiqadan ortiq davom etishi mumkin emas.

Har biro og'zaki taqdimot paytida sudyalor 5 daqiqa savol-javob o'tkazishi mumkin, bu paytda taqdimotchilar o'z muqobil yoki salbiy dalillarini himoya qilishga tayyor bo'lishi kerak.

Ishlash ko'rsatkichlari quyidagicha baholanadi

- To'plangan ma'lumotlarni ovoz chiqarib namoyish etish
- Aniq va mantiqiy tartibda ishni taqdim etish
- Quyi dagicha baxolanasiz
- Og'zaki raqdimotingizni taqdim etish
- Taqdimotingizni mantiqiy asoslash

Ishlash ko'rsatkichlari haqida batafsil ma'lumot olish uchun FBLA veb-saytiga o'ting.

Tanqidiy fikrlang

1. Mexiko noqonuniy ishchilarining Aqsh uchun qanday foydasi bor?
2. Aslida ham amerikaliklar Mexiko noqonuniy ishchilaridan ish o'rinlarini olib qo'yadimi?

www.fbla-pbl.org

4 Korxonalar va hukumatning BO'LIM ijtimoiy mas'uliyati



4-1 Ijtimoiy mas'uliyat va biznes madaniyati

4-2 Hukumatning himoya faoliyati

4-3 Hukumat nazorati va yordami

Hukumatda ishlashni rejalashtirish

Hisobchilar, jurnalistlar, restoran nazoratchilari va boshqaruvchilar jamiyatdagi ish qulayligiga ega bo'lganlarning o'zginasi hisoblanadi. Federativ, hukumat va mahaliy agentliklar 18 milliondan ortiq odamlarni ish bilan ta'minlaydi. Ko'rib turganingizdek, hukumat U.S iqtisodiyotidagi ko'plab ish o'rinlarini yaratib beruvchi hisoblanadi. Taxminan federative ishchilarning 60 foizi boshqaruvchilik, tadbirkorlik, moliyaviy va professional o'rinlarda faoliyat olib borishadi. Ko'pgina tadbirkorlik, boshqaruv va hukumat ishlari bir-biriga o'xshash faoliyatni talab qilsada ba'zi hukumat ishlari maxsus, murakkab faoliyatni talab etadi. Oziq – ovqat maxsulotlari nazoratchilari va mahaliy yerlarni himoyalovchi tashkilotlar o'z hududlariga bog'liq bo'lgan ham nazariy ham amaliy tajribaga zaruriyat sezishyapdi. Bir necha federative agentliklardagi ish o'rinlarini oshib borishi boshqa federative bo'limlardagi

Bog'liq kasb voqealari

- Savdo agentligi
- Ilmiy suhbat
- To'g'rilangan ofitser
- Shaharga oid kotib
- Ishtimoiy ishchi
- O't o'chiruvchi

o'sishdagi sekinlashish va kamayishni o'rnini qoplaydi. Shtatlar va mahaliy Hukumatlarda hizmat ko'rsatishga talab o'sib borishiga qaramasdan, ish o'rinlarini yaratilishiga iqtisodiyot o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Hukumatdagi kasb imkoniyatlarini tahlil qiling...

Hukumatdagi kasb imkoniyatlari haqida ko'plab ma'lumotlarni o'rganish uchun internet resurslari va kutubxonalaridan foydalaning. Yuqoridagi kasblar jadvalidan birini tanlang va quyidagi savollarga javob bering :

1. Kasbingiz tabiatini qanday tasvirlagan bo'lardingiz. Odatiy ish kuningizda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan hodisalarga na'munalar yozing.
2. Bu kasb sizni qiziqtiradimi? Sizning maqsadlaringiz va qiziqishlaringizga mos keladigan kasb karyeresiga misollar yozing.

Hukumat ishchisi sifatida ishlash nimaga o'xshaydi ?

Katlen mahaliy maktabda ishlaydi, ammo uning kasbi butun yil davomida davom etadi. U tumanda hisobchi asistent bo'lib ishlaydi. U tumandagi soliqlarni, to'lov cheklarini yig'ilishiga javobgar hisoblanadi. U cheklarning to'g'riligiga, to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirilganligiga ishonch hosil qilishi kerak.

Katlen natijalarni kiritish, yozma ma'lumot yaratish va prezentatsiya qilish uchun kompyuterlardan foydalanadi. U o'zining hisobchilik qobiliyatidan maxsus omillarda va shuningdek pul ishlashda foydalanadi.

Yuqori maosh yaxshi bo'lishiga qaramasdan Katlen maktab uchun ishlayotgani qoniqtiradi va tanlagan kasbidan xursand.

Siz nima deysiz? Sizni qiziqtirishi mumkin bo'lgan ba'zi davlat kasblari nima? Bu kasblarda ishlashingizga ta'sir qiladigan davlat yoki shahar–ning moliyaviy ahvoli qanday?

4-1

Ijtimoiy mas'uliyat va biznes madaniyati

Maqsadlar:

- 1) Ijtimoiy mas'uliyat muammolarini tasvirlash
- 2) Ijtimoiy mas'uliyatning bahosi va foydasini aniqlash
- 3) Madaniyat kodeksining maqsadlarini aniqlash

Kalit tushunchalar

- ijtimoiy mas'uliyat 76
qayta yangilanmaydigan resurs 76
etika 79
biznes etikasi 79
etika kodeksi 79

Real hayotga nazar

Jo Ann Keck biznes talabalari tinglovchilariga shunday "Maxsus oshxonalarda, biz ijtimoiy javobgarlikni jiddiy ravishda qabul qilamiz" dedi. Ish egasi sifatida bu mening biznesim, jamiyatim, ishchilarim va bir odam sifatida o'zim uchun foydali." va u davom etdi.

Keyinroq Jo Annga o'z nutqida aytdi, "Kompaniya jamiyat yumushlarini faollashtirish va turli xil tashkilotlardagi ko'ngillilar uchun ishchilarni ruhlantiradi. Ba'zi vaziyatlarda, kompaniya ish vaqti mobaynida ko'ngillilar uchun pul to'laydi. Agar ularning kompaniyalari jamiyat hayotiga faol tarzda o'z hissasini qo'shsa, ishchilarning o'z ishidan qoniqish ehtimolligi yuqori bo'ladi.

Maqsad 1

Ijtimoiy mas'uliyat muammolarini tasvirlash

Ijtimoiy javobgarlik mas'alalari

Ijtimoiy mas'uliyat biror korxonaning jamiyat farovonligiga xissasini nazarda tutadi. Kompaniyaning masuliyatini hisobga olib, biznes va ko'plab guruhlarining qiziqishlarini qamrab olishi kerak. Ijtimoiy masuliyat biznesini kengaytirilgan ko'rinishi, ijtimoiy tashvishlarga ko'proq e'tibor qaratadi. Bu o'z ichiga atrof

muhit himoyasi, fizik jihatdan tanlangan va qari odamlarning ish bilan taminlanishi hamda sog'lom va xafsiz ish o'rinlarini yaratilishini oladi.

Atrof muhit muhofazasi

Asrash - noyob tabiiy resurslarni saqlashdir. Bu ko'p kompaniyalarning maqsadi. Masalan, daraxtlarni istemol qiladigan yog'och kompaniyalarida qayta o'rmonlashtirish loyihalari bor. Bazi tabiiy resurslarni o'rnini to'ldirib bo'lmaydi. Qayta yangilab bo'lmaydigan resurslar shundayki, ularni ishlatib bo'lgandan so'ng qayta o'rnini to'ldirib bo'lmaydi. Misollar gaz, neft, va mineralla, mis va temir rudasidir. Ifloslanish inson harakatlari mahsulida sodir bo'ladi. Bazi ishlab chiqarish usullari ko'llarning daryolarning va havoning ifloslanishiga sabab bo'ladi. Ijtimoiy



masuliyatli ish ifloslanishga sabab bo'ladigan harakatlarni o'zgartirishga va vaziyatni rivojlantirishga harakat qiladi. Masalan injinerlar ifloslanishni kamaytiradigan yangi asboblarni loyihalashtiradilar.

Fedetal hukumat suv va havo sifatleri uchun o'lchanadigan standartlarni o'rnatdi.

ISH JOYLARDAGI FARQLAR

Korxonalarda kundan kunga ayollarning, etnik guruhlarning va jismoniy zaif hamda yoshi katta ishchilarning roli sezilarli bo'lib bormoqda. Korxonaning ishchi kuchi jamiyatdagi guruhlarga ta'sir etishi kerak. Bu guruhlar a'zolari bilim olish tayyorlash, kasbga ega bo'lish va kasbiy rivojlanish uchun bir xil imkoniyatga ega bo'lishi kerak. Korxonalar duch kelayotgan asosiy muommolardan biri jamiyatdagi turli ma'daniyatga ega ishchi kuchini qanday qilib boshqarishni o'rganishdir.

Boshqa muommo ayollarga qo'yiladigan ishga joylashish chegaralari hisoblanadi. Misol uchun, ayol kishi kerakli jismoniy xususiyatlarga ega bo'lmasa, korxonani ishga ololmaydi. Harakati va boshqa federal va mahalliy qonuniy hujjatlar imkoniyati cheklangan shaxslarni joy bilan taminlashda kata ro'l uynaydi. Inshotlarda nogironlar aravachasi uchun yetarli imkoniyat bo'lishi shart. Eshitish va kurish qobiliyati cheklanganlar ish bilan taminlanishi boshqa qonunlar xodimlarni ishga yollashda yosh bo'yicha ajratishni taqiqlaydi. Ishga yollashda yosh diskriminantsiyasi to'g'risidagi qaror ishga oluvchilarni ishga yollash, lavozimni oshirish yoki ishdan bo'shatishda xodimning yoshini asos qilib olishni ta'qiqlaydi.

MEHNAT XAVFSIZLIGI

Kelajagingiz uchun ta'sir ko'rsatuvchi 5 ta ijtimoiy va ekologik masala ro'yhatini tuzing. Bu masalalarni qanday tushunasiz? U hayotingiz davomida oldingizga qo'ygan maqsadlaringizga qanday ta'sir ko'rsatishini tushuntirib bering.

Ish joyining xavfsiz bo'lishi barcha xodimlar uchun juda muhim. Ular falokatga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan risklardan holi joyda ishlashlari mumkin bo'lishi kerak.

Ish muhitidan va boshqa xatarlardan butunlay himoyalangan bo'lish kerak. Jismoniy xavfdan qutilish uchun ishchilar kutilmagan xodisalarni qanday boshqarishni bilishi kerak. Xavfsizlik bundan rashqari qanday qilib ehtiyotkorlik bilan ishlash va favqulodda xolatlarda nima qilish kerakligini o'rgatishni ham o'z ichiga oladi. Xavfsizlik huquqlarini ta'minlash, ishchilarni himoya qilish uchun ko'plab ishchilar turli xil dasturlarni amaliyotga joriy etadilar. Federal va shtat hukumatlari ham xavfsizligini ta'minlash uchun qonunlar yaratadilar. Xavfsizlik standartlari osha, ya'ni ishdagi xavfsizlik va sog'liqni boshqarish agentligi tomonidan joriy qilinadi va tartibga solinadi.



ISHCHI SOGLIGI

Sog'lom ish kuchi samarali ishchi kuchi hisoblanadi. Fizik soglom bolgan ishchilar qimmatli mulk. Bugungi kunda korxonalar ishchi kuchi sog'ligiga bog'liq bo'lgan bir qancha ishlarni olib bormoqdalar. Bu dasturlar orasida chekishni tashlash, diyeta qilish haqida takliflar bor. Ishchi sifatida umumiy sog'lom holatingiz ham himoyalaniishi kerak. Xodimning sog'lomligiga bog'liq masalalar ishchi kuchi shartnomalari va korxonalar siyosiy ko'rsatmalarga kiritiladi. Bu masalalar ishlash sharoitlari bo'lib, xodimning ish paytidagi sog'lig'i va xavfsizligini o'z ichiga oladi. Ko'plar kompaniyalar sog'liqni yaxshilash uchun dasturlar taklif qiladi. Sog'lom turmush kechirish haqidagi seminarlar bunga misol bo'ladi. Ba'zi kompaniyalar va sport jamoalari homiylik qiladilar va ishchilarni hamishtirok etishga undaydi. Sog'lom turmush kechirish haqidagi seminarlar bunga misol bo'ladi.

IJTIMOY MAS'ULIYATNI BAHOLASH

Ijtimoiy mas'uliyat holatlari muhokamaga sabab bo'ladi. Bu ijtimoiy mas'uliyat faoliyatlari quy-

Maqsad 2

Ijtimoiy mas'uliyat foydasi va xarajatlarini aniqlash



Tekshirib ko'ring ✓

Korxonalar diqqatini talab etadigan ijtimoiy mas'uliyat sohalari qaysilar?

idagilarni o'z ichiga oladi:

- Jamiyatdagi guruhlar uchun adolatlilik bo'lish;
- Kompaniya imijini yaxshilash;
- Hukmat holatlari uchun muhtojlikni kamaytirish;
- Dunyo bo'ylab jamoaviy hayotni yaxshilash

XARAJATLAR

Korxonalar ijtimoiy mas'uliyatli bo'lgan ishlarni amalga oshirayotganida e'tiborga olinadigan narxlar mavjud. Pul zararlantirilmaydigan va xavfsiz jihozlarga, riskni kamaytiruvchi binoga, yaxshi va qayta tiklash dasturlariga sarflanishi kerak. Korxonalar faoliyat yuritishi uchun foyda qilishi kerak. Agar korxonalar foyda qilmasa, u yopiladi va ishchilar o'rinlarini yo'qotadi. Biznesda yaxshi foyda qilish uchun ijtimoiy dasturlar mos darajada bo'lishi kerak.

Tekshirib ko'ring ✓

Ijtimoiy mas'uliyatning asosiy foydalari qaysilar?

Biznes etikalari

Ijtimoiy korxonalar etika-ga mos korxonalar faoliyatlarini olib boradilar. Etika haqlik yoki xulq-atvor tamoyillaridir. Biznes etikalari korxonalar va uning ishchilari o'zini qanday tutishi kerakligi haqidagi qoidalariga bo'ysunishni o'z ichiga oladi. Etikaga zid xatti-harakat ularga halaqit beradi. Biznes etikasiga amal qilishda etika kodi korxonalariga ishchining xulq-atvorini aniqlashga yordam beradi.

Etika kodi

Etika kodi xizmatchilar va a'zolarning tashkillashtirilgan harakatlarda rahbarlik qilish uchun o'rnatiladi. Etika kodi adres nomlari, masalan biznes ma'lumotining ishonchligi bo'lishi mumkin. Birinchilikda tashkil etilgan etika qoidalari kompaniya ichida ishchilarni boshqara olishi kerak. Kod unutilmaydigan tarzda muddatlar-da va so'zdan iborat bo'lishi kerak. Etika kodlari biznesda qaror qabul qilishda muammoli vaziyatga sabab bo'lmasligi kerak. Pastda etik muammoli vaziyatlarga misollar ko'ramiz.

- Agar hukumat ishchilarga sovg'alar berishga to'g'ri kelsa, korxonalar mamlakatdagi daromadli bozorga kirishi kerakmi?

- Kompaniya mashhur mahsulotda asosiy nuqsonni aniqlaganidan so'ng ham uni sotishda davom etishi kerakmi? Etikaga amal qilish ko'rsatmalari

Etikaga amal qilishni yuqori menejment belgilab beradi. Kuchli

axloqiy xarakterga ega va etikaga mos biznes qarorlarini qabul qiluvchi boshqaruvchilar korxonalar uchun etik standartlarni o'rnatadilar.

Bundan tashqari etikaga amal qilishni rag'batlantirish uchun turli dasturlar ham o'tkazadilar. Bu dasturlar xodimning vijdonliligini va to'g'riso'zligini rag'batlantirish uchun tashkil etilgan. Ishchilarga yana ish vaqtida etikaga mos qaror qabul qilish ham o'rgatiladi. Etikaga amal qilishda quyidagi ko'rsatmalarga amal qilishingiz kerak.

1. Harakat qonuniymi
2. Harakatlarni kasbiy va kompaniya standartlarini buzadimi?
3. Bu harakat kimga va qanday ta'sir qiladi?


3-Maqsad

Etika kodi maqsadini tushuntirish

Etika qoidalarini yozish uchun ko'rsatma
1. Qoida maqsadini aniqlash.
2. Qoidani ehtiyojlar va tashkilot qiymatiga bog'lash.
3. Qoidani yozishda kompaniyaning barcha darajadagi ishchilarini ko'rib chiqish.
4. Tashkilotning hamma a'zolari rioya qilishi kutiladigan qoida yoki tamoyillarni aniqlash.
5. Qoida qanday amal qilishi kerakligi haqidagi ma'lumotni o'z ichiga olishi.
6. Qoida qanday amalga oshishi va qayerda nashr etilishi yoki jo'natilishini aniqlash.
7. Qanday va qachon qayta ko'rib chiqilishini aniqlash.

Sizning o'z shaxsiy etika qoidalarinigiz bormi? Hattoki siz bu haqida hech qachon o'ylab ko'rmagan bo'lsangiz ham, sizni hayotingizni boshqaradigan qonuniyatlar mavjud. Shaxsiy etikangiz uchun vaqt sarflang va uni yozib boring! Sizning etikangiz oldingizga qo'ygan maqsadlaringizga qanday ta'sir etishini tushuntiring.

Umumiy etik qaror qabul qilish qarashlar ziddiyatligini o'z ichiga oladi. Bu kompaniya yoki shaxs noqonuniy foyda olganda o'z aksini topadi. Bunga qoshimcha qilib, kasb madaniyati, ko'plab ishchilar, hisobchilar va injenerlar kabilar, professional birlashma asos solgan kasb madaniyatiga bo'y sunishlari zarur.



Tekshirib ko'ring ✓

Ijtimoiy mas'uliyatning asosiy foydalari qaysilar?

4-1 TAHLIL

Asosiy tushunchalar

Eng yaxshi javobni aniqlang

1. Qayta tiklanmaydigan resursga misol bu...

- a) Quyosh energiyasi.
- b) Oltin
- c) Xo'jalik maxsulotlari
- d) Kutubxona kitobi

2. Amerika nogironlar harakati talab qiladi

- a) Nogironlarni tayyorlashni ta'minlash
- b) Jismonan ishga yaroqsiz ishchilarga yordam berish yo'llarini topishi
- c) Ma'lum miqdorda maxsus ehtiyojlarga ega bo'lgan odamlarni ishga olishi
- d) Ishlab chiqariladigan mahsulotlarni maxsus talabga ega iste'molchilarga yetkazish

3. Etika kodeksiga tuziladi

- a) Davlat nazoratiga javob berishga
- b) Kompaniyaning operativ xarajatlarini kamaytirishga
- c) To'g'ri ish bajarish uchun umumiy qonun-qoidalar bilan ta'minlashga
- d) Ishchi samaradorligini yaxshilashga

Akademik aloqalarni o'rnatish

4. **Ilm-fan.** Maxsulot va xizmatlarni ishlab chiqarishda ishlatiladigan nabiyy resurslar va xo'jalik maxsulotlari ro'yxatini tuzing. Bu resurslardan samarali foydalanishni yaxshilashda qanday xatti-xarakatlarni amalga oshirish kerak?

5. **Texnologiya.** Etika kodeksi namunasini joyini aniqlash uchun internetdan foydalaning. Etika kodeksining tashkilotga keltitadigan foydali tomonlarini tasvirlab bering.

XXI asr mahoratlari

Aloqa qilish va hamkorlikda ishlash

Jamoa bo'lib ishlash

Har kuni minglab xodimlar jamoa bo'lib qarorlar qabul qiladilar va tadbirkorlik faoliyatlarini olib boradilar. Jamoa bo'lib ishlash ko'pchilik xodimlar tomonidan ish faoliyatida eng muhim mahorat talab etadigan yo'nalish hisoblanadi. Jamoa bo'lib ishlash mahorati yolg'iz ishlash mahoratidan yuqoriroq belgilanadi. Sinfda yoki ish faoliyatida jamoa bo'lib ishlaganda quyidagilarga e'tibor qarating

Jamoa loyihasining birinchi bosqichida sodir bo'lishi



mumkin bo'lgan kichik muammolarga tayyor bo'ling. Fikrlar o'rtasida farqlar yuzaga chiqadi. Boshqalarning shaxsiyati, xulq-atvori va harakatlariga moslashing.

- Loyiha maqsadlari qo'llanmalari, davr bilan hamnafas bo'lish, o'rin, kun tartibi, muammolarni yechimini topish va boshqa jarayonlarga moslashing.

- Yetakchi va boshqa lavozimdagilarni aniqlab oling. Ba'zi jamoa a'zolari ilovalar va kerakli materiallarni saqlaydilar. Boshqalari esa izlanishlar olib boradilar yoki prezentatsiya uchun ko'rgazmalar tayyorlashadi.

- Qaror qabul qilish usullarini aniqlab oling. Odatda bu jamoa a'zolari tomonidan turli masala va qarama-qarshi qarashlarni muhokama qilgandan so'ng kelishuvga asosan belgilanadi.

- Maqsadlaringizda qat'iy turing. Turli muammo va kelishmovchiliklar sizni chalg'itishiga yo'l qo'ymang. "Biz, bizga, bizniki" deyish orqali jamoa muhitini shakllantiring. "Men, menga, mening, meniki kabi so'zlarni ishlatishdan qoching.

- Boshqalar bilan xushmuomala bo'ling.

Fikrlar o'rtasidagi farq, shaxsiyat va qarorlarni hurmat qiling.

Jamoa bo'lib ishlash hayotingiz davomida duch keladigan holatlardan biri hisoblanadi. Bu tajribalar qiziqarli va samarali bo'lishi mumkin. Samarali faoliyat yurituvchi jamoa vakillari o'z ishlariga mas'ul bo'la oladilar va erishgan yutuqlaridan faxrlanadilar. Ba'zi jamoa loyihalari barbod bo'lishi ham mumkin. Bunday hollarda ijobiy munosabatlarni saqlab qolish muhim. Eng yaxshi bilim va qimmatli tajribalar turli fikrlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklar va qarashlarning farqlari natijasida paydo bo'ladi.

Tanqidiy fikrlang

1. Jamoa bo'lib ishlashdagi nimalar sizga yoqadi? Jamoa bo'lib ishlashdagi sizga yoqmaydigan taraffar bormi? Ularni tasvirlang.

2. Jamoa bo'lib ishlaganda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni tasvirlang. Bu muammo qanday yechilishi mumkinligini tushuntiring.

4-2

Hukumatning himoya faoliyati

Maqsadlar:

1. Hukumatning roli va darajalarini aniqlash.
2. Tadbirkorlikda hukumatning himoyalash va qonun tizimining o'rnini tushuntirish.
3. Intellektual mulk turlarini tushuntirish.

Kalit so'zlar

- Shartnoma 83
Patent 84
Mualliflik huquqi 85
Savdo belgisi 85

Real hayotga nazar

Brenda Hiam ishga borib keladigan yo'lining yomonlashayotganidan tashvishlanayotgan edi. U bu yo'l xavfli bo'lib bo'rayotgani, kimningdir nazoratni yo'qotishiga sabab bo'lishidan xavotirda edi.

U xavfli yo'l haqida xabar berish uchun hukumat idorasi bilan bog'lanmoqchi edi. U qo'shnisi Kevindan yo'lga qaysi hukumat idorasi: shahar, davlat, shtat yoki federal yo'l bo'linmasi mas'ul ekanini so'radi.

“O'ylashimcha, biz davlat yo'l idorasiga murojaat qilishimiz va so'rashimiz lozim” javob qildi Kevin. “Davlat yo'l idorasi bu hududdagi yo'llar haqida ma'lumotlarni saqlaydi”.

“Keling qo'ng'iroq qilamiz” dedi Brenda. “Agar ular yordam bera olishmasa, davlat komissarlariga murojaat qilamiz”.

1-Maqsad

Hukumat roli va darajalarini aniqlash

Jamiyatda hukumat

Hukumat barcha iqtisodiy tizimlarda o'z o'rniga ega. Sizning fuqaro va saylovchi sifatidagi fikringiz hukumat qarorlari va harakatlarida ta'sirga ega. Xususiyl korxonalarda hukumatning roli boshqa iqtisodiy tizimlarga qaraganda kamroq. Lekin baribir muhim hisoblanadi. Hukumatning roli yangi saylangan mansabdor shaxslar kelishi bilan o'zgarib turadi.

Hukumatning roli

Jamiyat duch kelayotgan muammolar o'zgarar ekan, hukumat ham o'zgarishga majbur. Hukumatning bir necha asosiy vazifalari mavjud.

Hukumat asosan quyidagi sohalarda ish olib boradi:

- Jamiyat a'zolariga xizmatlar ko'rsatish
- Fuqarolar, iste'molchilar, korxonalar va ishchilarni himoya qilish
- Daromadni nazorat qilish va raqobatni qo'llab-quvvatlash
- Korxonalarni axborot bilan ta'minlash va yordam berish
- Tovar va xizmatlarni sotib olish


- Ommaviy ishchilarni yollash

- Daromadni oshirish

Bu barcha vazifalar korxonaning kengayishida, iste'molchi talablari va iqtisodiyotdagi iqtisodiy o'sishda o'zining bevosita va bilvosita ta'siriga ega.

Hukumat darajalari

Federal hukumatning asosiy maqsadi ikki yoki ko'proq shtat yoki davlatlar faoliyatini nazorat qilishdan iborat.



Odatda konstitutsiya federal hukumatga chet el va shtatlararo tijoratni nazorat qilish huquqini beradi.

Shtatlararo tijorat birdan ortiq shtat korxonalarini o'rtasidagi biznesni ifodalaydi. Federal hukumat bir necha shtatlarga yuk tashiydigan yuk tashish kompaniyalarining faoliyatini tartibga soladi.

Shtat hukumati o'zining chegarasi doirasidagi korxonalar faoliyatini tartibga soladi. Shtatlararo tijorat faqatgina bitta shtat ichidagi korxonalar faoliyatini nazarda tutadi. Bir shtat chegarasi doirasida yuk tashiydigan kompaniyalar ishi federal hukumat emas, aynan o'sha shtat tomonidan tartibga solinadi.

Barcha shtatlarda mahalliy hukumat uchun qonun ishlab chiqilgan. Mahalliy hukumat jamiyat tartibi uchun zarur bo'lgan politsiya va yong'indan saqlash xizmatini taqdim etadi.

Tekshirib ko'ring ✓

Hukumatning uch darajasi qaysilar?

Hukumatning himoyalash faoliyatlari

Hukumat turli yo'llar bilan fuqarolarning huquqlarini himoya qiladi. Fuqarolar politsiya va yong'in xavfsizligi xizmati yordamida himoya qilinadi. Qurolli kuchlar milliy himoyani ta'minlaydi. Milliy xavfsizlik federal hukumatning bosh muommosi.

Ishchilar himoyasi

Xavfsiz ish muhitini tashkil etish uchun qonunlar qabul qilingan. Ishchi sifatida xavfsiz mehnat sharoitida ishlash huquqiga egasiz. Binolar, asbob-uskunalar



Maqsad 2

Tadbirkorlikda faoliyatida hukumatning himoyalash va qonun tizimi o'rnini tushuntiring

va kimyoviy moddalar uchun xavfsizlik standartlari davlat agentliklari tomonidan belgilanadi. Hukumat inspeksiyasi va boshqaruvi ish hududlarining ish faoliyati bilan bog'liq bo'lgan hodisalarni kamaytirishga yordam beradi. Ko'plab hukumat boshqaruvi ishchilarning asosiy inson huquqlarini himoya qilish talabi natijasida kelib chiqqan. Misol uchun, siz naslingiz, diningiz, jinsingiz yoki yoshingiz tufayli ishga olinmasligingiz mumkin emas. Kimnidir ishga tayinlash ish talablari, tayyorgarlik va tajribaga asosan amalga oshiriladi. Bid'at va noto'g'ri fikr ishga olish haqidagi qarorga ta'sir etmasligi zarur.

Shartnoma tuzish

Shartnomalar hukumat himoyasining yana bir ko'rinishidir. Shartnoma Tovar yoki xizmatlarni qiymati teng bo'lgan narsa, odatda pulga almashish to'g'risidagi kelishuv. Bu tadbirkorlikning asosiy qismi hisoblanadi. Shartnoma yozilishi yoki yozilmasligi mumkin. Shartnoma joriy qilinishi uchun ba'zi elementlarni o'z ichiga olishi kerak. 4-2 jadvalda barcha joriy etilishi mumkin bo'lgan shartnomalarning muhim tushunchalari keltirilgan.

Shartnomani imzolashdan avval uni o'qib chiqish va tushunish muhim. Sud tizimi shartnoma imzolashdagi e'tiborsizligingizdan himoya qilmaydi.

Kontrakt asoslari	
Yaroqli, amalga oshadigan shartnomalar o'z ichiga quyidagilarni kerak.	
Kelishuv	Taklif berilishi kerak va qabul amalga oshirilishi kerak.
Vakolatli tomonlar	Shartnomada qatnashadiganlar huquqiy va aqliy sog'lom bo'lishi kerak.
Ko'rib chiqish	Biror o'lchanadigan qiymat qatnashgan partiyalar tomonidan almashinishi kerak.
Qonuniylik	Shartnoma qonuniy sotilishi mumkin bo'lgan maxsulot yoki xizmatga bo'ladi, shuningdek kelishuvda hech qanday firibgarlik yoki aqliy qatnashmaydi.

4-2 jadval

Maqsad 3

Intellectual mulk turlarini tushuntirish.

Bu to'rt element – kelishuv, bilimdon guruhlar, e'tibor va qonuniylik ko'plab qonuniy tortishuvlarning asosi hisoblanadi. Shaxslar o'rtasidagi qadriyatlar xilma-xilligi qonuniy tortishuvlarga sabab bo'lishi mumkin. Shartnomalarga misol qilib, turar joy ijarasi uchun ijara shartnomasi, kredit kartochka shartnomasi va davlatning davriy xarid hujjatlarini olish mumkin.

Davlat tomonidan shartnomalar tasdiqlanishi mijozlarga ham, korxonalariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Agar siz mashinangizni 65\$ ga tamirlashga rozi bo'lsangiz, biznes firmasi shu qiymatdagi kelishilgan ishni bajarishi kerak. Siz bajarilgan ish uchun to'lovni ish yakunlangach to'laysiz. Agar ish to'g'ri bajarilmagan bo'lsa yoki pulni to'lay olmasangiz, ish to'g'ri bajarilishi yoki sizni to'lashga majbur qilish uchun qonuniy chora ko'riladi.

Qonuniy tizim

Qonun tizimisiz vijdotsiz, mijozlar yoki korxonalar egalari keli Kundalik bi-

Guruh bo'lib ishleng

Intellectual mulk mavhum mol-mulk ham deyiladi. Guruh bo'lib kompaniyalar va notijorat tashkilotlarning turli xil patentlar, mualliflik huquqlari, va savdo markalari ro'yxatini tuzing. Bu mulk tashkilot rivojiga qanday ta'sir ko'rsatishini tushuntiring. Nima uchun intellectual mulk himoyasi muhim?

znes faoliyati judayam qiyin jarayon.

Qonuniy tizim qonunlar va hukumat nazoratini joriy etadi.

Qonun tizimini harakatlan-tiradigan asosiy omil ikkita bo'lib, bular: jinoiy va fuqarolik holatlari.

Jinoiy holat jinoyat qonunlarini buzish natijasida yuzaga keladi. Korxonalar mijozlar va ishchilarga qarshi harakat qilganlarida jinoiy javobgarlikka tortilishlari mumkin. Agar korxonalar jinoyat qilsa yoki qonunni buzsa, bu jinoiy holatda aybdor deb topiladi.

Fuqarolik holatlari biror kishi sudga aybdorga qarshi ish ko'rishi haqida ariza berganda paydo bo'ladi. Korxonalar shartnomani buzganliklari, mas'uliyatni bajarmaganligi, biror shaxs harakatiga halaqit ber-

Tekshirib ko'ring ✓

Shartnomaning asosiy elementlari qaysilar?

ganligi, mualliflik huquqi, savdo belgisi va patentlardan ruhsatsiz foydalangani uchun sudlanishlari ham, sudga berishlari ham mumkin.

Etikaga zid bo'lgan xulq atvor bir vaqtning o'zida yo jinoyat qonunlarini, yo hukumat nazoratini buzishi mumkin. Korxonalar ziyon keltiruvchi tovarlarga, noqulay mehnat sharoitiga yoki soliq to'lashdagi kechikishlarga mas'ul bo'ladi.

Intellectual mulk himoyasi

Intellectual mulk mavhum tushuncha bo'lib, fizik xususiyatlarga ega emas – inson uni ushlay olmaydi. Intellectual mulk o'z ichiga patentlar, mualliflik huquqi va savdo belgilari ni oladi.

Patentlar

Shaxs yoki kompaniya yangi mahsulot yaratganida, bu mah-

sulot uchun patent olishi kerak bo'ladi. Patent iste'molchiga 20 yil davomida shu mahsulotni yaratish, undan foydalanish yoki sotish uchun yagona huquqni beradi. Televizordan efini yozib olishga mo'ljallangan yozuv dastur turini yaratmoqchi bo'lgan kompaniya bu jarayon uchun patent olishi kerak. Bu jarayonda foydalanilayotgan audio (video) yozuvlarni sotishda yoki yaratishda boshqa kompaniyalarga to'sqinlik qiladi.

Mualliflik huquqlari

Mualliflik huquqi yozuvchilar, kompozitorlar va rassomlarning ijodiy ishlarini himoya qiladi. Mualliflik huquqi himoyasi huquqni olgan shaxsning hayotining oxirigacha davom etadi. U shaxsning o'limidan keyin 70 yilgacha ham uzaytiriladi. Mualliflik huquqi axborotlari ko'p kitoblarning old qismida ko'rsatiladi. Mualliflik huquqi © belgisi bilan aniqlanadi.



larni o'ylab ko'ringchi?

Savdo belgilari

Savdo belgisi maxsus kompaniya yoki mahsulotlarga bog'langan so'z, harf yoki belgidir. Firmalar hukumat orqali kompaniya nomlari, jamoa belgilari va yorliq dizaynlarini ro'yhatdan o'tkazadi. Savdo belgisi juda qimmatbaho bo'la oladi. Ko'p dunyo bo'ylab mashhur firmalar logo nomli belgi bilan ko'rsatiladi. Siz tez-tez ko'radigan logo

Tekshirib ko'ring ✓
Intellectual mulkning 3 turi qaysilar?

4-2 TAHLIL

Tayanch tushunchalar

Eng yaxshi javobni aniqlang

1. To'g'ri yoki noto'g'ri. Boshqa davlatlar bilan xalqaro savdo aloqalarini o'rnatish davlat va mahalliy hokimiyatlarining majburiyati hisoblanadi.
2. To'g'ri yoki noto'g'ri. Og'zaki tuzilgan shartnoma qonuniy kuchga ega bo'ladi.
3. Yong'in va politsiya himoyasi ... ning asosiy majburiyati hisoblanadi.
 - a. Mahalliy hokimiyat
 - b. Davlat hokimiyati
 - c. Federal hokimiyat
 - d. Hokimiyatning barcha darajalari
4. Bastakorning musiqachilik huquqlarini himoya qiladi
 - a. Patent
 - b. Savdo belgisi
 - c. Mualliflik huquqi
 - d. shartnoma

Akademik aloqalar o'rnatish

5. **Matematika.** A shahar har oyda jamoaviy xizmatlar ko'rsatishga \$186 000 sarflaydi. Bundan 46 % yong'in va politsiya xizmatiga sarflanadi.
 - a. Yong'in va politsiya xizmatlariga qancha sarflanadi?
 - b. Bir yilda yong'in va politsiya xizmatlariga qancha sarflanadi?
6. **Matematika.** 90000 kishi ishlaydigan shaharda 18 000 odam ommaviy ishchi hisoblanadi. Bu ishchilardan 6000 federal hukumat, 8000 davlat va 4000 shahar ishchilari hisoblanadi.
 - a. Ommaviy ishchilar jami ishchilarning necha foizini tashkil etadi?
 - b. Jami ommaviy ishchilarning necha foizini federal hukumat ishchilari tashkil etadi?
7. **Qonun.** Shartnoma tuzish vaqtida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar ro'yxatini tuzing.

Vetnamda biznes yuritish

Bir qarasangiz sokin qishloqlarda hayvonlar aravalarni tortib yurganini ko'rasiz. Bir qarasangiz 10 ta Viytnam oilasidan 7 tasi foydalanadigan, ularning asosiy transport vositasi bo'lgan mototsikllar bilan tirband ko'chalarni ko'rasiz.

Vetnam an'anaviy ishlab chiqarish usullari va zamonaviy biznes faoliyatlari aralashgan, qarama – qarshiliklar mamlakatidir. Millat uzoq o'n yillik kapitalizmni rivojlantirish davridan buyon rivojlanmoqda. Hattoki Vetnam xalqi yangi zamonaviy bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida ham an'alarini va oilaviy qarindoshliklarini judayam e'zozlashgan. Bir nechta avlodlar bir xil uylarda birga yashashgan. Yosh bolalar oilaning Yoshi katta a'zolarini hattoki aka, opalarini ham judayam hurmat qilishgan. Vetnamning biznes holati bir guruhdan ko'proq kapitalistik biznesga o'tish kabi tez rivojlangan. Vetnam qoidalarini va boshqaruvni birlashtirishga harakat qilgan buni esa World Trade Organization (WTO) va AQSh Vetnam Bilateral Trade Agreement (BTA) bajargan. Bu esa o'z navbatida hukumatni kuchaytirgan ya'ni savdo-sotiq qonunlari kuchaytirilgan muammolar kamaygan.

Vetnamda biznes uchrashuv boshlanish arafasida

biznes kartalari paydo bo'lgan. Kartalar namoyish qilinishi va 2ta qo'lda ham qabul qilinishi kerak bo'lgan. Agar sizning kartangiz 2ta Ingliz va Vetnam tilida bo'lsa bu Vetnamliklarda hurmat belgisi hisoblangan. Yoshingiz Vetnamliklardan katta yoki kichikligi qaralgan bu esa aniq manzilni topishga yordam beradi. Biznes taomi choy va biroz g'ayrioddiy ovqatdan iborat. Siz yana ko'rshapalak go'shti, grill, it yoki ilon go'shtidan va yana boshqa ko'plab dengiz mahsulotlaridan iste'mol qilishingiz mumkin. Sizga taklif etilgan barcha taomlardan ta'tib ko'rsangiz rohatlanasiz. Suhbatlashib biznes muzokaralar olib borishingiz mumkin. Kun tartibidagi rejalarni tez bajarishdan ehtiyot bo'ling chunki bu hurmatsizlik hisoblanadi. Sekin ovozda imo ishoralardan foydalaning. Uy egasiga oyoq kiyimiz tagini ko'rsatmang.

Tanqidiy fikrlang

1. Vetnamning biznes faoliyatiga qanday madaniy omillar ta'sir ko'rsatadi.
2. Vetnamdagi biznes faoliyati boshqa davlatlardan nimasi bilan farq qiladi.
3. Vetnam iqtisodiyoti va biznes faoliyati haqida qo'shimcha ma'lumotlarni kutubxonalardan va Internetdan qidiring.



4-3

Hukumat nazorati va ko'magi



Maqsadlar:

1. Hukumatning korxonalarini nazorat qilish faoliyatini tushuntirish

2. Hukumat korxonalarini qo'llab-quvvatlash uchun qiladigan ishlarni muhokama qiling

3. Hukumat qanday qilib pulni ko'paytirishini tushuntiring

Kalit so'zlar

jamoaviy ishlash 87
monopoliya 88
ishonchga zid
qonunlar 88

Real hayotga nazar

Daryoni oldida joylashgan Skaybord bog'I shaharning eng mashhur joylaridan biridir. Kent Valingning xabar qilishicha haddan tashqari ortiq foydalanilayotgani uchun sakrash joylari, yo'laklari eskirib qolibdi. Kent bu haqida dadasiga aytdi va so'radi: "Nega hukumat Skaybordning ahvolini yaxshilash uchun biroz pul sarflamaydi". Uning dadasi javob berdi: "Hukumatning moliyaviylashtirishi kerak bo'lgan joylar ko'p. Balki Skaybord eng asosiysimasdir. Balki park odamlar foydalanayotgani uchun ulardan pul olishi kerakdir.

Yoki sizning soliqlaringizni ko'tarishi kerakdir"- dedi Kent kulib.


Tartibga solish faoliyatlari

Qo'shma shtatlarda biznes faoliyati erkin bozor tizimi yoki xususiy korxonalar sifatida tuzilgan. Xususiy tashkilotlari ishlab chiqarish omillariga egalik qiladi. Ko'proq foyda olish maqsadida ishlab chiqarishning samarali yo'llarini tanlashadi. Mahsulot xulosasi va narxi davlat tomonidan belgilanmaydi, lekin iqtisodiy holatini o'zgarishi ostida harakatlanayotgan iste'molchilar va bizneslar tomonidan belgilanadi. Davlat biznes faoliyatining ba'zi hududlarida ishtirok etadi. Bu adolatsiz biznes faoliyatidan saqlash va kommunal tartibga solishni o'z ichiga oladi.

Kommunal tartibga solish

Siz foydalanadiga ko'plab maxsulotlar va xizmatlar xususiy korxonalaridan keladi. Bu biznes faoliyatlari ko'p hollarda hukumat qarorlaridan erkin bo'ladi. Jamoat kommunali xizmatlarni yetkazib beruvchi va barcha insonlarga hayotda zarur narsalarni ishlab chiqaruvchi tashkilot. Bu elektr energiya, suv va mahalliy telefon xizmatlarini yetkazib beruvchi korxonalarini o'z ichiga oladi. Jamoat kommunali umumiy xizmat ko'rsatish uchun tanlanadi. Agar sizning mamlakatingizda 6ta

turli hil elektr energiya korxonalarini bo'lganida, har birining o'zining shaxsiy maydoni, liniyasi, va qiymatbaho uskunalarini bo'lar edi. Siz oladigan xizmatlar qiymatroq, samarali va kamroq bo'lishi mumkin bo'lar edi. Qo'shimcha ustunlar tabiatni ko'rim-siz qiladi. Ko'pgina maishiy xususiy egalik qilganda hukumat ularni yaqindan nazorat qiladi. Elektr, suv yoki tabiiy gaz kabi birliklari hukumat agentligi tomonidan maqullangan koefitsientda xizmat haqi talab qilishi kerak. So'ngi yillarda narlarni qayta tashkillashtirish to'g'risida raqobatga asoslangan yo'nalish mavjud edi.



1-Maqsad

Hukumatning korxonalarini nazorat qilish faoliyatini tushuntirish

GURUH BO'LIB ISHLANG

Kompaniyalar raqobatni kamaytirib iste'molchilarga kamroq tanlov qoldirish uchun chora- tadbir ko'ra olishadi. Adolatsiz raqobatni yuzaga keltiradigan birorta reklama, narxlash va brand kabi chora tadbirlarni tasvirlab bering.

Noqonuniy biznesni oldini olish yo'llari

Ko'pchilik biznesmenlar adolatli va mehribon, Ko'pchiliklari o'zing raqobatchilarini yaxshi tomonlarini olishga harakat qiladi. Hukumat adolatli raqobatni yo'lga qo'yishga harakat qiladi. Agar kompaniya bir xil maxsulot uchun turli odamlarga har hil narxlar-da to'latsa bu adolatsiz biznes bo'ladi. Agar bir biznes boshqa bizneslar qobul qilgan narxlarga qaraganda sifatli va arzon maxsulot taklif qilsa demak unda ustunlik bo'ladi. Bunday harakat adolatsiz raqobatda natija brrishi mumkin.

Qachonki biznes maxsulot va xizmat uchun bozorni nazorat qilsa u monopoliya hisoblanadi. Agar istemolchilar hizmatlar va mahsulotlardagi adolatli narxlarga ishonsa bu siz uchun foydali. Boshqa monopoliyalar iqtisodiyoy

2-Maqsad

Hukumat korxonalarini qo'llab-quvvatlash uchun qiladigan ishlarni muhokama qiling

Bir qancha agentliklar orqali Qo'shma shtatlar federal hukumati fuqarolarga yordam berish uchun vebsayt yaratdi. Pastda ko'rsatilgan vebsaytni qarang va chapter 4 uchun bog'lanish tugmasini bosing. Bu vebsayt Amtraktdan boshlab zooparklargacha bo'lgan hamma narsa haqida informatsiya beradi. Sizni qiziqtirgan mavzuni tanlang.

Mavzu bo'yicha xabarlarini qo'lga kiriting va iste'molchi va biznesmenlar tomonidan bu informatsiyani qanday ishlatish mumkinligi haqida qisqacha xulosa yozing.

uchun yaxshi bo'lmasligi mumkin, Agar sizning shahringizdagi bitta kompaniya barcha oziq ovqat magazinlariga egalik qilsa istemolchilar adolatli narxlar bilan taminlamasligi mumkin biznes baland narxlarni qo'yishi va sifatsiz maxsulotlarni sotishi mumkin. Qachonki raqobat bo'lsa arzon va sifatli maxsulotlarni istemolchilar olishi mumkin. Hukumat monopoliyadan qochish uchun raqobatni rivojlantirishga harakat qilishi kerak. Har bir noqonuniy harakat raqobatni va istemolchilarni yo'qotishga sabab bo'ladi.

Hukumat korxonalar qo'llab-quvvatlaydi

Hukumat qimmatli ma'lumotlarni yig'ish va ularni qayta ishlashda biznesga yordam beradi. Hukumat tomonida berilgan ma'lumotlar rejalashtirishga yordam beradi. Kirmlar, narxlar, ishchilar va biznes haqidagi ma'lumotlar biznesmenlarning talov imkoniyatlarini kengaytiradi. Masalan aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari qayerda ko'pchilik xaridorlari potentsiallarini qabul qilishga yordam beradi.

Tekshirib ko'ring ✓

Hukumat korxonani nazorat qilish uchun nimalar qiladi?

Ishchi sinf statistika Byurosi qishloq xo'jaligi Deportamaenti va Tijorat deportamenti va bir necha hukumat agentliklari ma'lumotlar bilan taminlaydi. Federal hukumat kichik biznes ma'muriyati yordamida xususiy bank kreditlari taqdim etish orqali yangi biznes faoliyatlarini boshlashga yordam beradi.

Fermerlar va boshqalar zilzila suv toshqini yoki shunga o'xshash tabiiy ofatlar paytida miloyaviy yordam olishi mumkin. Uy va xo'jalik inshootlarini tarnoda tamonidan buzulganda fuqora kam foizli hukumat kreditlari olish huquqiga ega Bu davlat dasturlari jamiyatni bir xil moliyaviy sharoitlarda ushlab turish uchun tuzilgan.

Davlat tovar va xizmatlar xarid qiladi

Davlat har kuni tovar va xizmatlar uchun juda ko'p miqdorda xarajat qiladi. Butun mamalakat, davlat, mahalliy hokimiyat organlari xarajatlari AQSH da ishlab chiqariladigan tovar va xizmatlarning taxminan 20% ini tashkil qiladi. Hukumat harbiy samalyotdan tortib bino-inshoatlargacha juda ko'p narsaga pul sarflaydi. Bu jihatdan, davlat kuchli iqtisodiy kuch hisoblanadi. Ko'p iqtisodiy sohalarning faoliyat ko'rsatishida davlatning roli yuqoridir. Misol uchun, davlat maktablar yoki yo'llar qurishda ushbu sohaga ko'p pul ajratadi.

Hukumat ishchilarni ish bilan taminlaydi

AQSH iqtisodiyotida ishchilarni ish bilan taminlaydigan eng yirik ish beruvchi hisoblanadi. Ishchilarning 16% ijama ishchilaridir. Ko'chilik odamlar davlat ishchilari deganda sanitariya ishchilarini politsiyani yoki o't o'chiruvchilarni davlat xizmatchilari deb o'ylashadi. Ammo hukumat faqat yuqoridagi sohalarga emas, balki xususiy sektorga ham xizmatchilarni yollaydi. Huquqshunoslar, o'qituvchilar, axborot tahlilchilari va hokozolar davlat tomanidan yollangan ishchilardir. Ishchi xizmatchilar soni so'ngi yillarda sekinlik bilan o'sishiga, bazi agentliklarda chetlatishlar yoki tugatishlarga urinishga qaramay – hukumat yoki ish o'rinlari bilan ta'minlashda davom etmoqda.

Tekshirib ko'ring ✓

Hukumat korxonalarini qanday qilib qo'llab-quvvatlaydi?



Hukumat pulni ko'paytiradi

Hukumat ishchilarga oylik to'lash va fond operatsiyalari orqali pul massasini oshiradi. Hukumat daromadlari yillik daromad deb ataladi. Hukumat qarz olish yo'li bilan yoki soliqlardan pul ishlab topadi. Hukumat boshqa yo'llar bilan ham yillik daromadini oshirish imkoniyatiga ega. Misol uchun yo'l qoidalari buzilishi uchun jarimalar undiradi. Soliqlar va litsenziyalar berish budjet daromadining asosiy qismi. Bazi bir faoliyat turlarini yuritish uchun litsenziyalar beradi. Misol uchun, sug'urta yoki ko'chmas mulk agentliklari davlatga muntazam soliq to'lab boradi. Shuningdek, hukumat haydovchilar litsenziyasi va baliqchilik uchun pul to'lashni talab qiladi.

3-Maqсад

Hukumat qanday qilib pulni ko'paytirishini tushuntiring

Bugungi kunda va kelajakda siz va korxonalar uchun hukumat xizmatlari roli haqida o'ylab ko'ring. Bu hukumat xizmatlari va umumiy soliqlar sizning kelgusi uchun belgilagan maqsadlaringizga qanday ta'sir qilishini tushuntiring. Yana hukumat dasturlari va xarajatlari maqsadlaringizga erishishingizda qanday ta'sir etishi mumkinligini tushuntiring

Soliqlar

Hukumat ko'rsatadigan xizmatlarini moliyalashtirish uchun soliq siyosatini joriy etadi. Soliqlar oylik maoshlari, mol-mulk qiymati va tovar yoki xizmatlarning sotuv narxiga qarab undiriladi. Sizning daromadningiz shaxs sifatida daromad solig'i obyektini hisoblanadi. Daromad solig'i

shaxsning daromadi miqdoriga ko'ra undiriladi. Jismoniy shaxslarning daromad solig'i davlat daromadining asosiy manbaini tashkil qiladi. Yuridik shaxslar foyda solig'i ham davlat daromadining ma'lum qismini tashkil qiladi. Yuridik shaxs foyda solig'i korxonaga foydasiga ko'ra undiriladi. Mahalliy hokimiyatlar daromadining katta qismi mol-mulk solig'i hisobiga tashkil etiladi. Bu soliq bino va yer maydonlarining qiymatiga asoslanadi. Mol-mulk solig'ining katta qismi maktablar va politsiya va jamiyat bog'larini tashkil etish kabi yo'nalishlarda sarflanadi. Korxonalar ham mol-mulk solig'ini to'laydilar.

Biror narsani sotib olish narxi sotuv soliqlari tomonidan oshiriladi.



XXI asrda biznesga nazar

Elektron hukumatni kengaytirish

Xukumatning boshqaruv operatsiyalarida kompyuterlar katta rol o'ynaydi. Internetdan foydalanuvchi katta yoshli insonlarning 80% ohirgi 12 oy ichida xukumat veb sahifasida bo'lganlar. Xukumat idorasiga biror bir shaklni olish, litsenziyaga ariza berish, to'lovlarni amalga oshirish uchun borishdan ko'ra ushbu ishlarni odamlar onlayn tarzda bajarishni ma'qul ko'rishmoqda.

Dunyo bo'ylab elektron boshqaruv xizmatlarini rivojlantirishni o'rganishda Birlashgan millatlar Tashkiloti quyidagi 5 bosqichni belgilaydi:

Rivojlantirish rasmiy onlayn boshqaruv mavjudligi o'rnatilgan

Kengaytirilgan- bir qator veb saytlar. Saytlar qiziqarliroq va foydaliroq bo'ldi.

Interfaol(interaktiv)foydalanuvchilar turli hujjat shakllarini, elektron rasmiy boshqaruvni yuklab olishlari va internet orqali uzaro faoliyat olib borishlari mumkin.

Ishbilarmon foydalanuvchilar o'zaro harakatlarni amalga oshirishlari va turli

hizmatlar uchun to'lovlarni amalga oshirishlari mumkin.

Bog'langan rivojlanish orqali uning fuqarolarining ehtiyojlariga javoblar ichki ma'lumotlarni qayta ishlovini amalga olishirish ofislari orkali amalga oshiriladi.

AQSH hukumati barcha ma'lumotlarga kiruvchi onlayn portalga ega va xizmatlar onlayn tarzda taklif qilinadi. usa.govportali 10 000 dan ortiq federal, davlat va mahalliy veb saytlarga ega. Sayt har oyda 4 milliondan ortiq xitlarni qabul qiladi. Erishuvga asoslangan komyuterlar, mobil telefon ilovalariga qo'shimcha qilib hozirgi kunda aloqaning boshqa yo'llari ochilmoqda.

Federal hukumat har yili 80 milliard AQSH dollaridan ziyod mablag'ni informatsion xizmatlar uchun sarflaydi. Hukumat xizmatlarini harakati biliga 1 milliard AQSH dollaridan ziyod mablag'ni saqlaydi.

Elektron boshqaruvni kengaytirishda 2 asosiy to'siq uchraydi. Eng muhimi hokimiyat qaydlariga olingan va fuqarolar tomonidan topshirilgan shaxsiy

informatsiyalarning mahfiyligi va sir tutilishidir. Bu ma'lumot soliq qaydlari va haydovchilik guvohnomasi, va ijtimoiy xavfsizlik raqamlari (sug'urta) kabi shaxsiy ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Ikkinchi to'siq texnologiyalarga teng bo'lmagan kirish. Mitnglab fuqarolarda xavfsiz yuqori tezlik internet ulanishi yo'q. Boshqalari esa onlayn boshqaruv xizmatlaridan foydalanish haqida bilim va komyuter savodxonligiga ega emas.

Tanqidiy fikrlang.

1. O'zingizning mahalliy va davlat boshqaruvi tomonidan ta'minlanadigan boshqaruv xizmatlari veb saytlarini qidiring va aniqlang. Siz tashrif buyurgan veb saytlarda qay darajada rivojlanish namoyish etilgan?

2. Boshqaruv organlari mahfiylik va xavfsizlik to'siqlarini qisqartirish uchun va fuqarolar elektron boshqaruv xizmatlaridan foydalanishlari uchun nimalarni qila oladilar?

Buyumlarni sotib olish narxlari ularga qo'yilgan sotuv solig'i natijasida oshadi. Sotuv solig'i sotuvchi tomonidan yig'ladigan tovarlar va xizmatlar ustidagi davlat va mahalliy soliqlardir. Agar kras-ka bankasini 15\$ sotib olsangiz va davlat solig'i 6% bo'lsa, sotuvchi 15.90\$ oladi. Keiyn o'sha 90 sentni sotuvchi davlatga to'laydi. Siz soliq to'lovchilardan biri bo'lasiz.

Soliq to'lash fuqarolar va biz-nesmenlarning burchidir. Siz soliqlarni to'lashingiz kerak, lekin o'zingizni ulushingizdan ortig'ini emas. Soliq qonunlari va normalari soliq to'lashdagi adolatlilikni tartibga solish uchun ishlab chiqilgan. Muayyan soliq yoki soliq normasi hamisha bahslashishga mavzu bo'lib kelgan. Ishbilarmonlar, jamoatchilik noto'g'ri tushunchaga ega bo'lishsada hukumatning barcha qatlamlariga ko'plab soliq to'laydilar.

Qarz olish

Soliqlar va boshqa manbalardan bo'lgan hokimiyat tushumi ta'minlanadigan xizmatlarni qoplash uchun etarli bo'lmasligi mumkin. Qarz olish hokimi-

yatning boshqa faoliyat turidir. Hokimiyat yangi sud binosi yoki majlis binosini qurmoqchi bo'lganida qarz olish orqali fondlar ko'tariladi.

Obligatsiyalar (qimmatli qog'ozlar) sotish orqali hokimiyat pul qarz oladi. Agar siz obligatsiyani sotib olsangiz xokimiyatga xizmatlar fondini ko'paytirishga yordam berayotgan bo'lasiz. Banklar, sug'urta kompaniyalari, va moliya tashkilotlari xokimiyatga obligatsiyalarni katta miqdorda sotishga ko'maklashadi.

Qarzga pul olish orqali xokimiyat debitor ga aylanadi va uning qarzida sizning mafaatingiz bo'ladi. AQSH hukumati tomonida topshirilgan obligatsiyalar federal xukumatning "obligatsiyalarni barcha daromadlar bilan ta'minlash" tomonidan qaytariladi. Federeal hukumat tomonidan tarqatilgan obligatsiyalar eng xavfsizlari deb topilgan.

Tekshirib ko'ring ✓

Soliqdan tushgan tushum va hukumatdan qarz olish o'rtasidagi farq nima?

4-3 TAHLIL

Kalit tushunchalar

Eng yaxshi javobni aniqlang

1. Monopoliyaga qarshi qonunlar nima maqsadda tuzilgan?
 - A. Kommunal xizmatlari uchun to'lovlarni qisqartirishga
 - B. Soliqlarni kamaytirishga
 - S. Yangi ish o'rinlari yaratishga
 - D. Raqobatni shakllantirishga
2. (N) ---- davlat va mahalliy boshqaruv organlari uchun umumiy daromad manbaidir
 - A. Savdo
 - B. Import
 - S. Xadya
 - D. Ishsizlik
3. To'g'ri yoki xato. Monopoliya xaridorlar uchun hech qanday foyda keltirmaydi.

Akademik aloqalar o'rnatish

4. **Tarix.** Turli monopoliyaga qarshi qonunlarni qidiruvini amalga oshiring. Bu qonunlarning yaratilishi nimalar sabab bo'lgan?
5. **Aloqa.** Odamlar orasida xukumat daromadini oshirish uchun qaysi soliq turi eng mos keladigani ekani aniqlash maqsadida so'rovnoma o'tkazing. So'rovnoma natijasida olganlaringizni jadvalga joylashtiring.
6. **Iqtisodiyot.** Ishbilarmonlik yoki tadbirkorlik faoliyatida ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatuvchi pul tushumini ko'tarishga bo'lgan xukumat faoliyatini tasvirlang.

4- BOB TAHLIL

Biznes qaydlari

4-1. Ijtimoiy javobgarlik va biznes etikasi

• Ijtimoiy javobgar tadbirkorlik turlari o'zlarining faoliyatlari haqida qayg'uradilar. Ular o'zlari yashab turgan joyni yaxshilashga yordam beradilar. Ijtimoiy javobgarlik atrof muhit himoyasi, ish joylari turli xilligi, ishdagi xavfsizlik va ishchining salomatligi bilan o'zaro bog'liqdir.

• Ijtimoiy javobgarlikning afzalliklari ijtimoiy guruhlar uchun kengaytirilgan qonuniylik, kattalashtirilgan kompaniya tasviri, xukumat faoliyatiga bo'lgan qisqartirilgan ehtiyoj va yaxshilangan yashash sifatini o'z ichiga oladi. Ijtimoiy javobgarlikning bahosi to'siqlarni olib tashlash, salomatlik va rehabilitatsiya dasturalari va kompaniyalar homiyligi bilan amalga oshiriladiga ijtimoiy loyihalar uchun renovatsiyalar yaratishga xavfsiz uskunalar uchun ishlatilishi kerak bo'lgan pullardir. Ushbu xarajatlar tadbirkorlikning gullab yashnashi uchun ketadigan foydalar bilan bir muvozanatga keltirilishi kerak.

• Tadbirkorlik etnigi uchun kod tashkilotning ichidagi qo'llanmadir.

4-2. Hukumatning Xavfsizlik Faoliyatlari

• Hukumatning boshlang'ich roli jamiyatni xizmatlar bilan ta'minlash, fuqaro muhofazasi, haridorlar, tadbirkorlar va ishchilar muhofazasi, ommaviy foydalilikni tartibga solish va raqobatni

rag'batlantirish; informatsiyani ta'minlash va tadbirkorlikka ko'maklashish; tovarlar va xizmatlar sotuvi; ommaviy ishchilarni yollash va damromadni oshirish.

• Hukumat fuqarolarni politsiya, yong'indan himoya qilish xizmatlari orqali himoya qiladi, istem'molchilar va tadbirkorlarni shartnomalrni kuchga kiritish va intellektual mulk huquqlar orqali, ishchilarni esa xavfsiz ish sharoitlarini talab qiluvchi qonunlar orqali himoya qiladi.

• Intellektual huquqning uch turi mavjud: patentlar, mualliflik huquqi va savdo markalari.

4-3 . Davlat Tartibga Solishi va Ko'magi

• Boshqaruv organlari kommunal xizmatlar boshqarishni tartibga soladi va adolatsiz tadbirkorlik amaliyotlarini oldini oladi.

• Hukumat keng miqyosida tovarlar va xizmatlarni sotib oladi va ishchilarni ish bilan ta'minlaydi. Hukumat shuningdek qimmatli ma'lumotlarni yig'ib tadbirkorlik faoliyatini boshlash va tabiiy ofatlardan talofat ko'rganlarga yordam berish uchun katta miqdorda ssudalar ajratadi.

• Hukumat soliqlar va qarz olish orqali kerakli fondlarni oshiradi.

Tadbirkorlik tushunchalarini bog'lang

1. Siz kundalik turmushda foydalanigan tabiiy resurslar nima? Bu resurslarning qaysilarini himoya qilish kerak? Shaxs sifatida yangilanmagan resurslardan foydalanishni oldini olish uchun nimalar qila olasiz?

2. Xavfsizlik insonlarda ular biror narsalarini qo'yayotgan joylarida va o'zlarining bizneslarini boshqarishda ehtiyotkorlik dir. Siz va boshqalar ish joylarini xavfsizlantirish uchun qila oladigan ishlarini sanab bering.

3. "diskriminatsiya" tushunchasi siz uchun qanday ma'noni anglatadi. Ish joylarida qanday diskriminatsiya turlaridan xabardorsiz?

4. Nima uchun ish beruvchilar ishchilarning salomatliklarini tiklashlarida mablag' ajratishni istashadi deb o'ylaysiz? Bunda kompaniya qanday foyda ko'rishi mimkinligini aniq ko'rsatib o'ting.

5. Siz uz jamiyatingizda xizmat qiladigan kommunal xizmatlarning utrlarini sanab chiqing. Ular qanday xizmatlarni ta'minlaydi? Nima deb o'ylaysiz aga ushbu xizmatlar bir nechta raqobatlashuvchi kompaniyalar tomonidan ta'minlanishi yaxshimi? Javobingizni tushuntiring.

6. Hukumat tomonidan ta'minlanadigshan xizmatlarning ro'yhati berilgan. Har bir punkt uchun federal, davlat yoki mahalliy boshqaruv organidan qaysi biri ko'proq javobgar ekanini ayting. (ba'zi xizmatlar bir nechta xokimiyat organlari tomonidan taqdim etilishi mumkin).

A. Yong'in xavfsizligi

B. Ta'lim

S. Parklar va hordiq chiqarish

D. Suv ta'minoti

E. Shaharlararo magistrallar

- F. Kam ta'minlangan oilalarga yordam
 G. Chiqindi va ahlatlarni tozalash
 X. Jamoat avtobuslari
 I. Politsiya himoyasi
 J. Jamoat kutubxonalari
 K. Ko'chalarni ta'mirlash
 K. Milliy mudofaa
7. odamlar har kuni yozma va og'zaki shartnomalar tuzadilar.
- A. Iste'molchi va ishbilarmon orasida, ikki ishbi-larmon orasida, ishchi va tadbirkor orasida bo'ladi-gan shartnomalarga misollar keltiring.
 - B. SHartnomalarni kuchga kiritish uchun xukumat qanday xizmatlarni ta'minlaydi?
8. "Xokimiyat bizning eng katta tadbirkorimiz" mavzusida ikki talaba baxslashayapti. Ulardan biri ba'zi xukumat faoliyatlari xususiy tadbirkorlik bi-

lan bevosita raqobatlashadi deb ishonadi. Uning fikricha xokimiyat o'sha tadbirkor faoliyatini chek-lab yoki cheklamasligi uchun buni xokimiyat amal-ga oshirishi kerak. Briyanning fikricha xokimiyat tadbirkordan ko'ra yaxshiroq va kam harajatlarda amalga oshira oladigan ishi bilan shug'ullanishi kerak. Siz nima deb o'ylaysiz? Ham hokimiyat ham xususiy tadbirkorlar tomonidan amalga oshiriladi-gan xizmat turlariga misollar keltiring.

9. Nima uchun xokimiyat obligatsiyalar orqa-li daromadini oshiradi va daromadni soliqlar orqali oshirish imkoni bo'lgan vaqtda qanday manfaatlar-ni talab qiladi deb o'ylaysiz?

BIZNES TILINGIZNI RIVOJLANTIRING

Berilgan ta'riflarni terminlar bilan solishtiring.

10. Boshqaruv qoidalarini yoki etikasi prinsiplari
11. Jamiyatning sharoitini yaxshilanishiga hissa qo'shadigan biznes majburiyati.
12. Tadbirkorlar va ularning ishchilari qanday o'zlarini tutishlari kerakligi haqidagi qoidalar.
13. O'rnini hech narsa bosmaydigan gaz, ko'mir, mis yoki temir kuporosi .
14. Tashkilotning ishchilari yoki a'zolarining faoliyatlari uchun qo'llanma bo'lgan qoidalar kelishuvi.
15. Hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan xizmat yoki mahsulot bilan ta'minlovchi tadbirkorlik; hukumat boshqaruvi tomo-nidan belgilangan xizmat (mahsulot) uchun to'lanadigan narx.
16. Monopoliya va adolatsizlikni oldini olish, raqobatbardoshlikni rag'batlantiruvchi qo-nunlar.
17. Mualliflar, shoirlar va rassomlar huquqlarini himoyalash.
18. Xizmatlar va tovarlarni biror qimmatli narsaga ayrboshlash kelishuvi.
19. 20 yillik muddatichida biror narsani yaratish, foydalanish va sotish huquqi berilgan shaxs.
20. Kompaniyaning yoki muayyan mahsulotni bildiruvchi so'z, xarf yoki belgi (timsol)
21. Biror xizmat turini yuritishda yoki mahsulot ishlab chiqarishda to'liqligicha bozorni qo'lga olgan biznes turi.

Kalit so'zlar

- A. Monopoliyaga qarshi qonunlar
- b. biznes etnigi
- s. Etnik kodi
- d. shartnomalar
- e. Mualliflik huquqi
- f. Etnik
- g. Monopoliya
- x. Yangilanmagan rusurslar
- i. Patent
- j. kommunal xizmatlar
- k. Ijtimoiy javobgarlik
- l. Savdo belgisi

Akademik aloqalar o'rnatish

22. **Aloqa:** Turli xil odamlardan "chigal vaziyat" nima ekanligini va unga misollar keltirishni so'rang. 2 ta yoki 3 tadan iborat qisqacha malumot tayyorlang.

23. **Hisob-kitob qilish:** Johnson ishlab chiqarish kompaniyasining yillik budjet operatsiyalari \$750.000. Har yilda u quyidagicha xarj qiladi: ifloslanishni nazoratiga \$37.500; ijtimoiy loyihalarga hadya qilish \$22.500; ishchi sog'lig'i hamda sport programmalariga \$7.500.

a) Yillik budjetning qancha qismi ijtimoiy mas'uliyatli harakatlarga ajratiladi (ifloslanishga qarshi, ijtimoiy proektlarga, sog'lom bo'lishga hamda sportga)? Umumiy xarajat qancha?

b) Agarda keyingi yilda 15 % o'sish bo'lsa, har bir xarajat kategoriyasi uchun budjetning qancha qismi bo'lishi kerak? Umumiy xarajat qancha?

24. **Texnologiya :** Tushuntiring qanaqa yangi texnologiya taqdim etilyapti. Intellektual mulk huquqlarini himoya qilish uchun.

25. **Ko'zga ko'ringan san'at:** AQSHning ichki va tashqi qismidan kompaniyalarning brendlari va savdo markalarini qidiring. Dunyoning ko'p mamlakatlari uchun ham foydali bo'ladigan savdo belgisi yoki marka nomini loyihalashtiring

26. **Madaniyat :** Har xil hokimiyatning tizimlariga tadqiqot olib boring. Tushuntiring tarix va madaniyat qanaqa ta'sir etadi biznes qoidalariga har xil davlatlarda.

27. **Fan:** Mahsulotning ruxsatnomasi (patenti) ustida tadqiqot olib boring. Yaratuvchining yillik patenti moliyalashtirilganligini aniqlashtiring, hamda mahsulot funksiyalariga aniqlik kiriting. To'plagan ma'lumotlariz asosida qisqacha xabar tayyorlang.

28. **Mehnat faoliyatini rejalashtirish:** Kasb holati bilan bog'liq holda murojaat qilinganda taqdim yordam berish mumkin bo'lgan qonuniy chegaralashlarga aniqlik kiriting.

Qaror qabul qilish strategiyalari

Centerville shahar markaziga yangi sport kompleksi qurishni xoxlaydi. Kompleksni narxi \$250.000. Ikkita moliyaviy maqsad bor.

Taklif A Muammo \$ 250.000 qiymatli aksiyalarni 4% li qiymatdaligi. Shahar 15 yil davomida har 3 yilda \$10.000 dan pul to'laydi. Ja'mi foiz \$150.000 bo'ladi. Qarzga olingan qiymat (\$250.000) 15 yil ichida to'lanishi kerak. Har yilgi foiz undan foydalanuvchi kishilardan undirish va kutilayotgan davlat obligatsiyasi ham shu summadan to'lab boriladi. Qurilishni shu ondan

boshlashadi.

Taklif B Shahar sotuv miqdorining $\frac{1}{4}$ qismini soliqlar tashkil qiladi. Yillik foyda 5 yil ichida oshirilishi kerak ammo Senterville'da yashovchilarda to'lovlar to'lishga imkon yoq. Qurilish bir necha yilga kechiktirildi.

29. Bu ikkita takliflarning afzalliklari hamda zararlari nimada?

30. Sizga qaysi taklif maqul bo'ldi va nega?

Maktab va jamiyatning bog'liqligi

Katta kompaniya yoki tashkilotga tegishli biznesiga ega bo'lgan rahbar bilan suhbatlashing. Mahsulotlarni loyihalashtirish odamlarni ishga yollash harakatlari, boshqa biznes qarorlarini tayyorlashlar haqida ma'lumotlarni oling. So'rang ulardan qanaqa axloq qoidalari ta'sir

qilishi haqida ularning kunlik hayot tarziga yoki boshqalarnikiga. Javoblarga asoslangan holda qisqacha odob-axloq qoidalari yarating qaysikim menejer va ishchilar tomonidan qarorlar qabul qilishda yo'l ko'rsatishda foydalansa bo'ladigan.

Veb ishlama

Global isish muhim mavzu hisoblanadi. Shuni aniqlik dunyo isib bormoqda . O'tga 12-yilning 11-yili eng issiq bo'lgan. Isish yaxshi hujjatlashtirilgan bo'lsada unig sabablari haqida bhs mavjut. U tabiiy aylanmaning qismi bo'la oladimi? Yoki u inson harakatlari tufaylimi? Inson harakati natijasida deb o'ylaydigan olimlar, tabiatshunoslar, siyosatchilar muammo karbonat gazini qizdiruvchilarni topadiganlar.

Tanqidiy fikrlang

1. Global isishni o'rganishda internetdan foydalaning va muammoga oid turli xil qarashlarni oling. Quydagi kategoriyalar har qaysi biri mavjud bo'lgan web sahifaga kiring hukumat agentligi, atrof muhitni

qo'llab quvvatlovchi organizatsiyalar kata hajimda ishlab chiqaruvchilar va energiya kompaniyalari qisqacha xabarda global isishga qarshi kurashish uchun g'oyalar berilgan sahifani toping .

2. Harakatlar va strategiyalarni aniqlash uchun internetdan foydalaning qaysiki holatlar, hukumatlar va shaxslar issiqxona gazlarini chegarada saqlay oladigan , topgan malumotlaringizni stolga yozing.

3. 3 ta harakat yoki strategiyani tanlang qaysi issiqxona gazlari miqdorini pasaytirishda yordam bera oladigan va ular ish mashg'ulotlariga qanday ta'sir ko'rsatishi haqida xabar yozing.

Tayyorlangan nutq jarayoni

Dunyoning ko'p kompaniyalarda ishchilar ish kunining asosiy qismi telefon qo'ng'iroqlariga javob berish elektiron savdo , xabar jo'natish (e-mail) bilan o'tkazadi. Bugungi texnologiyalar shaxsi o'sishni o'ylashga undaydi . biznes liderlaridan ishchilarning ishlash tizimini yuzaga keltirish talab etiladi.

Siz ish joyidagi hurmat va etiketkaga undaydigan strategiyalarni taklef etadigan nutq tayorlang . Sizing nutqingizda ish vaqtidagi etiketkani va xizmatni rivojlantirishga urg'u berishingiz kerak. Siz ishda atakalikga o'stirayotgan rejani nomoyon qilish uchun 3 yoki 5 minutga egasiz . Bu taqdemotda avdio va ko'rinishlardan foydalanish mumkin.

Faoliyatning baholanishi:

- Ish joyida xulq-atvor etikasini aniqlash
- Ishchilarning ish joyida ishonchi va umumdorligi munosabatlarini tushuntirish.
- Ish joylarda etik xulq-atvorlarni yaxshilash strategiyasini tasvirlash
- Ish joyida etik standartlar qanday

amalga oshirilishi va kuzatishni tushuntirish

• Ish muhitida talab qilinadigan va mukofotlanadigan etik ahloqni tasvirlash
Siz quydagilar bo'yicha baholanasiz:

- Mavzuga oid bilim
- Taqdimot tashkil etish
- Tovush sifati ishonchliligi va ko'z ravshanligi
- Biznes strategiyasi taqdimoti

Tanqidiy fikrlang

1. Nimaga bizneslarda ishchilar uchun standart va qoidalar bo'lishi kerak ?
2. Nimaga ish joyida ko'p axloqiy muommolar texnologiyaga bog'liq?
3. Qanday qilib biznes ishchilar sadoqatini o'stira oladi?
4. Ish joyida unumdorlikni kamayishiga nima sabab bo'ladi?
5. Ish joyida axloqsizlik qilganlar uchun nima qilinishi kerak?

www.bpa.org

Bo'lim

2

Biznesni tashkillashtirish va boshqarish



- 5 Biznesni tashkillashtirish
- 6 Tadbirkorlik va kichik biznesni boshqarish
- 7 Boshqaruv va yetakchilik qilish
- 8 Inson resurslari, madaniyat, va xilma-xillik
- 9 Faoliyatni rejalashtirish va rivojlantirish

BIZNES QARASH



Ishlab chiqarishni amalga oshiruvchi 3 faktor mavjud: iqtisodiy resurslar, tabiiy resurslar va inson resurslari.

Bu bo'limning har bir qismida biznesni tashkil etish va bajarishni aks etuvchi bir qancha ko'rinishlari mavjud. Ba'zi bizneslarga tadbirkorlik faoliyatini boshlash; boshqalari bo'lsa kata korparatsiyalardir. Ba'zi kichik bizneslar bir qancha ishchilarni boshqaradi; boshqalari bo'lsa yo'zlab ishchilarni yollashi mumkin. Umumiy holatda bizneslar cheklangan inson resurslaridan oqilona foydalanish bilan bog'liq jarayondir.

Quyidan yuqoriga hukmronlikka erishish.

1960 yilning oxirlarida, ikki do'stning dasturlar yozish bilan shug'ullanuvchi hobbisi bore di. 1975 yilda birinchi shaxsiy kompyuter uchun Basic dasturlash tilini, Altair 8800, ni yaratishdi. Tadbirkorlar, Bill Gates va Paul Allen, hamkorlari bilan unga Micro-Soft deya nom berishdi. Bu ishdagi 1 yilgi daromad \$16,000 bo'ldi.

1980 yilda IBM kompyuter kompaniyasi yangi shaxsiy kompyuter ishlab chiqdi va unga operatsion sistemani kerak edi. Ular microsoft's MS-DOS ni tanlashdi. Microsoft Dos sifatida tanilish shaxsiy kompyuterlar ishlab chiqaruvchilar uchun standart vazifasini bajaradi.

1986 yilda, Microsoft Redmond, Washingtonga ko'chib ketdi. Kompaniya xodimlari uchun 40 akrlik kompas qurib berdi. Binolar x naqshidagi shaklda dizayn qilinib ishchi ofislari oynadan bo'lishiga ruxsat berardi. Asosiy maqsad Microsoft ishchilari o'tirib o'ylashlari zaminida madaniyatni rivojlantirish edi. Microsoft o'ta aqilli kishilarni yashirishga harakat qilardi va ularga keyin uylash uchun erkinlik berardi va mahsulotlar-

ni rivojlantirardi. 1995 yilgacha, Microsoftning daromadlari \$6 milliartga yetdi va 17000 dan ko'pro ishchilarga ega edi.

Ehtimol Microsoftning eng kata maqsadi qanday qilib butun dunyo o'rgimchak turi Microsoft dasturiy mahsulotlar hukmronligini o'rnini egallamoqchiligini chamalash bo'lgandir. Microsoft ishchilari bosh ofislarda uxlash uchun Palatka solardi va ularda ishni samarasini oshirish imkoniyatini kata bo'lardi. 58 miliartdan oshgan edi va ishchilari 90,000 ga yetkan edi. Bugun, bazi odamlar fikricha Microsoft juda kata va kam miqdorda tadbirkorlik subyekti bo'ldi. Microsoft o'ziga yaqin kelgan bir qancha raqobatdoshlariga ega bo'ldi lekin ular hali dastlabki yulda. Bitta 2 do'st tomonidan tuzilgan, Larry Page va Serget Brin. Bu kompaniya Google deb nomlanadi.

Tanqidiy fikrlang.

Tushuntiring nima sababdan Microsoftning vaqt davri bo'yicha o'sishi uning qanday tashkillashtirilganligiga va qanday qilib u ishchilarning boshqarishiga ta'sir ko'rsatdi.

Bob 5

BIZNESNI TASHKILLASHTIRISH



5-1 AQSH iqtisodiyotida biznes

5-2 Biznesga egalik qilish shakllari

5-3 Biznes uchun tashkiliy tuzilish

Korporativ boshqaruv

Dunyoning eng ulkan korporatsiyalaridan birini cho'qqiga olib chiqish biznesda xuddi tushga o'xshaydi. Korporatsiya boshqaruvchisi yiliga bir qancha million dollarlab maosh va mukofot pullarini topishi mumkin, bir qancha ishchi guruhiga ega ofisga ega bo'ladi, tashkilot samolyotida dunyo bo'ylab sayohat qiladi va kompaniya muvaffaqiyatiga tasir ko'rsatuvchi kundalik qarorlarni qabul qiladi. Tashkilot boshqaruvchisi shuningdek uzoq vaqt ishlaydi va xaridorlar, ishchilar, direktorlar kengashi va sarmoyadorlarning umidlarini yuzaga chiqaradi. Ular ko'p foyda va imtiyozni qabul qilganda, ularning muvaffaqiyati yoki mag'lubiyatini o'z qarori yoki qobiliyatidan ko'ra ko'proq iqtisodiy holat, hukumat boshqaruvi va xomashyo bozoridagi holat belgilab beradi. Korporatsiya maqsadlari va dasturlari bosh boshqaruvchi tomonidan o'rnatiladi. Boshqaruvchilar asosan buyruqlar ijrosini

Kasbga oid so'zlar
Asosiy ijro etuvchi boshlig'i
Asosiy operatsion boshliq
Prezident

ini kuzatadi, ishning sifatini ko'rib chiqadi va dastur ishlab chiqib joriy qiladi. Ular tashkilot boshqaruvchilari

va ishchilariga ishni taqsimlab beradilar. Ular kompaniya ishi uchun eng ishonchli va birinchi javobgar shaxs ekanliklarini biladilar.

Korporativ boshqaruvda ish faoliyati imkoniyatlarini tahlil qilish

Korporativ boshqaruvdagi karyeralar haqida ko'proq axborot olish uchun internet resurslari va kutubxonadan foydalaning. Yuqoridagi katakchada ko'rsatilgan mansablardan birini tanlang va quyidagi savollarga javob bering.

1. Ushbu sohadagi kasb uchun ish muhitini qanday tasvirlagan bo'lardingiz?
2. Bu faoliyatdagi sizni qiziqtiradigan narsa? Bu faoliyatda o'z talantingiz, qobiliyatingiz va imkoniyatlaringizdan qanday foydalangan bo'lardingiz?

Korporatsiya boshqaruvchisi sifatida qanday ishlanadi? Korporatsiya boshqaruvchisining ish jadvali ko'p kunlarni o'z ichiga oladi. U hukumat a'zolari va boshqa kompaniya boshliqlari bilan yig'ilishga qatnashishdan oldin bir soatlik o'qish bilan boshlanishi mumkin. Konferensiyada ko'rsatilgan kompaniyaning moliyaviy dasturini ko'rib chiqish uchun rahbariyat jamoalari bilan tushlik. 2 soat telefon-da senator bilan telekommunikatsiya qonuni haqida, Inson huquqlari bo'yicha president o'rinbosari bilan mehnat shartnomasi muzokaralari haqida va Yaponiyadagi ishlab chiqaruvchilar bilan mo'ljallangan tavakkalchilik darajasi haqida gaplashishga sarflanadi. Gimnastika mashg'uloti va tezkor kechki ovqat bilan dam olishdan so'ng Braziliyaga yangi ishlab chiqarish imkoniyatlari bilan tanishish uchun uchadi. Parvoz hisobotlarni o'qish, yozishmalarni to'ldirish va Braziliya iqtisodiyoti haqidagi qisqa videoni ko'rishga sarflanadi.

Sizchi? Korporatsiya boshqaruvchisi bo'lish uchun qanday tayyorlangan bo'lar edingiz? Bu ish yuqori maosh va foyda keltirishiga ishonasizmi?

5-1 Amerika Qo'shma Shtatlari iqtisodiyotida biznes



Maqsadlar Kalit so'zlar: Haqiqiy hayotga nazar tashlash

- 1 AQSHda ish bilan bandlik ko'rsatkichining o'zgarish xolatiga tavsif berish
- 2 AQSH iqtisodiyotida biznesni roli qandayligini muhokama qilish
- 3 Biznesning 3 ta asosiy turiga tavsif berish

kontingent

ishchi 101

vositachilar 105

xizmat ko'rsatiladigan

biznes 105

Sami Rehm raqamli fotosuratni yoqtiradi. O'tgan yili u o'zining hobbisini professional fotografiya biznesiga o'zgartirdi. U raqamli tasvirlarni yaratishda rasmni tahrir qiladigan programmadan foydalanadi. Sami biznesni kengaytirishga qiziqib qoldi. Rasmlarni gazeta, jurnal, reklama agentliklari va boshqa biznes tashkilotlariga sotishga yordam beradigan do'sti bor edi. Bu ishni amalga oshirishda do'stini hamkor sifatida yoki oddiy ishchi sifatida qatnashishiga Samini ishonchi komil emas edi. Biznesni kengaytirish uchun, yangi jihozlar sotib olinish va sotuv broshurasini rivojlantirish kerak. Sami onasiga ko'glida borini aytdi, "Men fotografiya biznesini juda yoqtirman. Agar hamkorim bilan sherikchikda ishlashimga to'g'ri kelganda, bu biznesni shu qadar yoqtirgan bo'larmidim? Yangi jihozlarni sotib olishga o'zimni qurbim yetarmikin-a?"

Maqsad 1

AQSHda ish bilan bandlik ko'rsatkichining o'zgarish xolatiga tavsif berish


AQSHning o'zgarib borayotgan mehnat bozori

Biznes 21-asrning birinchi o'n yilligida umumiy ish bilan bandlik ko'rsatkichida o'sish va kamayish davri kuza-tildi. Bu o'zgarishning ma'lum qismi ishlab chiqarish va qishloq xo'jaligida-gi an'anaviy nuqtai nazardan zarur bo'lgan ishlardan xizmat ko'rsatishga asoslangan ishlarga o'zgarib borayot-gan karyeralarga bog'liq. Ishni kamay-ib ketish davri iqtisodiy inqiroz tufayli yuzaga keldi.

Ish bilan bandlik haqida ma'lumotlar

9/11/2001 yilgi terroristik xarakatlardan so'ng, iqtisodiy inqiroz 2003 yil mobaynida bir nechta ishlarni yo'qolishiga olib keldi. 2003 yildan 2008 yilga qadar ish bilan bandlik ko'rsatkichi 6% ga oshdi. 2008 yilda, 138 millionta odam

dehqonchilikga asoslanmagan ish bilan shugullanayotgan edi. 2009 yilgi iqtisodiy inqiroz 775 ming dan ortiq ishni yo'qolishiga sabab bo'ldi. 1946 va 1964 yillar oralig'ida tug'ulganlarni birinchi guruhi pensiya yoshi 65 ga o'zgarganligi sababli, 2011 yil katta ko'lamdagi pensiyaga chiqish xarakati boshlanib ketdi. Pensiyaga



chiqish davom davom etishiga qaramay, 2020 yili AQSH ishchilarining pensiya yoshi 50 dan oshgan bo'ldi. Bu vaqtda, yosh ishchilarning sonini oshishi 25 yilda birinchi marta bo'ladigan umumiy ishchi kuchiga nisbatan 20-30 yoshli ishchi guruhi sonini tezroq o'sishiga olib keladi. Boshqa yuqori ish bandligi o'sish ko'rsatkichlariga ega bolgan guruhlar Osiyo-Amerika, Afrika-Amerika va Lotin -Amerika ishchilaridir. Hozirgi paytda, oq tanli lotin bo'lmagan ishchilar ishchi kuchining 68 % ni tashkil etadi. Bu raqam 2018 yilgacha 64 foizga kamayadi. Oxirgi 50 yilda, ishga yollashdagi eng katta o'sish ayollarga to'g'ri keldi. 1960 yillar boshida 35 % ayol uyidan tashqari ishlar edi. 2000 yilga kelib ishlovchi ayollar 2 baravar oshdi. 2018 yilgacha AQShda jami ish o'rinlarining deyarli yarmi (47 foizi) ayollar tomonidan egallanadi.

Ishchilarga bosim o'tkazish

Bir vaqtlar texnologiyalar odamlarning kamroq ishlashiga imkoniyat beradi deb o'ylashardi. Bu voqea sodir bo'lgani yo'q. iqtisodiy stress kompaniyalar tomonidan yollanadigan odamlar sonining kamayishiga olib keldi. Kompaniyalar ishlab chiqarishni osonlashtirdi va narxni pasaytiruvchi protseduralarni joriy qildi. Kompaniyalar ishchilarni qo'shimcha ish bajarish va qo'shimcha ishlash uchun yollaydilar. Ko'pchilik to'liq ish kunlari yarim kunlik ish kunlariga almashtirildi. Maosh qiymati kamaydi. Ko'pchilik odamlar iqtisodiy talablarini qondirish uchun ikkinchi ishni izlay boshladilar.

So'nggi tadqiqotlarga ko'ra har 10 ta ota-onadan 7 tasi farzandlar bilan yetarli vaqt o'tkazmaymiz deb hisoblashadi. Shu bilan birga bolalar ota-onalarining kasblarini o'zgartirishlarini, ko'proq mas'uliyat olishini, ish qobiliyatlarini oshirish uchun qo'shimcha ta'lim olishini va ish hamda oilaviy hayotni muvozanatda saqlash uchun muhim qarorlar qabul qilayotganini ko'rishadi. Bu tajribalar keying avlodning ish va oila to'g'risidagi qarorlarini shakllantirishga yordam beradi.

Iqtisodiy bosim tasodifiy ishchilar natijasida ham paydo bo'ldi. Tasodifiy ishchi - bu uzoq muddat ishlash uchun yarim kunlik yoki to'liq ish kunilik shartnomaga ega bo'lmagan odamdir. AQShdagi umumiy ishchi kuchining deyarli 5% (6 millionga ya-

AQSH Mehnat Statistika Byurosi davlat miqyosidagi ishchi kuchi holati haqida batafsil ma'lumotni yig'adi va hisobotga berishga tayyorlaydi. Pstda ko'rsatilgan web-saytga kiring va Bob 5 silkasiga bosing. Iqtisodiy va ish bilan ta'minlashga qaratilgan loyihalarni joylashtiring. Sizning yoshingiz va irqingizdagi odamlar va siz ishlashga qiziqayotgan muassasa uchun ish ta'minotini qanday o'zgarishini loyixalashtirilganini ko'rsatuvchi jadvallarni aniqlang va o'rganib chiqing. Keyinchalik sizga ta'lim olishda va karyera qarorlarini qabul qilishda yordam beruvchi ma'lumotdan qanday foydalana olasiz?

WWW.cengage.com/school/genbus/pob

Tekshiruv uchun savol ✓

Bir necha o'n kunlikda AQSh ishchi kuchining eng ko'p qismini tashkil qiladigan bir necha guruhlar ro'yxatini tuzing.

qin odam)ini tasodifiy ishchilar tashkil etadi. Ba'zilarining tahmin qilishicha, 10 yil ichida bu ko'rsatkich ikki baravar oshadi. Ba'zi odamlar tasodifiy ishga joylashadilar, sababi ular doimiy ish topolmaydilar. Ba'zilar u taklif qiladigan moslashuvchanlik sabab tasodifiy ishlarini tanlaydilar.

BIZNES VA IQTISODIYOT


Korxonalar siz har kuni ishlatadigan Tovar va xizmatlarni ishlab chiqaradi. Ular korxonalar shu bilan birga yakka shaxslar tomonidan foydalaniladigan Tovar va xizmatlarni o'z ichiga oladi. 2009 yilda dunyo bo'yicha 70 trillion \$ dan ko'p qiymatga ega bo'lgan Tovar va xizmatlar ishlab chiqarildi. Bundan 20% AQSh hissasiga to'g'ri keladi. Bu Tovar va xizmatlarni 25 mln ga yaqin to'liq va yarim ish kunili korxonalar ishlab chiqaradi.

AQSh korxonalarining o'lchami

Ko'pchilik AQSh korxonalari kichik korxonalaridir. Eng katta qismi, 19,5 mlnga yaqin korxonalarda egasidan boshqa ishchi yo'q. 6,5 mln ga yaqin kompaniyalar 20 tadan kam ishchi yollaydi. Faqatgina 886000 odam 20-100 ta odam yollaydi. 182 000 ga yaqin AQSh korxonalarini yuz yoki ko'proq ishchi yollaydi. Bu katta kompaniyalardan 890 tasi 10 000 dan ortiq odam yollaydi.

Maqsad 2

Keyingi 10 yilda AQSH umumiy ishchi kuchining soni sifatida o'suvchi guruhlar ro'yhatini tuzing.



Agar biror hududda katta korxonalar ochilsa, shu hududda uni qo'llab-quvvatlash uchun yana boshqa korxonalar ham joylashadi. Kichik korxonalar rezidentlar va boshqa korxonalarining talablarini qondirish uchun tashkil etilishi mumkin. Omadli korxonalar o'zi joylashgan hududda ko'proq ishchi kuchi yaratish, ko'proq daromad olish va iqtisodiyotni rivojlantirishga hissa qo'shadi.

Korxonalarining roli

Korxonalar AQSh iqtisodiyotida bir necha hal qiluvchi rolni o'ynaydi. Korxonalarining eng muhim vazifasi iste'molchilar, hukumat va boshqa korxonalar tomonidan talab qilinadigan mahsulotlarni ishlab chiqarish va taqsimlashdan iborat. Korxonalar siz har kuni foydalanadigan kiyim-kechak, kino, musiqa, oziq-ovqat va boshqa narsalarni ishlab chiqaradi.

Korxonalar ko'plab odamlarni ish bilan ta'minlaydi. Ishchilar maoshlaridan To'var va xizmatlarni sotib olishda foydalaniladi. Korxonalar tomonidan olingan foyda mulkdor va investorlarga dividend to'lash uchun ishlatiladi. Ko'p korxonalar federal, shtat va hukumat soliqlarini to'laydilar. Hukumat bu pulni toza suv, yaxshi saqlangan ko'chalar, politsiya va yong'in xavfsizligi, kasalxonalar va maktablar kabi xizmatlar uchun sarf qiladi.

Jamiyatga ta'sir ko'rsatish

Korxonalar o'zi faoliyat olib boradigan jamiyatga muhim ta'sir ko'rsatadi. Yangi korxonalar ochilsa, u ishchilarga maosh to'laydi. Bu korxonalar yana shu hududdagi korxonalardan To'var va xizmatlar sotib oladi. Bu pul avval bu jamiyatda mavjud emasdi. Natijada ishchilar va korxonalar o'zlariga kerakli bo'lgan narsalarni sotib olishga ko'proq pul sarflaydi.

Sarflangan pul jamiyatda ishchilarga bo'lgan talabning ortishiga sabab bo'ladi. Ular o'rin-joy, avtomobil, oziq-ovqat va o'yin kulguga ehtiyoj sezadilar. Ular jamiyatga talab qilingan ijtimoiy xizmatlarini ko'rsatgani uchun soliq to'laydi.

Biznes faoliyatlari

Korxonalar katta yoki kichik, oddiy va murakkab bo'lishi mumkin. Korxonalar faqatgina bitta jamiyatda faoliyat olib borishi mumkin. Bu korxonalar millatlar va dunyo bo'ylab ko'plab o'rin-joylarga ega bo'lishi mumkin. Garchi korxonalar ko'plab tur va o'lchamga ega bo'lsa-da, barcha firmalar 6 ta asosiy faoliyatni amalga oshiradi.

Fikrlarni yaratish. Korxonalar yangi fikrdan boshlanadi. Kimdir yangi mahsulot yoki xizmat yoki biznes jarayonini amalga oshirishning yangi usuli haqida fikrga ega bo'lishi kerak. Korxonalar muvaffaqiyatga erishish uchun yangi fikrlarni yaxshilash va rivojlantirishda davom etishi kerak. Korxonalar o'xshash to'var va mahsulot sota digan boshqa firmalar bilan raqobatlash bo'lishi kerak. Ko'p kompaniyalarda yangi mahsulot, xizmat va operativ fikrni topish uchun to'liq ish kunida ishlaydigan tadqiqot bo'limlari mavjud.

Kapitalni ko'paytirish. Korxonalarda faoliyat olib borish uchun moliyaviy resurslar mavjud bo'ladi. Ular bu moliyaviy resurslardan binolar va asbob-uskunalar sotib olish, ishchilarni yollash va qayta tayyorlash va kundalik biznes amaliyotlarini amalga oshirish uchun foydalanishadi. Ko'p korxonalarini tashkil qilish uchun katta miqdordagi kapital kerak bo'ladi. Ba'zi kapitalni mulkdor kiritadi. Ko'pchiligi moliyaviy institutlar yoki investorlardan qarz sifatida olinadi. Korxonalar rivojlangani va kengaygani sari ko'proq kapital talab qiladi. Kapitalning bir qismi qayta investitsiya qilingan foyda bo'ladi.

Korxonalar faoliyatini davom ettirish uchun yetarli mablag'ga ega bo'lish uchun banklar va qo'shimcha investorlar bilan ishlashni davom ettirishga to'g'ri keladi.


Personalni ishga yollash va qayta tayyorlash. Korxonalar inson resurslari kerak. Hattoki mulkdordan boshqa ishchisi bo'lmagan korxonalar ham rivojlangani sari yarim kunlik va to'liq ish kunlik ishlarni qo'shimcha tashkil etadi. Korxonalar yangi xodimni ishga yollash va ishchilarni tayyorlash protseduralarini amalga oshiradi. Ular ish haqi, foyda va ishga yollaganlik uchun soliq to'laydi. Yangi ishchilar ishlarini to'g'ri bajarishlari uchun o'qitiladi. Qo'shimcha o'qitish jarayonlar o'zgarganida, yangi vazifa qo'shilganida yoki yangi texnologiya olib kelinganida kerak bo'ladi.

Tovar va xizmatlarni sotib olish. Barcha korxo-

**GURUH
BO'LIB
ISHLANG**

Agar siz biznesga ega bo'lsangiz, siz moliyaviy muassasalardan kredit olgan holdami yoki biznesingizni ma'lum qismini investorlarga taqdim etgan holdami o'z kapitalingizni kengaytirasiz?, jamoa bo'lib, kapitalni oshirishning har bir usulini ustun tomonlari va kamchiliklarining ro'yhatini tuzing.

nalar Tovar va xizmatlarni sotib oladilar. Korxonalar bu sarflarning ko'pchiligini o'zlarining faoliyatlarida foydalanadilar. Qolganlari qayta sotiladi. Avtomobil ishlab chiqaruvchilari yangi mashinaning romi va tanasini yasash uchun po'lat, alyumin va plastic sotib olishlari kerak. Ular yana mahsulotga o'rnatiladigan ballonlar, batareyalar, havo qopchalari va havo almashtirgichlarni ham sotib oladilar.



Ommaviy iste'molchilarni jalb qilish

Avtomobillar 1900 yillarda ommaviy ishlab chiqarila boshlaganida, Genri Ford mijozlarga "Agar u qora rang bo'lsa, xohlagan rangdagi mashinangizni sotib olishingiz mumkin" der edi.

O'sha vaqtdan buyon, korxonalar mijozlarning aniq talab va ehtiyojlarini qondirish uchun narsalar ishlab chiqarishga urinib kelmoqda. Hozirgi kunda, millionlab mijozga ega bo'lgan kompaniyalar har bir shaxs uchun loyihalashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqaryapti. Ommaviy iste'molchilarni jalb qilish ommaviy bozor narxida aynan biror shaxsga mo'ljallangan mahsulotlarni ishlab chiqarishdir.

Agar siz musiqa yuklab olayotgan va maxsus ijro ro'yxatini yaratayotgan bo'lsangiz, ommaviy iste'molchilarni jalb qilish nimaligini bilsangiz kerak. 10 – 15 ta musiqa bo'lgan CD

o'rniga siz faqatgina o'zingiz xohlagan musiqalarni yuklab olasiz.

Ko'plab mahsulotlarda ommaviy iste'molchilarni jalb qilish uchun potensial mavjud bo'ladi. Kosmetika yuz toni va turiga mos tushishi uchun aralashtirilishi mumkin. Moliyaviy xizmat ko'rsatish kompaniyalari shaxsning daromadi, Yoshi va oilaviy ahvoriga mos kompyuterlashtirilgan investisiya maslahatlarini beradi.

ommaviy iste'molchilarni jalb qilish mijozlar va korxonalariga foyda keltiradi. Mijoz o'ziga mo'ljallangan mahsulotni sotib oladi va kompaniya mijozga kerak bo'lgan mahsulotni ishlab chiqaradi. Dell Computer faqatgina buyurtma bo'yicha shaxsiy kompyuterlar yaratadi. Bu yondashuv inventar bahosini kamaytirib, foyda miqdorini ko'payishiga olib keladi. Ko'plab avtomatlashgan kom-

paniyalar onlayn ravishda mashinani loyihalashga imkon beradi. Siz buni shuncha-ki qiziqish uchun yoki sotib olishingiz uchun qilishingiz mumkin. Sababi avtomatlashgan ishlab chiqarish yuqori mexanizatsiyalashgan, chiziqlar sizning xohishlaringizga ko'ra transportingizni loyihalashtirishi mumkin. Genri Ford siz qora emas boshqa rangni tanlaganingizdan hayratlangan bo'lishi mumkin edi.

Tanqidiy fikrlang

1. Boshqa iste'molchiga moslashtirilgan Tovar yoki xizmatlarga misol ko'rsatuvchi veb-sayt yoki mahalliy korxonani toping. Texnologiya bu holatni qanday amalga oshiradi?

2. Jamiyatingizda iste'molchiga mo'ljallangan Tovar yoki xizmatni onlayn taklif qilishni tasvirlang.

Vositachi mijozlarga sotish uchun mahsulotlar assortimentini sotib oladi. U korxonani yuritish uchun yana display jihozi, kompyuterlar va tozalash uskunasi sotib olishi kerak. Korxonalar boshqa korxonalardan bir qator xizmatlarni sotib oladi. Bu reklama, huquq va hisobchilik xizmatlari, maysazorga qarash va binoga egalik qilish, himoya kabilarni o'z ichiga oladi.

Tovar va xizmatlar marketing

Marketing korxonani mijozlari xohlagan Tovar va xizmatlar bilan ta'minlashga qaratilgan faoliyatni bildiradi. Marketingsiz eng yaxshi Tovar va xizmat ham sotilmasligi mumkin. Korxonalar marketing faoliyatini tushunishi va amalga oshirishi kerak. Ular o'xshash mahsulot va xizmatlarni taklif qiladigan raqobatchi korxonalar ichidan tanlaydigan mijozlarni qoniqtirishi kerak.

Korxonani qaydlarini saqlash

Barcha korxonalarda qaydlarni saqlash tizimining biror turi bo'lishi kerak. Mulkdorlar va menejerlar ish olib borishlari va qaror qabul qilishlari uchun qaydlar zarur bo'ladi. Iste'molchilarga buyurtma va to'lovlar haqida axborot kerak bo'ladi. Korxonalar qaydlarni saqlashlari va axborot berilishi hukumat tomonidan talab etiladi.

Bugungi kunda qaydlarni saqlashni osonlashtiruvchi va tartibga soluvchi texnologiya mavjud. Kompyuter texnologiyalari yordamida korxonani egalari va ishchilari biznes amaliyotini tushunish va muammoni yechish uchun zarur axborotni osonlik bilan olishlari mumkin.

Tekshiruv uchun savol ✓

Korxonalar tomonidan olib boriladigan 6 ta asosiy faoliyat qaysilar?

Maqsad 3

Biznesning 3 ta asosiy turiga tavsif berish

KORXONA TURLARI

Siz, oilangiz va do'stlaringiz xohlagan va kerak bo'lgan narsalarni sotib olish uchun turli korxonalardan foydalanadi. Siz boshqa korxonalarni bilasiz lekin hech qachon ulardan foydalanmaysiz. Boshqalari haqida umuman bilmaysiz ham. 3 ta asosiy kategoriyalar mavjud – ishlab chiqaruvchilar, vositachilar va xizmat ko'rsatuvchi korxonalar.

Ishlab chiqaruvchilar

Ishlab chiqaruvchilar yakka shaxslar va boshqa korxonalar tomonidan foydalaniladigan mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqaradi. Ular boshqalarga kerakli mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun resurslardan foydalanishga mas'uldirlar. Biror yo'nalishda foydalanish yoki boshqa mahsulotni rivojlantirish uchun tabiatdan resurs oladigan korxonalar ekstraktorlardir. Ekstraktorlar yog' chiqaradi, neft qaziydi yoki yog'och kesadi. Fermerlar yerni sug'oradi va tabiiy resurlardan don yetishtirish va iste'mol uchun zaxirani ko'paytirishda foydalanadi. ishlab chiqaruvchilar boshqa ishlab chiqaruvchilardan xom ashyo oladi va ulardan mahsulot yaratadi. Ular mahsulotlarini iste'molchilar va boshqa korxonalariga sotadilar.

Biznes faoliyati ishlab chiqaruvchilardan boshlanadi. Quruvchi uy, fabrika yoki ofis binosini qurish uchun yog'och, sement, shag'al, gilam va bo'yoq oladi. Bo'tqa ishlab chiqaruvchilar bug'doy va suli, shaker va quritilgan mevalar shu bilan birga karton, kley va qayta ishlash uchun siyoh va sevimli nonushta uchun o'ram sotib oladi.



Vositachilar

Vositachilar ishlab chiqaruvchilar Tovar va xizmatlarini iste'molchi va boshqa korxonalariga sotishni o'z ichiga oluvchi tadbirkorlikdir. Vositachilarning asosiy turlari chakana va ulgurji savdo bilan shug'ullanuvchilardir. Boshqa ko'plab korxonalar mahsulot hamda xizmatlarni taqsimlash va sotishni o'z ichiga oluvchi bir necha faoliyatni birlashtiradi. Ixtisoslashtirilgan vositachilik transportatsiya kompaniyalari, reklama agentliklari, savdo markazlari, savdo ofislari va ma'lumotni qayta ishlash markazlarini o'z ichiga oladi.

Xizmat ko'rsatuvchi korxonalar

Ba'zi korxonalar mahsulot ishlab chiqar-Ko'pchilik korxonalar mahsulot ishlab chiqarmaydi. Ular mavhum bo'lgan moddiylikka ega bo'lmagan nimalarnidir taklif qiladi. Xizmat ko'rsatish korxonasi mijozlar talab qilgan faoliyatlarni amalga oshiradi. U savdo uchun mahsulot taklif qilmaydi. Xizmat ko'rsatish korxonalariga stomatologlar, psixologlar, va huquqshunoslar shu bilan birga uy hayvonlariga qarovchilar, bo'yoqchi-

lar va mebel ko'chirib beruvchilar kiradi. Xizmat ko'rsatish korxonalarining yangi turiga internet servis provayderlar, veb dizaynerlar va onlayn sayohat agentliklari kiradi. Korxonalar ham mijozlardek xizmatlardan foydalanadilar. Korxonalar Afrikadagi yangi mijoz bilan savdo qilish uchun xalqaro savdo mutaxassisi bilan bog'lanishi kerak. Kommunikatsiya firmasi katta telemarketing korxonasi uchun yangi telefon tizimini loyihalashtirishi va o'rnatishi mumkin.

Xizmat ko'rsatish iqtisodiyotning eng rivojlanayotgan qismi hisoblanadi. AQSHdagi 60% ishchi xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat olib boradi. Siz kam haq to'lanadigan va kam bilim talab qiladigan xizmat ko'rsatish haqida eshitgan bo'lsangizda, ko'plab yangi korxonalar yuqori darajada ta'lim olgan xodimlarni talab qiladigan professional va texnik xizmatlarni taklif qilmoqda.

Tekshiruv uchun savol ✓

Quyida kichik biznesning formal ta'rifi berilgan. Qaysi 4 ta'rif kichik biznesni tasvirlashda asosiy vosita bo'la oladi?

5-1 tahlili

Kalit tushunchalar

Eng yaxshi javobni aniqlang.

1. Eng ko'p ishchisiga ega bo'lgan AQSH kompaniyalari nechta ishchini ishga yo'llaydi?
 - a. 100 dan ortiq
 - b. 50 va 100 o'rtasida
 - c. 10 va 20 o'rtasida
 - d. Biznes egasidan tashqari ishchiga ega bo'lmaydi.
2. Keltirilganlardan qaysi biri omalashgan biznes faoliyatlaridan biri emas?
 - a. Tovar va xizmatlar ishlab chiqarish
 - b. Ishga yo'llash xodimlar malakasini oshirish
 - c. Mahsulot va xizmatlarni sotish
 - d. Biznes hisobotlarini tayyorlash
3. Kichik biznes bilan shug'ullanuvchi buga misol bo'ladi.
 - a. ekstraktor
 - b. ishlab chiqaruvchi
 - c. vositachi
 - d. xizmat ko'rsatadigan biznes

Ilmiy bog'lanish hosil qiling

4. Matematika. Agar AQSHda ishlayotgan shaxslarni 42 %i 1946-1964-yillarda tug'ilgan shaxslar bo'lsa, 2008-yilda nechta shaxs ishlayotgan edi? Agar bu davrda tug'ilgan odamlarning 15 %i 10 yil ichida pensiyaga chiqsa, 2008-yildagi ish o'rni bo'yicha nechta ish o'rniga to'g'ri keladi? Hisoblashlarni amalga oshirishda ish berish haqidagi ma'lumotlardan foydalaning.

5. Visual mahoratlar. Ishlab chiqarish va marketingda biznesning barcha turini o'z ichiga oladigan mahsulotni tanlang. Mahsulotni sotish va uni yuqori darajada ishlab chiqarishdagi biznesning roli va biznesni ko'rsatuvchi tasvirni chizing. Tasviringizga sarlavha qo'ying va tarkibiy qismlarga ajrating.

5-2 Biznesga egalik qilish shakllari



Maqsadlar Kalit soʻzlar:

- 1 Biznesni boshqarishni asosiy 3 ta turlarini haqida tushunish
- 2 Biznes boshqarishning har bir uygʻun turlarini tushunish
- 3 Boshqa ixtisoslashtirilgan biznes turlarini tan olish

Haqiqiy hayotga nazar tashlash

Jaden qidirib topgandi oʻzining moliyaviy veb saytidan APPL belgisini, qachonki u tekshirayotganda APPLE dagi aksiyadorlik listini. U tugʻilgan vaqtida uning bosi qoldirgandi unga Apple dagi 5 ulushini. Boshida to aksiyadorlik bozori haqida oʻrganmaguncha u bularga qiziqmagandi. Ammo hozirda u texnologiya kompaniyasi—ning rahbari hisoblanadi. Uning boshqarishda tutgan oʻrni kompaniyaning erishganlarini anglatadi. Toʻgʻri aksiyadorlik qiymatlari koʻtarildi, tushdi, ammo hozir eng yuqori choʻqqisiga yetgan u boshlagan biznesi.

Maqsad 1

Biznesni boshqarishni asosiy 3 ta turlarini haqida tushunish

KORXONAGA EGALIK QILISH

Koʻpchilik odamlar korxonaga egalik qilishni xohlashini aytadi. Nazoratda boʻlish, qarorlar qabul qilish va foyda olish maqsadida investitsiya kiritish katta kuch talab qiladi va hayajonli. Minglab odamlar korxonaga egalidir. Ularda mavjud nazorat, qanday qilib qarorlar qabul qilish, korxonaga uchun pul resurslari va foydani nazorat qilish hamma korxonaga egasi uchun bir xil emas. Mulkchilik shakli korxonaning barcha aspektlariga taʼsir qiladi.

Korxonaga mulkchiligining 3 asosiy shakli mavjud – mulkka egalik, sherikchilik va korporat-

siya. Bundan tashqari mulkchilikning koʻlab ixtisoslashgan turlari ham mavjud.



Xususiy mulk egalari daromad soligʻiga qoʻshimcha ravishda oʻz-oʻzini ish bilan taʼminlagani uchun ham soliq toʻlashi shart.

Bu soliqlar Sogʻliqni saqlash hamda Jamiyat havfsizligiga hissa boʻlib qoʻshiladi.

Boshqa biznes vakillari tomonidan ishga olingan shaxslar oʻzlarining daromadidan kelib chiqib va oddiy ishchilar talab qilingan tolovning yarmini toʻlab oʻz hissalarini qoshishadi.

Mulkchilik shakli bo'yicha A.Q.SH biznes taqsimoti				
Mulkchilik shakli	Beznesmenlar soni (2005)	Umumiy daromad	Barcha biznesmenlar (foizda)	Umumiy daromad (foizda)
SHaxsiy mulkchilik	22.075.000	1.276.000 000	71.53 %	4.06 %
Jamoa mulkchilik	5.6141.000	26.075.000 000	15.53 %	82.82 %
Sheriklik mulkchilik	2.947.000	4.190.000 000	5.65 %	13.12 %
Umumiy mulkchilik	30.863.000	31.473.000 000	1.2	100.00 %

Mulkka egalik

Mulkka egalik bir shaxs egalik qiladigan va boshqaradigan korxonadir. Bu boshlash va tugatish eng oson bo'lgan biznes shaklidir.

Ko'pchilik mulkchilikning mulkka egalik shaklini yoqtirishadi. Bu ularga barcha biznes qarorlarini nazorat qilishga imkon beradi. Mulk egasi korxonaga tushadigan barcha foydani o'ziga oladi. Bu foyda qanday ishlatilishini mulk egasi hal qiladi. Mulk egasi yana korxonaning barcha qarzlariga javobgar. Korxonaga tugatilsa ham, mulk egasi kreditorlardan qocha olmaydi. Mulk egasiga tegishli har qanday pul va boshqa boyliklar, ular korxonaga tomonidan ishlatiladimi yo'qmi, korxonaga qarzlarini to'lash uchun so'raladi.

Sherikchilik

Sherikchilik bu ikki yoki undan ortiq kishilar tomonidan boshqariladigan korxonadir. Sherikchilik bir necha jihatlari bilan mulkka egalik qilishga o'xshab ketadi. Tashkil qilish ancha oson. Mulk egalari asosiy biznes qarorlari va funksiyalariga mas'uldirlar. Sheriklar shartnomaga ko'ra investitsiya va foydani taqsimlaydilar.

Korporatsiya

Korporatsiya davlat tomonidan yaratilgan hujjatlar bilan shakllantiriladigan alohida qonuniy tashkilot. Unga bir yoki undan ortiq aksionerlar egalik qiladi va direktorlar kengashi tomonidan boshqariladi. Ko'p korporatsiyalarda aksiyadan tushumga qarab investitsiya

Kichik biznes va katta bizneschilar bilan xaridor sifatida ularning tajribasi haqida jamiyatingizda kamida 10 ta odamni ko'rib chiqing. Ulardan ular kichik bi-

znes xizmatlaringiz uchun maxsus agentliklarni qidiring. Har bir agentliklar uchun uch tomonlama shartnoma tayyorlang, shartnomada sizning biznes g'oyangiz qanday xizmatlar qila olishini ko'rsatib bering

23. **Iqtisod.** AQSH aholishunoslik byurosi xar bir davlat xar bir okrugidagi biznes va tadbirkorlik faoliyati miqdori bo'yicha ma'lumotlar berib turadi. Bularning barchasi AQSH aholishunoslik saytining "Biznes loyixalar" majmuida bor. O'zingiz yashayotgan davlat va okrugni tanlang, biznesning nomeri va sanani tanlang hamda 1 dan 4 tagacha ishchi kuchini tanlang. U yerda 5 ta eng yirik tashkilotlar, 5 ta ishlab chiqarish va 5 ta ishchi kuchini o'zlariga mos ishlab chiqarishga joylashtiring

24. **Texnologiya.** Internetdan tadbirkorlarning yoshi va ularning bizneslarini topishingiz mumkin. Ma'lumotlar majmuiga kirib programma orqali yosh tadbirkorlar va ularning bizneslari to'g'risida foiz korsatkichli ma'lumot oling. va bu ma'lumotlardan foydalanib umumiy ko'rsatgichlar tasvirlangan grafik tuzing

chiqdi.

a. U qo'shimcha pulni ta'minlashga hamroh topa olardi.

b. U Flower-a-Bunda egasi 7 yildan keyin nafaqaga chiqquncha kutib tura olardi va uning jamg'argan pullari bilan bu biznesni sotib olardi.

c. U \$20,000 lik investitsiyasi sotib ola olardi. Biroq, David investitsiya egasiga har yili umumiy sotuvning 6%ini to'lashi shart edi.

25. David uchun biznesga ega bo'lishning bu turlarining yaxshi va yomon tomonlari qaysi?

26. agar siz David bo'lsangiz, qaysi tanlovni qilardiz? Nimaga?

zneslardan nima sotib olishiga sabablar va katta biznesdan sotib olishni afzal ko'rgan sabablarni tasvirlashni so'rang. Keyin ulardan har birining yomon taraflarini so'rang. Jadval yoki yozma hisobot tarzidan mulohazalarinigizni xulosalang.

Web tahlil

Internet eng yaxshi kichik biznes platformasi hisoblanadi. Internet sotuvchilar va individual iste'molchilarga eng past narxlarda ishlashga imkon beradi. Ko'pchilik kichik biznes subyektlari, shu jumladan uyda faoliyat olib boruvchi tadbirkorlar o'z mahsulotlarini sotish uchun Amazon.com va eBay portallaridan foydalanadilar. Bu portaldan foydalanuvchi biznes subyektlari o'z veb-saytlari yoki elektron tijorat tizimlarini tashkil etishlari shart bo'lmaydi.

Tanqidiy fikrlash

1. Internetdan o'zingizga ma'qul keladigan sotuvchini (mahsulotiga bo'lgan talab oz miqdorda bo'lsin) topish uchun foydalaning. Ular savdo portallari (Amazon.com yoki eBay kabi)dan foydalanadimi yoki o'zlarining veb-saytlariga egami aniqlang.
2. O'zingiz sotishni xohlagan mahsulotni aniqlang. Savdo portallari orqali sotish yaxshiroqmi yoki xususiy vebni shakllantirishmi aniqlash uchun qisqacha biznes reja tuzing.

Kompyuterlar yordamida chop etish jarayoni

Siz va sherigingiz kompyuterdan ma'lumotlarni chop etish dasturidan foydalangan holda biznes nashrini yaratish, loyihagini tuzish va ishlab chiqarish uchun ishga yo'llandingiz. Sizda tadbirkorlik, kichik biznes boshqaruvi, vaqt boshqaruvi, professional tizim va muvaffaqiyatli tadbirkorlikka qaratilgan axborotnoma tuzishingiz uchun 2 soat vaqtingiz bor. Sizning ma'lumotlaringiz tadbirkorlar, talabalar biznesi faollari va jamiyat faollaridan iborat tinglovchilarga taqdim etilishi kutilmoqda. Sizning ma'lumotlaringiz yangi va sohaga oid bo'lishi kerak. Ma'lumotingiz muvaffaqiyatli tadbirkorlar uchun asosli axborotlarni o'z ichiga olishi kerak. Sizning guruh 2 ta kompyuter, skanner va clip art dan foydalanishi mumkin. Boshqa uskunalar ishlatilishi mumkin emas. Tayyor bo'lgan mahsulot oq va qora yoki boshqa ranglardagi oddiy qog'ozda taqdim etilishi kerak. So'zlar va lug'atlardan ilova materiallari sifatida foydalanish mumkin. Musobaqaning ikkinchi qismi sizning kompyuterlar yordamida ma'lumot chop etish haqidagi bilimlaringizni aniqlashga qaratilgan testni o'z ichiga oladi. Testdan jamg'arilgan ball yakuniy

balning 15 foizini tashkil etadi.

Namoyish indikatorlarini hisobga olish

- Grafika, matn yaratish, joylashish tartibi, ijodkorlik va ma'lumotlar chop etishdagi belgilangan font va tiplarni tushuning.
 - Tadbirkorlik va unga bog'liq konsepsiyalar to'g'risida axborotnoma yaratib.
 - Ko'rinishidan bir-biriga mos tushadigan grafika va joylashish tartibini birlashtiring.
 - To'g'ri punktuatsiya, grammatika va gap tuzilishidan foydalaning.
 - Omma oldida ijodkorligingizni namoyish qiling.
- Namoyish indikatorlari haqidagi batafsil ma'lumot uchun FBLA veb saytiga tashrif buyuring.

Tanqidiy fikrlash

1. Zo'r nashr qanday xarakterlar bilan ifodalanadi?
2. Nashrni nimalar o'quvchiga yoqadigan qiladi?
3. Nashrni ishlab chiqayotganda kim bo'lib harakat qilish kerak?
4. Axborotnomadagi o'quvchini chalg'itishi mumkin bo'lgan ikki narsani misol keltiring.

Bob

7

Boshqaruv va yetakchilik qilish



7-1 Boshqaruv vazifalari va ko'rinishlari

7-2 Yetakchilik qilish

7-3 Etik boshqaruv

Ish faoliyatini rejalashtirish

MENEJMENT

Siz o'z ish faoliyatingizni qiziqish va qobiliyatingizga qarab tanlaysiz. Buxgalteriya, savdo, hamshiralik yoki biotibbiyinjenering kabi maxsus sohalarga jalb qilingan, diqqatini qaratgan odamlar menejer bo'lishga xohishi bo'lishi ham bo'lmasligi ham mumkin. Shunday bo'lsada, ko'pchilik o'z ish faoliyatini bir kun kelib menejer bo'lish maqsadi bilan boshlaydi. Ular bu imkoniyatni katta qarorlar qabul qilish va yuksalishga asosiy maqsad sifatida ko'rishadi.

Menejerlar kompaniya muvaffaqiyati kaliti hisoblanadi. Menejment imkoniyatlari barcha kompaniyalar va biznesning barcha bo'limlarida mavjud.

Ish bilan bog'liq kasblar

- Mamuriyat
- Yordamchi boshqaruvchi
- Kordinator
- Korxon boshlig'i
- Loyiha boshlig'i
- Nazoratchi

Agar siz moliya, marketing, axborot boshqaruvi, injenering yoki inson resurslariga qiziqsangiz, siz menejer bo'la olasiz.

Siz birinchi qadamni guruh faoli bo'lish bilan tashlashingiz mumkin. Shunda siz bir necha yillik tajribadan so'ng nazoratchi yoki yordamchi menejer lavozimi uchun harakat qilishingiz mumkin. Qo'shimcha

tajriba va ehtimol qo'shimcha ma'lumot bilan o'rta yoki yuqori darajali menejer bo'lishingiz mumkin. Lavozimingiz oshishi menejment majburiyatlarini qanchalik yaxshi bajarishingiz va biznes rivojiga qo'shgan hissangizga bog'liq bo'ladi.

Ish faoliyati imkoniyatlari tahlili... Menejment

Menejmentdagi ish faoliyati to'g'risida ko'proq o'rganish uchun kutubxona va internet resurslaridan foydalaning. Yuqorida keltirilgan kasb nomlaridan birini tanlang va quyidagi savollarga javob bering.

1. Bu sohadagi ish faoliyati uchun ishga joylashish istiqboli qanday?
2. Bu sizni qiziqtirgan ish faoliyatimi? Siz bu ish faoliyati haqida ko'proq bilish uchun qilishingiz mumkin bo'lgan ishlarni ayting.

Nazoratchi bo'lib ishlash qanday bo'ladi?

Garchi Frank Emprex Corporation tarmog'idagi nazoratchilik ishidan qoniqsada, bugungi kun u uchun qiyinroq bo'lishi kutilyapti. Bugun ertalab Frank 3 ta asosiy va 1 ta o'rindosh ish o'rnini to'ldirish uchun 9 kishi bilan suhbatlashishi kerak. Tush vaqtida guruhi bilan uchrashib qo'shimcha ish vaqti va byudjetlar to'g'risida gaplashishi kerak.

Frank ishchi guruhiga kelasi oydagi rejani bajarish uchun haftasiga kamida 10 soat ko'p ishlashlari kerakligini aytishi zarur. Guruhning ba'zi a'zolari qo'shimcha pul topish imkoniyati tug'ilganidan xursand bo'lishadi, ba'zilari esa bo'sh vaqtlarini yo'qotishlaridan shikoyat qiladi.

U yana guruhi bilan byudjet haqida gaplashishi ham kerak. U byudjet bo'yicha hech qanday vakolatga ega emas, lekin uning menejeri xarajatlarni kamaytirish yo'llarini topishga yordam berishini so'ragan.

Nihoyat, Frank unchalik yoqtirmaydigan majburiyati – bir ishchini ishdan bo'shatishi kerak. Bir yangi ishchi o'z majburiyatlarini yakunlayolmadi shu sababli ishdan bo'shatilishi zarur. Frank bu ishchi bilan soat 3 da bo'ladigan uchrashuvda ishtirok etishi kerak.

Sizchi? Frankningishining eng yaxshi va yomon tomonlari nimada deb o'ylaysiz?

7-1 Menejmentning funksiyalari va usullari



Maqsadlar

- 1 Menejmentning 5 ta funksiyasini aniqlash
- 2 Korxonada va tashkilotlarda menejment darajalarini tasvirlash
- 3 Menejmentning 2 uslublarini qanday va qachon qo'llanilishini muhokama qilish

Kalit so'zlar:

- Menejment 148
- Rejalashtirish 148
- Tashkil qilish 148
- Shtat tashkil qilish 149
- Amalga oshirish 149
- Nazorat qilish 149
- Menejment uslubi 151

Haqiqiy hayotga nazar tashlash

Siz menejmentdagi ish faoliyati haqida o'ylaganmisiz? Siz menejerlar ishiga o'xshash ish qilganingizni va bu sohada tajribangiz bor deb o'ylaysizmi? Siz vaqtingiz va pulingizni boshqarasiz. Siz guruh yoki tashkilotning yetakchisi bo'lishingiz mumkin. Ehtimol guruhingiz faoliyatida rahbar o'rnini egallagandirsiz. Yetakchi sifatida ehtimol mas'uliyatni o'z bo'yingizga olgandirsiz, kimgadir yo'nalish bergandirsiz va muammoni hal qilgandirsiz.

Biznesni boshqarish bilan birdek bo'lmasligi bilan birga, bu ishlar sizga menejerlik ishi qanday bo'lishi haqidagi tasavvurlarni beradi. O'ylab ko'ring, bu million dollarlik byudjetga mas'uliyatlik, yuzlab odamlarning ishini boshqarish yoki biznesning bir nechta bo'limlarini o'z ichiga oluvchi loyihaning belgilangan muddatda bajarilishini nazorat qilishga o'xshaydi.

Sizda menejerga kerak bo'ladigan xususiyatlar bor deb o'ylaysizmi? Siz ishingizni hal qiliuvchi deb bilan birga ajoyib deb ham ayta olasizmi? Agar xohlasangiz, ayni vaqtda menejmentlik faoliyatini boshlash uchun nima qila olasiz?

Maqsad 1

Menejmentning 5 funksiyasini aniqlash

Menejrlarning roli va faoliyati

Menejerlar korxonada yoki tashkilotning rivojlanishi yoki inqiroziga mas'ul hisoblanadi. Korxonada maqsadlariga erishsa, menejerlar hurmat qozonishadi va mukofotlanadilar. Maqsadga erishilmasa, maqsadga erishilguncha bunga mas'ul bo'lib qoladilar. Korxonani boshqarishning tavakkalchiligi va mukofotlanishini tajribada sinab ko'rishni xohlagan odamlar menejerlar bo'lishi mumkin.

Menejer kim?

Menejment – bu odamlar va boshqa resurslardan samarali foydalangan holda tashkilotning maqsadlariga erishish jarayoni. Menejerlar korxonalaridagi iharakatlarni amalga oshiradilar. Yangi korxonada uchun fikrlar yaraadigan tadbirkor menejer hisoblanadi. Xalqaro bozorga

chiqish uchun muhim qarorlar qabul qiladigan, ko'plab million dollarlik korxonaning boshqaruvchisi ham menejerdir. Kichik sondagi ishchilar guruhiga nazoratchilik qiladiganlar ham, yuzlab odamlarga boshchilik qiladigan vitse-prezidentlar ham menejerlar.

Menejerlar nima qilishadi?

Har bir menejerning maxsus kasbiy majburiyatlari bo'ladi, lekin barcha menejerlar tashkilot turi va o'lchamidan qat'iy nazar o'xshash ish faoliyati bilan shug'ullanadi. Menejerlar ishi beshta funksiyadan tashkil topadi: rejalashtirish, tashkillashtirish, ishga yollash, amalga oshirish va nazorat qilish.

- Rejalashtirish o'z ichiga axborotni tahlil qilish, maqsadlarni shakllantirish va qilinishi kerak bo'lgan ishlar haqida qarorlar qabul qilishni o'z ichiga oladi.
- Tashkil qilish qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun kerak bo'lgan ish va resurslarni aniqlash va tartibga solishni bildiradi.

- Staffing (shtatlash) korxonaga uchun ishlaydigan odamlarni ishga yollash, tayyorlash va bo'sh ish o'rinlarini to'ldirish bilan bog'liq barcha ishlarni o'z ichiga oladi.
 - Amalga oshirish odamlarni tashkilotning rejalashtirilgan ishlarini bajarishga yo'naltiradigan va natijaga erishtiradigan kuch.
 - Nazorat qilish korxonaga qaysi sohalarga oid maqsadlar qo'ygani, bu maqsadlarga rejalashtirishning qaysi bosqichida erishish kerakligini anglatadi.
- Katta korxonaga va tashkilotlarda ko'plab menejerlar bo'ladi. Maxsus menejment funksiyalariga mas'ullik har bir menejer uchun alohida tayinlanadi. Ba'zida, korxonaning katta yoki kichikligiga qarab bir necha menejerlar bir funktsiya doirasidagi mas'uliyatga ega bo'lishlari mumkin. Agar korxonaga birdan ortiq odamga tegishli bo'lsa, menejment funksiyalari korxonaga egalarining qiziqishlari va imkoniyatlariga ko'ra ular o'rtasida taqsimlanadi. Kichik korxonalarda, korxonaga egasi barcha

menejment funksiyalariga o'zi mas'ul bo'ladi. Korxonaga rivojlangani sari, boshqa ishchilar menejerlik lavozimiga ko'tarilishadi. Ular bir yoki bir nechta menejerlik funksiyalarini bajarishga tayinlanishadi.

Korxonani yoki hatto korxonaning bir qismini boshqarish ham murakkab jarayon bo'lishi mumkin. Menejerlar qarorlar qabul qilishi, muammolarni hal qilishi, raqobatga bardosh bera olishi va yangi strategiyalarni yaratishi zarur. Ko'p hollarda bir menejment funksiyasini bajarish uchun qabul qilingan qaror boshqa funktsiyalarga ham ta'sir ko'rsatadi. Har bir menejmerning sa'y-harakatlari boshqalarning ishiga ta'sir ko'rsatadi. Samarali ishlovchi menejerlar ishchilarini yaxshi ishlashlari uchun ruhlantirish beradi. Ular yana korxonaning pul va boshqa resurklaridan oqilona foydalanadilar. Muvaffaqiyatli korxonalarda menejmentning barcha funktsiyalarini yaxshi bajaruvchi menejeri bo'lishi kerak.



Nazorat nuqtasi

Menejmentning besh funktsiyasi qaysilar?

Menejmentning darajalari

Agar korxonaga kichik bo'lmasa, korxonaning rivoji uchun mas'ul bir necha menejerlar bo'ladi. Har bir menejer menejmentning har bir funktsiyalariga o'z bo'lsada vaqt ajratadi va odamlar hamda ishi oldida vakolatga ega bo'ladi. Barcha menejerlar ham menejerlik funktsiyalariga bir xilda vaqt va e'tibor qaratmaydi. Ko'pchilik tashkilotlarda menejerlarning uch darajasi mavjud – boshqaruvchilar, o'rtacha menejerlar va nazoratchi.

Maqsad 2

Korxonaga va tashkilotlarda menejment darajalarini tasvirlash

Yetakchi korxonalar haqida gap ketganda, menejmentda ayollar shishadek sust bo'lishadi. Rivojlanish bo'lishiga qaramay, katta korporatsiyalarda erkaklar o'zlarida menejmentning hisobsiz sondagi kalitlarini ushlab turadilar. 2000 – yilgi ma'lumotlarga qaraganda, bor yo'g'I 4 ta ayol 500 ta boy kompaniyalarda rahbarlik qilishgan. 2009 – yilgacha bu raqam 15 tagacha yetgan. Hozir ayollar ko'plab boshqaruvchilik faoliyatlarini olib bormoqdalar. Shu sababli kelgusida yuqori lavozimlarni egallashlari uchun imkoniyat bor.

Top menejment

Boshqaruvchilar butun bir korxonaning yo'nalishi va rivojlanishiga mas'ul yuqori darajadagi menejerlardir. Ular ishni tashkil etadilar, faoliyati hamda natijalarni monitor qiladilar. Ular uzoq muddatli reja va yo'nalish tuzadilar. Ular korxonaning foyda keltirishi va rivojlanishiga mas'ul bo'ladilar. Boshqaruvchilik kasbi o'z ichiga bosh boshqaruvchi mas'ul shaxs, president, bosh ijro etuvchi mas'ul shaxs va vitse-prezidentlarni o'z ichiga oladi. Ular iqtisodiyot va raqobatni o'rganadilar. Ular barcha muhim korxonalar qarorlari va sarflarni ma'qullaydilar. Boshqaruvchilar boshqa menejerlar va ishchilar ichiga mas'ul bo'ladilar.

O'rta menejment

O'rta darajadagi menejerlar korxonalar operatsiyalarining ma'lum qismiga mas'ul bo'lgan mutaxassislardir. O'rta darajadagi menejerlarga marketing menejeri, axborot texnologiyalari menejeri, mijozlarga xizmat ko'rsatish bo'yicha menejer, amaliyotlar menejeri va inson resurslari menejerini misol qilib keltirishimiz mumkin. O'rta darajadagi menejerlar korxonalar biznes rejasi bilan u boshqaruvchilar tomonidan tasdiqlangan paytda ishlaydi va o'zlarining bo'limlariga tegishli maxsus rejalarni ishlab chiqadilar. Ular o'z ishlarini boshqa menejerlar ishlarini bilan uyg'unlashtirishlari kerak. Ular ko'p vaqtini tashkillashtirish, shtatlashtirish va funksiyalarni amalga oshirishga sarflashadi.

Nazoratchilar (Rahbarlar)

Nazoratchilar (rahbarlar) korxonalar birinchi darajali menejment vakillaridir. Ular kichik guruhlarining kundalik ishlariga mas'uldirlar. Ular ishchilarga ishlarini re-

jalashtirish va faoliyati hamda natijalarini monitoring qilishda yordamlashadi. Ular kerakli resurslarning mavjudligi va ulardan oqilona foydalanishga astoydil harakat qiladilar. Nazoratchilar (rahbarlar) ishchilarining miqdorini baholashi va shu sohada paydo bo'ladigan muammolarni hal qilishda yordam beradi. Nazoratchilar (rahbarlar) ko'p vaqtini boshqaruvchi va o'rta darajadagi menejerlarning rejalarni hayotga tadbiq qilishga sarflaydi. Ular faoliyatlaridan tashqari menejerlikka oid bo'lmagan majburiyatlarga ham ega bo'lishlari mumkin.

Menejer bo'lmagan shaxslarning boshqarishi

Menejer bo'lmagan ishchilar ham menejment funksiyalariga o'xshash ishlarini bajarishlari mumkin. Ishchilar ishlarini rejalashtiradilar va tashkil qiladilar. Ular yangi ishchilarni yollash va tayyorlashda ishtirok etishlari mumkin. Ular yangi ishchilarning ishlarini baholaydilar. Shunday bo'lsa-da, menejerlar boshqalar ishi uchun mas'ul bo'ladilar va ishchilar oldida ma'lum vakolatga ega bo'ladilar. Mas'uliyat va vakolatga ega bo'lmasa, bu ishchining ishi menejment hisoblanmaydi.

Ba'zi tajribali ishchilardan guruhda yetakchi bo'lishi so'raladi. Ular yangi loyihani boshqarishlari yoki yangi xodim ishini nazorat qilishlari mumkin.

Ko'p korxonalar xodimlarini ishchi guruhlarga ajratadilar. Bu guruhlar o'z ishlarini uchun mas'uliyat va vakolatlarga ega bo'ladilar. Guruh rejalari tuzish, ishni qanday amalga oshirish va guruh a'zolari o'rtasida taqsimlashni hal qiladi. Guruh maqsadlarni belgilash va byudjetga foyda keltirishga mas'ul bo'ladi. Ishchi guruhlar menejerga hisobot beradi va kerak bo'lganda yordam so'raydi.

Guruh yetakchilari va ishchilar guruhlari cheklangan menejment faoliyatini amalga oshiradilar. Ikkala holat ham ishchilar uchun menejerlik qobiliyatini shakllantirishlari uchun samarali tajriba hisoblanadi. Ular menejerlarga kerak bo'lgan qobiliyatni rivojlantirishga yordam beradi va menejerlik faoliyatiga bo'lgan qiziqishni oshiradi.

Nazorat nuqtasi

Menejmentning 3 darajasi o'rtasidagi farqlar nimada?

Menejment uslublari

Odamlar guruhini boshqarish qiyin ish bo'lishi mumkin. Menejerlar turli xil sharoit, shaxsiyat tajribaga ega bo'lgan odamlar bilan ishlashiga to'g'ri keladi. Atletika jamoasi yoki musiqa guruhi a'zosi bo'lganmisiz? Agar bo'lgan bo'lsangiz, dastlab jamoa yoki guruhdagi iqtidorlarni birgalikda yaxshi ishlashlarini ta'minlash qanchalik qiyin bo'lganini eslasangiz kerak.

Menejerlar ishlarini menejment uslublari asoslangan turli yo'llar bilan bajaradilar. Menejment uslublari menejerlar ishlaydigan va ishchilarni jalb qiladigan yo'llardir. Menejerlar tomonidan menejmentning 2 uslubi: taktik menejment va strategik menejmentdan foydalanadilar.

Ba'zida menejment uslubi boshqariladigan ishchilar xarakteridan kelib chiqib tanlanadi. -Boshqa vaqtlarda tanlov bajariladigan ishga asoslanadi. 7-1 jadval qaysi holatda qaysi uslub samaraliroq bo'lishi



ko'rsatib beradi. Tajribali va samarali ishlaydigan menejerlar o'zlarining menejment uslublari o'zgartirishlari mumkin. Bu bajariladigan ishning shoshilinchligiga va ishchilardagi menejerga bo'lgan ishonchga bog'liq.

Taktik menejment. Ba'zida menejerlar inqirozga duch keladilar. Bu paytda ular guruh qanday qilib vazifani bajarishni hal qilishlari uchun vaqt yo'q deb o'ylashadi. Boshqa holatlarda menejer yangi ishchilar guruhi bilan yoki tajribasiz xodimlar bilan ishlashi mumkin. Bu holatlarda menejer taktik uslubdan foydalanishi kerak. Taktik menejment bu menejer ko'proq yo'naltiruvchi va nazorat qiluvchi bo'ladigan uslubdir.

Maqsad 3

Menejmentning 2 uslublari qanday va qachon qo'llanilishini muhokama qilish

Boshqaruv usulini tanlash	
Menejer o'ziga xos usullardan foydalanish kerak	Menejer strategik boshqaruv usullarida foydalanish kerak
<ul style="list-style-type: none">Menejer o'ziga xos usullardan foydalanishi kerak	<ul style="list-style-type: none">Menejer strategik boshqaruv usullaridan foydalanish kerak
<ul style="list-style-type: none">To'liq va yarim stavkali ishchilar bilan ishlash	<ul style="list-style-type: none">Ishchilar mahorati va tajribali bo'lishi
<ul style="list-style-type: none">Yangi vazifasi uchun motivatsiyasi kam bolgan ishchilar bilan ishlash	<ul style="list-style-type: none">Ish yangi tanlovlarsiz jadval asosida bo'lishi
<ul style="list-style-type: none">O'g'ir vaqtdagi bosimlarda ishlash	<ul style="list-style-type: none">Ishchilar qilayotgan ishidan mamnun bo'lishi
<ul style="list-style-type: none">Yangi vazifalarni belgilash	<ul style="list-style-type: none">Menejer guruh aloqalarini rivojlantirish

7-1 jadval

Nima uchun tez bajarilishi zarur bo'lgan yangi topshiriqni kimgadir topshirishda taktik menejmentdan foydalanish to'g'ri bo'ladi?

Menejer asosiy qarorlarni qabul qiladi va ish yaxshi bajarilayotganiga ishonch hosil qilish uchun xodimlar ishlayotgan vaqtda ular bilan yaqin aloqada bo'ladi.

Strategik menejment. Guruh ishchilari tajribali bo'lishsa va birgalikda yaxshi ishlashsa, menejer yo'naltiruvchi va nazorat qiluvchi bo'lishi shart emas. Agar guruh a'zolarida qaror qabul qilish jarayonida ishtirok etish uchun vaqt yetarli bo'lsa, ba'zan guruh a'zolari bu jarayonga jalb qilishlarini xohlashadi. Bular strategik menejmentdan foydalanishga misol bo'ladi. Strategik menejment bu shunday uslubki, bunda menejerlar ko'proq hamkorlikda ishlashadi va xodimlarni qaror qabul qilishga jalb qiladi. Strategik uslubdan foydalangan menejer xodimlaridan to'la nazoratsiz ishlashlarini va muhim qarorlar qabul qilishda fikrlarini bildirishlarini kutadi.

Aralash menejment. Agar ishchi xodim bo'lganingizda qaysi uslubni Afzal ko'rgan bo'lardingiz? Agar menejer

bo'lganingizda qaysi uslubdan foydalangan bo'lardingiz? Bu ikki savolga hamma birdek javob bermaydi. O'tmishda ko'pchilik menejerlar menejmentning taktik uslubidan foydalanish kerak deb bilishgan. Ular ishni bajarilishiga ishonch hosil qilish uchun yo'naltiruvchi va nazorat qiluvchi bo'lish kerak deb ishonishgan. Ba'zi xodimlar menejerlari ularga ishonmayotganini bilgach umidsizlikka tushishgan. Ba'zi xodimlar menejerlari har har kuni yangi qaror chiqarishini xohlashgan. Yana ba'zilar esa nazoratsiz ish olib borish uchun hali yetarli tajribaga ega bo'lmaydi. Natijada menejerlar ikkala uslubdan ham foydalanishga tayyor bo'ladilar. Taktik va strategik menejmentdan birgalikda foydalanish aralash menejment deyiladi.

7-1 tahlili

Tekshiruv uchun savol ✓

Taktik boshqaruv strategik boshqaruvdan qanday farqlanadi?

Kalit tushunchalar

Eng yaxshi javobni aniqlang.

1. To'g'ri yoki noto'g'ri. Yangi korxonaga ochmoqchi bo'layotgan tadbirkor menejer hisoblanmaydi.

2. Quyidagilarning qaysi biri menejmentning besh funksiyasidan biri emas?

- Rejalashtirish
- Amalga oshirish
- Ishlab chiqarish
- Nazorat qilish

3. Qaysi menejment darajasida ko'p vaqt rejalashtirish va nazorat qilish faoliyatiga sarflanadi?

- Yuqori menejment
- O'rta menejment
- Rahbarlar
- Guruh menejment

4. To'g'ri yoki noto'g'ri, Samarali faoliyat yuritadigan menejerlar taktik menejmentdan emas, strategik menejmentdan foydalanishlari kerak.

Ilmiy bog'lanish hosil qiling

5. **Izlanishlar.** Katta korporatsiya boshqaruvchisi yoki tadbirkor to'g'risida axborot yig'ish uchun internet yoki kutubxonadan foydalaning. Menejning shaxsiy ish faoliyatini bugungi kundagi lavozimigacha yoritib beruvchi hisobot yozing. Boshqaruvchining korxonaga yurituvdagi muhim burchlarini aniqlang.

6. **Ish faoliyatlari.** Yuqori menejment, o'rta menejment va nazoratchilik lavozimlari ro'yxatini aniqlash uchun ish o'rinlari haqidagi veb saytdan foydalaning. Har bir lavozimda xodim bajarishi kerak bo'ladigan vazifalarni ko'rsatuvchi jadval tuzing. Bu vazifalarni besh menejment funksiyalari bo'yicha tasniflang.

7. **Tanqidiy fikrlang.** Tasavvur qiling siz DECA bo'limi uchun pul ko'paytirish maqsadida basketbol o'yinida contest olib borayotgan talabalar guruhini boshqaryapsiz. Taktik menejment va strategik menejmentga mos keladigan holatlar ro'yxatini tuzing. Bu holatlarni boshqa talabalar bilan muhokama qiling va ular sizning fikrga qo'shiladimi yo'qmi biling.

Janubiy Afrikada **biznes yuritish**

1994 – yilda Janubiy Afrika demokratiyaga yetib kelganini nishonladi. Apartaiddan bir necha o'n kun o'tgach, dominant oqlardan qora va oq bo'lmagan boshqalarni ajratgan hukumatda saylash huquqi barcha fuqarolarga kengaytirildi. Bugungi kunda bu davlatga iqtisodiy rivojlanish modeli sifatida qaralyapti va bozorlar paydo bo'lyapti.

Janubiy afrika samarali yuk tashish tizimini ishab chiqdi va mamlakat miqyosida rivojlangan mobil aloqa texnologiyalarini joriy qildi. Shunga qaramay, davriy elektr, suv va oqava infrastrukturasi mamlakatning ba'zi qismlarida xizmat ko'ratayotganligi ko'pchilik aholi uchun qiyinchilik tug'dirmoqda.

Mo'l-ko'l tabiiy resurslar va rivojlanayotgan hukumati bilan Janubiy Afrika xorijiy investitsiya va savdo uchun muhim joy hisoblanadi. Har qanday holatda ham hukumat asosiy xizmatlarni kengaytirish, ta'limni rivojlantirish va barcha fuqarolarga ko'plab ish yaratishga urinmoqda. Mamlakat aholisining deyarli yarmi nochor ahvolda yashaydi va 20 foizi ishsiz. Ishsizlikdagi tengsizlik, biznes boshqaruvi va biznesga egalikni hal qilish uchun qora iqtisodiy vakolat dasturini joriy qildi.

Janubiy afrikada ikkita iqtisodiyot mavjud. Asosiy iqtisodiyot molliya va ishlab chiqarishni o'z ichiga oluvchi katta xalqaro

biznes bilan ustunlik qiladi. Ikkinchi iqtisodiyot Janubiy Afrikaning o'rta va quyi daromadlarini keltiradigan kichik savdogarlar tomonidan foydalaniladigan naqd pul iqtisodiyotidir.

Janubiy afrikada ko'plab madaniyatlarni ifodalovchi 11 ta til mavjud. Biznesda ingliz tilidan keng foydalaniladi. Munosabatlar vaqt o'tishi bilan shaxsiy axborotlarni o'z ichiga oluvchi suhbatlar olib borish natijasida vujudga keladi.

Hamkorlik tushligi ko'pincha o'zaro do'stona va birga baham ko'riladigan uchrashuv hisoblanadi. Taomlarda ko'pgina mahalliy Yevropaviy va mamlakatning madaniy merosi aks etgan Osiyo madaniyati o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bredie - bu sabzavotlar va qo'y go'shtidan tayyorlanadigan an'anaviy qaynatma sho'rva.

Tanqidiy fikrlang

1. Nima Janubiy Afrikani xorijiy sarmoyadorlar uchun o'ziga jalb etuvchi hududga aylantiradi?
2. Ichki bir-biridan farqlanuvchi iqtisod qanday qilib biznesga o'z ta'sirini ko'rsatishi mumkin?
3. Janubiy Afrikadagi tarix va iqtisodiy faoliyat haqida qo'shimcha ma'lumotga ega bo'lish uchun kutubxona va internet manbalaridan foydalaning.





Maqsadlar Kalit soʻzlar

- 1 Yetakchilarga qoʻyiladigan talablar va samarali faoliyat olib boruvchi yetakchi uchun kerak boʻlgan xarakteristikalarini aniqlang
- 2 Menejer va yetakchilarga zarur inson munosabatlari talablarini aniqlang
- 3 Yetakchilik faktorining 4 turini oʻrganing

- Yetakchilik 155
 Inson munosabatlari 156
 Faktor 154
 Norasmiy faktor 160
 Rasmiy faktor 160

Haqiqiy hayotga nazar tashlash

Yetakchilikni taqdirlovchi biznes maslahatchilik qoʻmitasi beriladigan mukofot uchun mos tushadigan nomzodlarni aniqlash maqsadida uchrashuv belgiladi.

Jenis birinchi taklifni berdi: “Biz oʻtgan yilda eng koʻp foyda olgan korxonani aniqlashimiz va bu korxonalarining yuqori darajadagi menejrlari mukofotlanishlari zarur”.

“Mening oʻylashimcha, korxonada foyda olishida menejerlar emas, yetakchilarning hissasi katta. Yaxshi yetakchilikni isbotlaydigan boshqa jihatlari ham bor” taklif qildi Franklin.

“Biz faqat top menejerlarga mukofot beramiz deb chegaralamosligimiz kerak. Ishchilar bilan ishlaydigan boshqa menejerlar ham korxonada muvaffaqiyati uchun top menejerlardek masʼul” – taʼkidladi Jek.

Felisi soʻradi: “Mukofot menejerga berilishi shartmi? Axir tashkilotning yetakchiligini undagi ishchilarning harakati belgilaydiku”.

Jenis stol atrofiga qaradi va dedi “Biror qarorga kelishdan avval yetakchilik nimaligini aniqlab olishimiz kerak”.

Maqsad 1

Yetakchilarga qoʻyiladigan talablar va samarali faoliyat olib boruvchi yetakchi uchun kerak boʻlgan xarakteristikalarini aniqlang

Yetakchilik nima?

Korxonada ishining bajarilishi va foyda olishi uchun koʻplab resurlardan foydalanadi. Bu resurslar oʻz ichiga binolar, asbob-uskunalar, pul, xomashyo, taʼminot va odamlarni oladi. Resurslarni, shu jumladan inson resurslarini boshqarish korxonada muvaffaqiyati uchun muhim hisoblanadi. Baʼzi menejerlar boshqa resurslardan oqilona foydalana olmaydilar. Sababi xodimlar shunchalik muhimki, insonlarni samarali boshqara oladigan menejerlarga talab katta.

Yetakchilikka boʻlgan talab

Inson resurslarini samarali boshqarish haqidagi fikrlar yaqin yillarda oʻzgardi. Oʻtmishda ishchilarga qiladigan ishi haqida maʼlumot bermay, menejning oʻzi qaror qabul qilishi mumkin edi. Xodimlar ularga nima-

ni buyurishsa, shuni qilar edi. Garchi ishchilar ularga buyurilgan ishlarni qilishlari mumkin boʻlgan boʻlsa-da, ular ishini bajarishga unchalik yaxshi harakat qilishmasdi. Baʼzi korxonalar shunday ishchilarni ishlatishga qurbi yetmasdi. Ishga yollash, tayyorlash va toʻlash narxlarini odatda korxonada xarajatlarining katta qismini tashkil qiladi.



Korxonada rivojiga qo'shishi kerak bo'lgan hissasini bilmagan xodimlar yaxshi ish-lamasliklari mumkin. Ular talab qilingan ish miqdorini bajarolmaydilar. Boshqa o'z ishidan qoniqmagan xodimlar boshqa ish qidirishlari mumkin. Kompaniyalar bu turdagi muammolarni hal qilish uchun ko'p pul sarflaydi. Bugungi kunda menejerlar buyruq berishdan ko'ra ko'proq ish bajarishadi. Ulardan korxonada talablarini aniqlash bilan birga, xodimlar talablarini aniqlashlari ham talab etiladi. Menejerlar samarali ishlaydigan yetakchi bo'lishlari kerak.

Yetakchilik - bu yakka shaxslar va guruhlarini muhim maqsadlarga erishish uchun motivatsiyalash qobiliyatidir. Agar menejerlar yakka shaxslar va guruhlarini maqsadga erishishlari uchun birlashtira olsa, bu menejer samarali faoliyat olib boradigan yetakchi hisoblanadi.

Yetakchilik xususiyatlari

Yetakchi bo'lish xodimlar bilan samimiy bo'lishdan ko'proq narsani bildiradi. Bunda turli xarakter, talab va qiziqishlarga ega odamlar bilan kelishish va korxonada talab qiladigan ishlarni bajarishga to'g'ri keladi.

O'zingizdagi yetakchilik qobiliyatlarini aniqlang va bholang. Yetakchilik qobiliyatlaringizni ko'rsatadigan bajargan ishlaringiz va faoliyatlaringiz ro'yxatini tuzing. Yetakchilik qobiliyatlaringiz kelajakda qo'ygan maqsadlaringizga erishishingizga qanday ta'sir qilishini tushuntiring. Maktab va jamiyatingizdagi sizga kelgusi maqsadlaringizga erishishingizga ko'maklashuvchi yetakchilik o'rinlarini aniqlang.

Samarali faoliyat olib boruvchi menejer xususiyatlari 7-2 jadvalda keltirilgan. "Yetakchilik insonda tug'ma bo'ladi" degan fikrni eshitgandirsiz. Ko'pchilik yetakchilar aytishicha, ular har doim ham muvaffaqiyat uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lmas ekan. Shu sababli ular bu xususiyatlarni rivojlantirish uchun yillab harakat qiladilar.

Yetakchilik xususiyatlarini rivojlantirish ko'pchilik uchun qiyin bo'lishi mumkin. Siz uyatchan bo'lishingiz va yetakchi o'rnini egallashingiz qiyin bo'lishi mumkin. Qaror qabul qilishdan ko'ra uni muvaffaqiyatli amalga oshirishni Afzal ko'rarsiz. Sizga boshqa talabalar tabiatan yetakchidek yoki yetakchilik xususiyatlari shakllanib bo'lgandek ko'rinishi mumkin. Aslini olganda esa...

Samarali yetakchilikning omillari	
Omillar	Tavsifi
Tushunish	Birga ishlaydigan kishilarning ehtiyoj va tuyg'ularini hurmat qilish.
Mulohazalilik	Biror ishni so'ralmasdan oldin bajarishga bo'ladigan xohish-istak.
Eshita olish	Fikrlarni hurmat qilish.
Qaror chiqara olish	Etiyotkorlik bilan qarorlar chiqarish.
Xolislik	Qaror chiqarishdan oldin barcha narsalarni hisobga olish.
Ishonch	Qarorlarni ishonchli qabul qilish va natijalar uchun mas'uliyatni bo'yniga olish.
Barqarorlik	Ta'sirchan va o'zgaruvchan bo'lmaslik.
Hamkorlik	Boshqalar bilan yaxshi ishlash, ularning salohiyati bilan tanishish va samarali guruh aloqalarini o'stirishga yordam berish.
Halollik	Qarorlar chiqarishda va boshqalar bilan munosabatda mehribon va samimiy bo'lish.
Mardlik	Tavakkal qilish va noodatiy qarorlar chiqarishdan qo'rqmaslik.
Aloqa qilish	Samarali eshita olish, gapira olish va yoza olish.
Zukkolik	Barcha kerakli bilim va malakaning yetariligi.

Yetakchi bo'lishga tayyorgarlik

Yetakchi bo'lish uchun menejer bo'lish shart emas. Yetakchilik qobiliyatini rivojlantirish uchun inson menejer lavozimiga o'tishini kutishibemalik bo'ladi. Quyida bir necha yo'llar orqali inson o'zida yetakchilik qobiliyatini shakllantirishi mumkin:

Yetakchilikni o'rganish. Ba'zi kitoblardan orqali yetakchilikni o'rganish mumkin va yetakchilik qobiliyatini individualga yetakchibo'lish asoslarini o'rganishda va to'liq tushunib yetishida ast qotadi. Bundan tashqari, tashkil etilgan bir necha kurslarga borish orqali ham yetakchilik qobiliyatini shakllantirish mumkin.

Tashkilotlarga faol qatnashish. Klublar jamoalar va tashkilotlar yetakchilarga muhtoj va yetakchilik mahoratini shakllantirish uchun turli xil imkoniyatlarini taklif qilishadi.

Yetakchilikni ish jarayonida amalda qo'llash. Misol sifatida yarim-kunlik ishda ishlash, inson o'zida iste'molchilarga yordam berish orqali ish vazifalarini bajarish, tashabbuskorlikni olgan holda muammolarni bartaraf etish va ishonarlilik va vijdonan ishlarni yuritishni namoyish etish orqali o'zida yetakchilik qobiliyatini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Yetakchilarni kuzatish. Har kuni turli jamoalar va o'qish muassasalarida yetakchilik o'rniga ega bo'lgan shaxslarni kuzatish mumkin. Shuningdek, turli maqolalar orqali hukumat va tadbirkorlik shaxslaridan yetakchilik o'rniga to'g'ri keladiganlarni ko'rish va o'qish mumkin.

Maqsad 2

Korxonada va tashkilotlarda menejment darajalarini tasvirlash



Murabbiy bilan ishlash. Aka-opalari, ishonarli kishilari, o'qituvchilari yoki murabbiylari, shuningdek, ishdagi boshqaruvchilari individualning yetakchilik qobiliyatini shakllantirishda yordam berishi mumkin va uning yetuklikka erishishi uchun bir necha yo'nalishlarni taklif qilishi mumkin bo'ladi.

O'zini o'zi tahlil qilish va fikr mulohaza yuritish. Shaxs o'zi uchun yetakchilik xarakterlarini ko'rsatish uchun imkoniyat izlashi talab etiladi. Natijalarni taqriz qilish orqali individual o'zining kuchli tomonlari va rivojlantirish talab etilayotgan tomonlarini aniqlash maqsadga muvofiq bo'ladi. O'zidan boshqalarning fikr mulohazalarini tahlil qilish va eshita bilish.

Nazorat nuqtasi

Boshqaruvchilik qobiliyati rivojlantirishning bir necha yo'llarini ayting.

INSON MUNOSABATLARI MUHIMLILIGI

Menejerlar va yetakchilar boshqa insonlar bilan yaxshi ishlay olishini bilishi kerak. Aksariyat menejerlar o'zlarining asosiy vaqtlarida insonlar bilan yuzma yuz kelish bilan o'tkazadi. Ular ish davomida iste'molchilar boshqa biznes vakillari, ishchilar va o'zi ishlayotgan korxonada yoki tashkilotning boshqa bir menejerlari bilan ishlashga to'g'ri keladi. Boshqa shaxslar bilan uzoq vaqt davomida muloqotda bo'lib hamkorlikni saqlab qolish qobiliyati menejning muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz ekanligidan dalolat beradi. Insonlar munosabatlari va insonlarning bir-biri bilan aloqa qilish vositasidir.

Inson munosabatlari qobiliyati

Muvaffaqiyatli menejerlar va yetakchilar barcha ishlaydigan mijozlar bilan uzoq muddat davom etadigan munosabat o'rnatishi kerak. Bundan tashqari, qo'shimchasiga, ular o'zlarining ishchilarida samarali inson munosabatlari qobiliyatini rivojlantirishga yordam berishi kerak. Yetakchilar va menejerga zarur bo'lgan muhim shaxslarni qobiliyatlariga personallarni tushunish, jamoani shakllantirish, o'z kuchini baholay bilish, va ishga qoniqishni rivojlantirish kiradi.


O'zini o'zi tushunish. Yetakchilar individuallarni undan nima kutishini bilishi uchun avvalambor o'zining kuchli va zaif tomonlarini bilishi talab etiladi. Menejerlar har doim ham ishlarini o'zlari hohlagandek va hamma rozi bo'ladigon qarorlar qabul qila olmaydilar. O'z o'zini tushuna bilish mustahkamlashga erishish uchun, inson boshqa bir shaxs bilan yaxshi uzoq davom etadigan aloqa o'rnatishi lozim bo'ladi. Albatta, doimo harakatda bo'lish kerak insonlar bilan guruhlarda individual ishlash va muloqot qilishga. Qarorlar qabul qilish muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Shaxs qilgan qarorlari muvaffaqiyatli yoki aksincha bo'lganlarini o'rganishi orqali o'zining qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishi mumkin bo'ladi.

O'zgalarni tushunish. Yetakchilar o'zlari ishlaydigan jihatlari ko'pligini ishlash davomida anglab boradi. Bu o'xshashliklar-

GURUH BO'LIB ISHLANG

Muvaffaqiyatli yetakchilik uchun muhim xususiyatlardan biri bu yetakchi o'zi uchun eng muhim 5 inson munosabatlari qobiliyatlarini ketma-ket muhimlikda ro'yhat qila olishidir. Shuningdek bu ro'yhatni o'z qo'lidagi ishchilar bilan taqqoslay olishi. Bu Taqqoslash orqali jamoa a'zolari o'rtasida inson munosabatlari qobiliyatini qay darajada shakllanganligini aniqlash imkoniyatini beradi.

ni aniqlash kelajakda bir jamoa bo'lib ishlashga yordam beradi. O'zgacha bo'lish ham fikrdan yiroq emas. Agar barcha maqsadga erishish uchun fikr mulohazalari bir xil bo'lsa rivojlanishda ast qotadi. Muvaffaqiyatli yetakchi o'z qo'li ostidagi barcha ishchilarni qobiliyatini va kuchli va kuchsiz tomonlarini biladi.



Ishchi joylardan ko'maklashuvchi texnologiyalar

Ruhiy kuchsiz kishilar ishchi va shaxsiy funksiyalarni bajarish jarayonida maxsus muommalarga duch keladi. Bugungi kunda yordamchi texnologiyalar ilgari imkonsiz va bajarilishi qiyin bo'lgan masalalarni hal qilishda qo'l kelmoqda.


Ko'maklashuvchi texnologiyalar bu shunday o'zida o'zgarishlar yoki maxsus dizaynga ega jixozki ruhiy qobiliyatsiz shaxslarni qobiliyatini rivojlantirish, yaxshilash va ayni holda saqlab turish imkoniyati-

ni o'zida mujassam etgan. Turli tashkilot kompaniyalar qobiliyati past ishchilari uchun o'zida ko'makchi texnologiyalarini borligi bilan foyda ko'rishi mumkin bo'ladi. Bu kabi texnologiyalar ishchilarning samarali ishlashiga yordam beradi. Kompyuter sanoatida mujassamlashgan arizalarning rivojlantirilishi oqibatida nuqsonga ega kishilar kompyuterdan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lib kelishmoqda. Misol tariqasida ko'zi ojiz shaxslar uchun,

shunday dasturlar mavjudki, ular o'zidan audio signal hosil qilgan holda manitordagi kursor joylashishi, menyular va windows holati haqida ma'lumot beradi.

Tanqidiy yondoshuv

1. Kompaniyalar nogiron kishilarga ko'maklashuvchi texnologiyalar joriy qilishi bilan qanday qanday foyda ko'radi?
2. Ko'maklashuvchi texnologiyalarning boshqa afzallik tomonlari qanday?



Yetakchi har bir ishchiga individual yordam bera olmaydi, ammo biznesni rivojlantirish uchun yagona g'oyada ishlashga jalb qilishi mumkin.

Muloqot. Biznes yuritishning asosini muloqot tashkil etadi. Menejerlar muvaffaqiyatli aloqa qilish imkoniyatlariga ega bo'lishi kerak. Aloqa qilishni bir necha klassifiktsiya qilish yo'li bilan o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi:

Rasmiy va norasmiy. Rasmiy muloqot, axborot almanishuvi rejalari, iste'molchilar va tashkilotlar tomondan oldindan tashkillastirilganligi tushuniladi. Norasmiy muloqot

ham o'xshash foydalaniladi, biroz farqi axborot almashinuvining korxonalar tomonidan oldindan belgilab olmasliklari tushuniladi.

Ichki va tashqi muloqot. Ichki muloqot korxonada ichidagi guruhlar, xodimlar va menejerlar o'rtasidagi muloqot hisoblanadi. Tashqi aloqa esa korxonaning xodimlar va boshqa tashkilot xodimlari o'rtasidagi aloqa hisobladi.

Vertikal va gorizontal. Vertikal aloqa bu yuqoridan pastga bo'ladi, ya'ni yuqori lavozimdagi menejer va ishchi xodimlar o'rtasidagi muloqot. Gorizontal muloqot esa korxonaning bir xil mansabdagi ishchi xodimlar o'rtasidagi muloqot.

Og'zaki va yozma. Og'zaki muloqot o'zaro suhbatlashish davomida hosil bo'ladi, yozma muloqot esa rasmiy xatlar, eslatmalar va texnologiyalar orqali jo'natilgan grafiklardir.

Nazorat nuqtasi

Nima sababdan menejer va yetakchilar samarali inson munosabatlarini olib borish mahoratiga ega bo'lishlari kerak?

ODAMLARGA TA'SIR QILISH

Harakatlarnig qanday bajarilishi va qarorlarning uzoq vaqtda qabul qilinishiga qarshilik ko'rsatuvchi guruh a'zosi bo'lganmisiz? Guruh yaxshi ishlamagan holda guruh yetakchisi nima qilishi qiziq. Ba'zi guruh yetakchilari guruh a'zolari-dan shikoyat qiladilar. Boshqalari huruh bilan ishlashni qo'yib, barcha ishni o'zlari bajaradilar. Bularning hech biri guruh samaradorligiga javob bermaydi. Samarali faoliyat olib boruvchi yetakchilar jamoa a'zolari va boshqalarga ijobiy ta'sir ko'rsata olishi kerak. Shaxsga ta'sir etish boshqalar harakatiga ta'sir etish imkoniyatini beradi.

Ta'sir turlari

Ytakchilar foydalanishi mumkin bo'lgan bir necha ta'sir turlari mavjud.

Lavozim bo'yicha ta'sir- yetakchilar o'z lavozimlaridan fiydalangan holda ishchilar bajaradigan ishlarni taqsimashdan iborat. Agar yetakchi xodimlar o'rtasida obro'- e'tiborga ega bo'lsa xodimlar yetakchining iltimoslarini bajarishga majburdek his qiladilar.

Mukofotlash ta'siri- bu menejer-ning mukofot berish yoki berishdan bosh tortish qobiliyati natijasuda kelib chiqadi. Mukofotlar oylik maosh yoki ish qdaromadlaridan pul ko'rinishida bo'ladi. Mukofotlar pul emas hurmat ko'rdsatish va maqtov ko'rinishida ham bo'lishi mumkin. Mukofotlash odatda ijobiy bo'ladi, lekin xodimlarni maqtash o'rniga ulardan ishdan tashqari ishlashni talab qilish ko'rinishida ham bo'ladi.

Bilim va tajriba ta'siri. Gyuruh a'zolari yetakchining ma'lum sohadagi bilim va tajribasini tan olganda va hurmat qilganda paydo bo'ladi. Misol uchun tajribasiz gu-

ruh a'zolari k mijozlarga narsa sotganida ularga ko'p yillik tajribaga ega menejer yo'l ko'rsatadi. Shaxs ta'siri guruh a'zolaridagi yetakchiga bo'lgan ishonch va hurmatdan paydo bo'ladi. Agar guruh yetakchisini yoqtirsa va u haqda ijobiy fikrda bo'lsa, guruh a'zolari yetakchisini qo'llab-quvvatlaydilar.

Yetakchilar har doim ham ijobiy ta'sir etmaydilar. Ta'sir uzoq vaqt mobaynida samarasiz bo'lishi ham mumkin. Agar guruh menejerini yoqtirmasa va bilimli deb bilmasa bu holda menejer lavozimidan foydalanishi va mukofot ta'siridan foydalanishiga to'g'ri keladi. Faqatgina menejer bo'lganingiz uchun xodimlarga aytganingizni qildirishni davomm ettirish oson emas. Bunday holda xodimlar ishlarini mukofot olish yoki jazolanmaslik uchun bajaradilar. Ko'p yetakchilar guruhning hurmatiga va yordamiga erishish uchun bilim va shaxs ta'sirini rivijlantirishga harakat qilmoqda.

Rasmiy va norasmiy ta'sir

Guruh maqsadiga erishish uchun shaxs qanday ta'sir etishi mumkin? Guruhga rasmiy va norasmiy ta'sir etishi mumkin. Bu shaxsning tashkilot ichidagi o'rniga bog'liq. Menejerlar rasmiy ta'sir ko'rsatadilar. Boshqalar korxonadagi o'rni emas shaxsiy xususiyatlaridan kelib chiqib norasmiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.



Maqsad 3

Yetakchilik faktorining 4 turini o'rganing

O'qituvchingiz biror loyiha berganda va guruh a'zolari birinchi marta birgalikda qilishganda nima bo'ladi. Odatda bir yoki ikki kishi paydo bo'lib yetakchi sifatida yordam berish uchun norasmiy ta'sirlardan foydalanib guruh yo'naltiriladi va yo'lga qo'yiladi.

Norasmiy ta'sir imkoniyati korxonaning rasmiy tuzilishidan ko'ra yetakchining shaxsiy xarakteri ustun. Talabalar kengashi a'zolarining birinchi martadagi yig'ilishida boshqa holatlar ham hisobga olinadi. Ma'sul shaxsning saylovi uchun bu so'rov qonunga ko'ra mavjud. Kishiga rasmiy tarzda ovoz beriladi.

Rasmiy tasir imkoniyati korxonaning ichki rasmiy tuzilishi yetakchining pozitsiyasida asoslanadi. Tez-tez korxonalarda

bir vaqtning o'zida ham rasmiy ham norasmiy ta'sirlar amalga oshiriladi. Kimdir menejer bo'ladi va rasmiy ta'sir ko'rsatadi. Xizmat e'tiborga olinishi va natijaviy bo'lishi mumkin guruhda kimdir norasmiy ta'sir ko'rsatganda. Guruh natijaviy ishlab masligi mumkin agar rasmiy va norasmiy ta'sirlar o'rtasida to'qnashuv bo'lsa. Kimnidir ta'sir ko'rsatishini tushunish uchun guruh a'zolari qaror qilishda qiyinchilikka uchraydi. Amaldagi rahbarlar foyda uchun norasmiy ta'sirni tan olishadi va norasmiy rahbarlar bilan yaqindan ishlashadi ularning nizolarini oldini olishdi.

Tekshiruv uchun savol ✓

Rasmiy va norasmiy tasirlar o'rtasida qanday farq bor?

7-2 tahlili

Kalit tushunchalar

Eng yaxshi javobni aniqlang.

1. Yakka shaxs va guruhlarini muhim maqsadlarni amalga oshirish uchun ruhlantiruvchi qobiliyat?

- ta'sir ko'rsatish
- imkoniyat
- tashkillashtirish
- rahbarlik

2. O'rganishlardan isbotlangan nimaki taasurolot qoldiradigan rahbarlar tug'iladi va yaratilmaydi. Bu to'g'rimi?

3. Yo'lni u boshidan bu boshigacha odamlar bir-biri bilan birga bo'lishsin.

- insoniy aloqalar
- ta'sir ko'rsatish
- boshqaruv uslub
- aloqalar

4. Rahbar bo'lmagan lekin guruh diqqat markazida va tashkiliy ishlarni ham qila oladigan inson...

- taktik boshqaruv
- strategik boshqaruv
- rasmiy ta'sir ko'rsatish
- norasmiy ta'sir ko'rsatish

Ilmiy bog'lanish hosil qiling

5. **TEXNOLOGIYA.** Virtual jamoalar va guruhlar yuzma-yuz muloqat va uchrashuvga qaraganda internetdan foydalangan holda loyihani tugatishadi. Haqiqiy jamoalar to'liq internetda izlashadi. Tayyorlangan hisobotni tasvirlaydi virtual jamoalar tomonidan to'ldirilgan (tugallangan) biznes loyihani. Jamoa a'zolariga va loyiha tuzuvchilarga qanday qilib texnologiya yordam berganligini muhokama qilish.

6. **ALOQA.** Agar siz yangi ishchilarni boshliq bo'lsangiz ishingizni bajarishda qiyinchiliklar bo'ladi. Yangi ishchilar istar-istamas tajribali ishchilarning savollarini so'rashlari mumkin bo'lishini bilasiz. Siz ruhlantiring ishchilaringiz qachonki bir-birlariga yordam berishni so'raganda. Siz yangi ishchilar bilan uchrashishni xohlaysiz vaziyatni muxokama qilish uchun va xohlaysiz natijada muxokama aniq va yaxshi bajarilishini. Muhokamani ahamiyati boshqa talabalar samarali og'zaki aloqa tizimidan foydalanishi.

7. **MATEMATIKA.** So'rovnomalardan birida kompaniya ishchilaridan so'raldi boshqaruvchisi qaysi usuldan ko'proq foydalanadi. 700 kishi shubday deb javob berdi :Lavozim sifatida 305ta javob, mukofot sifatida 80ta javob, mutaxassis sifatida 120ta javob, shaxs sifatida 195ta javob. Boshqaruvchilarning ta'sir ko'rsatishidan foydalanishi foizi haqida diagramma tuzildi.

7-3 Etik menejment



Maqsadlar Kalit soʻzlar:

1 Etik menejmentga boʻlgan talablarni aniq-
lash

2 Etik xulq-atvorning rivojlanishida yetakchilarning oʻrnini aniqlash

Etik biznes

amaliyotlari 162

Tub qadriyatlar 163

Haqiqiy hayotga nazar tashlash

Nadiya: “Taʼminotchilarning biridan pora olganligi uchun ishdan haydalgan odamlar haqida eshitganmisiz?” deb mashina toʻxtash joyiga ketayotganda hamkasblaridan soʻradi

“Ha, men futbol oʻyinlari, konsertlar va sayohatlariga chiptalar va hatto naqd pul olganlarni ham eshitganman. Hayronman ular bu ishni qilayotganda nimani oʻylashadi” qoʻshimcha qildi Gilbert.

“Ishchilarni nima qilishi aniq – 25 \$ dan qimmat boʻlmagan sovgʻa. Ish oʻrni 25 baksdan qimmat ekanligi hamмага ayon” taʼkidladi Sandrine.

“Ishchilardan olishlari notoʻgʻri, lekin bu ishni qilayotgan taʼminotchilarchi?” – soʻradi Nadiya.

Boshqaruvchilar, ishchilar va isteʼmolchilarni oʻz ichiga olgan ishchilar oʻz ishlarini vijdonan va odob-axloq qoidalariga amal qilgan holda bajaradilar. Lekin baxtga qarshi “Qoidalar biz uchun emas” deydigan odamlar ham bor. Bunday odamlarga misol qilib oʻz mahsulotlarining samaradorligini boʻrttirib koʻrsatadigan tadbirkorlar va rezyumelarini “pardoz”lab keluvchi ish qidiruvchilar misol boʻladi. Yana bunday odamlar ish vaqtida oʻz ishini bajarib oʻtiradigan ishchilar va birovlarining mehnatidan foydalanib oʻzim bajardim deydigan talablarni ham oʻz ichiga oladi.

Etik xulq-atvorning ahamiyati

Arte Malik ko'p yillardan beri maysazor biznesini ochishga harakat qiladi. Bu biznes maysalarni ekish, o'stirish, kimyoviy moddalar bilan bilan ta'minlash, o'g'it solish va to'g'ri o'sishini ta'minlashni o'z ichiga oladi. Malikning 25ta ishchisi bor. Ularning ko'pchiligi 5-10 yildan beri unda ishlaydi. U odatda har yili 2 yoki 3ta yangi ishchi oladi. Avvallari, Arte yangi ishchilarning bilimlaridan qoniqmagandi. U ishga qiziqadigan va o'rganishni xohlaydigan ishchilarni topishni afzal ko'rardi. U foydal-

tasniflanishi.

28. Kompaniyalar jamoat harakatlari o'zlarining xilma-xil ko'rinishlarini namoyish etish uchun qatnashadilar.

29. **Reklama.** Ishchilarning qulayliklari uchun reklama qilishda internet va gazetalardan foydalanish kerak.

30. **Matematika.** Nikolya soatiga \$7 dan sotuvchilikda ishlaydi va qo'shimcha bir kunda sotilga har \$500 lik sotuvdan 2foizini oladi. Uning o'tgan haftadagi sotuvlari jadvalda berilgan.

a. U sotuvdan va qo'shimcha foydadan qancha ishlagan?

b. Uning Bir haftalik maoshi qancha?

c. Uning qo'shimcha haftalik foydasi qancha?

d. Nikolya bir haftada qancha ishlab topadi?

Dushanba	6 soat	Umumiy sotilganlar 735 \$
Seshanba	4 soat	Umumiy sotilganlar 320 \$
Chorshanba	5 soat	Umumiy sotilganlar 570 \$
Payshanba	3 soat	Umumiy sotilganlar 450 \$
Juma	0 soat	Umumiy sotilganlar 0 \$
Shanba	8 soat	Umumiy sotilganlar 1,050 \$

anayotgan mexanizmlar mukammallashib boryapti va ishchilar kimyoviy moddalardan foydalanish xavfsizligi, o'simlikni kasalliklardan himoyalash va maysani to'g'ri o'stirish bilimlariga ega bo'lishlari shart. Mahalliy jamiyatda maysa o'stirish to'g'risida 2 yillik dastur bor.

31. Malik ko'rib chiqqan tanlovlarning har birining yaxshi va yomon tomoni nimada?

32. Agar siz Malikning menejeri bo'lganingizda qaysi tanlovni tavsiya qilgan bo'lardingiz? Nima uchun?

Web tahlil

Har yili Fortune jurnali ishlash uchun eng zo'r 100 kompaniyalar ro'yhatini nashr qiladi. Ish beruvchilari reytingini ko'rsatadigan ro'yhat faqat bu emas. Bir qancha tashkilotlar jurnallar va web saytlar maxsus korxonalaridagi ish beruvchilar ro'yhatini nashr qiladi. Chunki har bir reyting turli xil kriteriyalarga asoslangan bo'lib, kompaniyalarning ko'rinishi har bir ro'yhatda turlicha bo'lishi mumkin.

Ro'yxatlar va ish beruvchilarni darajalashda foydalaniladigan kriteriyalarga nazar iste'molchilar, investorlar va potensial ishchilarni bu korxonalarining ichki tuzilishi haqida ma'lumot bilan ta'minlay oladi.

Xususan ijobiy tashkiliy iqlim va ish muhitini rivojlantirish va saqlab qolish uchun qattiq mehnat kerak bo'ladigan mavjud kompaniyalarni tushunishimizga yordam beradi.

Tanqidiy fikrlash

Tanqidiy fikrlash

1. Eng yaxshi ish joylari sifatida kompaniyalarni baholashda foydalanishingiz mumkin bo'lgan mezonlari haqida o'ylab ko'ring. O'z fikrlaringizni sinfdoshlaringiz fikri bilan taqqoslang va muhokama qiling.

2. Eng yaxshi ish joylari yillik reytingi keltirilgan jurnal yoki tashkilotning web sayti aniqlang. Ro'yhatga kiritilgan kompaniyalarni, kriteriyalarni va reytinglarni ko'rib chiqing. Topilmalaringiz haqida qisqa xulosa yozing. Ro'yxatingiz va manbangiz haqida rasmiy nom kirting.

3. Topgan ro'yxatingizdan kompaniya tanlang va o'sha kompaniyaning web sahifasiga kirib ko'ring. Tashkiliy madaniyati ish atrof muhiti va ish hayoti munosabatlari haqida ma'lumot toping. Topilmalaringizni tasvirlang va bu kompaniyani ishlash uchun ajoyib joy deb o'z fikringizda keltiring.

Xalqaro biznes reja hodisasi

Xozirgi kunda dunyoning boshqa qismida biznes ochish batafsil yoritilgan biznes rejani talab qiladigan kamyob qiyinchilikdir. Biznes reja xalqaro biznes g'oyalarni moliyaviy taminlashda investorlarni ko'rdirish uchun foydalaniladi. Bu reja bir yoki bir nechta talablar tomonidan tugallanishi mumkin. Qatnashuvchilar maxsus xalqaro joylashuv qidiruvlarini olib borishadi, tanlangan mamlakatga kerakli bo'lgan mahsulot va xizmatlarni aniqlashadi va xalqaro rejaning investorlari uchun qulay biznes reja tayyorlashadi. Qatnashuvchilar kirish qisim, savdo hududi, madaniy analiz, rejalashtirilgan biznes faoliyati va xalqaro biznes uchun moliyaviy rejalangan 30 varaqdan iborat biznes reja tayyorlashadi. Biznes rejaning asosiy qismi izchil ketma-ketlikda yozilgan bo'lishi kerak. Qatnashuvchilar namoyish davomida foydalanish uchun ko'rishga mos bo'lgan qo'shimchalar va qisqa varaqalar yoki yozilgan maqolaning bir nusxasini olib kelishlari mumkin. Biznes rejalarini namoyish qilish uchun 10 daqiqaga ega bo'ladilar. Hakamlar tomonidan qo'shilgan 5 daqiqa sudyalar uchun yoki auditoriya a'zolari biznes reja haqida savol berishlari uchun ajratiladi. Ishlash ko'rsatgichlari baholanadi.

Xalqaro biznes boshlash bilan bog'liq tanqidiy fikrlar va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini namoyish etish.

Bir jamoa sifatida samarali mehnat qilish.

Xalqaro muhitda boshlang'ich biznes asosiy qadamlarni tushunishni namoyish etish.

Ishonarli biznes-reja uchun zarur ma'lumotlarni olish va shu ma'lumotlarni tahlil qilish.

Dunyoning boshqa bir joyida biznesni joylashtirish uchun hozirgi kerakli faktlar.

Tanqidiy fikrlash

1. Nega potensial xalqaro biznes uchun joyning madaniyatini tadqiq qilish muhim ahamiyatga ega?

2. Nima uchun xalqaro biznes g'oyasi uchun ichkis moliyalashtirish qiyin?

3. Dunyoning boshqa bir joyida biznes joylashtirishda qaysi jihatlar ko'rib chiqilishi kerak?

4. Xalqaro biznesni rivojlantirishda mustahkam moliyaviy ma'lumotlarni topish uchun qanday manbalardan foydalanish mumkin?

5. Nima uchun investorlar turg'inlik davrida xalqaro biznes g'oyasini qo'llab quvvatlashni istamasligi mumkin?

9 BOB

KARYERANI REJALASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISH



9-1 Karyera imkoniyatlari

9-2 Karyerani rejalashtirish

9-3 Ish faoliyatidagi shikoyatlar

9-4 Ish o'rnini saqlab qolish

KARYERANI REJALASHTIRISH

ISH FAOLIYATIDA BO'LADIGAN YORDAM

Ko'pgina kasblar tovar va xizmatlarni rejalashtirish yaratish yoki tarqatishni o'z ichiga olsa, ba'zilari odamlarga ishga kirishga va ularni ish faoliyatlarida

KASBGA OID SO'ZLAR

- karyera maslahatchisi
- kasbga yo'naltirish maslahatchisi
- karyerani rejalashtirishni o'rgatuvchi
- kasb murabbiysi
- anketa yozuvchisi
- suhbat o'qituvchisi
- malaka oshirish markazi menejeri

yaqinlashga yordam beradi. Ish faoliyatida bo'ladigan yordam tuli xil ishni rivojlantirish faoliyatlarini qamrab oladi. Odamlarga ish tanlashda yordam berish maqsadida ba'zi ishchilar maktablar tomonidan yo'llanadi. Boshqalari esa odamlarga tarjimai hol, xat tayyorlashga yoki suhbatdan o'tish mahoratini oshirishga yordam beradi. Barcha davlatlarda ishsiz odamlarga yoki ishdan bo'shagan odamlarga yordam beradigan byurolar mavjud. Ish faoliyatida ishchilarga aniqlikni, mahoratni oshirishga yordam beriladi va ruhlantiriladi. Shuningdek maktablar, korxonalar, hukumat agentliklari ba'zi karyera mutaxassisleri shaxslarga to'lov asosida xizmatlar ko'rsatishadi. Ish tanlashda u bilan yaxshilab tanishish juda muhimdir chunki ish faoliyati yangi texnologiyalar, raqobat, va yangi g'oyalar tomonidan o'zgarib ketishi mumkin.

Karyera imkoniyatlarini taxlil qilish...

Karyera maslahatchisi

Ichki asistent karyerasi xaqida kutubxona yoki internet resurslari xaqida ko'proq ma'lumot o'rganing. yuqorida keltirilgan ish lavozimlaridan birini tanlang va quydagi savollarga javob bering:

1. Ish tabiiatini qanday tushuntirib bera olasiz? Kundalik ish faoliyatida uchraydigan misollar bilan tushuntiring.

2. Keltirilgan ish o'rinlaridan qaysi biri sizni qiziqtirib qoldi. Bu karyerada qobiliyat va mahoratlaringizdan qanday foydalanishingiz mumkinligini tasvirlang

ISHNI BOSHLASH JARAYONI

Karyera maslahatchisi bo'lib ishlash qanday bo'ladi?

Siz fizika, matematika va kompyuter texnologiyalarida qobiliyatlisiz. Shunga qaramay sizning qiziqishingiz odamlar bilan ishlashda keraksiz ko'rinadi.

Karyera maslahatchisidan bunday fikrlar odamlarga ular nimani yaxshi bajara olishi va nimani bajarishdan rohatlanishini tushunishga yordam bera oladi.

Kasb qidirish jarayonidagi keying qadamlar bu karyera maslahatchisi rezyumening ichki mazmuni va shakli haqida ma'lumot berishdir. So'ng shaxsga o'zini dadil va yetarlicha mustaqil his qilishda yordam berish uchun namuna suhbatlar o'tkaziladi.

Shaxs ishga ega bo'lganda ham maslahatchining ishi tugamaydi.

Kasbda muvaffaqiyatlarga erishish xohishi maslahatchi bilan qo'shimcha munosabatga olib keladi. Yoki, agar kasbni o'zgartirish xohishi paydo bo'lsa, maslahatchi sizga kerakli yo'nalish bera oladi.

Sizchi? Siz kimgadir ish topishda yoki suhbatga tayyorlanishfa yordam berganmisiz? Bu sizni rohatlantirganmi?

9-1

KARYERAGA ERISHISH IMKONIYATLARI MAVQE'GA ERISHISHNI REJALASHTIRISH JARAYONI



Maqsadlar

- 1 Karyerani rivojlantirish jarayonidagi qadamlarni ta'riflash
- 2 Karyera haqidagi axborotlarning asosiy manbalarini o'rganish
- 3 Eng ko'p o'sish imkoniyatiga ega kasb sohalarni muhokama qilish

Kalit so'zlar:

- kasb tahlili 179
- koppensatsiya 181
- oylik maoshlar 181
- rag'natlantirish foydasi 181
- tizimlar 181
- mansab oshishi 183
- jo'natish 184
- yakunlash 184
- Karyera 200
- Axborot intervyusi 202
- Harakatlanish 204

Haqiqiy hayotga nazar tashlash

“Ted amaki hududiy savdo-sotiq menejeri kasbi uchun qanday tayyorgarlik ko'rgan?” - deb so'radi Danlappar usonasidan. “Sen bu haqida uning o'zi bilan gaplashishing kerak”, - u javob berdi. “Ted amaking ish faoliyatini rivojlantirishda ba'zi foydali maslahatlar berishi mumkin”.

Keyinroq Dan amakisidan telefon orqali so'radi: “Ted amaki, siz qanday qilib hududiy savdo-sotiq menejeri bo'lgansiz? Buning uchun qanday tajribalar muhim hisoblanadi? Qanday kompyuter programmalarini bilishim kerak? Kasbga tayyorlanish uchun maktabda qaysikurslarni o'rganishim zarur? Maktab davrida qanday qilib ish tajribasiga ega bo'lishim mumkin?”

“Bittadan savol ber”, - Ted amaki javob berdi. “Kel sen qiziqarli deb hisoblaydigan va yuqori bilimga ega bo'lgan fanlaringdan boshlaymiz”

SAMARALI MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH

Biznes yo'llarini tashkil qilish va boshqarish o'tgan bir necha 10 yilliklarda ulkan miqyosda o'zgarib ketdi. Ba'zi o'zgarishlarning sodir bo'lishi aniq. Texnologiya malakasiz ishchilarga bo'lgan ehtiyojni qisqartirdi va hozirgi malakali ishchilarga bo'lgan talabni oshirdi. Internet savdo yo'llarini, iste'molchi va biznes a'loqalarini, sotish va so-

tib olish yo'llarini o'zgartirib yubordi. Biznesning globallashishi ulkan raqobatni yuzaga keltirdi. U shuningdek har bir biznes uchun ko'plab yangi iste'molchilarga yetib boorish qulayliklarini yuzaga keltirdi. Bizneslar hamma o'zgarishlarga va ijobiy tashkiliy madaniyatni davom ettirishga mas'uldirlar!

Ba'zi guruhlar avtomatik xavfsizlik yoki iste'mol kreditiga asoslangan. Boshqalar iste'mol muammolarini hal qiladi.

Maqsad 1

Karyerani rivojlantirish jarayonidagi qadamlarni ta'riflash

Kasb o'rgatish

Ko'pgina kasblarni muvaffaqiyatli egallash oliy ta'lim bilan birga qo'shimcha ta'lim va mashg'ulotlarni ham talab qiladi. Bular quyidagicha ta'limiy tanlovlar:

- Ikki yillik maktablar, boshlang'ich maktablar, ko'plab sohalarda tayyorlovlarni olib boradi.
- To'rt yillik kollej va universitetlar, davlat yoki xususiy bo'lishi mumkin.
- Xususiy biznes maktablari va boshqa institutlar ko'pgina sohalar uchun treyninglar o'tkazadi: sud reportyori, kompyuter texnigi, sartarosh yoki mexanik.

Hozirgi kunda ta'lim muassasalarida har xil turdagi moliyaviy yordamlar o'quvchi va talabalarga beriladi. Masalan, stipendiyalar, kreditlar va qo'shimcha ishlar kabi qulay imkoniyatlar beriladi.

Moliyaviy yordam dasturi o'qishida muvaffaqiyatga qozongan talaba yoshlarga beriladi. Boshqalari esa moliyaviy yordamga muhtoj oila farzandlari uchun beriladigan yordamlardir.

Siz qanday qilib to'g'ri karyera tanlay olganingizni bilishingiz mumkin, bilasizmi? Sizning tanlovingiz eng to'g'ri deyishga hech qanday asos yo'q. To'g'ri ketma-ket yo'nalishda boruvchilar yaxshi qaror qabul qiladilar.

KARYERAGA ERISHISHNI REJALASHTIRISH JARAYONI
1-qadam Shaxsiy (o'z meni bo'yicha) tahlil <ul style="list-style-type: none">• Qiziqish va imkoniyatlaringizni aniqlang• Iqtidor va qobiliyatlaringizni bilib oling
2-qadam Ish bozori tahlili <ul style="list-style-type: none">• Geografik ta'sirlar• Biznes va iqtisodiy moyillik
3-qadam Ariza(murojaat) jarayoni <ul style="list-style-type: none">• Ariza anketasi• Rezume va jild xati
4-qadam Suhbat jarayoni <ul style="list-style-type: none">• Suhbatga tayyorgarlik• Kuzatuv mashg'ulotlari
5-qadam Ishga qabul qilish <ul style="list-style-type: none">• Maosh va moliyaviy faktorlar• Tashkiliy muhit
6-qadam Karyerani rivojlantirish <ul style="list-style-type: none">• Muvaffaqiyatga erishish kalitini tajriba qilish• Mustahkam faoliyat yuritishni rivojlantirish

Nazorat nuqtasi

Karyerani rivojlantirish jarayonidagi 6 ta qadamni sanang.

Figura 9-1

Siz karyerangizni rivojlantirish jarayonida foydalanadigan manbalaringiz qaysilar?


Riley Guide turli karyera rivojlantirish mavzularida ma'lumotlar taklif qiladilar. Pastda ko'rsatilgan web-sahifaga kiring va 9-bo'lim uchun bog'lanishni bosing. Riley Guide bog'lanishlaridan birini tanlang va 2 turli manbalardan ma'lumot oling. Ma'lumotlar bir xilmi yoki farqlimi?

KARYERA MA'LUMOTLARI MANBALARI

Karyerani rejalashtirishni o'rgatuvchi turli manbalarni topish juda oson. Siz ta'lim olayotgan muassasada ham turli gazeta, jurnal, kitob va boshqa ma'lumot beruvchi manbalar bilan hamkorlikda karyera manbalari markazi bo'lishi mumkin. Ba'zi manbalarda o'z yashovchi hududingizda mavjud bo'lgan ish o'rinlari hamda karyera boshlashga qulay imkoniyatlar borligi bo'yicha to'liq maxsus ma'lumotlarni olishingiz mumkin.

BOSMA VA OMMAVIY AXBOROT MANBALARI

Ko'pgina gazeta va jurnallarda yuzlab ish



o'rinlari, ishlarda mavjud bo'lgan qulayliklar, ta'lim va qo'shimcha tayyorlov kurslari, ishga qabul qilinish bo'yicha talablar, rivojlanish imkoniyatlari haqida keng ma'lumot va e'lonlarni ko'rishingiz mumkin. Bu manbalar online ham mavjud.

Biznesga aloqador bo'lgan maqolalar, mahalliy kompaniyalar va karyerada muvaffaqiyatga qozonish sirlari haqidagi turli qiziqarli ma'lumotlar biznes haqidagi bo'limda berilib boriladi. Bunda berilib boriladigan e'lonlar hozirgi ish bozorida qanday olayotgan muassasada ham turli mahorat va ko'nikmalarga talab borligi li gazeta, jurnal, kitob va boshqalari yoritilib boriladi.

ONLAYN MANBALAR

Karyerani rejalashtirish bilan yordam beruvchi websaytlar talaygina. Bu saytlar o'zining karyera imkoniyatlari, rezumelar, o'zining karyera imkoniyatlari, rezumelar, sirlari suhbat va karyerani rivojlantirish masalalari bilan bog'liq ma'lumotlari bilan qiziq.

QO'SHIMCHA MA'LUMOTLAR OLIISH UCHUN SUHBATLAR

Mavqe'ga erishish uchun juda foydali usul – bu qo'shimcha ma'lumotlar olish uchun suhbat qurishdir.

Qo'shimcha ma'lumotlar suhbat – ishchi bilan rejalashtirilgan muzokara bo'lib, bu ishchi sizga o'zining siz bajaradigan ish to'g'risida, tayyorgarlik qanaqa b'lishi to'g'risida va boshqa insonlar u ish turiga bo'lgan munosabati haqidagi ma'lumotlari bilan yordam beruvchi shaxs. Bunaqa suhbatlar sizga mavqe'ga erishish uchun boriladigan yo'lning chuqur hamda uzun bayonini yoritib beradi

Ko'pchilik ishchilar o'zlarining ish tajribalari haqida so'zlashni hush ko'radilar. Shu o'rinda siz doim so'zlovchidan so'raydigan savollaringizning tayyor ekanligiga ishonch hosil qiling. Ba'zi savollar quyidagicha bo'lishi mumkin:

- Siz hozirgi ishingizga qanday joylashgan-siz?
- Bu ish sizni qoniqtirishiga nima sabab bo'lgan? Kasbingizdagi qanday holatlar ko'nglingizni qoldiradi?
- Ishingiz qanday vazifa va faoliyatni talab etadi?
- Bu sohada ishlash uchun eng muhim sifatlarni qaysilar?
- Bu ish turida faoliyatini olib borishni rajashtirayotgan insonga qanday maslahat bergan bo'lardingiz?

Suhbat davomida o'zingiz uchun yangilik sifatida kashf etgan ma'lumotlarni qisqacha yozib oling. Boshqalarning tajribalari o'z karyeralaringizni rejalashtirayotganingizda kalit vazifasini bajarishi mumkin.

Agar muayyan bir karyera siz uchun qiziqarli bo'lsa, ustozingizdan yoki maslahatchi shaxslardan sizning karyera qiziqishlaringizga ta'sir o'tkazuvchi kompaniyalarda amaliyotchi bo'lish imkoniyatlari haqida so'rashingiz lozim. Amaliyotchilik ko'p vaqtningizni ishchi bilan o'tkazishga va bir kun yoki bir hafta davomida shu kasb sohasi haqida o'rganishga imkoniyat yaratadi.

Jamoa bo'lib ishlash

BIZNES ALOQALAR

Siz o'rganayotgan soha bo'yicha ishlovchi inson bilan ularning ish faoliyati haqida suhbatlashish jarayoni aloqaga kirishish(networking)deyiladi. Suhbat jarayonida shaxsan tanigan insoningiz bilan aloqangiz cheklanmaganligi yaxshi foydadir. Siz suhbatlashadigan har bir shaxs sizning karyera ma'lumotlaringiz uchun foydaliligi yuqori bo'lgan aloqa hisoblanadi. Bu aloqalar siz ishga joylashganingizda, bundan shqari kelajak hayotingizda ham sizga qo'llab-quvvatlovchi kuch sifatida ko'mak berishi mumkin.

Nazorat nuqtasi

Karyera axborotlarining asosiy manbai nimalar hisoblanadi?

O'SISH KO'RSATKICHI EHTIMOLLIGI YUQORI BO'LGAN KARYERA SOHALARI

<p>Biznes xizmatlar:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Ma'lumot tahlilchilari • Menejerlar • Til tarjimonlari • Web maslahatchilari 	<p>Iqtisodiy xizmatlar:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ... • e-tijorat • investitsiya maslahatchilari • risk menejerlar 	<p>Menejment va insoniy resurslar:</p> <ul style="list-style-type: none"> • administratorlar • intervyu oluvchi jurnalistlar • nazoratchilar
<p>Kompyuter texnologiyalari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • kompyuter operatorlari • texnik xizmatchilar • sistema tahlilchilari • web-sayt yaratuvchilari 	<p>Sog'liqni saqlash:</p> <ul style="list-style-type: none"> • sog'likni saqlash adminstratorlari • uy hamshiralari • laboratoriya texniklari • terapevtlar 	<p>Savdo va chakana savdo:</p> <ul style="list-style-type: none"> • elektronik savdo vakillari • iqtisodiy xizmat vakillari • tibbiyot mahsulotlari sotuvi bo'yicha menejerlar
<p>Ta'lim:</p> <ul style="list-style-type: none"> • korporativ murabbiylar • ta'lim adminstratorlari • maxsus ta'lim o'qituvchilari 	<p>Mehmonxona va oziq ovqat xizmatlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • mijoz xizmati namoyondalari • oziq-ovqat xizmatlari menejerlari • majlis(uchrashuv)larni rejalashtirib beruvchi menejerlar • kurort va mehmonxona adminstratorlari 	<p>Ijtimoiy xizmatlar:</p> <ul style="list-style-type: none"> • bola sog'ligini saqlash ishchilari • kata yoshlilarga g'amxo'rlik qiluvchi ishchilar • oila advokatlari • ijtimoiy xizmat agentliklai adminstratorlari

Maqsad 3

Muvafaqiyatga erishish mumkin bo'lgan ish faoliyatlarini muhokama qiling

ISH FAOLIYATDA O'SISH

Siz tanlaydigan hayot ishi sohadagi ma'lum bo'lgan ish faoliyatlari tomonidan ta'sir o'tkazilishi mumkin. Kelajakdagi ishchilar imkoniyatlari geografik va biznes yo'nalishlari tomonidan ta'sir o'tkaziladi.

GEOGRAFIK HUDUDLAR.

Ayni damda yashaydigan joyingizdagi geografik hududda ishlash yoki ishingiz joylashgan hududga ko'chib o'tish tanlovini amalga oshirishingizga to'g'ri kelishi mumkin. Siz hozirda yashayotgan joyga yaqin joyda ishlashga sabablar bo'lishi mumkin. Odatda o'zlarining sevimli mashg'ulotlarining orqasidan quvib muvafaqiyatga erishadigan shaxslarda oldinga intilish xissi bo'ladi. Oldinga intilish xissi bu ish joyi joylashgan joyga insonning intilishi xarakteridir.

Intilish xissi yetishmasligi ishlanmaslik xolatiga olib keladi. Bu vaziyat

ish faoliyati faqat bitta bo'lib, lekin to'liq bo'lmasligiga sabab bo'ladi, chunki o'sha ishni to'ldirish uchun malakali shaxslar boshqa hududlarda yaxshashadi va ish joylarini o'zgartirishni xoxlashmaydi.

Iqtisodiy va sanoat o'zgarishlari

Yuzaga chiqishi mumkin bo'lgan kasbiy ish joylari iqtisodiy og'ish yoki hozirgi iqtisodiy faoliyat juda kata ta'sir ko'rsatadi. Iste'molchi talabi, o'zgarayotgan demokratik jayonlar va yangi texnologiyalar kasbiy imkoniyatlarga ta'sir qiladigan omillardan sanaladi. 9 – 2 qismlarda ko'rsatilganidek, xizmat ko'rsatish sanoati kutilayotgan ulkan tarzda ish faoliyati sifatida kutilmoqda.

Bular kelajakda kuchli talab tarzida kutilayotgan ish sohasi hisoblanar ekan, o'zingizni chegaralab qo'ymang. Har bir ish faoliyatining yangi ishchiga talabi bor. Biznesda va iqtisodiy og'ishda o'zingizning imkoniyatlaringizni ko'rib chiqing va qanday yangiliklar kiritishingiz mumkinligi haqida o'ylab ko'ring.

Nazorat nuqtasi

Karyera axborotlarining asosiy manbai nimalar hisoblanadi?

9-1 TAXLILI.

Kalit tushunchalar

Eng yaxwi savolni belgilang.

- Ish faoliyati jarayonini tuzishning birinchi qadami
a) qaytadan boshlashni hozirlash va so'z bilan qoplash
b) ish uchun suhbat qurish
c) o'zingizni qiziqishingiz va qobiyatingizni belgilash
d) ish faoliyati bilan sug'ullanishga ega bo'lish
- Axborot interviyularining maqsadi
a) ish faoliyati sohalarida malumatga ega bo'lish
b) foyda keltirilmaydigan tashkilot bilan ish uchun yozma ravishda talab qilish
c) xizmatlarni boshlash uchun maoshlarni o'rganish
d) ish faoliyati tajribasida shugullanish foyda
- Ishda taklif qilingan ish faoliyatini o'rganish uchun ishchilar bilan vaqtni o'tkazish
a) hamkor shaxslik b) shaxsiy baholash
c) ish faoliyatini mashq qilish d) ish belgisi

AKADEMIKALOQALARNI O'RNATISH

4. Geografiya. Turli xil kasblar uchun kuchli talabi bor mamlakatlarning hududi haqida malumat berish uchun izlanish olib boring. Bu hududlarda qanday faktorlar kasbiy imkoniyatlarga ta'sir qiladi?

5. Kimyo. Yaqindagina rivojlantirilgan ilmiy qarashlarni belgilang. Bu yangiliklar qanday ta'sirlari borligi tushuntiring. a) Kelajakda ma'lum bo'ladigan kasbiy imkoniyatlarni yozing, b) tashkilotlarda odamlar qanday ishlashadi.

6. Matemaika. Asosiy shahar tekshirish shuni ko'rsatdiki 32,000 odamlar ishga kirish uchun insoniy aloqalardan foydalanadi, bu paytda 18,000 kishilar ishlarini internetda qo'lga kiritgan edi. Bu tekshiruvda, qo'lga kiritilgan kasblar fozingn qancha qismi insoniy fazilatlar orqali qo'lga kiritiladi.

Ukrainada biznes bilan shug'ullanish

Ukraina davlati Rossiya rublidan foydalanishdan to'xtab, hozirgi pul birligi hiriniyaga o'tganligi sababli kutilmagan hodisalar yuz berdi. Pul tanqisligini oldini olish maqsadida, hukumat chegaralangan ovqatlar va boshqa mahsulotlarni sotib olishda foydalanish uchun talonlar bosib chiqardi. Talonlar pul birligi sifatida foydalanilmasligi maqsadi bo'lgan bir paytda, ularni qabul qilish rubl muomalasidan ko'ra ko'proq o'sib bordi. Ukraina xalqi ularning o'tmishi bo'lmish Rossiya davlatidan o'zlarini ajratishni xoxlar edi.

Bugun, hirina qonuniy ravishda kuchli pul birligi bo'lib iqtisodiyotning kengayishiga va butun dunyoda investitsion biznesga o'zining hissasini qo'shishga ta'sir ko'rsatmoqda. Ukrainaning, Yevropa va Osiyo orasidagi strategic joylashuvi ham ajoyibdir. 300 dan ziyod AQSH kompaniyalarining biznes operatsiyalari shu yerda olib boriladi. Ukrainaning iqtisodiyoti serhosil fermerlik yerlaridan, boy tabiiy resurslardan, yaxshi rivojlangan industrial asos va yuqori malakali ish kuchidan asosiy foydasini oladi.

Ukraina o'z tarixida murakkab vaziyatlarni ko'rdi. Mamlakat 1240-yil zabt etilgunga qadar, Sharqiy Yevropaning asosiy siyosiy va madaniy markazi hisoblangan. Yaqingacha, u 70 yil davomida Sobiq Ittifoq tarkibida bo'lgan. U 1991 yilda mustaqillikka erishdi va Yevropa ittifoqi davlatlari qatoriga kirishga qiziqishini bildirdi.

Mamlakatga tashrif buyuruvchilar odatda Ukaraina xalqining mehmondo'stligi va mehribonliklari haqida o'zlarining iliq fikrlarini bildirishadi.

Ammo, biznesda toki sizga ismini aytib murojaat qilishga ruxsat bermagunicha rasmiy so'zlardan foydalanishga amin bo'ling, masalan, Mr, Mrs, Miss yoki Dr. Biznes muzokaralarini bajarayotgan vaqtda, birdaniga "yo'q" degan so'zni qabul qilmang. Bu dastlabki "yo'q" tez va o'ylamasdan aytilgan bo'lishi mumkin. Buning o'rniga tabassum qilgan holda yana boshqa so'zdan foydalaning. Qo'shimchasiga, "yakuniy takliflar" yakuniy bo'lmasligi mumkin. Kutib turishga tayyor turing. Ukraina biznesmen shaxslari shunchaki yurishi yoki baqirishi mumkin. Bir xil dramatic usulda javob berish foydali bo'lishi mumkin, sabr bo'lish odatda samarali natijaga olib keladi.

Jamiyatdagi hodisalar biznes jarayonlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Ishonchingizni ortgani sari, sizni qabul qilish ham rivojlanadi. Yig'ilishlar odatda mazali qahva yoki choy shokolod yoki pecheyni bilan o'rkaziladi. Ukrainaning eng mashhur tushkil ovqatlariga cho'chqa go'shti, tovuq, dengiz taomi, kartoshka va ko'plab turli xoldagi nonlar – oq, malla, aylana va tekis nonlar.

Tanqidiy fikrlang

1. Ukrainaning tarixi hozirgi biznesga va iqtisodiy faoliyatga qay darajada ta'sir o'tkaza oladi?
2. Ukraina madaniyatining qanday ko'rinishlari xalqaro kompaniyalar uchun qiyinchilik to'g'irishi mumkin.
3. Kutubxonadan yoki interdan foydalangan holda Ukrainadagi iqtisodiy faollik to'g'risida ko'proq ma'lumotga ega bo'ling.

Mamlakat xavosi biznes faoliyatga shuningdek turizmga ham qay darajada ta'sir ko'rsatadi?



Muvaffaqiyatga 9-2 erishishni rejalashtirish



Maqsadlar

- 1 Karyerani rejalashtirish uchun shaxsiy baholashning omillarini tasvirlang
- 2 Karyera tajribasini oshirishning metodlarini muhokama qiling
- 3 Mavjud bo'lgan ish o'rinlari haqida ma'lumotlarni aniqlashtiring

Kalit so'zlar:

- Menejment 148
- Rejalashtirish 148
- Tashkil qilish 148
- Shtat tashkil qilish 149
- Amalga oshirish 149
- Nazorat qilish 149
- Menejment uslubi 151

Haqiqiy hayotga nazar tashlash

“Brianna, rejalashtirayotgan karyerangiz haqida yaxshiroq tushunchalarga ega bo'lish uchun nimalar qildingiz?” – so'radi ish maslahatchisi.

“Yaxshi huquqshunos bo'lish uchun o'quv kurslarida tayyorlandim”, javob berdi Brianna. “Mahalliy huquqshunoslarning ikkitasi bilan ham suhbatlashdim. Ulardan biri xususiy tarzda faoliyatini olib boradi va boshqasi mahalliy kompaniyalardan birida ishlaydi”.

Ish maslahatchisi bosh chayqadi va davom etadi: “Yana nimalarni ayta olasiz?”

“O'tgan yili marketing kurslariga bordim va u men uchun juda qiziqarli bo'ldi”. Javob berdi Brianna. “O'tgan yozda esa marketing asistenti bo'lib yarim kunlik ishga joylashdim. Bu judayam ajoyib tajriba bo'ldi. Marketing sohasida juda ko'plab narsalarni o'rgandim. Lekin eng yaxshi tomoni bu savdo va marketing odamlari bilan ularning karyeralari haqida suhbatlashish edi. Shundan buyon men marketingga bog'liq bo'lgan boshqa kurslarga borishga qaror qildim.”

“Yaxshi. Keling sizning dars jadvalingizni ko'rib chiqamiz.”

Maqsad 1

Menejmentning 5 funksiyasini aniqlash

SHAXSIY HISOB-KITOBLAR


Hayotingiz davomida sizni qoniqtiruvchi kasb tanlaganingizga shubha qilmaysizmi? Sizning rejalarinigiz avvalo o'zingizni xohishingiz, qobiliyatingiz va imkoniyatlarinigizni hisobga olgan holda boshlanishi lozim. Bu uch omil sizga eng to'g'ri tanlov qabul qilishingizga juda katta yordam beradi. Shaxsiy savol-javoblardan so'ng sizni to'la qondiruvchi hamda omad keltiruvchi mavqe'(mansab)ga erishasiz.

QIZIQISHLAR

Hozirgi kunda yoshlarni savollari-ga qoniqtiruvchi javob bo'la oluvchi ma'lumotlar yozma ko'rinishda ham, online ko'rinishida ham mavjud. Sizning qiziqishlaringiz ishdagi maqsadlaringizga yetishish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ijtimoiy moyilligi kuchli bo'lgan kishilar atrofida bilan muntazam muloqotda bo'lishga to'g'ri keladigan ishlarga ko'proq mos kelishi

mumkin. Agar siz voqea-hodisalar-ni kuzatish, tintuv qilishga qiziqsangiz, unda tergov ishlari sizga to'g'ri keladi desak mubolag'a bo'lmaydi. Sizning qiziqishlaringiz qaysi sohaga to'g'ri keladi?



Me'yorlar

Sizning me'yorlaringiz bular siz uchun muhim bo'lgan jihatlar. O'zingizning me'yorlaringiz haqida mashqlar va mashg'ulotlar orqali o'rganishingiz mumkin. Bu kabi mashg'ulotlar siz obro', pul, kuch, yutuq, mustaqillik, havfsizlik, tegishlilik yoki boshqalarga xizmat ko'rsatishni qanday baholashingizni ko'rsatib beradi. Hayotiy faoliyatingizni tanlaganingizda, ular sizga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Siz quyidagi ba'zi savollarga javob berish orqal io'z imkoniyatlaringiz chegarasini aniqlab olishingiz mumkin. Bular sizga nimalrni muhim deb hisoblashingizni bilishingizga yordam beradi. Namunaviy savollar:

- Ko'p pul ishlab topish men uchun muhimmi?
- Men boshqalarga xizmat qilishni talab qiladigan ishlarga qiziqamanmi?
- Ish o'rniga ega bo'lish boshqalarga muhim bo'lganidek men uchun muhimmi?
- Juda murakkab hamda qo'shimcha ta'limni talab etishi mumkin bo'ladigan ishni xohlaymanmi?
- Murakkab hamda kelajakda yaxshiroq qulayliklar yaratib berilishi taklif etiladigan boshqa joyga nisbatan kamroq ish haqi to'lanadigan ishni boshlashga xohishim bormi?
- Ta'lim yoki qo'shimcha kurslar uchun pul ajratishim boshqa narsalarga pul sarflashimdek muhimmi?

Bularni yanada yaxshiroq tushunish uchun yana qo'shimcha savol: "Agar sizga kimdir juda ko'p pul bersa, ularni nimaga sarflagan bo'lardingiz?" Ozingizning shaxsiy biznesingizni boshlagan bo'larmidingiz? Butun dunyo bo'ylab sayohat qilgan bo'larmidingiz? Nochor bolalarni qo'llab-quvvatlovchi tashkilot ochgan bo'larmidingiz? Eng zamonaviy garderoblarni sotib olgan bo'larmidingiz? Qimmat ta'limni m uchun pulingizni sarfalagan bo'larmidingiz? Sizning javoblaringiz sizning shaxsiy qadr-imkoniyatlaringizni ko'rsatib beradi.

IQTIDOR VA QOBILIYATLAR


Har bir inson qandaydir iqtidor va qobiliyatlarga ega. Iqtidor bu tug'ma, tabiiy hisoblanib, aniq bo'lgan nimalarnidir bajarishga

JAMOA Jamiyatimizdagi insonlarning umumiy me'yorlari jamlangan ro'yhat tayyorlang. Ro'yxatdagi har bir me'yor uchun shu ko'rsatkichlar bilan bir mos keladigan karyera vaziyatlarini tasvirlang. Ro'yxatdan sizga yoqishi mumkin bo'lgan ish turini namoyish etuvchi karyera vaziyatini aniqlang.

moyillikdir. "Tabiatan iqtidorli" deyilish sababi shundan. Qobiliyat bu aqliy yoki jismoniy vazifani bajara olishga qodir bo'lish sifati bilan baholanadi. Bularni hisobga olish mavqe'ga erishishingizni rejalashtirishda muhim.

Siz qobiliyatlaringizni turli xil yo'llar bilan aniqlab olish imkoniyatiga egasiz. Maktabda fanlardan olgan baholaringiz hamda qatnashgan qo'shimcha to'garaklaringiz ko'rsatkichlarini bir eslang. Qanday qo'shimcha to'garaklarga borganiz? Qay biridan zo'r o'zlashtirgansiz? Qay birlari oson, qay birlari qiyin bo'lib hisoblangan? Eng sevimli fanlaringiz qaysilar edi? Bu savollarga javoblaringiz sizning iqtidor va qobiliyatlaringizni bilib olishga imkon beradi.

Qobiliyatlar rivojlantirilishi mumkin va buni yodda saqlash kerak. Agar qaysidir sohada no'noqroq bo'lsangiz, o'sha sohadagi bilimlaringizni kuchaytirishga yordam beruvchi to'garaklarga qatnashni xohlashingiz mumkin. Misol uchun, ko'p ishchilar yozish, o'qish va kompyuterda ishlashni bilish juda muhimligini ko'p bora ta'kidlashadi.



O'zingizga baho bering. Bunda o'zingizning qiziqishlaringizni, iqtidoringizni, qadriyatlaringiz va qobilyatlaringiz ro'yhatini qamrab olishingiz kerak. Bu ro'yhat sizning hayotingiz davomidagi rejalaringizni yaratishda sizga qanday yordam berishini tushuntirib bering. Sizning hozirgi qiziqishlaringizni, talantingizni, qadriyatlaringiz va qobilyatlaringizni aks ettiradigan ish xolatlarini tasvirlab bering.

Maqsad 2

Karyera tajribasini oshirishning metodlarini muhokama qiling

Qobilyatlar rivojlantirilishi mumkin va buni doim yodda tutish kerak. Agar siz bu sohada yetarlicha bilimlarga ega bo'lmasangiz, bu soxani shakllantiruvchi kurslarga qatnashingiz mumkin. Misol uchun, ish beruvchilar doimo yozish, o'qish va hisob-kitob mahoratlari juda muhim ekanligini ta'kidlaydilar.

Agar siz hisobotlarni tayyorlashda mohir bo'lmasangiz, ingliz tili va Biznes Aloqalari sohasida kurslarga qatnang. Agar o'qish muammo bo'lsa, bu sohada yordam oling. Agar kasrlar va o'nli kasrlar bilan ishlash siz uchun oson bo'lmasa, matematika, biznes matematikasi-dan qo'shimcha kurslar olish ma-

qsadga muvofiq. To'liq stavkali ishni boshlashdan oldin, siz o'z kamchiliklaringizni kuchaytirish ustida ishleng. Siz tanlagan karyerangizga erishishga yordam beruvchi kelajakdagi faoliyatlaringiz va kurslarni rejalashtirib olishingiz mumkin.

Nazorat nuqtasi

Qiziqish bilan iqtidor o'rtasida qanday farq bor?

Ish tajribasi

Ko'pchilik odamlar o'zlari o'ylaganlaridan ko'ra ko'proq kasb mahoratiga ega bo'ladilar. Sizning maktab va ommaviy faoliyatlar ko'lamidagi ishtirokingiz ish tajribalari uchun asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. To'rtta usulda siz karyeringizga bog'liq qobilyatlarni qo'lga kiritishingiz mumkin. Ular: ishni o'rganish dasturlari, yarim Stavkali ish, ko'ngilli ravishda ishlash, va maktab mashg'ulotlari.

Etika masalasi

Tanlov asosida ishga yo'llash

Tomas Novak Texnologiya kompaniyasiga hududiy maxsulotlarni sotish bo'yicha boshqaruvchi ish o'rniga ariza topshirdi. Tomas Praga, hozirgi Chexiya Respublikasida tug'ilgan va ta'lim olgan. 8 yil davomida AQSHda yashagan va ishlagan va yaqinda Amerika fuqorosi bo'ldi. U 10 yildan ortiq kompyuter savdosida tajribaga ega. Suhbatdan so'ng, Tomasga boshqa ishtirokchilar ancha tajribali ekanligini aytishdi. Unga ish taklif qilinmadi. Tomas o'zining arzimagan Chex aksenti uchun uni ajratishgan deb o'ylaydi. U o'zining qobilyati va mahoratlari boshqa ishga yo'llanganlarnikidan qolish-

masligiga ishonadi.

Fuqorolar Huquqlari Akti va Nogiron Amerikaliklar Aktiga ko'ra, ish beruvchilar uchun xodimlarni shaxsiy xususiyatlari, ya'ni yoshi oilaviy statusi, etikasi, irqi va jinsini hisobga olib ishga yollash noqonuniy hisoblanadi.

Siz noqonuniy ishga yo'llash xolatlarini kamaytirishga yordam berish olishingiz mumkin. Rezyumega qanday shaxsiy ma'lumotlarni kiritishga diqqatingizni qarating. Ko'p potensial ish beruvchilar ishga yollashda xodimlarni ajratish uchun asos bo'luvchi xodimning xarakteristikasi xususiyatlariga bog'liq shaxsiy ma'lumot bilan tanishib

chiqishni xoxlamaydi. Buning o'rniga, ishga va sizning karyera mahoratlaringiz, ya'ni hobbiringiz, ommaviy faoliyatlaringiz, a'zoliklaringiz, yoki shaxsiy qiziqishlaringizga aloqador bo'lgan shaxsiy ma'lumotlarga e'tibor qaratadi.

Tanqidiy fikrlang.

1. Ishga ariza berishda ariza beruvchi shaxsni ajratish mumkin bo'lgan yana boshqa xolatlarini tasvirlab bering.

2. Tanlov asosida ishga qabul qilish jarayonidiskriminatsiya holatlarini to'xtatish uchun kompaniyalar va ishchilar qanday chora-taqbirlarni amalga oshirishlari mumkin?

Ishni taxlil qilish program- malari

Birgalikda ta'lim olish maktabni ishga bog'liq tajriba bilan bir- lashtiradi. Bunday dasturlar ish joyidagi bir nechta ish tajribalar- ini rivojlantirish imkonini beradi. Siz faqat ishni texnik tomonlarini o'rganibgina qolmay, ish joylarida qanday aloqa qilishni ham o'rga- nasiz.

Huddi shunday, malaka oshirish ish sohasini o'rganish davomida tashkilotlardagi ish tajribasini o'z ichiga oladi. Kommunikatsiya, marketing, moliya va buxgalteri- ya sohasida karyera uchun mala- ka oshirish bir nechta kompaniyalar va notijorat tashkilotlarida mavjud. Malaka oshirishga aziza topshirish ishga ariza topshirishga o'xshaydi. Birinchadan, potensial ish o'rinlarini aniqlang. Shun- dan keyin avtobiografiyangiz va malaka oshirishda ishtirok etishga qiziqishin- gizni taqdim etish uchun rezyume va ilova tayyorlang.

Yarim stavkali ish

Yozgi va yarim stavkali ish qimmatli ta- jriba bilan ta'minlaydi. Shuningdek, bu ish holatlari sizga ma'lum karyerani yoqtirishingizni an- glab yetishingiz imkonini beradi. Sizning yarim stavkali ish tajribangiz aloqalarni yo'lga qo'yishin- gizga yordam beradi. Bu odamlar sizga ko'rsatma berishadi va ishingiz davomida sizni qo'llab quvatlashadi.

Ko'ngilli faoliyatlar

Jamoat ishlariga jalb qilish faoliyati ta- jribasida va ish bajarish imkoniyatini kengaytirishda muvaffaqiyatga erishish imkonini be- radi. Jamoat tashkilotlarida ko'ngilli ishlarni bajarish kelajakda ish faoliyati- ni oshirish uchun ham sezilarli yordam beradi.



Maktab mashg'ulotlari

Darslar davomida beriladigan vazifalar kasbga bog'liq tajribalar bilan ta'minlay oladi. Masalan, aloqaga kirishish qobili- yatlari siz yakuniy xulosalarni tayyor- lab uni ommaga namoyash qilganingizda rivojlantiriladi. Jamoa bo'lib biron loyiha ustida ishlash sizga boshqalar bilan in- teraktiv aloqalarangizni rivojlanatirish- ga va har bir kasbda muhim qobiliyatni yuzaga chiqarishga ham imkon beradi. Maktab klublari va tashkilotlari foydali qobiliyyatlarni yuzaga chiqarishda o'z natijasini ko'rsatadi. Maqsadlar qo'yish, rejalashtirish, nazorat qilish va ma'suli- yat bo'yicha majburiy yuklama ko'plab ish xizmatlarda kerak bo'ladigan faoliyat hisoblanadi.

Nazorat nuqtasi
Ish faoliyat bo'yicha tajribaga erishish uchun qanday metodlar mavjud?

MAVJUD BO'LGAN ISH MANBALARI

Mavjud ish o'rinlarini topish ish qidirayotganlar uchun asosiy muammo hisoblanadi. Bir nechta manbalar ko'pincha boshqaruvni qo'lga kiritishda ishlatiladi. Ish o'rinlarini topishga bo'lgan qobilyatingiz karyerani rejalashtirishdagi faoliyatlarning asosiy qismi hisoblanadi.

Maqsad 1

Mavjud bo'lgan ish o'rin- lari haqida ma'lumotlarni aniqlashtiring

Karyera bo'yicha mutaxassislar mavjud bo'lgan ish o'rinlarining 70 % jamoatga e'lon qilinmaydi, deb bayon qilishadi. Mavjud bo'lgan bo'sh ish o'rinlarini aniqlash uchun bu masaladan xabardor bo'lgan shaxslar bilan suhbatlashing, bo'sh ish yarmarkalariga boring va ish bor bo'lgan kompaniyalar bilan to'g'ri-dan-to'g'ri aloqaga chiqing.

Omaviy axborot vositalari

Karyerani rejalashtirish ma'lumotlari bilan ta'minlaydigan bir qancha manbalarning bir qanchasi mavjud bo'lgan bo'sh ish o'rinlarini aniqlashda qo'l keladi. Yordam so'rab e'lon qilingan reklamalar boshlang'ich nuqta bo'lishi mumkin. O'zlarinig saytlaridagi Ishga oid reklamali gazetalar va kasb qidirish websitetlarida hozirgi vaqtda reklama joylari uchun izlanish ma'lumotlar bazasi mavjud. Shuni bilib qo'yingki, ko'plab mavjud bo'lgan ish o'rinlari jamoat joylarida reklama qilinmaydi. Shuning uchun boshqa kasbni izlash taraddudi juda muhimdir.

Shaxsiy aloqalar

Siz imkon boricha boshqa odamlarga siz ish qidirayotganligingiz to'g'risida axborot berishingiz kerak. Sizning o'qishdagi maslaxatchilar va biznes bo'yicha o'qituvchilar foydali bo'lishi mumkin. Agar sizning o'quv muassa-

sangizda ishga joylashtirish ofisi bo'lsa, o'sha ofisga a'zo bo'lib oling. Qarindoshlaringiz, do'stlaringiz, qo'shnilaringiz va boshqalar ish izlashda muhim manba bo'lishi mumkin.

Biznes aloqalari

Siz biznes subyektlariga tashrif buyurishingiz va ulardan bo'sh ish o'rinlari haqida ma'lumot so'rashingiz kerak. Ba'zi biznes offislari derazalariga yordamchi kerak deb e'lon yozib qo'yishadi. Ba'zi bir kichik biznes vakillari, restoranolar, doimiy ravishda arizalar qabul qiladi. Ular bo'lajak ishchilar uchun ariza olish va to'ldirish ishlarini osonlik bilan bararishadi. Siz online tarzda ishga ariza yozishingiz mumkin bo'lgan Ish kioskalari odatda katta savdo markazlarida bo'ladi. Ishga kirish bu tashqariga chiqish va atrofqa qarash degani. Tashrif chog'ida siz xodimlar tomonidan amalga oshirilgan faoliyatlarni kuzatishingiz mumkin. Siz kelajakdagi ish faoliyat uchun tegishli aloqalarni o'rnatishingiz ham mumkin. Reklama qilinmagan ish o'rinlari bo'lishi mumkin bo'lgan tashkilotlar nomlarini topish uchun telefon kitoblari, biznes – kataloglar va veb-saytlardan foydalaning. Ushbu kompaniyalar bilan aloqalarni yulga qo'yish hozirgi yoki kelajakdagi ish imkoniyatlarini yaratishi mumkin.

Bo'sh ish o'rinlari

Bo'sh ish o'rinlari asosan maktablarda yoki jamoa markazlarida tashkil etiladi. Bu tadbirlar bo'lajak ish beruvchilar bilan qisqa vaqt ichida aloqa bog'lashga imkon yaratadi. Uzoq vaqt intervyuga qobilyatingiz tekshirish maqsadida sizdan bir qancha savollar so'raladi.

Bo'sh ish o'rinlariga tashkilotlarga yordamingizni ko'rsatish bo'yicha muloqatingizni tayyorlagan holda shay turing. Kompaniya haqida biror narsa bilish sizni boshqa da'vogarlardan ajratib turadi.

Hukumat ish offislari

Mahalliy va davlat hukumat ish offislari ma'lum ishlar uchun axborot manbai hisoblanadi.



Bu soliq yig'uvchi agentliklar odamlarga ham ish topish, kariera ma'lumotlarini yetkazib berish, ham ish beruvchilarga malakali ishchilar topishga yordam beradi.

Ish bilan ta'minlovchi idoralar sizning sohangizdagi kasb bozorlarida sodir bo'layotgan eng so'nggi yangiliklar, ma'lumotlar bilan ta'minlaydi. Ular sizga siz qidirgan vaqtinchalik, faqat yozda shug'ullanadigan yoki hamisha shug'ullanadigan ishlarni topish orqali yordam bera olishadi.

Ish qidirishda turli xil manbalardan foydalaning. Patensial ishlar va ish qidirish strategiyalari haqida iloji boricha ko'proq odamlar bilan suxbatlashing. Bu ma'lumotlardan sizni kuchli nomzod qilish rejalarini tuzishda foydalaning.



Nazorat nuqtasi

Mavjud bo'lgan ish o'rinlar haqidagi ma'lumotlarning asosiy manbalari nima?

9-2 TAXLILI.

Kalit tushunchalar

Eng yaxshi savolni belgilang.

1. To'g'ri yoki noto'g'ri. Shaxsning qadr – qimmatini tabiiy iqtidori deb ham ataladi.
2. To'g'ri yoki noto'g'ri. Shaxsni o'z xoxishidan kelib chiqib qilingan harakatlari karyera mahoratlarini egallashga olib keladi.
3. Ishingizdagi boshqa odamlarga yordam berishga tayyorligingiz bu sizning ... namunangiz.
 - a. Talant
 - b. Qiziqish
 - c. Qobiliyat
 - d. Qadr-qimmat
4. Qisqa vaqt mobaynida kishiga ko'plab ish beruvchilar bilan shartnoma tuzish imkonini berish - ...
 - a. Ish ko'rgazmasi
 - b. Axborot intervyulari
 - c. Tarmoq
 - d. Karyera resurslari markazi

AKADEMIKALOQALARNI O'RNATISH

5. Tadqiqot. Ishni baxolash metodini aniqlashda kutubxona tadqiqoti va internet qidiruvidan foydalaning. Savollarga javob bergandan so'ng, kelajakdagi potensial karyeralar to'g'risida qanday bilim ko'nikmalarini egallaganingizni tasvirlab bering.
6. Aloqa. Online yoki har yakshanbadagi gazetingizdagi tasniflangan reklama qismini ko'zdan kechiring. Xalqaro omilni o'z ichiga oluvchi 3 ta kasbni toping. Har bir shaxs ushbu ishlarga tayyorlanishidagi harakatlarini ifodalab beruvchi xulosa qismini tayyorlang.
7. O'qish. Mavjud ish o'rinlarini aniqlashga va ish tajribasiga ega bo'lishga aloqador bo'lgan maqolalarni aniqlang. Maqolani o'qing va asosiy tushunchalardan foydalanib maqolada ko'rsatib o'tilgan asosiy fikrlarni ko'rib chiqing. Manba uchun kerak bo'lgan to'g'ri formatga solingan eslatmani xisobga oling. Mumkin bo'lgan manbalar o'z ichiga nashr qilingan yoki online variantdagi gazeta va jurnallarni oladi. Asl mazmuni yaratuvchi mustaqil online manbalarini xisobga olib qo'ying.

XXI asr ko'nikmalari

Axborot savadxonligi

Samarali taqdimotlar

“Ijro etuvchi qo'mita majlisi uchun mahsulot ishlab chiqarishimizda yaqin vaqt ichida sodir bo'lgan o'zgarishlar haqida taqdimot tayyorlang, iltimos”.

Bu so'rov va boshqalar sizning og'zaki taqdimot qilishingiz kerakligiga e'tibor qaratadi. Sizning og'zaki tarzda muloqotga kirishishingiz rivojlan-tirilishi muhim bo'lgan harakatlardan hisoblanadi.

Taqdimotni rejalashtirish

- O'z maqsadingizni aniq ko'rsatib bering. Asosiy qismlarni tashkillashtiring. Kerakli ma'lumot to'plash uchun tadqiqotlar olib boring.

- Kirish qismiga ijodiy yondoshing. Asosiy mavzuingizni yoritib berish va auditoriya e'tiborini o'zingizga qaratish uchun hikoya, sitata, statistika va e'tiborni tortuvchi mashqlardan foydalaning.

- Asosiy fikrlar, grafikalar, jadvallar, xaritalar va boshqa ko'rgazmali shakllarni o'z ichiga olgan tarqatmalardan foydalanishni unutmang.

- Tushunarli xulosa bering. Asosiy fikrlar va asosiy ma'lumotlardan kelib chiqib xulosa chiqaring. Taqdimotni bilan shug'ullaning


- Asosiy fikr va iboralarni tayyorlang. Hech qachon butun taqdimotni o'qimang va yodlab(eslab) qolmang.

- To'liq taqdimotni bir necha marta taqdim eting. Ba'zi joylariga o'zgartirish uchun taqdimotingizni yozib oling.

Taqdimot tayyorlash.

- Auditoriya bilan muloqot qiling, ularga shunchaki o'qib bermang. Elektron qurilmalar (projektorlar, slaydlar, afishalar)dan foydalanib o'qib berishdan qoching.

- Samarali ovoz ko'rsatkichi, ifoda va tashabbuskorlik sifatleri yaqqol ko'rinib tursin.Yax-



shi,Bilasizmi,Shunday singari ko'p qo'llaniluvchi iboralardan foydalanmang.

- Yuksak darajada ko'z tashlang va gapiring – muvofiq holda kiyining va tik, to'g'ri turing.

Siz hayotingiz mobaynida bir nechta taqdimotlarni amalga oshirasiz. Avvaliga ular qiyin tuyuladi. Tayyorlanganingiz, shug'ullanganingiz va ko'proq muloqot qilishingiz natijasida sizning qobilyatingiz va qulaylik darajasi oshib boradi.


Sinfdosh yoki hamkasblar oldida taqdimot qilishning sizga qanday foydasi bor?

Tanqidiy fikrlang

1. Samarali taqdimot qilish uchun qanday tavsiyalarga rioya qilishingiz kerak?

2. Hayotingiz davomida taqdimot qilishingiz mumkin bo'lgan xolatlarni tasvirlab bering.

9-3 Ishga hujjat topshirish



Maqsadlar Kalit soʻzlar:

- 1 Ariza shakli va resume tayyorlang
- 2 Ariza shaklidagi maktubning qismlarini izohlang
- 3 Online hujjat topshirish jarayonini muhokama qiling

Ariza shakli 213
Resume 214
Karyera portfoliosi 216
Xat 216

Haqiqiy hayotga nazar tashlash

“Tabriklayman, Fren!” dedi Maria jiyanini bagʻriga bosar ekan. “Oʻqishni ham tamomlad-ing, endi nima qilmoqchisan?”

“Ish topaman”, javob berdi Fransisko. “Re-zume tayyorladim va ish izlovchi vebsaytlarda oʻz profilimni yaratdim”.

“Qanaqa ish izlayapsan?” soʻradi Maria ras-mga tushar ekan.

“Bir rejam bor, Maria xola. Taʼlim olgan muassasamda oʻrgangan bilimlarimni amalda qoʻllash uchun hisobchi lavozimini izlayap-man. Kuzda kollejga buhgalteriya kurslariga bormoqchiman. Keyin esa oʻqishimni univer-sitetga koʻchirish niyatim bor. Hozircha esa oz-roq pul topib tajriba egallamoqchiman”.

Maria jilmaydi va dedi: “Men ishlaydigan joy-da boʻsh oʻrinlar boʻlishi mumkin. Vebsaytdan tekshirib koʻraman”.

Maqsad 1

Menaj-mentning 5 funksiyasi-ni aniqlash

ARIZA TOPSHIRISH JARAYONI

Ariza topshirish jarayoni bir-necha xil yoʻllar bilan boshlanishi mumkin. Siz ish beruv-chi orqali yetkazib beriladigan ariza shaklini toʻldirib berishingiz mumkin. Arizalar qogʻoz-ga chop etilgan shaklda boʻlishi mumkin, lekin online arizalar ham odat tusiga kirgan. Siz re-zumelarizgizni toʻplab, uni konvertga solib top-shirsangiz boʻladi. Bu hujjatlarni ishga qabul qiluvchi tashkilot yoki korxonaga e-maili yoki web-saytiga joʻnatishingiz mumkin


Shaxsiy maʼlumotlar varagʻi

Ariza shaklini toʻldirishdan avval, shaxsiy maʼlumotlar varagʻingizni tayyorlashingiz kerak. Shaxsiy maʼlumotlar varagʻi bu sizning kasbingizga aloqador boʻlgan maʼlumotlarin-giz yigʻindisidir. Bu sizning taʼlim olganligin-giz haqidagi maʼlumotlar va ish faoliyatingiz roʻyxati hamda tavsifnomangizdir. Bu maʼlu-motlar siz ariza toʻldirishingiz uchun barcha kerakli hujjatlaringiz borligini taʼminlab beradi.

Ariza shakli

Ishga oluvchi shaxs har doim ishga daʼvogar shaxslardan ariza shaklini toʻldirishni soʻray-di. Ariza shakli bu ish faoliyati bilan bogʻliq boʻlgan maʼlumotlar soʻrovnomasidir. Ariza shakli ish beruvchiga har bir ishga daʼvogar

shaxslarning ish faoliyatiga bogʻliq boʻlgan standart maʼlumotlarni beradi. Arizada ism-sharifingiz, manzilingiz, maʼlumotingiz, ish tajribangiz, siz daʼvogarlik qilayotgan ish turi va tavsifnomangiz kabi soʻrovlar mavjud boʻladi.



Online Application

How did you become aware of this opportunity?

*Source: Referred By:

Other Source:

Applicant Data

*First name: Street address:

*Last name: City:

Middle: *State/Region:

*Phone #: ZIP/Postal code:

Mobile #: Country:

E-mail Registration

Your email address will be used as your login name allowing you to return to our website to view your status and update your profile.

*E-mail:

Please create your password

*Password:

Re-type new password:

Resume & Cover Letter

* Attach resume

Cover Letter:

Anketani to'ldirishda ko'rsatilgan yo'nalishga alohida ahamiyat qarating. Agar anketaning qog'oz variantiga yozayotgan bo'lsangiz har bir so'zlaringiz tartib bilan chiroyli yozilishiga e'tibor qarating. Agar online versiyada to'ldirayotgan bo'lsangiz, harflarni diqqat bilan tering. Barcha savollarga to'liq va lo'nda javob bering. *9-3 rasmda online anketa turi namuna sifatida ko'rsatilgan.

Rezume

Rezume – bu ishga oluvchi shaxsga siz haqiqizdagi ma'lumotlarni yetkazuvchi ma'lumotnomadir. Rezumelarning amaliyotga asoslangan va malakaga asoslangan ikki turi keng yoyilgan turlaridan. Tajribaga asoslangan rezumeda, tajribalaringiz odatda ish faoliyatingiz tarixi ketma-ketligi asosida ro'yxat qilib beriladi. Malakaga asoslangan rezumeda esa siz joylashmoqchi bo'lgan ishga mos bo'lgan qobiliyatlaringiz hamda tajribalaringizga alohida e'tibor qaratiladi. *9-4 rasmda namunaviy rezume shakli ko'rsatilgan. Rezume quyidagicha bo'limlarni o'z ichiga oladi:

- Shaxsiy ma'lumotlar: Ism-sharif, adres, telefon raqam, e-mail
- Kar'yeradan maqsad: sizning aniq yo'naltirilgan ish faoliyatigizdagi maqsadingiz
- Ta'lim: ta'lim olgan muassasalar nomi, ta'lim yo'nalishlari, muddati va darajasi bilan birga
- Tajribalari: ish faoliyatlari va volantyorlik mashg'ulotlari sanalari va javobgarliklari bilan birga

- Karyera sohasiga oid olgan faxriy yorliqlari va h.k. : yutuqlari, ta'lim jarayonidagi va jamoaviy ishlardagi faolliklari

Tayyor rezumengiz professional tarzda – toza, tartibli va xatolarsiz ekanligiga ishonch hosil qilishingiz muhimdir. Rezumengizni bir betga mo'ljallang. Siz ish bajarish mahoratingizni qo'llagan holatda kompaniya ehtiyojlariga qanchalik hissa qo'sha olishingiz mumkinligini ta'kidlash uchun shunaqa formatdan foydalaning.

Rezumelarga odatda tezgina ko'z yugurtirilib chiqilishini yodda saqlang. Ba'zi kompaniyalar hatto kalit so'zlarni qidirib topib ajratib beruvchi skanerlardan foydalanaishadi. Ish talabiga muvofiq holda o'z tajribalaringizni bog'lang. Masalan, Yapon tilida nutqi ravon, Adobe Illustratorda malakali, Cisco network sertifikati, tadqiqotchilik qobiliyati, jamoaviy proyektlar, boshchilik qobiliyati, xorijiy ta'lim va xalqaro tajriba.

Siz nimalarga erishganligingizni tasvirlashda holat so'zlaridan foydalaning. Namuna sifatida 9-5 rasmda keltirilgan so'zlar ro'yxatini ko'rib chiqing.

Rezumengizni tayyorlash jarayonida, o'z sifatlaringiz haqida haqiqiy ma'lumotlarni keltiring. Sizni ishga oluvchilar yozilgan ma'lumotlarni tekshirishini unutmang. Yolg'on ma'lumotlar bersangiz, ishingizdan ajralib qolasiz. Yolg'on ma'lumotlar siz ishga yollanganingizdan so'ng fosh bo'ladi hamda siz ishingizda uzoq vaqt kelishmovchilik va muammolarga duch kelasiz.

Fansiska Negalo

1602 Kolledjvud Drayv
Madison, WI 53711-2821

(608) 555-0308

fnegalo@badgernet.com

Karyera maqsadi

Reklama bilan ishlovchi tashkilotda hisob, kompyuter va biznesga oid bilimlarimdan foydalanish

Ta'lim

Four Lakes yuqori maktabi, Madison, Wisconsin

- Biznes ta'limiga asosiy e'tibor
- Tamamlagan iyun,10,20....

Tajriba

Yozuvlar kotibi, Tempest Tea Pot Company, Houghton, Wisconsin

- Reklama xabarlarini uchun iste'molchilar kontakt ma'lumotlari bazasini yaratgan va yangilagan
- Onlayn va pochta qo'yilmalari savdo hisobini yuritgan
- Xabarlar va veb saytlar uchun reklama materiallarini tayyorlagan

Bosh kotib, City Assessor's Office, Cambridge, Wisconsin

- Uy egalari soliq baholari keltirilgan excel elektrob jadvalini yangiladi
- Soliq to'lishdan bosh tortuvchilarga yordam berish maqsadida davlat dasturlari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib brogan

Mukofotlar va faoliyat

- Markley Leadership Award, Four Lakes Alumni assotsiatsiyasi
- Honor Roll, Four Lakes yuqori maktabi
- Moliya direktori, Future Bussiness leadersof Amerika
- Dastur rejalashtirish qo'mitasi, Dane County yoshlar elchixonasi
- Reklama koordinatori, Four Lakes Pep club
- Kapitan yordamchisi, Likeside Recreation markazi suzuvchilar jamoasi
- Ko'ngilli, Likeside kutubxonasi yosh kitobxonlar klubi

Tayyor rezumengiz professional tarzda – toza, tartibli va xatolarsiz ekanligiga ishonch hosil qilishingiz muhim jihat hisoblanadi. Rezumengizni bir betga mo'ljallang. Siz ish bajarish mahoratingizni qo'llagan holatda kompaniya ehtiyojlariga qanchalik hissa qo'sha olishingiz mumkinligini ta'kidlash uchun shunday yo'sindan foydalaning.

Rezumelarga odatda tezgina ko'z yurgurtirilib chiqilishini yodda saqlang. Ba'zi kompaniyalar hatto kalit so'zlarni qidirib topib, ajratib beruvchi skanerlardan foy-

dalanishadi. Ish talabiga muvofiq holda o'z tajribalaringizni bog'lang. Masalan, Yapon tilida nutqi ravon, Adobe Illustratorda malakali, Cisco network sertifikati, tadqiqotchilik qobiliyati, jamoaviy loyihalar, yetakchilik qobiliyati, xorijiy ta'lim va xalqaro tajriba.

O'zingiz uchun resume to'ldiring. Ishga olinishingiz imkoniyatlarini oshiruvchi va rezumengizni boyituvchi bosqichlarni aniqlang. Qanday qilib bu bosqichlarning sizning hayotingiz davomidagi muvaffaqiyatlarga erishishingizga ko'maklashishini tushuntirib bering.

Nimalarga erishganingizni ifodalovchi ta'sirli so'zlardan foydalaning. 9-5 jadvalda shu kabi so'zlarga misollarni ko'rishingiz mumkin.

Rezumengizni tayyorlayotgan paytda ma'lumotingiz haqida butunlay xolis bo'ling. Ish beruvchilar resume ma'lumotlarini o'qib chiqishini yodda saqlang. Yolg'on ma'lumot berish ishingizdan ayrilib qolishingizga sabab bo'lishi mumkin. Ishga joylashganingizdan keyin yuzaga chiqqan yolg'on ma'lumot ishdan haydalishtirishingizga va karyerangizda uzoq muddatli muammolarga sabab bo'lishi mumkin.

Ko'plab karyera obyektlari rezumeda karyera obyektlarini qamrab olmaslikni maslahat berishadi. Ba'zida karyera obyekti juda ham keng umumiy tushuncha bo'lib hisoblanadi. Buning o'rniga o'z qobiliyatlaringizni kompaniya ehtiyojlari bilan bog'layotgan paytda, shu ma'lumotlarni xatga qayd qilib ketganingiz ma'qulroq.

Odatda tavsifnomalar rezumega kiritilmaydi. Bu ma'lumotlar ishga qabul qiluvchi so'ragan taqdirda uning qo'lga beriladi. Sizning xarakteringiz, ma'lumotingiz va ishga layoqatligingiz haqida intervyu bera oluvchi odamlar ro'yxatini tuzib qo'ying. Bular sizning ustozlaringiz, avval ishlagan joyingizdagi boshlig'ingiz, hamkasblaringiz bo'lishi mumkin. Bu shaxslar sizhaqingizda tavsifnoma bera olishlariga ishonch hosil qilib qo'yganingiz ma'qul.

Karyera portfoliosi

Ko'pgina ishga da'vogar shaxslar karyera portfoliosini tayyorlab qo'yishadi. Karyera portfoliosi sizning qobiliyat va mahoratingiz haqidagi isbot sifatida ko'zga tashlanadigan qirralaringizni namoyon etadi. Bu quyidagilarni o'z ichiga olishi

mumkin:

- Resume, muqova(jildi) va odatda intervyuda beriladigan savollarga javoblar
- Bayonnoma, taqdimotlar va loyihalarning tadqiqot ishlanmalari
- O'zi yaratgan veb-sayt dizaynlari va mahoratli ishlari
- Maqolalar yoki qatnashgan konferensiyalardagi ko'nikmalar
- Tavsifnoma xatlari

Karyera portfoliosi ishga oluvchilar uchun sizning qobiliyat va iqtidoringizni haqiqatda reallikda ko'rish imkoniyatini beradi. Qolaversa, bu sizning tashabbuskorligingiz hamda misli ko'rilmagan qirralaringizni ko'rsatishingizga yordam beradi.

Nazorat nuqtasi Rezumening asosiy bo'limlari nimalar?

ANKETA JILDI

Anketa jildi sifatidagi xat maxsus ish bo'yicha sizning qiziqishingizni namoyish etadi. Masalan, siz buni intervyu olishdan maqsad nima ekanligini ko'rsatuvchi xat deb biling. Shunaqa barcha xatlar singari, bu ham uni o'quvchida katta qiziqish va e'tibor uyg'otsin. Bu xat siz bilan uchrashish uchun ishtiyoq uyg'otsin, sizni suhbatga chaqirish uchun ilhom bag'ishlasin. Xat boadab, tartibli va mazmunli yozilgan bo'lishi kerak.

Kirish qism

Xatning boshlanishiyoq o'quvchining e'tiborini torta olishi kerak. Yana xatda murojaatingiz sababini aniq yoritib. Siz qiziqadigan ish yoki kasb turiga urg'u bering. Tajriba va malakalaringiz haqida qisqacha ma'lumot berib o'ting. Joiz bo'lsa, sizning shu tashkilotga taklif etgan shaxsning ismini ham ta'kidlab o'ting.

Maqsad 2

Mavjud bo'lgan ish o'rinlari haqida ma'lumotlarni aniqlashtiring

Rivojlanish

Bu bo'lim ishga munosib deb topilishingizga sabab bo'luvchi kelib chiqishingiz va tajribalarinigizni yoritib berishi lozim. Qo'shimcha ma'lumotlarni ko'rib chiqish uchun ish beruvchi fikrini rezumega yo'naltiring. Shu o'rinda, o'z tajriba va tayyorgarliklaringizni bir xulosaga jamlang. Tashkiliy ishlar uchun mahorat va ma'lumotingiz borligini ham kiriting.

Xulosa

So'nggi qismda bilim va ko'nikmalingizni birma-bir muhokama qilish uchun imkoniyat berishlarini so'rang. Boshqacha qilib aytganda, suhbatga taklif etilishingizni iltimos qiling! Kontakt ma'lumotlaringizni, telefon raqamingiz va e-mail adreslaringizni, bo'sh vaqtlaringiz haqidagi tafsilotlarni ham kiriting. E-mail manzilingiz shaxsiy ekanligiga ishonch hosil qiling. Tashkilotga qanday ijobiy foyda bera olishingizni xulosalab, xatni tugallang. Ariza topshirayotgan har bir o'rin uchun alohida jild xati tayyorlang.

Maqsadli yo'naltirilgan xat

So'nggi yillarda, ba'zi ishchilar rezume va jild xatining o'rniga aniq maqsadga yo'naltirilgan xatlarni tayyorlashayapti. Bu tashkilot ehtiyojlari uchun kerakli ekanligingizni asoslovchi qobiliyatlaringiz haqida yozilgan qisqacha xulosadir. Bu xat sizning eng ustuvor qobiliyat va mahoratlaringiz ro'yxatini o'z ichiga oladi. Sizning eng asosiy maqsadingiz, sizni suhbatga chaqirishlari uchun asos bo'ladigan yutuq va mahoratlaringizni ta'kidlab ko'rsatish.

1602 Collegewood Drive
Madison, WI 53711-2821
June 25, 20--

David Haugen, Ph.D.
Vice President of Finance
Lakeview College
Madison, WI 53706-3692

Dear Dr. Haugen

This is to express my interest in the accounting clerk position available with Lakeview College. My academic training and previous work experiences qualify me for this position.

While attending Four Lakes High School, I achieved a strong academic record and developed many business skills that would be of value to your organization. My part-time employment experiences provide evidence of skills and competencies required for the available position.

In a work experience program during my senior year, I was employed ten hours a week at the Tempest Tea Pot Company. In that position, I was involved with various recordkeeping and marketing activities. In addition, I worked on projects related to online sales and website development.

During my summer job in the city assessor's office, I was part of an office team responsible for maintaining spreadsheets and conducting research. The skills I developed in this position will allow me to effectively contribute to the needs of your organization.

Enclosed is my resume with additional information about my experiences. Please contact me to set up an interview. My telephone number is (608) 555-0308, and my e-mail address is fnegalo@badgemet.com. I look forward to the opportunity to meet with you to discuss my qualifications and learn more about the accounting clerk position.

Sincerely

Francisca Negalo

Francisca Negalo

Nazorat nuqtasi
Jild xatining maqsadi nima?

Online portfolio tuzing. Karyera portfolio-si sifatida xizmat qiluvchi veb-sayt yarating. Bu elektron portfolioning shakli, elementlari, grafikallari va bog'lanishlarini tasvirlang. Ko'plab karyera turlarida ish faoliyatini davom ettirish uchun ariza topshirilayotganda online portfolio qanday ishlatilishi mumkinligi haqida gapirib bering.

Maqsad 3

Online hujjat topshirish jarayonini muhokama qiling

ONLAYN ANKETA TO'LDIRISH JARAYONI

Ko'pchilik insonlar o'z karyeralarini yuritishda internet, ommaviy axborot vositalari, mobil ilovalardan foydalanishadi. Ish izlayotgan vaqtda potensial ish qidirish odatiy tusga kirgan, ish izlovchilar ham online tarzda hujjat topshirishi va suhbatdan o'tishi mumkin. Chunki internet rezumening xususiyligi kamroq, ish izlashning boshqa – telefon qo'ng'iroqlari, e'lonlar, ish yarmarkalari va shaxsiy aloqalar kabi metodlariga o'xshamaydi.

Onlayn ariza

Ko'pgina tashkilotlarda onlayn murojaat qilish imkoniyati mavjud. Qo'shimcha sifatida mavjud bo'lgan ish o'rniga mos kelishingizni tekshirish uchun avvalgi savol-javob, muzokaralardan kelib chiqqan holda so'roq qilinishingiz mumkin. E-mail yoki online rezumengizni jo'natayotganingizda quyidagilarga e'tibor qarating:

- Oddiy formatdan foydalaning. Qiya, tag chiziqli, burama va tablarda yiroq bo'ling.

- Ochish qiyin bo'lgan fayllardan foydalanmang.

Rezume namunalari turli websaytlarda joylashtirilgan bo'ladi. Ular kerakli malaka va ko'nikmalarga ega bo'lgan nomzodlarni aniqlash uchun kalit so'zlar orqali rezumelarini skaner qilishadi. Malakali kasb

egasi ekanligingizni ko'rsatuvchi so'zlar va iboralar kompaniya va kasbga bog'liq ravishda bir-biridan farq qiladi. Masalan, ba'zi kompaniyalar lider(yetakchi), jamoa kabi so'zlarga, boshqalari esa ma'lumotlar bazasi, katta formatli jadval kabi so'zlarga e'tibor berishadi.

Onlayn suhbat

Ko'pchilik tashkilotlar video konferensiyalar orqali suhbat jarayonlarini o'tkazishadi. Ba'zilari esa suhbat jarayonida beriladigan savollar bo'yicha videolarini jo'natishlarini so'raydi. Bunaqa "e-suhbat"lar quyidagicha savollarni o'z ichida jamlashi mumkin: " Ishda aniq bir tuzilishda ishlaysizmi yoki moslashib ketaverasizmi? " va " Qiyin muammolarni yechish uchun qanday yo'l tutasiz? "

Onlayn suhbatlar ishga bog'liq faoliyatda insonning qobiliyatlarini sinash uchun ham foydalanilishi mumkin. Masalan, ariza beruvchi shaxsdan bank yoki chakana savdo amaldorlari vazifasiga qo'yilgandek javob qaytarishlari so'ralishi mumkin.

Nazorat nuqtasi

Ishga hujjat topshirish jarayonida internet qay darajada ishlatiladi?

9-3 TAXLILI

Kalit tushunchalar

Eng yaxwi savolni belgilang.

1. Rezumeda qamrab olinishi shart bo'lmagan jihat – bu...
 - a. Maktabdagi mukofotlar
 - b. Tavsiyanomalariningiz
 - c. Ta'lim olgan maktablar
 - d. Ish tajribangiz
2. Jild xatining asosiy maqsadi – bu...
 - a. Suhbat qilinish borasidagi iltimosnoma
 - b. Karyera ma'lumotlarini to'plash
 - c. Tavsiyanoma berilishini so'rash
 - d. Davlat ishiga hujjat topshirish

AKADEMIKALOQALARNI O'RNATISH

3. Huquqshunoslik. Odamlarni ishga olish jarayonida ularning huquqlarini himoya qiluvchiqonunlar haqida ma'lumotlar to'plash uchun kutubxona yoki online tadqiqotini o'tkazing.

4. Texnologiya. Online ariza shaklini hosil qiling. Qanday savollar so'ralgan? Savollarga javob berishga tayyormisiz? Qanday qilib?

5. Matematika. Kichkina shaharda yashovchi va \$54,000 topadigan shaxs yashash harajatlari 8% baland bo'lgan katta shaharda yangi ishga joylashishni rejalashtiryapti. Shahardagi maoshning nisbiy qiymati qancha miqdorda bo'lishi mumkin?

9-4 Ishga joylashish



Maqsadlar Kalit soʻzlar:

- 1 Suhbat jarayonida qamrab olinadigan mashgʻulotlarni tasvirlang
- 2 Tasavvur qilish uchun ishga taklifni qabul qilgandagi omillarni taqqoslang
- 3 Kasbda muvaffaqiyatga erishishning yoʻllari va uslublarini izohlang

Ishga olish suhbatlari 219
Maslahatchi 222
Chiqish suhbatlari 223

Haqiqiy hayotga nazar tashlash

“Tabriklayman, Fren!” dedi Maria jiyani bagʻriga bosar ekan. “Oʻqishni ham tamomlad- ing, endi nima qilmoqchisan?”

“Ish topaman”, javob berdi Fransisko. “Re- zume tayyorladim va ish izlovchi vebsaytlarda oʻz profilimni yaratdim”.

“Qanaqa ish izlayapsan?” soʻradi Maria rasm- ga tushar ekan.

“Bir rejam bor, Maria xola. Taʼlim olgan muassasamda oʻrgangan bilimlarimni amalda qoʻllash uchun hisobchi lavozimni izlayap- man. Kuzda kollejga buhgalteriya kurslariga bormoqchiman. Keyin esa oʻqishimni univer- sitetga koʻchirish niyatim bor. Hozircha esa oz- roq pul topib tajriba egallamoqchiman”.

Maria jilmaydi va dedi: “Men ishlaydigan joy- da boʻsh oʻrinlar boʻlishi mumkin. Vebsaytdan tekshirib koʻraman”.

SUBHAT JARAYONI

" Biz siz bilan yuzma-yuz uchrashmoqchimiz. " Bu rezume yoki arizangizni topshirgandan keyingi maqsadingiz. Suhbat 2 tomonlama boʻlib, unda suhbatlashuvchi siz haqingizda, siz esa kompaniya, ish funksiyalari haqida batafsil ma'lumotga ega bo'lasiz.

Suhbatdan avval

Suhbatdan oldin siz da'vogarlik qilayotgan ishning vazifalari hamda ishni rivojlantir- ishda nimalar qilinishi mumkinligi haqida ko'proq ma'lumotlar to'plang. Suhbat davomida so'ramoqchi bo'lgan savollaringizni ham tayyorlab qo'ying. Ular quyidagilarni qamrab olishi mumkin:

- Ishchilarga tayyorgarlik uchun qanday shart-sharoitlar mavjud?
- Kompaniyangizning eng muvaffaqiyatli mutaxassislarida qanday sifatlar mavjud?
- Kelasi bir necha yil uchun kompaniyangiz qanday yangi qulayliklarni yaratishni rejalashtirgan?

Suhbatdan muvaffaqiyatli o'tish uchun suhbatni ko'proq tajriba qilish lozim. Nutqingiz qanchalik ravon va osoyishta ekanligini bilish uchun ovozingizni tasмага yozib oling va es-

hitib ko'ring. Sizdan so'ralishi mumkin bo'lgan savollarga mazmunli, chiroyli javoblarni o'ylab qo'ying. Do'stlaringizdan suhbatlashish ma- horatlarini sinab ko'rishni so'rang. Fikrlarin- gizni bir maromda rejalashtirib olishni mashq qiling. Ravon hamda hayajonsiz gapiring. Eng muhimi, ishtiyoq bilan suhbatga kirishing. Suhbatgizning bir qismi sifatida yaxshi taas- surat qoldirishga ham tayyorlaning

Maqsad 1

**M e n e j -
mentning 5
funksiyasi-
ni aniqlash**



Ish intervyusi davomida potensial ish beruvchilar sizning diningiz yoki qayerda tug'ilganingiz haqida so'ray olmaydilar. Lekin ular siz Amerika fuqarosi ekanligingizni so'rashlari mumkin. Ish beruvchilar sizning yoshingizni so'ray olmaydi, lekin sizning yoshingiz 18 dan yuqori ekanligiga ishonch hosil qilish uchun savol bera olmaydi. Garchi ish beruvchilar sizning qandaydir kasalligingizni so'ramasalar ham, ish beruvchi uchun ishchining so'rayotgan ishi uchun jismoniy layoqati yetarliligini so'rash muvofiqdir. Sizdan oilaviy ahvolingiz yoki majburiyatlaringiz haqida so'ralmasligi mumkin, lekin ish beruvchi sizning qaysi kunlari yoki qaysi vaqtlarda ishga kela olmasligingizni so'rashi mumkin.

Ishga vaqtda yetib kelish va muvofiq kiyinish muhim hisoblanadi. Suhbat joyiga qanday borishni bilishingizga ishonch hosil qiling va o'zingiz uchun ko'p vaqt ajrating. Garchi kimdir eltib qo'yishni taklif qilsa ham Intervyu joyiga o'zingiz borishingiz kerak. Ishga kirmoqchi bo'lgan kompaniyangizga mos ravishda kiyining.

Suhbat davomida

Sizni suhbat qilayotgan odam sizning tashqi ko'rinishingiz, o'zingizni tutishingiz, tilni bilishingiz va ish uchun umumiy qobiliyatlaringizni bilishni xohlaydi. Suhbatlashuvchi suhbatga bir qancha turli xil murojatlar bilan yondashishi mumkin. Ko'p suhbatlashuvchilar suhbat boshlanishi bi-

lan sizni noqulay ahvolda qoldirishga harakat qiladilar. Suhbatlashuvchilar sizning bosim ostida qnday qarshilik ko'rsatishingizni aniqlash uchun savollar beradi. Savolarga nazorat ostida, aniq javob bering. Odoqli suhbat ishga da'vogarning yuqori baholanishi imkoniyatini oshiradi. Savollar odatda "tasvirlab bering" yoki "menga... haqida so'zlab berib" bilan boshlanadi. Ko'p uchraydigan suhbat savollari 9-7 jadvalda ko'rsatilgan.

Ba'zi ish beruvchilar ish so'rovchilarga ularning ishga yetarli malaka va qobiliyati borligini tekshirish uchun test beradilar. Misol uchun test hisob-kitob va boshqa malakalar tekshiruvi bo'lishi mumkin. Suhbatchi testni ko'rib chiqishi va ish uchun maxsus ko'nikmalarni muhokama qilishi mumkin.

Ko'p gapirishdan qoching ammo har bir savolga to'liq javob bering. Suhbat davomida vazmin bo'ling. Yodda tuting, sizga berilayotgan savollarni dunyodagi eng mohir mutaxassisi bu siz! Nihoyat, suhbatchiga ish va sizning malakangizni muhokama qilish uchun imkoniyat bergani uchun tashakkur ayting.

Suhbatdan so'ng

Bir yoki ikki kun ichida suhbat haqidagi suhbat uchun minnatdorchilik xatini yuboring. Garchi siz ishga qabul qilinmagan bo'lsangiz ham, ushbu minnatdorchilik xati ke-lajakda inobatga olinadi.

Keyin suhbatlashganingizni baholang. Siz kutmayotgan yoki tayyorlanmagan savollarni eslab qolishga harakat qiling. O'zingiz uchun kerakli qaydlarni yozib oling. Rivojlantirishingiz lozim bo'lgan jihatlar haqida qaydlar yozing. Qanchalik ko'p suhbatlarda qatnashsangiz, o'zingizni shunchalik yaxshi ko'rsata olasiz. Ko'p suhbat ishga taklif qilinish imkoniyatini ham oshiradi.

Suhbatdan so'ng sabrli bo'ling.

Nazorat nuqtasi

Ishga joylashish uchun suhbatga tayyorlanayotganda qanday chora-tadbirlar amalga oshirilishi lozim?

Kompaniyani suhbatlar qabul qilish va tanlovni amalga oshirish uchun bir qancha haftalar ketishi mumkin.

Tekshiruv

Ishga joylashish uchun suhbatga tayyorlanayotganda qanday chora-tadbirlar amalga oshirilishi lozim?

Ishga takliflar

“Biz sizni kompaniyamizda ishlashingizni xohlaymiz”. Ushbu so'zlarni eshitganingizda, ishni qabul qilish yoki rad etishdan oldin ko'plab omillarni hisobga olishni unutmang. Ishning moliyaviy tomonlari ma'lum bir tashkiliy omillarga bog'liq bo'lishi kerak.

Maosh va moliyaviy faktorlar

Ishning turi va sizning tajribangiz oylik to'lovingizga ta'sir qiladi. Ya'ni ishchining foydali tomoniga bog'liq. Sug'urta, ta'til vaqti va nafoqa dasturlari ishchi foydasining

umumiy misollaridan. Ba'zi kompaniyalar bepul avtomobil uchun joy, fitness markazlar, boshqa turli dasturlar va xizmatlar taklif qilishadi. Qanday xizmatlar va dasturlar borligi va siz ular uchun qancha to'lashingizni so'rang. Yarim stavkali yoki mavsumiy ishchilar foyda ko'rishlari yoki ko'rmasliklari ham mumkin.

Tashkiliy muhit

Ishning moliyaviy tomonlari muhim bo'lishi bilan bir qatorda uning ishlash muhiti ham muhimdir. Sardorlik xususiyatlari, kiyinish tartibi, jismoniy ish joyi va jamoatchilik muhiti bo'lishi kerak.

Rivojlanish va shug'ullanish dasturlari bo'lishi kerak. Ba'zi kompaniyalar ish davomida ishchilarni ruhlantirish uchun lavozimlarini oshiradilar va karierasi va rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratib beradi.

Maqsad 2

Tasavvur qilish uchun ishga taklifni qabul qilgandagi omillarni taqqoslang



Maqsad 3

Kasbda muvaffaqiyatga erishishning yo'llari va uslublarini izohlang

Ish joyida o'zini tutish

Munosabatingiz karierangizdagi muvaffaqiyatingizga katta ta'sir ko'rsatadi. Positiv munosabat o'rganishingizga va boshqalar bilan hamkorlik qilishingizda yordam beradi. Har doim positiv ko'rinishda o'ylang, gapiring, kiyining va harakat qiling. Keyin, ishingizdan qanoatlanasiz va rohatlanasiz.

Ishda muvaffaqiyat strategiyasi

Birinchi ish kuniga tayyorlanayotgan bo'lsangiz, quyidagilarni eslab qoling:

- Savol so'rash. Agar yo'nalishni tushunmagan bo'lsangiz, uni qaytartiring va yaxshilab tinglang. Ish o'rganish jarayonida xato qilib qo'yishingiz mumkin. Xatolardan o'rganing va uni qayta takrorlamaslikka harakat qiling.
- Shikoyat qilmaslik. Agar sizda sizning darajangizdan ko'ra ko'p ish bo'lsa, rahbar bilan gaplashing.
- Tanaffusda izzatli bo'lish.

Dam olish davrini va tushlikni vaqtdan oshirib yubormang.

- Tashqi ko'rinishingizni hisobga oling. Toza va kasbga mos kiyining. Rahbarlar tez-tez yuzaki ko'rinish yuzaki ish odatini yuzaga keltirishini kuzatishadi.

- Vaqtda kelish. Kech yetib kelish va erta ketish yomon amaliyot.

- Hamma bilan do'stona bo'lish. Hamkasblaringizni hurmat qiling va chiqishib ketishni o'rganing.

Tashkilotdagi har bir odam muhim. Istalgan hamkasb kelajakda yordam bermasligi mumkin.

- Ishonchli ekanligingizni ko'rsating. Ishni o'z vaqtida bajaring.

Yuzaki ishlash yoki kechiktirish boshqalarga ta'sir qiladi. Siz jamoaning bir qismisiz va bundan faxrlaning. Detaillarga e'tibor bering. Qo'ng'iroq va elektron pochталarga javob berib ish haqida qayg'urishingizni ko'rsating.



Qoidalarga rioya qiling. Agarda qoidalar nohaq yoki haddan tashqari bo'lsa, ularni boshqalar bilan ham muhokama qiling va ularni nima sababdan yaratilganini biling. Ko'pgina omadli odamlar o'zlaridan ko'ra tajribaliroq, ko'proq biladigan odamlardan yordam oladilar. Ustoz - bu boy tajribali va tajribasi kam ishchilarga yordam beradigan inson. Ustozlar karyera borasidagi maslahatlardan tashqari, ish jarayonida kerak bo'ladigan maxsus qo'llanmalarni tez-tez taklif qilishadi. Misol uchun, sizning ustozingiz sizga hozirgi ishingizda yuksalishingizga va kelajakdagi imkoniyatlarinigiz o'sishiga yordam berishi mumkin.

ISHNI TARK ETISH

Ishdan ketish vaqti kelganda, ayrim terminlarni yodda tutish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Quyidagi eslatmalar sizga ishdan ketishingizga va bu jarayonda kerakli usullarni ishlatishingizda yordam beradi.

- Eng kamida ikki hafta avvalroq muddatda bildirgi yozing. Iste'fo xatinigiz xushmuomalalik va aniqlik bilan qisqacha yozilgan bo'lsin; xatda oxirgi ish kuningizning sanasi aniq ko'rsatilsin.

- Barcha bajarib kelayotgan loyihalaringizni tugallashga harakat qiling. Agarda ular ohiriga yetkazilmagan bo'lsa, sizdan keying ishchi kelgan



da tushunarli bo'lishi uchun maxsus ogohlantirishlar yozib qoldiring.

- Agarda ish honangizda ketishdan oldin ish beruvchi ishingiz haqida so'rashi mumkin bo'lgan suhbat bo'ladigan bo'lsa, u holda xushmuomala va zukkorroq bo'ling.
- Hamkasblaringizga ular bilan ishlash imkoniyatidan minnatdor bo'lganligingizni bildiring. Ijobiy taasurot qoldirishingiz o'zingiz uchun ham, boshqalar uchun ham albatta yaxshi.

Nazorat nuqtasi

Tajribali ustoz qanday yo'l bilan tajribasi yetarli bo'lmagan ishchiga yordam beradi?

9-4 TAXLILI

Kalit tushunchalar

Eng yaxwi savolni belgilang.

1. Suhbatdan keyingi bajarilishi maqsadga muvofiq bo'lgan harakatlar – bu...
 - a. Tashkilotdan oylik maoshi haqida so'rash
 - b. Suhbat davomida tutgan hatti-harakatlarinigizni baholash
 - c. Rezyumeyingizni qayta ko'rib chiqish
 - d. Karyera ta'lim narxini tahlil qilish
2. ... suhbat, ishni tark etayotganda o'tkaziladi
 - a. Informtsion
 - b. Chiqish
 - c. Bandlik
 - d. Murabbiylik

AKADEMIKALOQALARNI O'RNATISH

3. Aloqa. Ijtimoiy bilimlaringizni oshirish uchun boshqa odamlar bilan suhbatlashing. 9-7 jadvalda ko'rsatilgan savollarni bir-biringizdan so'rang. Boshqalar bilan har bir savollarni muhokama qiling.
4. Madaniyat. Savollar va harakatlarni boshqa davlatlarda qanday bo'lishini muhokama qiling. Boshqa davlatlarda tana harakatlari bilan muomala qilish qanday boladi?

9 BO'LIM tahlili

Biznes izohlari

9-1 Karyera imkoniyatlari

- Karyerani rejalashtirish jarayoni o'z-o'zini baholashni, mehnat bozori tahlili, ariza topshirish faoliyati, suhbat jarayoni, ish takliflarini solishtirish, karyerani rivojlantirish faoliyatlarini qamrab oladi.
- Karyera uchun kerak bo'ladigan eng muhim informtsiyalarga media manbalari, online manbalar, suhbat ma'lumotlari va biznes aloqalar kiradi.
- Karyera bo'limlarida o'sish darajasi eng yaxshi bo'lgan sohalar: kompyuter texnologiyalari, sog'liqni saqlash, biznes xizmatlari, ijtimoiy xizmatlar, savdo va chakana savdo, ta'lim, mehmonxona va oziq-ovqatlar xizmati, moliyaviy xizmatlar, menejment, inson resurslari. Xizmat sanoati kelajakda eng ko'p kishilarni eng ko'p miqdorda bandlik bilan sohaga aylanadi.

9-2 Karyerangizni rejalashtiring

- Karyera borasida qaror qabul qilinayotganda, qiziqishlar, qobiliyat, iste'dod va iqtidor inobatga olinishi lozim.
- Ish tajribasi kasb o'rganish o'quv jarayonida, o'quv dasturlarida, yarim vstavkali ishda, ko'ngilliar harakatlari va maktab mashg'ulotlarida olingan bo'lishi mumkin.
- Axborot manbalari quyidagilarni o'z ichiga oladi: ommaviy axborot vositalari, shaxsiy aloqalar, biznes aloqalar, karyera yarmarkalari va ish agentlari.

Biznes konsepsiyalari bilan aloqa qilish

1. Siz intervyu uchun foydalansa boladigan shaxslar deb kimlarni bilasiz?
2. iste'molchi talabiga, demogrfi ktrendlarning o'zgrishi, va yangi texnologiyalar karyeraga qanday qilib ta'sir o'tkzishi mumkinligi haqida missollar keltiring.
3. O'zingizni iqtidor va qobiliyatlaringizni alohida jadval qiling. Ularning har birida mohir yoki kuchsiz ekanligingizni aniqlashtiring. Bu qirralaringizni karyera rejalashtirishida qay tarzda ishlatishingiz mumkinligini tushuntiring. Kuchsiz tomonlaringizni rivojlantirish uchun qanday chora-tadbirlar ko'rishingiz mumkinligini ayting.
4. Karyera yarmarkalarida qatnashish uchun

9-3 Ishga hujjat topshirish

- Ariza jarayoni ariza shaklini to'ldirish yoki resume va biriktirilgan xatdan boshlanishi mumkin.
- Ariza jarayonini to'ldirishda uchta asosiy qismlar mavjud. Kirish qism o'quvchilarning e'tiborini qaratish bilan boshlanadi. Yozgan bayonotingizda sizni ishga loyiq topuvchi barcha olgan bilimlaringiz va ko'nikmalaringiz yoritiladi. Xulosa suhbatga chaqirilishni so'rash bilan yakunlagani ma'qul.
- Online ariza yozish jarayoni ariza yozish jarayoni, e-resume, elektron suhbatlarni o'z ichiga oladi.

9-4 Ishga joylashing

- Suhbat jarayoni suhbatga tayyorlanish, suhbatda qatnashish va mashg'ulotlarga amal qilishni o'z ichiga oladi.
- Ish o'rnini qabul qilayotganda quyidagi omillar e'tiborga olinishi lozim: oylik maosh, foyda, yetakchilik uslubi, kiyinish qoidasi, ijtimoiy muhit va taraqqiyot imkoniyatlari.
- Ijobiy yondashuv kasbda muvaffaqiyatga erishishning bosh bo'g'ini. Boshqa omadli strategiyalar savollar berish, shikoyatlardan saqlanish, ishingizga yuksak e'tibor, qoidalarga amal qilish va o'z vaqtida ishda bo'lish, ishonchlilik hamda do'stonalik kabi xususiyatlarni o'z ichiga oladi.

qanday ishlar bajarilishi kerak?

5. Shaxsiy ma'lumotlar varag'ingiz bir nechta tavsiyanomalarni o'z ichiga olishi lozim. Ariza shakllari tavsiyanomalarni ham taqdim etishni so'raydi. Hozir foydalanishingiz mumkin bo'lgan 3 ta tavsiyanomalar ro'yxatini tuzing. Har bir tavsiyanomadan munosib ishchiga yordam beradigan ma'lumotlar turini qayd eting.
6. Ishga hujjat topshirayotganda kayera portfoliosida qamrab olinishi mumkin bo'lgan jihatlar ro'yxatini tayyorlang.
7. Agar siz ishchilar yollash masalasiga ma'sul bo'lganingizda, talabgorlardan qanday ma'lumotlar olishni istagan bo'ladingiz? Bu ma'lumotlarni qanday olgan bo'ladingiz? Talabgorni suhbat qilishga to'g'ri kelganda qanday maxsus savollarni bergan bo'ladingiz?

8. Ishga ariza topshiruvchilar turli holatlarga duch kelishlari mumkin. Qaysi turdagi holatlarda ishga olinayotganlarning mahoratini va qobiliyatini baholash mumkin?

9. Siz yashaydigan hududda 3 ta bo'sh ish o'rni haqida ma'lumot qabul qilindi. Ular bir-biridan farq qiladi. Faraz qiling, siz ularning birini mutahassisiz. Ishga oluvchiga namoyish qilmoqchi bo'layotgan har qaysi mahoratingiz ustida tayyorlaning. Keyin ishga olishlari uchun ariza yozing.

a. Kichik biznes ofisiga majburiyatlarni nazorat qiluvchi ishonchli odam kerak. Nazoratsiz ishlay olishi va ma'lumot so'ragan odamlar bilan yahshi muomalada bo'lishi kerak. So'zni qayta ishlash va boshqa ofis mahoratini bilish ham kerak. Maoshi jamiyatdagilarning o'rtacha maoshidan ko'proq.

b. Avto ehtiyot qismlar va bezaklari savdosi yirik savdo

Biznes tilingizni rivojlantiring

Izohlarni to'g'ri belgilab chiqing.

11. Ishchi bajarishi kerak bo'lgan ishi haqida ishchi bilan rejalashtirilgan suhbat, ish faoliyati uchun muhim bo'lgan tayyorlanish va ish faoliyati haqida shaxsning tushunchasi

12. Bir shaxsning ish o'rinlari joylashgan yerga ko'chib o'tishga tayyorligi va qobiliyati

13. Hayotda sizga muhim bo'lgan narsalar.

14. Ma'lum ishlarni qilish uchun tabiiy, tug'ma qobiliyat

15. Kasb yoki kasblar orqali hayotda qo'lga kiritilgan yutuq

16. Aqliy yoki jismoniy tomonlarni bajarilishi mumkin bo'lgan ish qobiliyati

17. Intervyu olish maqsadida yozilgan ariza haqida sotuvchining maktubi

18. O'zingiz haqingizda ishga aloqador qisqa xulosa

19. Tajribasiz shaxsga maslahatchi bo'lib xizmat ko'rsatuvchi tajribali ishchi

20. Ish beruvchi tomonidan ishchi haqida so'raladigan ma'lumot

21. Ikki tomonlama suhbat, suxbatdoshingiz siz haqingizda siz esa ish va kompaniya haqida ma'lumotga ega bo'lishingiz

22. Suhbatda ish beruvchi ishchini qanchalik o'z ishini yoqtirishini so'rashi va qanday qilib ishini takomillashtirish mumkinligi haqida ma'lumot olishi

23. Ishga ariza berayotganda sizning ko'nikmalaringiz va qobiliyatingizni aniq ko'rsatish

markaziga sotuvchilar kerak. Ariza topshiruvchilar savdo-sotiq borasida biroz bilimga va savdo tajribasiga ega bo'lishlari kerak. Ish soati o'zgaruvchan, ba'zan kechasi yoki dam olish kunlari ishlashga to'g'ri keladi. Foyda juda yahshi; Yahshi, faol ishchilar uchun qo'shimcha bonuslar bor.

c. Bizning bankimiz tumanda birinchi hisoblanadi. Bizga faoliyatini bank tizimidan boshlashni xohlovchi mahoratli odam kerak. Bizning tayyorlov kursimiz eng quyi pog'onadan boshlanadi, lekin bank tizimini o'rganishga kata imkoniyat yaratadi. Maosh raqobatga ega.

10. Ishdan ketayotgan savdo nazoratchisini suhbatdan o'tkazishga ma'sul shaxs etib tayinlanganingizda, qanday savollar so'ragan bo'lardingiz?

Kalit so'zlar

- a. Qobiliyat
- b. Ariza formasi
- c. Martaba
- d. Mansab portfeli
- e. Biriktirilgan xat
- f. Ishga olish uchun suhbat
- g. Chiqish intervyu
- h. Axborot intervyu
- i. Ustoz
- j. Harakatchanlik
- k. Rezyume
- l. Iste'dod
- m. Qadriyatlar

Akademik aloqalarni o'rnating!

24. Iqtisodiyot. Mehnat Statistika Byurosi uchun Veb-sayt bandlik va ish haqi to'g'risida keng ma'lumotlar bilan taminlaydi. Mavzu maydonini tanlang va ikki-paragraf xulosa yozing. Bu ma'lumot sizga faoliyatingizni rejalashtirishingizda qanchalik muhim ekanligini izohlang.

25. Madaniyat. Boshqa mamlakatda ishlagan odam bilan suhbatlashing. U yerdagi ishga ariza topshirish jarayoni va ishga yo'llanish tartibi haqida ma'lumotga ega bo'ling.

26. Matematika. Nancyning o'qishi va to'lovlari yiliga 9500\$ ni tashkil etadi. U yiliga kitoblar va darslik ta'minotlari uchun 1200\$ sarflaydi. Bundan tashqari, uning kundalik xarajatlari yiliga 11600\$ ni tashkil etadi. U 3ta daromad manbasiga ega: yiliga 3500\$ moliyaviy yordam, uning o'qish pulining yarmini to'lab beruvchi stipendiyasi va o'quv-tadqiqot ishidan yiliga 5300\$ topadi.

a. Nancy o'zning 3ta daromad manbasidan yiliga qancha daromad oladi?

b. Nancy o'qiydigan kollejning yillik to'lovi qancha?

c. Uning 3ta daromad manbayi yillik kollej harajatining necha foizini qoplaydi?

d. Nancy yiliga qancha miqdorda pul qarz olishga ehtiyoji bor?

27. Aloqa. Suhbatlashish xulqining kuchli va kuchsiz misollari bilan guruh bo'lib prezentatsiya yoki video tayyorlang.

28. Texnologiya. Odamlarga rezyumelarini yuborishni taminlovchi veb-saytga kiring. Ba-

jariladigan ishlar xulosasini tayyorlang, baholang, veb-saytdan boshqa ma'lumotlar oling.

29. Matematika. Emilie Antoine kadrlar bo'limi intrvyu oluvchisi. Dushanba kuni u ishga ariza topshirgan 7ta talabgor bilan suhbatlashdi; Seshanba kuni 6tasi bilan; Chorshanba kuni 9tasi bilan; Payshanba 5ta va juma kuni 8tasi bilan suhbatlashdi.

a. Emilie bu hafta nechta ishga ariza topshirganlar bilan suhbatlashdi? Kunlik o'rtacha miqdor qancha?

b. Chorshanba, birinchi suhbat 50 minut bo'ldi, keyingi 2tasi 40 minutdan, yana 4tasi 35 minutdan, oxirgisi 45 minut. Emilie barcha suhbatlar uchun necha soat sarfladi? Suhbatlarning o'rtacha uzunligi qancha?

30. Geografiya. Qo'shma shtatlarning turli geografik hududlaridagi maoshlar haqida ma'lumot topin. Qaysi omillar farqlarning yuzaga keltirgan?

31. Tarix. Muhim dunyoviy hodisani qidirib toping. Qanday qilib bu hodisa o'sha joyga ta'sir qilganini va dunyo bo'ylab tarqalgan ish faoliyat turlarini izohlang.

Dushanba	6 soat	Umumiy sotilganlar 735 \$
Seshanba	4 soat	Umumiy sotilganlar 320 \$
Chorshanba	5 soat	Umumiy sotilganlar 570 \$
Payshanba	3 soat	Umumiy sotilganlar 450 \$
Juma	0 soat	Umumiy sotilganlar 0 \$
Shanba	8 soat	Umumiy sotilganlar 1,050 \$

Qaror qabul qilish strategiyasi

Jeff Barbson kelajagi haqida o'ylayotgan va qaysi ish-faoliyati tanlashi kerakligi haqida tashvishlanmoqda. Uning otasi shaharning injeneri. Onasi esa kata savdo markazida sotuvchi. Ota onasi o'z ishida muvaffaqiyatga erishgan va faoliyatidan mamnun. Ularning ikkalasi ham Jeff bilan o'zlarining ishlari to'g'risida gaplashgan. U otasining ishxonasiga brogan va onasining do'konida yordamchi sotuvchi bo'lib ishlagan. Jeffning sevimli fanlari kompyuterlar, iqtisodiyot va san'at. Uning eng kam qiziqadiganlari bu tarix, in-

Maktab va jamiyat bog'lanishi

Jamiyatingizdagi 2 yoki 3ta odam bilan ularning ish izlash va suhbatdan o'tish tajribalari haqida gaplashib ma'lumotga ega bo'lin. U odamlar bilan bo'ladigan suhbatda quyidagi savollardan foydalaning:

- Bo'sh ish o'rinlari to'g'risida qaysi yo'llar

gliz tili, business qonunlari va matematika. Uning eng yaxshi natijalari kompyuterlar va sn'atdan. Jeffning otasi o'g'lini injener bo'lishini xohlaydi chunki ularda injenerga ehtiyoj mavjud. Uning onasi esa savdo bilan shug'ullanishini xohlaydi. Jeff tibbiyot maktabida o'qishni xohlaydi va yurak mutahasisi bo'lmoqchi.

32. Uning qiziqishlarini bilgan holda, uni yuqoridagi 3ta kasbdan qaysi birini tanlashi kerak deb hisoblaysiz?

33. Jeffga uni faoliyati haqida qanday maslahat bergan bo'lardingiz?

orqali habar topgansiz?

- Ishga qabul qilinish imkoniyatingizni oshirish uchun nimalar qilgansiz?

- Suxbatlarga qanday tayyorlangansiz?

O'rganganlaringiz asosida bir bet xulosa tayyorlang. Qaysi fikr mulohazalarni eng qiziq va kelajak uchun juda foydali deb topdingiz?

Web tahlil

Rejalashtirilgan karyera uchun Internet tarmog'i juda foydali manba bo'la oladi. Karyera uchun mavzu tanlang va undagi tavsiya va ma'lumotlarni ikkita turli karyera saytlarida berilgan tavsiyalar bilan taqqoslangan. Karyera mavzusini tanlab ishchanligingizni, kirishimli ekanligingizni yoki samarali suhbat uchun o'zingiz haqingizda ma'lumotnomani taqdim qiling.

Tanqidiy fikrlash

1. Har bir saytning asosiy g'oyasi to'g'risida ma'lumot tayyorlang.
2. Ikkita web tarmog'larida berilgan maslahatlarning o'xshash va farqli tomonlari qanday?
3. Olingan ma'lumot kelajakda sizga qanday foyda keltirishi mumkin?

Ishga kirish uchun suhbat

Siz shimoliy Korolnadagi ABC Corporation ning boshlang'ich boshqaruv bo'limiga ishga joylashyapsiz. Kompaniya ustunliklari tatil va dam olishlar, bemor bo'lgandagi yordam, nafaqa rejasi va sog'liq sug'urtasi kabi jihatlarni o'z ichiga oladi. Tajriba va ta'limga asoslanib maosh belgilanadi. Bu jarayon uch qismdan iborat:

1. Ariza va rezume hati
2. Ishga kirish uchun ariza
3. Suhbatlar

Siz ishga kirish uchun bir varoq ariza xatini tayyorlashingiz lozim. Rezumengiz esa ikki sahifadan oshmasligi kerak. Ishga qabul qilinishingiz uchun resume, ariza xati va ishga joylashish ariza shakli sizning nomingiz bilan bir papkada jamlangan bo'lishi kerak. Bir sahifada sizning xulosaingiz bilan bir qatorda so'rovnamani ham to'ldirishingiz lozim. Resume va bir betli tavsiyanomalar varag'i yordamida ishga joylashish ariza shaklini to'ldirishingiz lozim bo'ladi. Boshqa hech qanday tavsiyanoma materiallari ishlatilmaydi. Sizning biznes jomoa (ABC Corporation vakili) a'zosi bilan suhbatningiz 10 daqiqa davom etadi. Birinchi qismn-

ing yakuniy qismida 15 daqiqali ikkinchi suhbat bo'lib o'tadi. Qaysi talaba ishga qabul qilinganligini aniqlash uchun umumiy baho xulosaingizning ilovasi, resume, ariza shakli va suhbat natijalariga qarab hisoblanadi.

Baholangan ishlab chiqarish ko'rsatkichlari

- resume va ariza xatini o'z ichiga oluvchi professional portfolioning ahamiyatini anglang
- Ishda joylashish uchun suhbat jarayonida yahshi malakangizni namoyon qilishingiz zarur
- Natijaga sabab bo'ladigan biznes xulosa va ilova xatlarini tayyorlash

Siz mana shularga qarab baholanasiz

- Mohirona portfolio tashkiloti
- Suhbat vaqtidagi chiqishingiz
- Suhbatdagi ishtirokingiz sifati

Tanqidiy fikrlash

1. Nima uchun ariza xati muhim?
2. Nima uchun suhbatga borishdan oldin kompaniya haqida ma'lumotga ega bo'lishingiz kerak?
3. Suhbat o'tkazuvchining savollariga ikkita yahshi misol keltiring.
4. Xulosaning asosiy qismlari ro'yxatini tuzini.